Taxonomical and Ethnobotanical Aspects of *Allium* Species from Middle Asia with Particular Reference to Subgenus Allium. In Shigyo Masayoshi & al. (editors): The Allium Genomes / The *Allium* Genomes. Springer International Publishing, Cham. P.11–21.

Licorice in Middle Asia. In: Ozturk M. & Kh. Hakeem (editors) Plant and Human Health / Volume 1, Springer International Publishing. P. 757–766.

A new species of genus *Codonopsis* Wall. (Campanulaceae) from Middle Asia // Iranian Journal of Botany 24 (2). P. 119–123 [Together with U. H. Kodyrov & A. Myrzagaliyeva].

2019

Acquisition and regeneration of *Spinacia turkestanica* Iljin and *S. tetrandra* Steven ex M. Bieb. to improve a spinach gene bank collection. Genetic Resources and Crop Evolution, P.14–25. [Together with Kik C. Rob Van, Treuren L., Groot H., Gabrielyan I.].

Synopsis of the genus *Plocama* (Rubiaceae) in the flora of Uzbekistan // Iranian journal of botany, Volume 25, Issue 1, P. 22–29 [Together with c Tojibaev K.Sh., Beshko N., Usmonov M.].

2020

Diversity and distribution of the genus *Scrophularia* L.(Scrophulariaceae) in Uzbekistan // Journal of Asia-Pacific Biodiversity, 13(1), 70–91. [Together with K.S. Tojibaev, Beshko, N. Y., Tajetdinova, D. M., Turginov, O. T., Sennikov, A. N., Kae Sun Chang, Seung-Hwan Oh, Jang, C. G.].

2021

Институту ботаники Академии наук Республики Узбекистан – 80 лет // Turczaninowia, T. 24, № 2. С. 210-224. [Совместно с К.Ш. Тожибаев, Т.Т. Рахимова, Н.Ю. Бешко, Н.К. Рахимова].

Phylogenomics of *Allium* section *Cepa* (Amaryllidaceae) with a focus on Central Asian species // Plant Diversity, 43(2), 102–110. [Together with Yusupov, Z., Deng, T., Volis, S., Khassanov, F., Makmudjanov, D., Tojibaev, K., Sun, H.].

The vegetation of Pamir-Alay Mountainous System in the Middle Asia. Springer, June, 43–56 [Together with O. Turginov, U. Kkhudzhanazarov, M. Tirkasheva].

2022

Endemic plant species richness of Surkhondaryo province, Uzbekistan. *Plant Diversity of Central Asia*, 1, 71-84. [Together with K. Tojibaev, O. Turginov, F. Akbarov, S. Pulatov, O. Turdiboev].

Ковалевская Светлана Сигизмундовна (1929-1987). Turczaninowia, 25(1), 216-225. [Совместно с О.В. Чернева, О.А. Турдибоев].

The nomenclatural history of *Iris orchoides* (Iridaceae) // Memoranda Soc. Fauna Flora Fennica. 98, 1-8. [Together with A.N. Sennikov, G.A. Lazkov].

Iris bucharica (Iridaceae): A century of confusion is resolved with the description of *I. chrysopetala*, a new species from southern Central Asia // Memoranda Soc. Fauna Flora Fennica. 98, 9-20. [Together with A.N. Sennikov, S.O. Pulatov].

An Overview of Common Medicinal Plants of Middle Asia. In Biodiversity, Conservation and Sustainability in Asia (pp. 785-796). Springer, Cham. [Together with O.K. Khojimatov].

Revision of the Genus *Allium* L. (Amaryllidaceae) in the Flora of India. In Biodiversity, Conservation and Sustainability in Asia (pp. 377-403). Springer, Cham. [Together with Z. Yussupov].

Seed macro- and micro- morphology in *Allium* (Amaryllidaceae) and its phylogenetic significance // Annals of Botany. mcac067. [Together with Z. Yussupov, I. Ergashov, S. Volis, D. Makhmudjanov, D. Dekhkonov, K. Tojibaev, T. Deng, H. Sun].

Prominent botanists of Central Asia: Vvedensky Aleksei Ivanovich (1898–1972) // Plant Diversity of Central Asia. 2. 1-25. Together with O.V. Cherneva, O.A. Turdiboev, Sh.A. Turdiboev, K.Sh. Tojibaev].

Taxonomic and nomenclatural inventory of the Umbelliferae in Central Asia, described on the basis of collections of the National Herbarium of Uzbekistan // Plant Diversity of Central Asia. 1. 21–51. [Together with M. Pimenov, K. Tojibaev, A. Sennikov, N. Beshko]

A Taxonomical Revision of Genus *Allium* L. (Amaryllidaceae) in the Flora of Middle Asia. In Biodiversity, Conservation and Sustainability in Asia (pp. 403-433). Springer, Cham. [Together with Z. Yussupov].

Ўзбекистон Миллий гербарийси (TASH) тарихи, хозирги ҳолати ва ривожланиш истиқболлари // Ёш олимлар ахборотномаси. №2 (4). – Б. 149-153. [Ҳаммуаллифликда О.А. Турдибоев].

2023

Таксономическая ревизия и типификация видов *Allium* секций *Multicaulea* и *Unicaulea* // Проблемы ботаники Южной Сибири и Монголии. 22(1), 391-399. [Совместно с С.А. Кубентаев, О.А. Турдибоев].

Allium sunhangii—a new species from section *Brevidentia* F.O. Khass. & Iengal.(Amaryllidaceae) from Southern Pamir-Alay. PhytoKeys 219: 35–48. [Together with T. Asatulloev, I. Ergashov, S. Pulatov, K.Sh. Tojibaev, Z. Yussupov].

The genus *Iris* L. s.l. (Iridaceae) in the Mountains of Central Asia biodiversity hotspot // Plant Diversity of Central Asia, 2(1), 1-104. [Together with A.N. Sennikov, E. Ortikov, M. Kurbonaliyeva, K.Sh. Tojibaev].

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Хасанов Ф.О. Род *Allium* L. во флоре Средней Азии. Автореф. дис. докт. биол. наук. – Ташкент, 2008. – 35 с.
2. <https://botany.uz/ru/>
3. IPNI (2023). International Plant Names Index. Published on the Internet <http://www.ipni.org>, The Royal Botanic Gardens, Kew, Harvard University Herbaria & Libraries and Australian National Herbarium. [Retrieved 25 July 2023].

УО‘К 633.13

XORAZM TUPROQ – IQLIM SHAROITIDA JO‘XORI NAVLARINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

*D.R.Annamuratova, b.f.n., dots., Urganch davlat universiteti,Urganch
Z.Z.Raximberanova, magistrant, Urganch davlat universiteti,Urganch*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm tuproq-iqlim sharoitida jo‘xori turli navlarining rivojlanish va o‘sish jarayonlari davrlari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: jo‘xori, o‘sish, rivojlanish, maysalash, ro‘vaklash, gullash, pishish, vegetatsiya davri.

Аннотация. В данной статье представлена информация о периодах развития и процессов роста различных сортов сорго в почвенно-климатических условиях Хорезма.

Ключевые слова: сорго, рост, развитие, прорастание, цветение, созревание, вегетационный период.

Abstract. This article gives information on the periods of development and growth processes of different varieties of sorghum in Khorezm soil and climate conditions.

Keywords: Sorghum, growth, development, weeding, fruiting, flowering, ripening, vegetative period.

Bugungi kunda o‘silik resurslaridan foydalanish sezilarli miqdorda ortib bormoqda. Aholi sonining ortishi oziq-ovqat, jumladan, go‘sht, sut mahsulotlari va boshqa sohalarni turli mahsulotlar bilan ta’minlash uchun o‘silik xom-ashyosi yetishtiriladi. Shu jihatdan, sho‘rlangan va qurg‘oqchil mintaqalarda mahsuldarligi va ozuqaviyligi yuqori bo‘lgan ekin turlarining fiziologik, biokimiyoviy hamda galoakkumulyativ xususiyatlarini baholash va qishloq xo‘jaligi amaliyotiga joriy qilish bir nechta agroekologik muammolarni samarali yechishda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi [2].

Shu boisdan Xorazm vohasining o‘ziga xos tuproq-iqlim sharoitlarida turli jo‘xori navlarining o‘sish va rivojlanish jarayonlari o‘rganildi.

O‘siliklar o‘sishi va rivojlanish jarayonida ularning biologik xususiyatlari bog‘liq bo‘lgan holatda turli fazalarini bosib o‘tadi. Jo‘xori navlarida rivojlanish va o‘sish jarayonlari quyidagi maysalash, ro‘vaklash, gullash va pishish fazalaridan iborat bo‘ladi. Maysalash fazasi o‘silik urug‘ining o‘sib chiqishi bilan bog‘liq. Urug‘ning unib chiqishi ko‘plab omillarga, uning sifatiga, tuproq unumdarligiga, uning tarkibidagi suv miqdoriga ayniqsa, sho‘rlanish darajasiga bog‘liqligi aniqlangan [1,3].

Ma‘lumki, turli qishloq xo‘jaligi o‘siliklarini ekish jarayonida urug‘likning sifati, sharoit va muddatlarini to‘g‘ri tanlash urug‘larning qiyg‘os unib chiqishini ta’minlovchi asosiy omillar hisoblanadi. Urug‘larning unib chiqishi uchun yetarli miqdorda issiqlik va namlik bo‘lishi zarur.

Shu bois jo‘xori navlari urug‘larining unuvchanligi o‘rganildi. Olingan natijalar asosida shuni aytish mumkinki, jo‘xori navlarining unib chiqishi Qorabosh navida 7 kunni tashkil etgan bo‘lsa, Daulet navida 8 kunni tashkil etdi. Bu ma‘lumotlardan shuni ko‘rish mumkinki, maysalash fazasida jo‘xori navlari o‘rtasida sezilarli farq kuzatilmadi (1-jadval).

Ro‘vaklash fazasi jo‘xori navlari o‘rtasida farq borligini ko‘rsatdi. Jo‘xorining Qorabosh navida ro‘vaklash fazasi vegetatsiya davrining 57-kunida qayd etilgan bo‘lsa, Daulet navida 82-kunida qayd etildi.

1-Jadval

Jo‘xori nav va liniyalarining rivojlanish fazalari

№	Navlar	Fazalar, kun hisobida			
		Maysalash	Ro‘vaklash	Gullash	Pishish
		Jo‘xori			
1	Qorabosh	6	57	62	112
2	Daulet	7	81	89	132

Bu ko'rsatkichlar jo'xorining Qorabosh navi tezpishar navlardan ekanligini ko'rsatdi. Mazkur navda ro'vaklash fazasi Daulet naviga nisbatan 24 kun erta boshlandi.

Jo'xori navlarda gullash fazasi Qorabosh navi vegetatsiyaning 62-kunida, Daulet navida 89-kunida boshlandi.

Pishish davri navlarning ertapisharligini belgilab beruvchi ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar Qorabosh navida 112 kunni tashkil etgan bo'lsa, Daulet navida 132 kunni tashkil etdi (1-jadval).

Jadvaldagagi ma'lumotlarga asoslanib jo'xorining Qorabosh navi ertapisharligi to'g'risida xulosa qilish mumkin.

Fotosintez murakkab fiziologik jarayon bo'lib, uning mahsuli organik moddalarning miqdori bilan baholanadi. Fotosintez jarayoniga ta'sir etuvchi omillardan biri bargning yuza sathi va u bilan bog'liq bo'lgan belgilar (barg uzunligi, barg eni) hisoblanadi [3].

Jo'xori navlarda barg yuza sathining vegetatsiya davrida o'zgarishiga doir ma'lumotlar quyida keltirilgan (2-jadval). Ma'lumotlardan ma'lumki, unib chiqish fazasi jo'xorining Qorabosh navida barg eni 0,50 sm, bitta barg hajmi $2,85 \text{ sm}^2$ va quruq modda miqdori 0,02 g, bitta o'simlikdagi barg hajmi $5,39 \text{ sm}^2$ ni tashkil etdi. Jadvaldagagi ma'lumotlardan shuni ko'rish mumkinki, mazkur davrda navlar o'rtasida farq kuzatilmadi. Faqat Qorabosh navida bitta barg hajmi boshqa navlarga nisbatan ustunlik qildi. Bu mazkur navda o'sish jarayoni jadal ketganligini ko'rsatmoqda.

Vegetatsiya davrining tuplanish fazasida bitta barg hajmi navlar kesimida $8,53-8,81 \text{ sm}^2$ ni tashkil etib quruq modda miqdori $0,13-0,23 \text{ g}$ ni tashkil etdi. Barg sathining ortishi gullash fazasida jadal ketdi. Ushbu fazada Qorabosh navida bitta o'simlikdagi barg sathi $2722,0 \text{ sm}^2$ ni tashkil etgan bo'lsa, Daulet navida $2479,1 \text{ sm}^2$, ga teng bo'ldi. Ushbu fazada barg hajmining ortishi barg yuzasining kengayganligi, bargning uzunligi va miqdorining ortishiga ta'sir ko'rsatdi. Unib chiqish fazasida barg eni 0,5 sm teng bo'lgan bo'lsa, gullash fazasida Qorabosh navida 4,80 sm, Daulet navida 5,28 sm teng bo'ldi. Ushbu raqamlar gullash fazasida barg eni 10 barobarga ortganligini ko'rsatmoqda. Quruq modda miqdori unib chiqishda bitta o'simlikda 0,02 g ga teng bo'lgan bo'lsa, gullash fazasida $34,74 \text{ g}$ ni tashkil etdi. Pishish davrida barg yuza sathi gullash fazasi davriga nisbatan kam bo'ldi.

2- jadval.

Jo'xori navlarda barg sathining o'sish dinamikasi

Navlar	Barg eni, sm	Bitta barg hajmi, sm^2	Quruq madda miqdori, g	Bitta o'simlik barg hajmi, sm^2
Unib chiqish davrining 1-2 barg shakllanganida				
Qorabosh	0,50	2,85	0,02	5,39
Daulet	0,49	1,16	0,05	2,31
Tuplanish				
Qorabosh	0,52	8,81	0,23	25,80
Daulet	0,66	8,53	0,13	34,21
Naychalash				
Qorabosh	1,93	41,64	3,91	242,91
Daulet	1,62	24,26	1,16	134,67
Gullash				
Qorabosh	4,80	335,35	33,74	2722,1
Daulet	5,28	317,90	32,78	2479,1
Pishish fazasi				
Qorabosh	4,85	335,35	107,17	1680,23
Daulet	5,32	212,98	143,7	1782,80

Jadvaldagagi ma'lumotlardan shuni ko'rish mumkinki, mazkur davrda navlar o'rtasida farq kuzatilmadi. Faqat Qorabosh navida bitta barg hajmi boshqa navlarga nisbatan ustunlik qildi. Bu mazkur navda o'sish jarayoni jadal ketganligini ko'rsatmoqda.

Vegetatsiya davrining tuplanish fazasida bitta barg hajmi navlar kesimida $8,53-8,81 \text{ sm}^2$ ni tashkil etib quruq modda miqdori $0,13-0,23 \text{ g}$ ni tashkil etdi. Barg sathining ortishi gullash fazasida jadal ketdi. Ushbu fazada Qorabosh navida bitta o'simlikdagi barg sathi $2722,0 \text{ sm}^2$ ni tashkil etgan bo'lsa, Daulet navida $2479,1 \text{ sm}^2$, ga teng bo'ldi. Ushbu fazada barg hajmining ortishi barg

yuzasining kengayganligi, bargning uzunligi va miqdorining ortishiga ta'sir ko'rsatdi. Unib chiqish fazasida barg eni 0,5 sm teng bo'lga bo'lsa, gullah fazasida Qorabosh navida 4,80 sm, Daulet navida 5,28 sm teng bo'ldi. Ushbu raqamlar gullah fazasida barg eni 10 barobarga ortganligini ko'rsatmoqda. Quruq modda miqdori unib chiqishda bitta o'simlikda 0,02 g ga teng bo'lga bo'lsa, gullah fazasida 34,74 g ni tashkil etdi. Pishish davrida barg yuza sathi gullah fazasi davriga nisbatan kam bo'ldi.

Ushbu ko'rsatkich Qorabosh navining gullah fazasida 2722,1 sm^2 teng bo'lga bo'lsa pishish fazasida 1860,2 sm^2 ni tashkil etdi. Pishish davriga kelib barg yuza hajmining qisqarishi o'simlikning pastki qismida joylashgan barglarning qurishi bilan bog'liq.

Quruq modda miqdori gullah fazasida Qorabosh navida bitta o'simlikda 33,74 g ni tashkil etgan bo'lsa, pishish davrida 107,17 g ni tashkil etdi. Pishish davrigacha quruq modda miqdori mazkur navda 73 g ortganligi aniqlandi.

Chunki pishish davrida quruq moddaning oshganligi o'simlik to'liq hosilga kirganligi, hosilni pishib yetilganligi bilan izohlash mumkin.

Barg yuzasining sathi bo'yicha maksimal ko'rsatkich gullah fazasida sodir bo'lib, jo'xori navlarida 2479-2722 sm^2 teng bo'ldi.

Umuman olganda, vegetatsiya davrining davomiyligi bo'yicha jo'xorining Qorabosh navi erta pishar, Daulet navi o'rtapishar navlardan ekanligi aniqlandi. Jo'xorining Qorabosh navidan takroriy ekin sifatida foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Матвиенко Е. В. Болезни сорго в лесостепи Среднего Поволжья и мероприятия, ограничивающие их развитие: Дисс...на соиск. уч. степ. канд. биол. наук. Кинель, 2015. С.165.
- Моренова Е.А. Развитие организационно-экономического механизма повышения эффективности производства зернового сорго: автореф. дисс...на соиск. уч. степ. канд. с.-х. наук. Саратов, 2010. С. 23.
- Yunusov O.X. Jo'xori (*sorghum vulgare* (pers.)) va afrika qo'nog'i (*pennisetum glaucum* (L.) r.br) turli nav namunalaringin sho'rangan tuproq sharoitidagi fiziologik va biokimiyoviy xususiyatlari. b.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Buxoro. 2021.

УО'К 633.258

XORAZM TUPROQ – IQLIM SHAROITIDA PENNISETUM GLAUKUM (L.) R.Br. TURLI NAV NAMUNALARINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

D.R.Annamuratova, b.f.n., dots., Urganch davlat universiteti, Urganch

Sh.R.Qodirova, magistrant, Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm tuproq-iqlim sharoitida *Pennisetum Glaukum* (L.) R.Br. turli nav namunalaringin rivojlanish va o'sish jarayonlari davrlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: maysa, ro'vaklash, gullah, pishish, genotip, ertapishar, o'rtapishar, introduksiya.

Аннотация. В данной статье представлена информация о периодах развития и процессах роста образцы разных сортов *Pennisetum Glaukum* (L.) R.Br. в почвенно-климатических условиях Хорезма.

Ключевые слова: проросток, цветение, созревание, генотип, раннеспелая, среднеспелая.

Abstract. This article gives information on the periods of development and growth processes of different cultivars *Pennisetum Glaukum* (L.) R.Br. in Khorezm soil and climate conditions.

Key words: lawn, budding, flowering, ripening, genotype, early ripening, mid-ripening.

O'simliklarning hosildorligi uning biologik xususiyatlariga, vegetatsiya davomida yetarli me'yorda oziq elementlari va suv bilan ta'minlanishiga, tuproq unumdoorligiga va agrotexnik tadbirlarga bog'liqdir. O'simliklarning turlari va navlari o'zaro irlsiy xususiyatlari, vegetatsiyasining davomiyligi, morfofiziologik xususiyatlari va chidamliligi bo'yicha farqlanganligi bois, ularning biologik potentsialidan unumli foydalanish maqsadida optimal agrotexnika qo'llaniladi [1].

Afrika qo'nog'i o'simligining o'sishi va rivojlanishini ontogenezi davomida o'rganish ularni muayyan tuproq-iqlim sharoitlarida yetishtirishda muhim ahamiyatga ega. O'sish va rivojlanish

murakkab fiziologik, biokimyoviy jarayonlarning mahsuli hisoblanadi. Ushbu jarayonlar bir-biri bilan uzlucksiz bog'langan. O'sishsiz rivojlanish bo'limganidek, rivojlanishsiz o'sish ham bo'lmaydi [2].

Organizmning o'sishi o'z navbatida uning rivojlanishiga olib keladi. Masalan, o'simlik bo'yining ortib borishi o'z navbatida uning rivojlanishga olib keladi. Natijada o'simlikda poya, barg va genetik organlar shakllanadi. Bu rivojlanishning mahsulidir. O'simliklar o'sishi va rivojlanish jarayonida ularning biologik xususiyatlariga bog'liq bo'lgan holatda turli fazalarni bosib o'tadi. Buni quyida jadvalagi (1-jadval) ma'lumotlardan ham ko'rish mumkin.

Afrika qo'nog'i nav va liniyalarida rivojlanish va o'sish jarayonlari quyidagi davrlarga ajratildi: maysa, ro'vaklash, gullah va pishish. Maysalash fazasi o'simlik urug'inining o'sib chiqishi bilan bog'liq. Urug'ning unib chiqishi ko'plab omillarga, uning sifatiga, tuproq unumdorliga, uning tarkibidagi suv miqdorga ayniqsa, sho'rланish darajasiga bog'liq [3,4].

1-jadval

Afrika qo'nog'i genotiplarining rivojlanish fazalari

№	Navlar va liniyalar	Fazalar, kun hisobida			
		Maysalash	Ro'vaklash	Gullah	Pishish
1	Xashaki-1	5	52	57	98
2	L-3	6	57	65	107

Afrika qo'nog'inining o'rganilgan Xashaki-1 navida maysalash fazasi nisbatan erta boshlandi. Maysalash fazasi Xashaki-1 navida 5-kundan keyin boshlandi. Bu Xashaki-1 nav urug'inining unuvchanligi nisbatan jadal ketganligini anglatadi. Afrika qo'nog'inining L-3 liniyasida maysalash fazasi vegetatsiyasining oltinchi kunida boshlanganligi qayd etildi. Ro'vaklash fazasi Xashaki-1 navida vegetatsiyasining 52-kunida qayd etilgan bo'lsa, L-3 liniyasida 57-kunda qayd etildi. Gullah fazasi Xashaki-1 navida vegetatsiya davrining 57-kunida, L-3 liniyasida 65-kunida qayd etildi. Pishish davri Afrika qo'nog'inining Xashaki-1 navida 98-kunni tashkil etgan bo'lsa L-3 liniyasida 107-kunni tashkil etdi. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib Afrika qo'nog'inining Xashaki-1 navi ertapishar L-3 liniyasi o'rtapishar deb topildi. Bu ma'lumotlar O.X.Yunusovning ilmiy tadqiqotlarida xam tasdiqlagan [4].

Afrika qo'nog'i yurtimizga introduksiya qilingan yangi o'simlik turlaridan hisoblanadi. Afrika qo'nog'inining o'sish va rivojlanish jarayonlarini o'rganish natijalari quyida (2-jadval) keltirilgan. Ushbu ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, vegetatsiya davrining dastlabki etaplarida Afrika qo'nog'i sekin rivojlanadi. Bu o'simliklarning tashqi muhitga moslashish mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Unib chiqishdan keyingi (1-2 barg hosil bo'lganida) Afrika qo'nog'inining bo'yisi Xashaki-1 navida 7,85 sm ni tashkil etgan bo'lsa L-3 liniyasida 6,95 sm ni tashkil etdi. Ushbu ma'lumotlarni o'zaro taqqoslar ekanmiz vegetatsiyaning dastlabki davrida genotiplar o'rtasida farq haqiqiy bo'lmedi. Buni jadvalagi statistik ma'lumotlar ham ko'rsatmoqda. Aynan shunday natija barg ko'rsatkichlar bo'yicha ham qayd etildi. Barg uzunligi Xashaki-1 navida 6,48 sm ni tashkil etgan bo'lsa L-3 liniyasida 5,38 sm teng bo'ldi. Ushbu ma'lumotlardan vegetatsiyaning dastlabki davrida genotiplar o'rtasida farq yo'qligini ko'rish mumkin.

2-jadval

Afrika qo'nog'inining o'sish dinamikasi

Nav va liniyasi	Bitta o'simlikda (o'rtacha)			
	O'simlik og'irligi, g	O'simlik bo'yisi, sm	Barg soni, dona	Barg uzunligi, sm
Unib chiqish fazasidan keyin (1-2 barg hosil bo'lishida)				
Xashaki-1	0,56	7,85	2,00	6,48
Minimum	0,47	4,40	1,00	3,30
Maximum	0,63	10,10	3,00	7,80
L-3	0,53	6,95	2,5	5,38
Minimum	0,46	4,42	1,00	3,4
Maximum	0,60	11,5	4,00	7,70
Tuplanish fazasi				
Xashaki-1	0,67	19,53	3,7	10,12
Minimum	0,22	13,50	2,00	5,00

Maximum	1,68	30,20	5,00	20,00
L-3	0,91	19,35	3,0	13,10
Minimum	0,42	12,40	2,00	4,5
Maximum	1,40	28,3	6,00	22,2
Naychalash fazasi				
Xashaki-1	4,79	48,15	7,63	20,33
Minimum	1,50	35,90	6,00	6,40
Maximum	10,80	64,50	11,00	30,10
L-3	5,60	46,10	7,50	17,30
Minimum	1,40	34,90	5,00	5,40
Maximum	9,80	62,50	10,00	29,20
Gullash fazasi				
Xashaki -1	168,3	144,60	8,04	57,11
Minimum	91,5	115,3	6,0	27,0
Maximum	259,0	137,0	12,0	75,1
L-3	198,1	142,10	8,0	49,1
Minimum	95,5	95,6	7,0	30,0
Maximum	245,2	207,0	11,0	68,1

Afrika qo'nog'i genotiplarida 3-5 barg hosil bo'lganida ular o'rtasida farq qayd etilmadi. Ushbu davrda Xashaki-1 navining bo'yi 19,53 sm ni tashkil etgan bo'lsa L-3 liniyasida 19,35 sm teng bo'ldi. Ushbu ma'lumotlarni taqqoslaganda ular o'rtasida farq yo'qligini ko'rish mumkin. Ushbu davrda barg uzunligi Xashaki-1 da 10,12 sm ni tashkil etgan bo'lsa, L-3 da 13,10 sm teng bo'ldi. L-3 da barg o'sishi Xashaki-1 nisbatan jadal o'sdi. Naychalash va gullash fazasiga bo'lgan davrda genotiplar o'rtasida keskin farq kuzatilmadi. Naychalash fazasining boshlanishida Xashaki-1 navining bo'yi 48,15 sm ga teng bo'lgan bo'lsa L-3 liniyasida 46,1 sm teng bo'ldi. Mazkur fazada genotiplar o'rtasidagi farq qayd etilmadi.

Gullash fazasining boshlanishida Afrika qo'nog'i navlari jadal o'sdi. Buni jadvaldag'i ma'lumotlardan ham ko'rish mumkin. Xashaki-1 navining bo'yi 144,6 sm teng bo'lgan bo'lsa, L-3 liniyasida ushbu ko'rsatkich 142,1 sm teng bo'ldi. Ushbu fazada o'simlikning vegetativ massasi ortdi. Xashaki-1 navida bitta o'simlikning massasi 168,3 g ni tashkil etgan bo'lsa, L-3 liniyasida 198,1 g ga teng bo'ldi. Gullash fazasiga kelib o'simlik shakllangan barg soni Xashaki-1 navida va L-3 liniyasida 8 tani tashkil etdi. Barg uzunligi Xashaki-1 navida 57,11 sm teng bo'lgan bo'lsa L-3 da 49,1 sm tashkil etdi (2-jadval)

Umuman olganda, Afrika qo'nog'i genotiplari vegetatsiya davrining boshida sekin rivojlandi. Naychalash fazasining boshida va gullash fazasida o'simlik jadal rivojlanib o'zining maksimal ko'rsatkichini qayd etdi. Ushbu davrga kelib o'simliklarda o'rtacha 8 ta barg shakllandı, o'simlik massasi 168-198 g ni tashkil etdi.

Vegetatsiya davrining davomiyligi bo'yicha Afrika qo'nog'ining Xashaki-1 navi erta pishar, L-3 liniyasi o'rtapishar navlardan ekanligi qayd etildi. Afrika qo'nog'i Xashaki-1 navidan Xorazm tuproq-iqlim sharoitida takroriy ekin sifatida foydalanish mumkinligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Давлетмуратова В.Б. Онтогенетические особенности гало-аккумулятивной адаптации растений в условиях Каракалпакстана: Автореф. дис. канд. биол. наук. Ташкент, 2002-С. 16–22.
- Сафаров А.К. Рост, развитие и продуктивность Африканского проса в различных почвенно-климатических условиях // Сельскохозяйство, лесное хозяйство, рыбное хозяйство. Москва. 2016.-С. 25-29.
- Методика проведения испытаний на отличимочть, однородность и стабильность. Просо Африканское (*Pennisetum glaucum* (L)R.Br). селекционных достижений. М.: МСХРФ. 2017. №5, -С-368-373.
- Yunusov O.X. Jo'xori (*sorghum vulgare* (pers.)) va afrika qo'nog'i (*pennisetum glaukum* (L) r.br) turli nav namunalarining sho'rlangan tuproq sharoitidagi fiziologik va biokimiyoviy xususiyatlari. b.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Buxoro. 2021.

MIKROORGANIZMLARNING MORFOLOGIYASI VA BIOEKOLOGIK HUSUSIYATLARI

*X.G.Asanova, o'qituvchi, Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz
A.E.Hayitov, o'qituvchi, Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz*

Annotatsiya. Maqolada mikroorganizmlarning insonlar hayotida tutgan o'rni va ahamiyati, kichik ko'zga ko'rinishdigan mitti mavjudotlarni olimlar tomonidan o'rganilishi jarayonidagi muhim dalillar va shu bilan birgalikda aktinomitsitlar ularga yaqin mikroorganizmlar xususida ma'lumotlar keltirilgan. Keltirilgan ma'lumotlar natijalar asosida mikroorganizmlar biologiyasi va ekologik omillarga munosabatiga ko'ra bir qancha ma'lumotlar qayd etilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat sanoati, pishloq tayyorlash, sut kislotali bijg'ituvchi bakteriyalar, novvoychilik, turli ichimliklar (spirt, vino, pivo, gonoreya, difteriya, streptomitsin, aureomitsin, neomitsin, tetratsiklin).

Аннотация. В статье представлены значение и значение микроорганизмов в жизни человека, важные факты в процессе изучения учёными мелких невидимых карликовых существ, а также сведения об актиномицетах, близкородственных микроорганизмах. По результатам представленных данных зафиксирована некоторая информация по биологии микроорганизмов и их взаимосвязи с факторами окружающей среды.

Ключевые слова: пищевая промышленность, сыроделие, молочнокислые бактерии брожения, хлебопечение, различные напитки (алкоголь, вино, пиво, гонорея, дифтерия, стрептомицин, ауреомицин, неомицин, тетратсиклин).

Abstract. The article presents the importance and significance of microorganisms in human life, important facts in the process of studying small invisible dwarf creatures by scientists, as well as information about actinomycetes, closely related microorganisms. Based on the results of the presented data, some information was recorded according to the biology of microorganisms and their relationship to environmental factors.

Keywords: food industry, cheese making, lactic acid fermentation bacteria, baking, various beverages (alcohol, wine, beer, gonorrhoea, diphtheria, streptomycin, aureomycin, neomycin, tetracycline)

Mikrobiologiya biologiyaning nisbatan yosh tarmog'i bo'lib, u kun sayin rivojlanmoqda. Bioximiya, molekulyar biologiya, biotexnologiya, agroximiya, fitopatologiya, veterinariya, tibbiyot, epidemiologiya, qishloq xo'jaligi, sanoat, dengiz, geologiya, genetika, kosmik biologiya va boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Mazkur fanlarning yutuqlari o'z navbatida ikkinchi fanga, jumladan, mikrobiologiyaning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mamlakatimizda mikrobiologiya fanining rivojlanishi uchun qulay sharoit mavjudligi tufayli uning nazariy va amaliy masalalar bilan bog'liq bo'lgan sohalari:

oziq-ovqat sanoati, konserva sanoati, sut mahsulotlarini qayta ishlash sanoati, pivo pishirish sanoati, turli aminokislotalar, oqsillar, antibiotiklar va vitaminlar ishlab chiqarish sanoatlari yanada rivoj topmoqda. Shu yaqin o'tgan davr mobaynida Respublikamizda virusli kasalliklarning avj olishi kuzatildi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o'lkamizga xavf solgan koronavirusning salbiy oqibatlarini bartaraf qilish maqsadida bir qancha ijobjiy ishlarni amalga oshiradilar. Bu xususida bir qancha qaror va farmonlar ishlab chiqildi.

jamoat salomatligi va kasalliklar profilaktikasi hamda aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligiga oid fundamental va ilmiy-amaliy tadqiqotlar amalga oshirish, bu boradagi ilmiy izlanishlarni muvofiqlashtirish, soha mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

oziq-ovqat xavfsizligi sohasida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish va ular bilan hamkorlik qilish, oziq-ovqat xomashyosi va iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash va sotish faoliyati ustidan belgilangan tartibda nazorat qilish;

sohaga oid davlat va boshqa xizmatlarni ko'rsatish, mahsulot, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga qo'yiladigan majburiy talablarga taalluqliligi bo'yicha maxsus ekspertizalar tayinlash va o'tkazish;

sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining tibbiy madaniyatini oshirish va tibbiy profilaktika bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularning amalga oshirilishini ta'minlash.^[1]

Kasalliklarning avj olib rivojlanishida ko'zga ko'rinas mitti jonzotlarning faoliyati eng muhim sanaladi. Mikroorganizmlar nihoyatda mayda bo'lishidan qat'iy nazar, tabiatda va jamiyatda muhim ahamiyatga ega. Masalan, oziq-ovqat sanoatida qatiq, qimiz, pishloq tayyorlash, silos bostirish — sut kislotali bijg'ituvchi bakteriyalarning faoliyatiga bog'liq. Novvoychilik, turli ichimliklar (spirt, vino, pivo va h.k.) tayyorlash ham achitqilar ishtiroki bilan boradigan jarayonlarga kiradi.

Ko'pgina foydali qazilmalarning (torf, toshko'mir, neft, temir, oltingugurt rudalarining) hosil bo'lishi ham bakteriyalar faoliyati bilan bog'liqidir. Chirituvchi bakteriyalar o'simlik qoldiqlari, hayvon jasadlari va boshqa chiqindilarni parchalab, yer yuzini tozalaydi va tabiatda moddalarning aylanishini ta'minlaydi. Iflos suvlarni tozalash, ko'mir konlarida metan gazini parchalash va havoni tozalashda ham mikroorganizmlarning roli katta. Ko'pgina mikroorganizmlar turli fiziologik faol muddalar: fermentlar (biologik katalizatorlar), vitaminlar, aminokislotalar, biologik stimulyatorlar va antibiotiklarni sintezlash xususiyatiga ega. Masalan, saxaromitset achitqilar 45 — 50% gacha oqsil sintezlay oladi. Aktinomitsetlar yoki nurli zamburug'lar streptomitsin, aureomitsin, neomitsin, tetratsiklin kabi antibiotiklarni sintezlaydi.

Tuproqda boradigan jarayonlarning ko'pchiligi undagi mikroorganizmlarning faoliyatiga bog'liq. Masalan, tuproqlarning hosil bo'lishi, yerga ishlov berish, yerni o'g'itlash, sug'orish, tuproqda ro'y beradigan fiziologik ishqoriylik va kislotalikni yo'qotish, zax yerlarning suvini qochirish, organik o'g'itlar tayyorlash, ularni saqlash va ulardan foydalanish mikroorganizmlarning faoliyati bilan bog'liqidir.

Tuproqda uchraydigan azot to'plovchi mikroorganizmlarni o'rganish atmosfera azotidan foydalanish masalasini hal etishda muhim ahamiyatga ega. Akademik V. L. Omelyanskiy bir necha yillar muqaddam mikroblarga shunday ta'rif berman: «Ular (mikroblar) hamma joyda bor. Ko'zga ko'rinasdan ular odamning hayot yo'lida hamroh bo'ladilar». Lekin ba'zi bir mikroorganizmlar oziq — ovqat mahsulotlarni (go'sht, baliq, don, kartoshka va rezavor mevalarni) buzilishiga yoki turli — tuman yuqumli kasalliklarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bu to'g'rida V.L. Omelyanskiy shunday degan: «Mana shu mikroskopik, lekin shafqatsiz dushman tufayli birqancha viloyatlar xalqlarini qirib bitiradigan va qisqa muddat ichida yuzlab, minglab odamlarning yostig'ini quritadigan xavfli epidemiyalar paydo bo'lgan». Masalan, vabo, sil, gonoreya, difteriya, kuydirgi, qoqshol va boshqa kasalliklar shular jumlasiga kiradi

Aktinomitsetlar va ularga yaqin mikroorganizmlarga korineform bakteriyalar, mikobakteriyalar, aktinomitsetlar va boshqa organizmlar kiradi. Korineform bakteriyalar qiyshaygan yoki kuchsiz shoxlangan, sharsimon formaga o'ta oladigan mikroorganizmlarni yig'ma guruhidan iboratdir. Korineform bakteriyalar, odatda harakatsiz bo'ladi. Mikobakteriyalar faol harakat namoyon qilmaydilar. Koloniyalari pastasimon, yumshoq, ko'pincha qizil, olovrang, sariq, yashil, qo'ng'ir va qora rangga bo'yalgan bo'ladi. Mikobakteriyalar orasida odamlarda (sil, moxov kasalliklarini yuqtiruvchi) va o'simliklarda (pomidor rakini yuqtiruvchi) kasallik yuqtiruvchi vakillari mavjuddir. Aktinomitsetlar — (lotincha actis — nur, myces -zamburug') nurli zamburug'lar ko'pgina vakillarini o'z ichiga oladi.

Ular pigmentlar hosil qiladi va koloniylar havo rang, ko'k, siyoh rang, pushti, qo'ng'ir, jigarrangga bo'yaladi. Ba'zi aktinomitsetlar vakillari komfora, iodoform, ammiak, meva hidlarini ajratadi hamda geosmin deb ataladigan maxsus muddaning borligi tuproq hidini beradi. Aktinomitsetlar orasida dorivor muddalar — antibiotiklar hosil qiladiganlari ham topilgan. Streptomitselar oziqa manbalariga juda ham talabchan emas, shuning uchun ular tabiatda keng tarqalgan. Ular organik murakkab muddalarni minerallashtirish jarayonida ishtirok etadi. Odamlarda aktinomikoz kasalliklarini tarqatuvchi patogen formalari ham bor. Aktinomitsetlar yoki nursimon (nurli) zamburug'lar tuzilishi jihatidan bakteriyalar va tuban zamburug'larga o'xshaydi. Ular mog'or

zamburug'lar bilan bakteriyalar orasidagi guruhga mansub, ma'lum shakldagi yadrosi bo'lmaydi. Bu guruh grammusbat bakteriyalardir. Aktinomitsetlar gifalarining uzunligi 600 mkm, eni 0,5 – 2 mkm va undan uzun bo'lgan shoxlangan mitseliy hosil qiladi . Oziq muhitidagi mitseliy ikki xil — biri substratda (substrat mitseliysi), ikkinchisi oziqa muhit yuzasida (havo mitselliysi) bo'ladi. Havo mitseliysida sporalar yetiladi. Aktinomitsetlar tuproqda, organik o'g'itlar, chiriyotgan moddalar yuzasida, boshoqdosh o'simliklar tanasida uchraydi. Ulardan streptomitsin, biomitsin, tetratsiklin, neomitsin, nistatin kabi antibiotiklar olinadi. Ba'zi patogen formalari yumshoq to'qima va suyaklarni yemirib, og'ir kasallik — aktinomikozni vujudga keltirishi mumkin.

Aktinomitsetlarda bo'ladigan antagonistik xususiyatlar proaktonomitsetlarda umuman bo'lmaydi yoki bu xususiyat kuchsiz namoyon bo'lishi mumkin. Aktinomitsetlar tuproqda keng tarqalgan. Aktinomikoz bilan kasallangan odam va hayvon tanalaridan ajratib olish mumkin. Ba'zi vakillari mazkur kasalliklarni qo'zg'atuvchilar hisoblanadi. Vakillaridan Proacunomyces ruber, Pr. Bovis va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Mikobakteriyalar. Aktinomitsetlar tartibiga Mikobakteriyalar oilasi ham kirib, ular grammusbat, yoshlik vaqtida egilgan va shoxlangan, harakatsiz tayoqchalardir. Kalta mitseliy hosil qiladi va u tezgina kalta fragmentlarga parchalanib ketadi. Miksobakteriyalar - shilimshiq bakteriyalarning eng yuksak formalari bo'lib, ba'zilari ipsimon, ba'zilari — kokklarga o'xshab ketadi. Bularning hujayra po'sti elastik bo'lganligi uchun harakatlana oladi va tana tuzilishini o'zgartiradi.

Surxondaryo viloyati Sanitariya-epidemologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining viloyat boshqarmasida Termiz davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar yo'nalishi talabalari mikroorganizmlarning morfologiyasi va ekologiyasini o'rganish uchun hamkorlik ishlari amalgalashirildi. Bu yo'nalishda bir qancha bakteriyalarni ekish orqali ularning rivojlanishi kuzatildi.

Sanitariya – epidemiologiya nazorati tarkibidagi mavjud laboratoriya jihozlari, asbob uskunalarini yordamida har bir talaba maxsus tajribalarni o'z qo'llari bilan bajarishdi. Ozuqa muhitlarini tayyorlash sirlarini o'rgandilar.



1-rasm. Surxondaryo viloyati Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining viloyat boshqarmasida Mikrobiologiya va virusologiya fanidan o'tkazilgan laboratoriya mashg'ulotlaridan fotolavhalar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tabiatda mavjud bo'lgan barcha mikroorganizmlarning foydali jihatlari bilan birga zararli tomonlari ham mavjudligini aytishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon,demokratik ,O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlis nutq.Toshkent 2016. 488-6

2.3.Jo'rayeva U.M. Mag'bulova H.A. Mikrobiologiyadan laboratoriya mashg'ulotlariga qo'llanma. T.Universitet 2017

4 Joan L. Slonczewski Microbiology: An Evolving Science. New York, United States: [WW Norton&Co](#). 2012

5.Abdullaeva G. K., Tojiboyev S. J. Analysis of biomorphs of cyanopkaryotes and algae. – 2023.

6.Abdullaeva G. K. A comparative study of the distribution of cyanoprokaryotes and algae in soils //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 10. – C. 67-71.

7.Haqberdiyeva S. T. Improving the Teaching Methods of Biology in General Secondary Schools on the Basis of A Competency-based Approach //Academicia Globe. – 2022. – T. 3. – №. 03. – C. 132-136.6.Brayan M. V

TO'RANG'IL (POPULUS) ZARARKUNANDALARI TUR TARKIBI

Z.O. Bekbergenova, o'qituvchi, Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Nukus

I. I. Abdullayev, b.f.d., prof., Xorazm Ma'mun akademiyasi, Xiva

Annotatsiya. Maqolada Janubiy Orol bo'yli to'rang'il zararkunandalari tur tarkibi bo'yicha ma'lumotlar berilgan. Tadqiqotlarimiz natijasida: 6 turkumga mansub 48 tur: Tengqanotlilar (*Homoptera*) turkumi – 6, YArimgattiqqanotlilar yoki qandalalar (*Heteroptera*) turkumi – 2, Qattiqqanotlilar yoki qo'ng'izlar (*Coleoptera*) turkumi – 26, Pardasimonqanotlilar (*Hymenoptera*) turkumi – 1, Ikkiqanotlilar (*Diptera*) turkumi – 1, Tangaqanotlilar yoki kapalaklar (*Lepidoptera*) turkumi – 12 tur ro'yxatga olindi.

Kalit so'zlar: to'rang'il, zararkunanda, hasharot, qo'ng'izlar, kapalaklar, shiralar, tripslar, chirildoqlar, chigirtkalar, saratonlar, pashshalar, termitlar.

Аннотация. В статье приведены данные по видовому составу насекомых вредителей турангового леса Южного Приаралья. В результате наших исследований зарегистрировано 48 видов, относящихся к 6 отрядам: Равнокрылые (*Homoptera*) — 6, Полужесткокрылые или клопы (*Heteroptera*) — 2, Жесткокрылые или жуки — 26, Перепончатокрылые (*Hymenoptera*) — 1, Двукрылые (*Diptera*) — 1, Чешуекрылые или бабочки (*Lepidoptera*) — 12.

Ключевые слова: туранга, вредители, насекомые, жуки, бабочки, тли, трипсы, сверчки, саранчи, цикады, мухи, термиты.

Abstract. The article provides data on the species composition of insect pests in the populus forest of the Southern Aral Sea region.

Keywords: *populus*, pests, insects, beetles, butterflies, aphids, thrips, crickets, locusts, cicadas, flies, termites. As a result of our research, 48 species were registered, belonging to 6 orders: *Homoptera* — 6, *Heteroptera* — 2, *Coleoptera* or beetles — 26, *Hymenoptera* — 1, *Diptera* — 1, *Lepidoptera* — 12 species.

To'rang'il (Salicaceae) oilasiga (*Populus*) turkumiga mansub daraxt. To'rang'il hayotining zaruriy sharti davriy sug'orish bo'lib, u tuproqning yuqori gorizontlaridan tuzlarni olib tashlashga, er osti suvlarini to'ldirishga va taqsimlashga, o'tloq-dashtdan quruq dashtgacha namlikni va zaif va o'rtacha tuproq sho'rланish sharoitlarini ta'minlaydi. Ammo qulay sharoitlarda ta'sirchan o'lehamlarga va katta miqdordagi yog'ochga ega to'rang'illar mavjud. Ular suv oqimlari qirg'oqlarida yoki yer osti suvlari sayoz, sho'rланish darajasi past bo'lgan pasttekisliklarda o'sadigan siyrak och rangli to'qaylarni hosil qiladi.

Janubiy Orolbo'yli sharoitida *Populus ariana* D., *Populus diversifolia* S., *Populus pruinosa* S. turlari uchraydi [1,2,3,4].

Tadqiqotning maqsadi: Qoraqalpog'iston sharoitida to'rang'il zararkunandalari tur tarkibi va zararkunandalik xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarimiz umum qabul qilingan entomologik usullar asosida olib borildi. Hasharotlarni ushslash jarayonida an'anaviy usul entomologik tutqich to'r va hasharotlar tuzog'idan foydalanildi.

To'rang'il entomofaunasi tur tarkibi, bioekologik xususiyatlari, mavsumiy soni dinamikasini o'rganish ishlari bo'yicha tadqiqotlarimiz 2010-2023 yillari amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotlarimiz natijasida:

Tengqanotlilar (*Homoptera*) turkumi.

Psyllidae oilasi: *Egeirotrioza* sp.- to'rang'ilda shish hosil qiladi. Novdalar qurib qoladi.

Egeirotriza ceardi B. — to'rang'il novdalari shiralarini so'radi. Tuxumlarini barg yuzasiga quyadi. SHish hosil qiladi. Barglar erta tushishi kuzatiladi. Bir dona bargda 50-70 donagacha shishlar hosil qiladi.

Sariq turang'il barg burgasi (*Trioza rufa* Log.) – zararkunanda to'rang'il novdalariga joylashtiradi. SHish hosil qiladi. SHishlardan nimfalar aprel-may oylarida chiqadi.

Kichik turang'il barg burgasi (Comarotoscena unicolor L.) – urg'ochilari yosh to'rang'il barglariga joylashtiradi. Oziqlanishi oqibatida birlari sarg'ayib, burilib qoladi. Yiliga 5-6 avlod beradi.

Aphididae oilasi. Mum ajratuvchi shirasi (Tuberolachnus salignus G.) – to'rang'il novdalarida koloniya hosil qiladi.

Diaspididae oilasi. Turang'il qalqandori (Diaspidiotus slovanicus Green.) – lichinkalari va urg'ochisi to'rang'il bargi, novdasini so'radi. Zararkunanda katta koloniyalar hosil qilib, zarar keltiradi. Ommaviy rivojlanganda yosh daraxtlar nobud bo'ladi. Yiliga 2 ta avlod beradi.

YArimqattiqqanotlilar yoki qandalalar (Hemiptera (Heteroptera) turkumi. Turang'il qandalasi (Monosteira discoidalis Jak.) – to'rang'ilda ommaviy tarqalgan. Lichinka va imagolari bargning ortqi tomonida to'planib, koloniya hosil qilib, barg shirasini so'radi. Axlatlari bilan barg teshiklarini berkitib, barglarda modda almashinish buziladi. Natijada zararkunanda ommaviy rivojlanganda to'kilib qoladi.

Pyrrhocoridae oilasi. Qanotsiz qizil qandala yoki askar qandala (Pyrrhocoris apterus L.) – erta bahorda va yoz oxirida daraxtlarda to'da hosil qiladi. O'simlik urug'lari bilan oziqlanadi.

Qattiqqanotlilar yoki qo'ng'izlar (Coleoptera) turkumi.

Scarabaeidae oilasi. Oq xrush (Polyphylla alba Pall.) — Iyun-iyul oylarida uchadi. Urg'ochilari 17 sm chuqurga tuxum quyadi, tuxumlar soni 85 donagacha etadi. Lichinkalari ildiz bilan oziqlanadi. Uch yilda bir avlodri rivojlanadi. Daraxtlar ildizini zararlaydi.

YOzgi ildiz kemiruvchi (Ampimallon solstitialis L.) – daraxt va butalarda oziqlanadi. Zararkunanda hasharot. Qorong'ida faol hayot kechiradi. Iyun-iyul oylarida uchadi.

YOylov xrushi (Anomalia dubia) – daraxt va butalarning ildizlari bilan oziqlanadi.

Zararli xrush (Polyphylla adspersa Motsch.) – May-iyun oylarida uchadi. Tuxum quyanidan 15 kun o'tib lichinkalari chiqadi. Lichinka va qo'ng'izlari zarar keltiradi. Uch yilda bir avlodri rivojlanadi.

Oltinqo'ng'izlar (Buprestidae) oilasi. Kichik turang'il oltin qo'ng'izi (Melanophila picta Pall.) - to'rang'ilni zararlaydi. May oyidan iyun oyigacha uchishi kuzatiladi. Kuchli shamolda daraxtga bekinib o'tiradi. Urg'ochilari daraxtlar qobiqlariga tuxum quyadi. Tuxumdan chiqqan lichinkalar dastlab qobiqni, so'ngchalik lub tolasini kemiradi.

Katta turang'il oltin qo'ng'izi (Capnodis melearis metalica Ball.) – May oyidan iyun oyigacha uchishi kuzatiladi. Qo'ng'izlari to'rang'il barglari, novdalari bilan oziqlanadi. Lichinkalari ikki yil yashaydi. Uchinchi yili g'umbakka aylanadi. Urg'ochisi daraxtlar qobig'i va ildizga tuxum quyadi. Pushtdorligi 1200-1300 dona. Ommaviy to'planganda yosh to'rang'illarni nobud etadi.

Kamalak oltin qo'ng'izi (Eurythyrea oxiana Sem.) – dastlabki qo'ng'izlar may oyi boshlarida paydo bo'ladi. Ommaviy uchishi may-iyun oylariga to'g'ri keladi. To'rang'il barglari bilan oziqlanadi. Tuxumlarini daraxtlar qobig'iga quyadi. Tuxumdan chiqqan lichinkalari dastlab, qobiq tagida yo'l solib kemiradi. Lichinka holida qishlaydi. Lichinkalari chirigan daraxt bilan oziqlanadi.

To'rang'il ingichka tanali oltin qo'ng'izi (Agrilus ganglaueri Sem.) — to'rang'il barg va novdalari bilan oziqlanadi. Tuxumini novda qobiqlariga quyadi.

O'zbekiston ingichka tanali oltin qo'ng'izi (Agrilis uzbekistanus V.Step.) – to'rang'il barglari bilan oziqlanadi. May-iyun oylarida ommaviy uchadi. Tuxumlarini to'da qilib, daraxtlar qobig'iga quyadi. Tuxumdan chiqqan lichinkalari qobiq ostida lub tolassi bilan oziqlanadi. Lichinkalari yog'ochda g'umbakka aylanadi.

Muylovdorlar (Cerambycidae) oilasi. Namangan mo'ylovdor qo'ng'izi (Xylotrechus namanganensis Jeyd.) – Lichinka va qo'ng'izlari to'rang'il va boshqa daraxtlar tanasida yashaydi. May oyida ommaviy uchishi kuzatiladi. Tuxumini 3-12 donadan qobiq yoriqlariga quyadi. Tuxumdan chiqqan lichinkalari qobiq ostida lub tolassi bilan oziqlanadi. Lichinka fazasida qishlab, erta bahorda g'umbakka aylanadi. Lichinka yo'llari uzun, 3-5 sm gacha chuqur bo'ladi. Lichinkalar zichligi 1dm² maydonda 31 donagacha lichinka ro'yxatga olinadi.

Shahar mo'ylovdor qo'ng'izi (Aeloides sarta) – Aprel-may oylarida uchadi. Daraxtlar qobig'iga jami 270 donagacha tuxum quyadi. Lichinkalar dastlab lub tolassi bilan oziqlanadi. YOzning

ikkinchi yarmida g'umbakka aylanadi. Qo'ng'iz bosqichida qishlaydi. Daraxtlarda uzoq yashashi daraxtlarning nobud bo'lishiga olib keladi.

Felderma muylodvor qo'ng'izi (Chlorophorus faldermani Fald.) – qurigan to'rang'il daraxtida yashaydi. May-iyun oylarida ommaviy uchadi. Jiyda daraxtlariga katta zarar keltiradi.

Turan muylodvor qo'ng'izi (Turanium scabrum Kr.) – jiydaning qavfli zararkunandasi. To'rang'ilda ham uchraydi. Dastlabki qo'ng'izlar aprel oyida uchib chiqadi. May-iyun oyida ommaviy uchishi kuzatiladi. To'rang'il barglari, yosh novdalari bilan oziqlanadi. Urg'ochilar daraxt qobig'iga tuxum quyadi. Tuxumdan chiqqan lichinkalari qobiqni kemirib o'ziga yo'l soladi.

Bargxo'rlar (Chrysomelidae) oilasi. Turang'il bargxo'ri (Melosoma populi L.) – lichinka va qo'ng'izlari to'rang'il daraxtlarini zararlaydi. Zararlangan daraxtlar nobud bo'ladi. Qo'ng'izlari tuproq yuzida qishlaydi. Daraxtlar kurtak chiqarib boshlagandan harakatlanib boshlaydi. Tuxumini bargga qo'yadi. Urg'ochisi 300 dan ortiq tuxum quyadi. Tuxumlik davri bir hafta davom etadi. G'umbak davri ikki haftagacha cho'ziladi. Yiliga uch avlod beradi.

Ko'k bargxo'r (Haltica deserticola Parf.) – to'rang'il barglarini zararlaydi. Barglar skletlanadi. Bir bargda 14 dona qo'ng'iz hisoblangan.

Bargxo'r (Cryptocephalus melanoxanthus Sols.) – 3,5-4,5 mm o'lchamdag'i qo'ng'iz, tuxumlarini to'plap qo'yadi. Urg'ochilar 8-12 tuxum qo'yadi. Qo'ng'izlari ching'il, to'rang'il, tol, yulq'unlarni zararlaydi. Iyun oyida ommaviy uchraydi.

Qizilqanotli to'rt nuqtali bargxo'r (Clytra quadripunctata ssp. appendicina Lac.) – qo'ng'izlari to'rang'ilning ikki turining ham barglari bilan oziqlanadi. Qo'ng'izlarining aktivligi kunning issiq vaqtleri pasayadi. Iyun oyi oxirida o'lar juftlashadi. Bu jarayon qirq daqiqadan ko'proq vaqt davom etadi. Tuxumlari iyul oyi boshida barglarga qo'yadi. Urg'ochisi 10-20 dona tuxum qo'yadi.

Ko'k qanotli bargxo'ri (Clytra quadripunctata ssp. appendicina Lac.) – qo'ng'izlari to'rang'il barglari bilan oziqlanadi. Iyun oyi ikkinchi yarmida juftlashadi. Tuxumlarini barg orqasiga to'plab qo'yadi. Urg'ochisi 8-12 donagacha tuxum qo'yadi.

Uzunburunlar yoki filcha qo'ng'izlar (Curculionidae) oilasi. Truxlyak (Eremotes subasperatus Rtt.) – to'rang'ilni zararlaydi.

Turang'il filchasi – bloschka (Rhynchaenus subpilosus T.Min.) — qo'ng'iz, aprel oyi oxirida paydo bo'ladi. May oyi boshida juftlashadi. Qo'ng'izlari va lichinkalari to'rang'il barglarini zararlaydi.

Sur turang'il filchasi (Chloebius sterbai Rtt.) – to'rang'il barglarini kemiradi. Qo'ng'izlari aprel oyi oxirida paydo bo'lib, darrov yosh barglar bilan oziqlanishni boshlaydi. May oyi boshida juftlashadi.

YAshil turang'il-tol uzunburuni (Platymycterus trapezicollis Fahr.) – qo'ng'izlari to'rang'il barglarini kemiradi. Iyun-iyul oylarida ommaviy tarqaladi. Dastlabki qo'ng'izlari may oyi boshida paydo bo'ladi.

Sirg'ali turang'il uzunburuni (Dorytomus sp.) – 6 sm chuqurlikda o'simlik barglari orasida qo'ng'izlari qishlaydi. Aprel oyi oxirida qo'ng'izlari paydo bo'ladi. Sirg'a paydo bo'lish davrigacha o'lar tuproqdan chiqib to'rang'ilga o'rnashib oladi. Qo'ng'izlari sirg'alarini zararlaydi.

Urug'xo'r filcha (Apion sp.) – to'rang'il barglarini zararlaydi.

Filcha (Chlorophanus caudatus Fahr.) – to'rang'il barglarini zararlaydi. May oyi boshida dastlabki qo'ng'izlari paydo bo'ladi. Ommaviy iyun oyida uchraydi.

To'rang'il filchasi-bloschka (Rhynchaenus subpilosus T.Min.) dastlabki qo'ng'izlar aprel oyi oxirida paydo bo'ladi. May oyi boshida juftlashadi. Qo'ng'izlari harakatchan, tez sakraydi. Lichinka va qo'ng'izlari to'rang'il barglarby bilan oziqlanadi. Lichinkalari may oyida paydo bo'ladi. Filcha kuchli rivojlangan davrda barglar qurib qoladi.

Anthribidae oilasi. To'rang'il soxta filchasi (Tropideres sp.) – kasal to'rang'illarni zararlaydi.

Pardasimonqanotlilar (Nymenoptera) turkumi. Megachilidae oilasi. Barg kesar ari (Megachila dohrondti F. Mor.) – yog'ochlariga zarar keltiradi. May oyi birinchi yarmida paydo bo'ladi. Barglarni kesib, uya qurish uchun foydalanadi.

Ikkiganotilar (Diptera) turkumi. *Simulidae oilasi. Mushka SHinera (Melanogromyza schineri Gir.)* – lichinkalari 10-12 mm uzunlikdagi shish ichida rivojlanadi. Bir shish ichida bir lichinka rivojlanadi. Iyun oyining boshida ommaviy uchishi kuzatiladi. Yiliga bir avlod beradi.

Tangaqanotlilar yoki kapalaklar (Lepidoptera) turkumi.

Psychidae oilasi. *Mesochnitsa (Ptilocephala plumifera)* – lichinkalari to‘rang‘ilga zarar keltiradi.

Cossidae oilasi. Tol yoki sassiq yog‘och kesari (Cossus cossus L.) – asosan tol, kamdan kam jiydaga joylashadi. Kapalaklari aprel oyida kechki vaqtleri uchib chiqadi. Novdalar qobig‘iga tuxum qo‘yadi. Urg‘ochisi tuxumlarini 1000 donagacha qo‘yadi. Tuxumdan chiqqan lichinkalari 10-14 kundan so‘ng lub tolasiga yo‘llar yasay boshlaydi. Ikki yil davomida rivojlanadi.

Nimphalidae oilasi. *Mnogotsvetnitsa (Nymphalis polychloros L.)* – kapalaklari iyul-sentyabr oylarida uchadi.

Brajniklar (Sphingidae) oilasi. *Turang‘il brajnigi (Laothoe populi L.)* — may-iyun oylarida kapalaklari uchadi. Imagolarli qorong‘i tushishi bilan faollashadi.

Kinderman brajnigi (Smerinthus kindermannii Led.) – iyul oyida lichinkalari to‘rang‘il barglarini zararlaydi. Kunduz harakat etmaydi. Lichinkalari tuproqda g‘umbakka aylanadi. Kapalaklari iyul oyi oxirida paydo bo‘ladi. G‘umbagi qishlaydi. Ommaviy rivojlangan yillari yosh to‘rang‘illarga xavf keltiradi.

Notodontidae oilasi. Katta garpiya (Dicranura vinula L.) – kapalaklari may-iyul oylarida qorong‘i tushishi bilan uchadi. Lichinkalari Populus, Salix, o‘simgida rivojlanadi. Oxirgi 2013-2017 yillarda Qoraqalpog‘istonning to‘qay ekotizimlarida Notodontidae turkumiga mansub Lepidoptera (Lepidoptera) turkumi vakili katta garpiya — Dicranura vinula L. (*Cerura vinula L.*) ommaviy ravishda ko‘payib, yog‘ochli o‘simgiklarga jiddiy zarar etkazishiga sabab bo‘ldi.

Tadqiqotlar butun Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati hududida Talliq qo‘riqxonasida, Baday to‘qay qo‘riqxonasida va Qipchoq to‘qayda (Nazarkon, Jumirtau) olib borildi.

Katta garpiya — *Dicranura vinula L.* (*Cerura vinula L.*) — katta kapalak, qanotlari 55-75 mm. Uning old qanotlari oq-kulrang, tor, quyuq chiziqlar naqshli, ko‘krak va qorinda mayda qora dog‘lar bor.

Maydan iyulgacha qorong‘i tushganda uchadi. Qurtlari katta, uzunligi 50 mm dan ortiq, ular bir tomondan qurib qolgan barglarga o‘xshaydi. Agar qurti bezovta bo‘lsa, uning rangi va holati darhol jangovar, qo‘rquinchi holatga o‘zgaradi. Qurt yorqin qizil boshini ko‘taradi va shu bilan birga tanasining orqa uchida ikkita uzun, yorqin qizil dum paydo bo‘lib, hidli moddani chiqaradi.

Qoraqalpog‘iston sharoitida qurt fazasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘rang‘il barglari bilan oson oziqlanadi. Barglar butunlay yo‘q qilinadi, to‘rang‘il yalang‘och qoladi. Bir oy o‘tgach, barglar yana paydo bo‘ladi va zararkunanda yo‘qoladi. Tuproqning yuqori qismida g‘umbak bosqichida qishlaydi.

Katta garpiya g‘umbaklarining tabiiy dushmanlari orasida qora qarg‘a (*Corvus corone L., 1758*) bor — u tuproq ostidagi g‘umbaklarni qidiradi va tuproqda yashovchi g‘umbaklar bilan oziqlanadi.

Oq garpiya (Dicranura erminea E.) – kapalaklari may-iyul oylarida uchadi.

Tunlamlar (Noctuidae) oilasi. *Catocala elocata Esper, 1788.* – kapalaklari aprel oyidan sentyabrgacha uchib yuradi. Tuxum bosqichida qishlaydi. Bir avlod qoldiradi. Lichinkalari to‘rang‘ilda yashaydi.

Catocala lupina Herrich-Schaeffer, 1851. — kapalaklari iyul-sentyabr oylarida uchib yuradi. Lichinkalari to‘rang‘ilda rivojlanadi.

Catocala optima Staudinger, 1888. — kapalaklari iyun-avgust oylarida uchib yuradi. Lichinkalari to‘rang‘ilda rivojlanadi. Tuxum bosqichida qishlaydi.

Catocala nupta (Linnaeus, 1767) – 70-90 mm o‘lchamdagisi yirik kapalak. Kunduzi va tunda aktiv, kunduzi harakatsiz daraxtda qimirlamay turadi. Iyul-sentyabr oylarida uchraydi. Lichinkalari to‘rang‘il bilan oziqlanadi.

Catocala sp. – kapalaklari iyun-iyul oylarida uchadi. Kunduz to‘rang‘il yashirinib o‘tiradi. Lichinkalari to‘rang‘il barglarbi bilan oziqlanib zarar keltiradi. O‘lar aprel oyi oxirida paydo bo‘ladi. G‘umbagi to‘rang‘il daraxti tagida tushgan barglarga ko‘milib yotadi. Keng tarqalgan tur.

Qoraqalpog'iston sharoitida to'rang'il (Populus) zararkunandalari tur tarkibi

	Turlar nomi	Zararlaydigan organlari	Uchrashi
Tengqanotilar (Homoptera) turkumi			
Psyllidae oilasi			
1.	Egeirotrioza sp.	novda	+++
2.	Egeirotriza ceardi B.	novda	+++
3.	Trioza rufa Log.	barg	+++
4.	Comarotoscena unicolor L.	barg	+++
Aphididae oilasi			
5.	Tuberolachnus salignus G.	novda	+++
Diaspididae oilasi			
6.	Diaspidiotus slovanicus Green.	Barg, novda	+++
YArimqattiqqanotilar yoki qandalalar (Hemiptera (Heteroptera) turkumi			
7.	Monosteira discoidalis Jak.	barg	+++
Pyrrhocoridae oilasi			
8.	Pyrrhocoris apterus L.	urug'	+++
Qattiqqanotilar yoki qo'ng'izlar (Coleoptera) turkumi			
Scarabidae oilasi			
9.	Polyphylla alba Pall.	ildiz	+++
10.	Ampimallon solstitialis L.	ildiz	+++
11.	Anomalia dubia	ildiz	+++
12.	Polyphylla adspersa Motsch.	ildiz	+++
Oltinqo'ng'izlar (Buprestidae) oilasi			
13.	Melanophila picta Pall.	daraxtlar qobiqlari	+++
14.	Capnodis melearis metalica Ball.	Barg, novda	+++
15.	Eurythyrea oxiana Sem.	Barg	+++
16.	Agrilus ganglaueri Sem.	Barg, novda	+++
17.	Agrilis uzbekistanus V.Step.	Barg, daraxtlar qobiqlari	+++
Muylodorlar (Cerambycidae) oilasi			
18.	Xylotrechus namanganensis Jeyd.	qobiq ostida lub tolasi bilan oziqlanadi	+++
19.	Aeloides sarta	daraxtlar qobiqlari	+++
20.	Chlorophorus faldermani Fald.	daraxtlar qobiqlari	+++
21.	Turanium scabrum Kr.	Barg, novda, daraxtlar qobiqlari	+++
Bargxo'rlar (Chrysomelidae) oilasi			
22.	Melosoma populi L.	Barg	+++
23.	Haltica deserticola Parf.	Barg	+++
24.	Cryptocephalus melanoxanthus Sols.	Barg	+++
25.	Clytra quadripunctata ssp. appendicina Lac.	Barg	+++
Uzunburunlar yoki filcha qo'ng'izlar (Curculionidae) oilasi			
26.	Eremotes subasperatus Rtt.	Barg	+++
27.	Rhynchaenus subpilosus T.Min.	Barg	+++
28.	Chloebius sterbai Rtt.	Barg	+++
29.	Platymycterus trapezicollis Fahr.	Barg	+++
30.	Dorytomus sp.	sirg'a	+++
31.	Apion sp.	Barg	+++
32.	Chlorophanus caudatus Fahr.	Barg	+++
33.	Rhynchaenus subpilosus T.Min.	Barg	+++
Anthribidae oilasi			
34.	Tropideres sp.		+
Pardasimonqanotilar (Hymenoptera) turkumi			
Megachilidae oilasi			
35.	Megachila dohrondti F. Mor.	Barg	+++
Ikkiganotilar (Diptera) turkumi			
Simulidae oilasi			
36.	Melanogromyza schineri Gir.	shish	+++
Tangaqanotilar yoki kapalaklar (Lepidoptera) turkumi			
Psychidae oilasi			
37.	Ptilocephala plumifera	daraxtlar qobiqlari	+++

Cossidae oilasi			
38.	Cossus cossus L.	Novda	+++
Nymphalidae oilasi			
39.	Nymphalis polychloros L.	Barg	+++
Brajniklar (Sphingidae) oilasi			
40.	Laothoe populi L.	daraxtlar qobiqlari	+++
41.	Smerinrhys kindermannii Led.	Barg	+++
Notodontidae oilasi			
42.	Dicranura vinula L.	Barg	+++
43.	Dicranura erminea E.	Barg	+
Tunlamlar (Noctuidae) oilasi			
44.	Catocala elocata Esper, 1788.	daraxtlar qobiqlari	+++
45.	Catocala lupina Herrich-Schaeffer, 1851.	daraxtlar qobiqlari	+++
46.	Catocala optima Staudinger, 1888.	daraxtlar qobiqlari	+++
47.	Catocala nupta (Linnaeus, 1767)	daraxtlar qobiqlari	+++
48.	Catocala sp.	Barg	+++

Eslatma:

«+++» — оммавиј учрайдиган турлар

«+» - кам учрайдиган турлар

Xulosa: Таджикотларимиз натијасида: 6 туркумга мансуб 48 тур: Тенгъанотлilar (Homoptera) туркumi – 6, YArimqattiqqanotlilar yoki qandalalar (Heteroptera) туркumi – 2, Qattiqqanotlilar yoki qo'ng'izlar (Coleoptera) туркumi – 26, Pardasimonqanotlilar (Hymenoptera) туркumi – 1, Ikkiqanotlilar (Diptera) туркumi – 1, Tangaqanotlilar yoki kapalaklar (Lepidoptera) туркumi — 12 турро'yxatga olindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Айбергенов Б.А. Вредная этномофауна защитных лесных насаждений Каракалпакстана // Вестник ККО АН РУз.-1999.- №1.- 7 с.
2. Айтимов И.А. Вредитель лесных растений в условиях Каракалпакстана. // Ekologiya xabarnomasi. – Тошкент, 2016. -№12. – Б. 26-27. (06.00.00; №2).
3. Айтимов И.А. Ўрмон агробиоценозида учрайдиган зааркунандалар-нинг ривожланиш шароитлари. // Ўзбекистон миллий университети хабарлари. – Тошкент, 2016. -№3/2. – Б. 10-11. (06.00.00; №8)
4. Синадский Ю.В. Вредители и болезни тугаев Каракалпакии.-Изд-во «Каракалпакстан». -Нукус.,-1972.

УО‘К 582.263(28)(571.1)

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TO'RTKUL TUMANINING CHO'L
HUDUDI DRASTERIYA (DRASTERIA) AVLODI TURLARINING BIOEKOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

*X.U.Bekchanov, b.f.d., dots., Urganch davlat pedagogika instituti, Urganch
N .S.Yadgorova, katta o'qituvchi, Urganch davlat universiteti, Urganch*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l tumanining cho'l hududida uchraydigan drasteriya (Drasteria) avlodni turlarining 4 turi. Drasteria tenera (Staudinger, 1877), Drasteria saisani (Staudinger, 1882), Drasteria sesquistria (Eversmann, 1854), Drasteria picta (Kristof, 1877) uchun xos bo'lgan bioekologik xususiyatlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: hasharot, taksonomiya, ekosistema, bioekologik, ekologiya, Phillips, bivoltin, tamnobiont, monofag, biotop

Аннотация. В данной статье представлены 4 вида рода Drasteria, обнаруженные в пустынном районе Торткульского района Республики Каракалпакстан. Приведены биоэкологические характеристики, характерные для Drasteria tenera (Staudinger, 1877), Drasteria saisani (Staudinger, 1882), Drasteria sesquistria (Eversmann, 1854), Drasteria picta (Christoph, 1877).

Ключевые слова: Насекомое, систематика, экосистема, биоэкология, экология, Phillips, биволтин, тамнобионт, монофаг, биотоп.

Abstract. This article presents 4 species of the genus Drasteria, discovered in the desert region of the Tortkul region of the Republic of Karakalpakstan. The bioecological characteristics

characteristic of Drasteria tenera (Staudinger, 1877), Drasteria saisani (Staudinger, 1882), Drasteria sesquistria (Eversmann, 1854), Drasteria picta (Christoph, 1877) are given.

Key words: *Nasekomoe, systematics, ecosystem, bioecology, ecology, Phillips, bivoltine, thannobiont, monophagous, biotope.*

Kirish. Yer yuzida hasharotlarning biologik xilma-xillik xavfsizligini ta'minlash, turli omillar ta'sirida tangachaqanotli hasharotlarning tabiiy va antropogen landshaftlarda tarqalishini aniqlash, yo'qolib ketayotgan va kam uchraydigan turlarni muhofaza qilish choralarini hamda zararli turlariga nisbatan samarali kurash choralarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan, dunyoda hasharotlarning kamyob va noyob turlari tarqalgan alohida ahamiyatga ega hududlarni aniqlashga, iqlim omillari va sanoat ishlab chiqarishining hasharotlar populyatsiyalariga ta'sirini baholashga, qishloq xo'jaligiga zarar keltiruvchi vakillariga qarshi kurash choralarini takomillashtirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda biologik xilma-xillikning ajralmas qismi sifatida o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish maqsadida, tabiiy va sun'iy hududlarda keng tarqalgan zararkunanda hasharotlar faunasining tur tarkibini aniqlagandan keyingina samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirishga erishiladi. Bu borada amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, jumladan, hasharotlarning tur tarkibi aniqlanmoqda, ularning yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlari muhofaza ostiga olindi, zararli turlarga qarshi biologik kurash zamonaviy usullari ishlab chiqilmoqda. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, tangachaqanotlilar faunasining tur tarkibini aniqlash, ularning zoogeografik taqsimlanishini tahlil qilish, elektron ma'lumotlar bazasini yaratish, zararli turlarini nazorat qilish usullarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tangachaqanotlilarining tur tarkibi, tarqalishi, bioekologik xususiyatlari, taksonomiyası, ekosistemalardagi roli, madaniy o'simliklarni hasharotlardan himoya qilish vositalar tizimi bo'yicha dunyo miqyosidagi ma'lumotlar xorijiy olimlar S.N. Alferaki (1875 va 1877), A.G. Butler (1886), J.L. Austaut (1897), A. Bang-Haas (1906), S. Bleszynski (1965), M. Ahola (2008) va boshqalar tomonidan keltirilgan.

MDH mamlakatlarida tangachaqanotlilarining tarqalishi, faunasi, ekologiyasi va zararkunandalari hamda estetik ahamiyatga ega guruuhlar bo'yicha tadqiqotlarni V.I. Kuznetsov (1915, 1948, 1958, 1960, 1999, 2001, 2005), V.I. Degtyareva (1964), Yu.L. Shyotkin (1960), T.B. Tokgaev va boshq. (1967), I.L. Suxareva (1972, 1974 va 1982), G.A. Krasilnikova (1967), M.I. Falkovich (1978, 1979 va 1989), Ye.A. Belyaev (2011), Yu.P. Korshunov va boshq. (1995, 2002), A.N. Strelsov (1998), A.B. Martynenko (2005 va 2006), S.K. Korb (2011), I.I. Bogdonov (2012), R.V. Yakovlev (2013 va 2014) va boshqalar tomonidan olib borilgan.

O'zbekistonda tangachaqanotlilar faunasi, tarqalishi va ekologiyasiga doir qisqacha ma'lumotlar A.V. Kreysberg (1984), D.A. Azimov va boshq. (1993), A. Yusupov (1995), M. Raximov (1997), I.I. Zakirov (2020), O.G. Legezin va boshq. (2020) lar tomonidan olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtkul tumanining cho'l hududida 1917-2023 yillarda olib borilgan bo'lib tangachaqanotlilarni yig'ishda DRL lampalarning turli xil yorug'lik manbalaridan (Phillips – 250 Vt va Phillips – TL 8W/05 lampalar), ko'cha chiroqlari yoki simob lampalardan foydalandik. Elektr toki yo'q joylarda esa ekran osib quyoshli batareykalar yordamida maxsus tuzoqlardan keng foydalanildi, ularning ostiga o'lchamlari 2 x 2 m oq material ekrani (choyshablar) vertikal va gorizontal ravishda joylashtirildi, gorizontal yerga joylashtirilgan choyshab ustiga gofrokartondan yasalgan tuxum saqlagich (fleyka) lar qo'yildi.

Tahlil va natijalar: Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l tumanining cho'l hududida olib borilgan izlanishlar natijasida drasteriya aylodi tangachaqanotlilarining faqat 4 turi aniqlangan bo'lib bu turlar asosan Markaziy Osiyo endemiklari hisoblanadi. Aniqlangan turlar ro'yxati quyida keltirilgan. Авлод: Drasteria (Hubner, 1818).

1. Drasteria tenera (Staudinger, 1877).

Sinonimlar: Leucanitis tenera (Staudinger, 1877).

Bioekologiyasi: Bivoltin. Kapalakning uchish vaqtı: may oyining oxiri — avgust. Qurtlarining faol davri: sentyabr. Qoraqolpog'iston Respublikasining To'rtko'l tumani uchun birinchi marta e'lon qilinmoqda. Qurtlarining ozuqasi: Calligonum. Mo'tadil guruh, tamnobiont, monofag, bahor-yoz turi. Biotipi — qumli yoki psammofit cho'l. Qishlash diapauzasi tuxum. Ko'p uchraydigan tur.

Aniqlash joyi va muddati: 41.569373, 61.784896, 04.VI.2021, 17.VI.2020; 12♂♂ 34♀♀. 42.032661, 60.697305: 13.VI.2020, VI.2018y.; 26♂♂ 43♀♀. 42.309025, 61.349859: 17.VI.2020; 52♂♂ 8♀♀. 42.332001, 60.573009. 22.V.2017; 38♀♀. 41.569373, 61.784896: 04. V. 2021; 26♂♂, 39♀♀. 42.032661, 60.697305: 04.V.2019, 04.V.2020; 13♂♂, 41♀♀.

Zoogeografik tarqalishi: Markaziy Osiyoga endemigi.

2. *Drasteria saisani* (Staudinger, 1882).

Sinonimlar: Leucanitis saisani (Staudinger, 1882).

Bioekologiyasi: Bivoltin. Kapalakning uchish vaqtı: aprel-iyun. Qurtlarning faol davri: sentyabr. Qurtlarining ozuqa o'simligi: Atraphaxis spinosa. Qizilqum va Ustyurtda uchraydi (Kuznetsov, 1960; Falkovich, 1969, Suxareva, 1972). Mo'tadil guruh, tamnobiont, monofag, bahorgi-yoz tur. Biotop — sho'r yoki galofit cho'l. Qishlash diapauza bosqichi — g'umbak. Oddiy tur.

Aniqlash joyi va muddati: 41.569373, 61.784896, 04.VI.2021, 17.VI.2020; 17♂♂ 12♂♂. 43.062795, 61.971340: 05.VIII.2020; 7♂♂, 17♀♀.

Zoogeografik tarqalishi: Markaziy Osiyoga endemigi.

3. *Drasteria sesquistria* (Eversmann, 1854).

Sinonimlar: Ophiusa sesquistria (Eversmann, 1854).

Bioekologiyasi: Bivoltin. Kapalakning uchish vaqtı: may-sentyabr. Qurtlarning faol davri: iyun-oktyabr. Qurtlarining ozuqa o'simligi: Calligonum. Qizilqum va Ustyurtda uchraydi (Shchetkin, 1965; Falkovich, 1969). Mo'tadil guruh, tamnobiont, monofag. Bahor-yoz kuz turi. Biotopi — qumli yoki psammofit cho'l. Qishlash diapauza bosqichi — g'umbak. Ommaviy turi.

Aniqlash joyi va muddati: 41.569373, 61.784896, 04.VI.2021, 17.VI.2019; 8♂♂ 47♀♀. 42.032661, 60.697305: 13.VII.2020, VI.17.2018; 36♂♂.

Zoogeografik tarqalishi: Markaziy Osiyoga endemigi.


4. *Drasteria picta* (Kristof, 1877).


Sinonimlar: Leucanitis picta (Kristof, 1877).

Bioekologiyasi: Bivoltin. Kapalakning uchish vaqtı: apreldan kuzgacha. Qurtlarning faol davri — iyun-oktyabr. Qurtlarini ozuqa o'simligi: Calligonum. Qizilqum va Ustyurtda uchraydi (Shchetkin, 1965; Falkovich, 1969), asosan kechki, mezofilguruh, tamnobiont, monofag, bahorgi-yozgi tur. Biotop — qumli yoki psammofit cho'l. Qishlash diapauza bosqichi — g'umbak. Ommaviy turi.

Aniqlash joyi va muddati: 41.569373, 61.784896, 04.VII.2017, 17.VI.2021; 45♂♂ 11♀♀. 42.032661, 60.697305: 17.VI.2018; 32♂♂ 29♀♀. 42.309025, 61.349859: 17.VIII.2020; 6♂♂ 43♀♀. 42.332001, 60.573009: 22.VIII.2017; 47♀♀. 41.569373, 61.784896: 04. V. 2019 yil; 23♂♂, 38♀♀. 42.032661, 60.697305: 04. IX. 2019 yil, 04. VIII. 2020.

Zoogeografik tarqalishi: Markaziy Osiyoga endemigi.





Drasteria sesquistria (Eversmann, 1854).

Drasteria picta (Kristof, 1877).

Xulosa: To‘rtko‘l tumanining cho‘l hududi tangachaqanotlilari o‘rganilib chiqib ularning tur tarkibi aniqlanib, ularning bioekologik xususiyatlari o‘rganib chiqildi. Ushbu turlar cho‘llarda uchraydigan butalar Calligonum, Atraphaxis spinosa bilan oziqlanishi natijasida ularning soni kamayib ketishi mumkin. Shuning uchun o‘simliklarni muhofaza qilishda cho‘l o‘simliklari zararkunandalarini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bekchanov X.O., Bekchanova M.X. Xorazm vohasi tunlam kapalaklari ekologiyasi. Monografiya. -Urganch, 2020. -192 b.
2. Дубатолов В.В. 1987. Новый вид совковидки (Lepidoptera, Thyatiridae) для фауны СССР, с описанием нового подвида // Чешуекрылые Дальнего Востока СССР. Владивосток: ДВО АН СССР. С. 61-64.
- 3.. Определитель насекомых Дальнего Востока России. 2005. Т. V. Ручейники и чешуекрылые / Отв. ред. М.Г. Пономаренко. Ч. 5. Владивосток: Дальнаука. 575 с.
4. Стрельцов А.Н., Осипов П.Е. 2019. Чешуекрылые геометроидной серии (Lepidoptera: Geometriformes) надсемейств Uranoidea и Drepanoidea в фауне Амурской области // Проблемы экологии верхнего Приамурья: Сб. научн. тр. / Под ред. Колесниковой Л.Г. Вып. 6. — Благовещенск: Изд-во БГПУ. С. 156-163.
5. Чистяков Ю.А. 1988. Семейство совковидки, или пухоспинки – Thyatiridae // Бабочки – вредители сельского и лесного хозяйства Дальнего Востока. Определитель. Владивосток: ДВО АН СССР. С. 149-152.
6. Чистяков Ю.А. 1992. Сем. Thyatiridae // Насекомые Хинганского заповедника. Ч. 2. Владивосток: Дальнаука. С. 137-138.
7. Чистяков Ю.А. 2006. Анnotatedный список высшихочных чешуекрылых (Lepidoptera: Heterocera, без Geometridae и Noctuidae) заповедника "Кедровая Падь" // Растительный и животный мир заповедника "Кедровая Падь". Владивосток: Дальнаука. С. 181-236.

UDK 581.4+55

KO‘HISTON OKRUGI DENDROFLORA TURLARINING BALANDLIK MINTAQALARI BO‘YICHA TAHLILI

G.S. Dadayeva, tayanch doktorant, O‘z R FA Botanika instituti, Toshkent

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ko‘histon botanik-geografik okrugining O‘zbekiston qismida uchrovchi dendroflora turlarini balandlik mintaqalari bo‘yicha tarqalganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, tadqiqot hududining dendroflora turlarini har 100 metr kesimida tarqalishi, Ko‘histon okrugida joylashgan shimoliy Turkiston va Molguzar tog‘ tizmalarida turlar xilma-xilligi ko‘rsatkichlari va hayotiy shakl spektrining balandlik oraliq ‘idagi turlar boyligi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit sozlar: balandlik mintaqalari, adir mintaqasi, tog‘ mintaqasi, yaylov mintaqasi, geomorfologik birliklar, namlik, harorat, yog‘ingarchilik.

Аннотация. В статье представлены сведения о распространении эндемичных видов дендрофлоры узбекской части Кухистанского ботанико-географического округа по высотным поясам. В частности, рассмотрено распределение видов дендрофлоры на каждом 100-метровом участке территории исследований, показатели видового разнообразия в северном Туркестанском и Молгузарском хребтах, расположенных в Кухистанском округе, а также видовое богатство в высотном диапазоне жизни. Приведен спектр формы.

Ключевые слова: высотные пояса, адирный регион, горный регион, пастбищный регион, геоморфологические единицы, влажность, температура, осадки.

Abstract. The article presents information on the distribution of endemic species of dendroflora in the Uzbek part of the Kukhistan botanical-geographical district along altitudinal zones. In particular, the distribution of dendroflora species in each 100-meter section of the study area, indicators of species diversity in the northern Turkestan and Molguzar ranges located in the Kukhistan district, as well as species richness in the altitudinal range of life were considered. The shape spectrum is given.

Key words: altitudinal zones, adir region, mountain region, pasture region, geomorphological units, humidity, temperature, precipitation.

Kirish. Yer yuzidagi floralarning tog'li hududlari keng ko'lamli tahlilida turlarning balandlik mintaqalari bo'yicha taqsimlanishini o'rganish asosiy o'rnlardan biri hisoblanadi. Bunday sharoitda balandlikni o'zgarishi turlarning tarkibi va shu bilan birga ularning xilma-xilligini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish uzoq yillik tarixga ega [1; 2; 3].

Balandlikni o'zgarishi bilan turlar boyligi o'rtasida mustahkam korrelyativ aloqaga ega ekanligi barcha qit'alar uchun xos xususiyat hisoblanadi [4]. Dendroflora turlarini tarkibi va tarqalishini belgilovchi asosiy omillar qatorini iqlim ko'rsatkichlari, yorug'lilik, energiya miqdori, kenglik, topografiya, orografiya, iqlim va boshqa o'zgaruvchilar tashkil etadi.

Ko'histon okrugining O'zbekiston qismida dendroflora vakillari deyarli 2500–3500 m oraliqdagagi diapazonda tarqalgan (600–3000 m) bo'lib, adir, tog' va yaylov mintaqalarini o'z ichiga oladi (1-rasm). Ular orasida okrugning asosiy qismidan o'rin olgan archazorlar alohida o'rin tutadi.


Tadqiqot hududidagi dendroflora tarkibiga kiritilgan turlarning ko'p qismi balandlik gradiyenti bo'yicha keng tarqalish diapazoniga ega. Ular bioekologik va ekogeografik xususiyatlariga ko'ra turli balandlik mintaqalarda o'sadi va turlarning balandlik mintaqalari bo'ylab tarqalishining o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi.

Mavzuning dolzarbliji. Dendroflora tarkibidagi turlarni balandlik mintaqalari kesimida taqsimlanishini va geomorfologik birliklarni ajratishda bosh ilmiy manba sifatida akad. Q.Z. Zokirov (1955) taklif etgan tasnifdan, "Определитель растений Средней Азии" (1968–1993) konspektidan va Koch. George W. & al. (2004) "The limits to tree height" nashridan foydalanildi. Jumladan, gerbariy fondlarida saqlanayotgan namunalarni geobog'lash, hamda bevosita dala tadqiqotlarining natijalariga tayangan holda amalga oshirildi. Bundan tashqari, har bir geomorfologik bosqich doirasida bioxilma-xillikning yuqori ko'rsatkichlarini aniqlash uchun turlar tarkibini har yuz metr kesimida o'zgarishi o'rganilgan.

Jumladan, Ko'histon okrugi dendroflorasining balandlik mintaqalari bo'yicha taqsimlanishi va miqdoriy ko'rsatkichlarining tahlili quyidagi natijalarni ko'rsatdi. Balandlik mintaqalari orasida tog' mintaqasi (1500–2700 m) dendrofloradagi 102 tur bilan yetakchilik qiladi. Turlar sonini kamayib borish tartibiga ko'ra keyingi o'rnlarni adir (500–1500 m, 91 tur) va yaylov (2800–3500 m, 24 tur) dendroflorasi turlari egallaydi.

Tajriba qismi. Dendroflora turlarining har 100 metr kesimida tarqalishi bo'yicha amalga oshirilgan tahlil natijalariga ko'ra, tog' mintaqasidagi 1700–1800 m oralig'i 59 tur tarkibi bilan yetakchilik qilishi aniqlandi. Keyingi o'rinni nisbatan kam farq bilan adir mintaqasining 1400–1500 m oralig'i (63 tur) va yaylov mintaqasidagi 3400–3500 m oralig'i (12 tur) dendroflora turlariga boy ekanligini ko'rsatdi (2-rasm).

Ushbu holat, tog' mintaqasida dendroflora turlarining o'sib rivojlanishi va tarqalishi uchun qulay iqlim (namlik, harorat, yillik yog'in miqdori) sharoitning mavjudligi, tuproqning sernam bo'lishi va tarkibida organik moddalar ko'p to'planishi bilan izohlanadi. Jumladan, adir mintaqasi tur tarkibini kamayishiga iqlimni quruqligi, yillik yog'in miqdorini kam kuzatilishi, doimiy shamollar va tuproq unumdarligining past bo'lishi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Yaylov mintaqasida esa yog'ingarchilik va doimiy sovuq havo oqimi o'simliklar dinamikasining pasayishiga yoki cheklanishiga olib keluvchi omillar sifatida qaraladi.



1-rasm. Ko'histon okrugi dendroflorasining balandlik mintaqalari bo'ylab tarqalishi. A–B-adir mintaqasi (A–Jadik qishlog'idagi adirlilik, B–Qashqa-su adirligi); C–D–E-tog' mintaqasi (C–Molguzar tizmasi, Parpi-ota ziyoratgohi atrofidagi o'rta tog' mintaqasi, D–Turkiston tizmasi, Zomin tumani, Zomin Milliy bog'idagi yuqori tog' tizmasi, E–Turkiston tizmasi, Zomin tumani, Uriklisoy qishlog'idagi o'rta tog' mintaqasi), F–G–H– yaylov mintaqasi (F–Baxmal tumani, Temirqadam atrofidagi yuqori qismidagi yaylov, G–Tog'–terak qishlog'ining o'rta yaylov mintaqasi, H–Uriklisoy qishlog'ining pastki yaylov) o'simliklari




2-rasm. Dendroflora turlarining har 100 metr kesimida tarqalishi

Olingen natijalar tahlili. Ko'histon okrugi dendroflorasi turlarining balandlik mintaqalari bo'ylab tarqalishiga va turlar boyligiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar namlik, harorat (haroratning ko'tarilishi yoki pasayishi) va yog'ingarchilik (yillik yog'in miqdori), tuproq (tarkibida organik moddalar va sernam bo'lishi) omillari hisoblanadi. Ko'histon okrugi tog' mintaqasi dendroflora turlarining yetakchilik qilishi *Rosa*, *Prunus* (har biri 9/7.75%), *Cotoneaster* (7/6.03%), *Salix*, *Astragalus* (har biri 6/5.17%), *Lonicera* (5/4.31%), *Ephedra* (4/3.44%), *Juniperus*, *Ulmus*, *Populus*, *Acer* (har biri 3/2.58%) turkumlari hisobiga to'g'ri keladi.

Adir mintaqasida *Prunus* (10/8.62%), *Rosa* (8/6.89%), *Astragalus*, *Cotoneaster* (har biri 6/5.17%), *Salix* (5/4.31%); *Ephedra*, *Populus* (har biri 4/3.44%), *Crataegus*, *Lonicera*, *Acer*, *Ulmus*, *Juniperus*, *Berberis* (har biri 3/2.58%); yaylov mintaqasida *Lonicera* (4/3.44%) va *Acer* (3/2.58) turkumlari keng tarqalgan.

Ko'histon okrugining geografik o'rni, xususan uni o'rab turgan shimoliy va janubiy tog' tizmalari o'rtasidagi farqli jihatlar dendroflora tarkibini o'zaro taqqoslash zarurligini taqozo etadi. Dendroflora turlarini solishtirishda natijalarning aniqligini oshirish maqsadida nafaqat qarama-qarshi ekspozitsiyalar (Shimoliy Turkiston va Molguzar), balki, ularning tarkibidagi tahlil uchun birlik sifatida qabul qilingan geomorfologik bosqichlar bo'yicha amalga oshirildi. Bu boradagi tahlillar quyidagi asosiy natijalarni ko'rsatdi. Ajratib olingen geomorfologik bosqichlar bo'yicha turlarning xilma-xilligi ko'rsatkichi bo'yicha Shimoliy Turkiston ekspozitsiyasi ustunlik qiladi. Bu ayniqsa yuqori adir (85≥62), quyi tog' (93≥27), o'rta tog' (49≥12) va yaylov (24≥4) mintaqalaridagi turlar soni bo'yicha yaqqol ko'rindi. Nisbatan kichik farq bilan quyi adir (19≤34) mintaqasi bo'yicha Molguzar yetakchiliginini ko'rsatdi (3-rasm).

Shimoliy Turkiston dendroflorasi tarkibida daraxt va butalarning 110 (94.82%) turi uchraydi. ShT ustunlik qilishida quyi va o'rta tog' hamda yuqori adir geomorfologik bosqichlari asosiy hisoblanadi. Shundan, quyi tog' bosqichi umumiy dendrofloraning 80.17% (93 tur), o'rta tog' 42.24% (49 tur) va yuqori adir 73.27% (85 tur) tashkil etadi. Quyi tog' bosqichida *Prunus* (9/7.75%), *Rosa* (8/6.89%), *Cotoneaster* (7/6.03%), *Salix* (6/5.17%), *Astragalus* (5/4.31%), *Ephedra*, *Lonicera* (4/3.44%), *Crataegus*, *Acer*, *Juniperus*, *Populus*, *Ulmus* (har biri 3/2.58%); yuqori adir bosqichida *Prunus* (7/6.03%), *Rosa* (6/5.17%), *Salix* (4/3.44%), *Juniperus*, *Crataegus*, *Acer* (har biri 3/2.58%); o'rta tog' bosqichida *Rosa* (7/6.03%), *Prunus*, *Astragalus* (har biri 6/5.17%); *Lonicera* (4/3.44%), *Juniperus*, *Cotoneaster*, *Salix* (har biri 3/2.58%) turkumlari yetakchilik qiladi.



3-rasm. Ko'histon okrugining shimoliy Turkiston va Molguzar hududlarida turlar xilma-xilligi ko'rsatkichlari


Molguzar tizmasining dendroflorasi tarkibida jami dendrofloraning 80 (68.96%) turi uchraydi. Molguzar ustunlik qiladigan geomorfologik bosqichlar yuqori adir (62/53.44%), quyi adir (34/29.31%) va quyi tog' (27/23.27%) mintaqalari hisoblanadi. Yuqori adir bosqichida *Prunus* (8/6.89%), *Rosa* (7/6.03%), *Cotoneaster* (6/5.17%), *Populus*, *Salix*, *Acer* (har biri 3/2.58%); quyi adirda *Prunus* (8/6.89%), *Rosa*, *Cotoneaster*, *Astragalus* (har biri 4/3.44%), *Ephedra*, *Populus*,

Ulmus (har biri 3/2.58%) turumlari hisoblanadi. Quyi tog‘ bosqichining ustunlik qilishida *Rosa* (5/4.31%), *Prunus*, *Astragalus* (har biri 4/3.44%) turumlari asosiy rol o‘ynaydi.

Bundan tashqari, balandlik gradiyenti bo‘yicha turlar boyligi va ularning har 100 metr bo‘yicha o‘zgarib borishi Ko‘histon okrugining ikki qarama-qarshi makroekspozitsiyalari – Shimoliy Turkiston va Molguzar tog‘ tizmalari kesimida ham o‘rganildi. Natijalar davomida, 1000–1500 m (Baxmal, Zomin Milliy bog‘i, G‘allaorol) va 1500–2000 m balandliklarda (Zomin, Baxmal davlat o‘rmon xo‘jaligi, Zomin davlat qo‘riqxonasi) shimoliy Turkiston dendroflorasi Molguzarga nisbatan turlar boyligi yuqori ekanligi aniqlandi. Yuqori adirlari 1000–1500 m oralig‘idagi yuqori adirlariga ega bo‘lgan diapazonida (Jadik, Parpi-ota, Usmonlisoy, Koltoy-bobo) Molguzar makroekspozitsiyasi turlar boyligi bo‘yicha yetakchilik qiladi.

Dendroflora turlarining balandlik gradiyenti bo‘yicha taqsimlanishining o‘ziga xos jihatlarini qo‘sishma ko‘rsatkichlar orqali amalga oshiriladi. Di Biase & al. (2021) ta’kidlaganidek, tog‘li hududlarda balandlik bosqichlarini o‘zgarishi va unga xos ravishda harorat, yillik yog‘in miqdori, tuproq xususiyatlarini o‘zgarishi biologik xilma-xillikni tashqi muhit omillari ta’sirida qanday o‘zgarishini tadqiq etish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi.

Olib borilgan tadqiqot hududida mezofanerofitlar dengiz sathidan 400–2400 m, mikrofanerofitlar esa 300–3500 m, nanofanerofit va xamefit guruhlari vakillari 300–3500 m oralig‘idagi balandliklarda tarqalgan (4-rasm). Mezofanerofitlarda turlar xilma-xilligi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkich quyi tog‘ mintaqasining 1700–1800 m oralig‘iga to‘g‘ri keladi. Mikrofanerofitlar yuqori adir (1000–1700 m) va quyi tog‘da (1500–2000 m) ikki cho‘qqi hosil qilsa, nanofanerofitlar 800–1000 m (quyi adir), 1200–1400 m (yuqori adir), 1500–2400 m (quyi va o‘rta tog‘), xamefitlar 1500–2400 m (quyi va o‘rta tog‘) balandliklarda xilma-xillik koeffitsienti yuqori, ushbu balandlik diapazonlari mazkur guruh vakillari uchun optimal balandlik hisoblanadi.



4-rasm. Hayotiy shakl spektrining balandlik oralig‘idagi turlar boyligi

Ko‘histon okrugi dendroflorasi, TASH fondida saqlanayotgan denrofloraga oid gerbariy namunalarini o‘rganish va 2020–2023 yillarda amalga oshirilgan dala tadqiqotlari davomida to‘plangan gerbariy materiallarini tahlil qilish natijalariga ko‘ra, mezofanerofitlar 1700–2200 m (4 tadan 6 ta gacha), mikrofanerofitlar 1000–2000 m (16 tadan 28 ta gacha) va 600–1000 m (10 tadan 22 ta gacha), nanofanerofitlar 300–600 m (5 tadan 7 ta gacha) va 1000–2200 m (11 tadan 28 ta gacha), xamefitlar esa 1400–2400 m (4 tadan 10 ta gacha) balandlik oraliqlarida gerbariy namunalari ko‘p terilganligi qayd etildi (4-rasm).

Tadqiqot natijalariga ko'ra, balandlik oralig'idagi Ko'histon okrugi dendroflorasida turlarning boyligini eng ko'p turlardan tashkil topgan *Rosaceae* va eng kam *Salicaceae* oilalari misolida tahlil qilindi.

Rosaceae oilasi vakillari Ko'histon okrugi dendroflorasida eng ko'p turkum va turlardan tarkib topgan. Mazkur oila turlari tadqiqot hududida dengiz sathidan 300–3500 m balandlikkacha bo'lган barcha (adir, tog' va yaylov) mintaqalarda uchrashi qayd etildi. Balandlik oralig'idagi turlar xilmalligi va gerbariy namunalarning soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichi 1000 m dan 2000 m gacha bo'lган balandliklarga to'g'ri keldi, 2700–3500 m gacha oralig'ida esa past natijani ko'rsatdi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Ko'histon okrugi dendroflorasi 300–3500 m balandliklarda uchrab, turlar boyligi har 100 m kesimida tarqalgan. Natijalar davomida turlar boyligining balandlik gradiyentlari bo'yicha notekis taqsimganganligini ko'rsatdi. Turlarning balandlik mintaqalari ichida dendroflora turlari tog' mintaqasida keng tarqalganligi namoyon bo'ldi. Keyingi o'rinnarni nisbatan kam farq bilan okrugning adir va yaylov dendroflora turlari egallaydi. Tog' mintaqasi dendroflorasining yetakchilik qilishida, tuproq tarkibida organik moddalar ko'p to'planishi, sernam bo'lishi, yillik yog'in miqdori va namlik omili asosiy rol o'ynaydi. Shuningdek, Turkiston va Molguzar tog' tizmalari dendrofloralari tarkibini o'zaro tahlil qilinganda, balandlik mintaqalar ichida quyi va yuqori adir, o'rtalik tog' bosqichlarida shimoliy Turkiston dendroflora turlari Molguzarga nisbatan yetakchiliginini ko'rsatdi. Shu bilan birga, Molguzar dendroflora turlari esa quyi adir bosqichlarida Turkiston tizmasining dendroflorasidan ustunlik qilishi aniqlandi. Jumladan, adir (quyi va yuqori) geomorfologik bosqichida *Prunus*, *Rosa*, *Astragalus*, *Cotoneaster* va boshqa turkum turlarning keng tarqalish diapazoniga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Dendroflora turlarining hayotiy shakllarini balandlik gradiyenti bo'yicha taqsimganishi o'rganildi. Olingan natijalar adir va tog' mintaqalarida nanofanerofit hayotiy shakli boshqa barcha hayotiy shakllarga nisbatan keng tarqalganligini ko'rsatdi. Mikrofanerofit turlar tarqalish diapazoniga ko'ra, adir va tog' mintaqasida, nanofanerofitlardan keyingi o'rinni egallaydi. Yaylov mintaqasida ma'lum bir turkumga mansub turlar keng tarqalgan bo'lib, ularning asosiy qismini xamefit turlar tashkil etadi.

Yer qoplavidagi o'simliklar dunyosining jo'g'rofiy mintaqalarida yuz beradigan o'zgarishlar o'rmon faunasi tarkibiga ta'sir ko'rsatadi. Daraxtzorlar, butalar ozuqa hisoblanishi bilan bir qatorda fauna uchun yashash joyi hamdir [5].

Milliy bog'larida va qo'riqxonalarda ongli ravishda o'stiriladigan chetdan keltirilgan daraxt va butalar ba'zan mahalliy yovvoyi floraga kiradi, ya'ni iqlimlashadi. Bu kamdan-kam uchraydigan hodisa. Yangi iqlim sharoiti va ayniqsa mahalliy turlar konkurentsiyasi bunga to'sqinlik qiladi. Faqat ko'p urug' hosil qiladigan va keng ekologik amplitudaga ega bo'lган ayrim o'simlik turlarigina mahalliy floraga qo'shiladi [6]. Areallarning qisqarishi yoki hatto turlarning yo'qolib ketishi inson faoliyatining har tomonlama ta'siri natijasida sodir bo'ladi. Ko'histon okrugi florasida ham ko'plab yo'qolib borayotgan o'simlik turlari bo'lib, ular "Qizil kitob" ga kiritilgan. Odam yerlarni haydash, o'rmonlarni kesish (bu haqda yuqorida aytib o'tilgan edi), uy hayvonlarini haydab boqish, yaylov o'tlari va ayrim dashtlardagi o'simliklarni o'rib olish yo'li bilan ham o'simliklar qoplamiga bevosita ta'sir qiladi. Kishilarning o'simliklarga va o'simliklar qoplamiga ko'rsatadigan ta'siriga tutun bosishi, turli korxonalaridan chiqadigan gazlar va boshqa zararli chiqindilarning ta'siri ham kiradi. Ruderal (axlatli), har xil jonivorlarning yashash makoni va tashlandiq joylar hosil qilish. Kishilar faoliyati bilan bog'liq bo'lган ruderal va axlatxonalar oqsilli va boshqa organik birikmalarning parchalanishi bilan bog'liq bo'lган ko'p miqdorda azot saqlashi bilan xarakterlanadi. Shunga ko'ra, ruderal o'simliklar, odatda, nitrofillardan iborat bo'ladi, lekin shu bilan birga ular "kosmopolitlar" hamdir, chunki bu xildagi joylar hamma yerda ham bir xil bo'ladi. Nihoyat, kishilar sun'iy agrofitotsenozlar barpo etish maqsadida yangi yerlarni o'zlashtirish yo'li bilan ham o'simliklarga katta ta'sir ko'rsatadi (ekin ekish, daraxtlar o'tkazish va boshqa yo'llar bilan).

Xulosa qilib aytganda, tabiatni muhofaza qilish, ekotizimlardagi barcha o'zaro bog'liqliklarni hisobga olgan holda qayta tiklash, rekonstruktsiya qilish kerak, aks holda tuzatib bo'lmaydigan oqibatlar kelib chiqishi mumkin. Inson faoliyatini to'xtatib bo'lmaydi, lekin tabiatdan ongli ravishda foydalanish, unga ongli munosabatda bo'lish maqsadga to'la muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bhattacharai KR, Vetaas OR. Variation in plant species richness of different life forms along a subtropical elevation gradient in the Himalayas, east Nepal. //Global Ecology and Biogeography. 2003. T. 12. №. 4. – P. 327-340.
2. Lomolino M.V. Elevation gradients of species-richness, historical and prospective views. //Global Ecology and Biogeography. 2001. T. 10. №1. – P. 3-13.
3. Pianka E.R. Latitudinal gradients in species diversity, a review of concepts. //American Naturalist, 1966. 100:33–46.
4. Grytnes, J.A. & Vetaas O.R. Species richness and altitude, a comparison between simulation models and interpolated plant species richness along the Himalayan altitudinal gradient, Nepal. //The American Naturalist. 2002. T.159. №3. – P. 294-304.
5. Rodd, Tony; Stackhouse, Jennifer (2008). Trees: A Visual Guide. University of California Press. p. 112. ISBN 978-0-520-25650-7. Archived from the original on 2017-03-04. Retrieved 2016-02-28.
6. Martin, Franklin; Sherman, Scott (2007). "Agroforestry principles" (PDF). Echo technical notes. Archived (PDF) from the original on 28 July 2013. Retrieved 22 September 2014.

UO'K 58.006

**UGOM-CHOTQOL MILLIY TABIAT BOG'I DENDROFLORASINING QIYOSIY
TAHLILI*****N.E.Daminova , илмий ходим, O'zR FA Botanika instituti, Toshkent davlat pedagogika
universiteti, Toshkent******N.Yu.Beshko, b.f.d., O'zR FA Botanika instituti, Toshkent******K.Sh.Tojibayev, b.f.d., akad., O'zR FA Botanika instituti, Toshkent***

Annotatsiya. Maqolada Ugom-Chotqol davlat milliy tabiat bog'i va Toshkent viloyati dendroflorasining qiyosiy tahlil natijalari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Tahlilni amalga oshirish jarayonida tadqiq etilayotgan hududlar dendroflorasining yetakchi oilalari va turkumlariga, hamda kamyob va endemik turlariga alohida e'tibor qaratildi. Tadqiqot natijasida Toshkent viloyati hududida 32 oila 54 turkumga mansub 181 daraxt va buta turlari uchrashi aniqlandi. Ugom-Chotqol milliy bog'i uchun 47 turkum va 29 oilaga mansub daraxt va butalarning 153 turi aniqlandi, shu jumladan 6 turi Respublika Qizil kitobiga kiritilgan. Bu Toshkent viloyati dendroflorasining 84.53% va G'arbiy Tiyonshonning O'zbekiston qismiga tegishli dendroflorani tahminan 82.64% tashkil qiladi.

Kalit so'zlar: G'arbiy Tiyonshon, Rosaceae, Fabaceae, Salicaceae, polimorf taksonlar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, kadastr, kamyob turlar, Toshkent viloyati, flora.


Аннотация. В статье представлены результаты сравнительного анализа дендрофлоры Угам-Чаткальского государственного национального природного парка и Ташкентской области. Особое внимание было уделено анализу ведущих семейств и родов дендрофлоры сравниваемых регионов, а также редким и эндемичным видам. В результате исследований установлено, что на территории Ташкентской области встречается 181 вид деревьев и кустарников из 54 родов и 32 семейств. Флора Угам-Чаткальского национального парка включает 153 вида деревьев и кустарников из 47 родов и 29 семейств, из них 6 видов занесены в Красную книгу Узбекистана. Это составляет 84.53% дендрофлоры Ташкентской области и около 82.64% дендрофлоры узбекистанской части Западного Тянь-Шаня.

Ключевые слова: Западный Тянь-Шань, Rosaceae, Fabaceae, Salicaceae, полиморфные таксоны, охраняемые природные территории, кадастр, редкие виды, Ташкентская область, флора.

Abstract. The article represents the results of comparative analysis of dendroflora of the Ugam-Chatkal State National Nature Park and Tashkent Region. Special attention was paid to the analysis of leading families and genera of dendroflora of the compared regions, as well as threatened and endemic species. It was found that 181 species of trees and shrubs from 54 genera and 32 families occur within the territory of Tashkent Region. The flora of Ugam-Chatkal National Park includes 153 species of trees and shrubs from 47 genera and 29 families, 6 species of them are listed in the Red Data Book of Uzbekistan. This accounts for 84.53% of the dendroflora of Tashkent Region and about 82.64% of the dendroflora of Uzbek part of the Western Tien Shan.

Keywords: Western Tien Shan, Rosaceae, Fabaceae, Salicaceae, polymorph taxa, protected areas, cadaster, threatened species, Tashkent Region, flora.

Kirish. G'arbiy Tiyonshon yer sharidagi muxim ekologik mintaqalar qatoriga va UNESCO ning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, Markaziy Osiyoning eng noyob, xushmanzara, biologik xilma-xilligi yuqori bo'lgan hududlaridan biri sanaladi. Mazkur hudud murakkab relefga ega bo'lib, chuqur tog' oralig'idagi botiqlardan tarkib topgan va unda turli vodiylar hamda soyliklar joylashgan [1, 6]. G'arbiy Tiyonshonning O'zbekiston hududiga tegishli qismi ma'muriy jihatdan Toshkent hamda Namangan viloyatlariga qaraydi va asosiy qismi Toshkent viloyatida joylashgan. G'arbiy Tiyonshonning tabiiy landshaftlari, flora va faunasini saqlab qolish maqsadida 1947 yilda Chotqol davlat qo'riqxonasi, 1990 yilda Ugom-Chotqol davlat tabiat milliy bog'i (keyingi o'rnlarda UChMB) va 2018 yilda Ugom-Chotqol davlat biosfera rezervati tashkil qilingan. Shunday qilib, Toshkent viloyatining deyarli butun tog'li qismining noyob bioxilma-xilligini muhofaza qilinadi (1-rasm). Bundan tashqari, Toshkent viloyatining tog'li qismi "O'rta Osiyo tog'lari" global bioxilma-xillik qaynoq nuqtasi tarkibiga kiradi va bu erda O'zbekiston uchun belgilangan 36 ta muhim alohida ahamiyatga ega bioxilma-xilligi yuqori bo'lgan hududlar (Key Biodiversity Areas, KBA) dan 7 tasi shu yerda aniqlangan: Piskom daryo havzasi (255 ming hektar), Qorjontov tizmasi (15 ming hektar), Chimyon (20 ming hektar), Oqbuloq daryo havzasi (65 ming hektar), Boshqizilsov daryosi havzasi (16 ming hektar), Qorabov va Dukentsov daryo havzalari (32 ming hektar) va Kurama tizmasining shimoliy yonbag'irlari (68 ming hektar) [13]



1-rasm. Toshkent viloyatining tog'li qismidagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlari

So'ngi 20 yildan ortiq vaqt mobaynida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti olimlari va ilmiy izlanuvchilari tomonidan mazkur hududlar florasini inventarizatsiya qilish va bioxilma-xilligini bioxujjalashtirishga katta e'tibor qaratildi. Jumladan, 2020–2023 yy. "Toshkent viloyati florasining kadastr'i" davlat dasturi doirasida Toshkent viloyati florasining zamonaviy ro'yxati tuzildi (658 turkum va 105 oilaga mansub 2344 tur) va viloyatining muhofaza etiladigan tabiiy hududlari florasini inventarizatsiya qilindi. Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasi uchun 778 tur, Ugom-Chotqol milliy bog'i uchun 1712 tur, Ugom-Chotqol biosfera rezervati uchun 1113 tur va Dalvarzin davlat o'rmon-ovchilik xo'jaligi uchun 260 tur aniqlandi.

UChMB ma'muriy jihatdan Toshkent viloyatining Bo'stonliq, Parkent va Ohangaron tumanlarining tog'li hududlarida joylashgan bo'lib, geografik nuqtai nazardan, G'arbiy Tiyonshon tog' tizmalarining Qorjontov, Ugom, Piskom, Maydontol, Ko'ksuv, Chotqol tizmalari va Chimyon choqqisini qamrab oladi. Ugom-Chotqol milliy bog'ning hududi dengiz sathidan 900–4395 m balandiklarda joylashgan va tog'larning quyi, o'rta va yuqori mintaqalarini qamrab oladi. G'arbiy

Tiyonshonning O'zbekiston qismi hamda Toshkent viloyatining eng baland nuqtasi Piskom tizmasida qayd etilgan [3,4]. UChMB ning hozirgi umumiy maydoni 506,941 ming ga tashkil etadi [16], ulardan 64679 ga archazorlar, 139 ga shumtolzorlar, 565 ga zarangzorlar, 1670 ga bodomzorlar, 985 ga oq qayinazorlar, 1424 ga yong'oqzorlar, 1451 ga yovvoyi olmazorlar, 2056 ga maydonlarni do'lanazorlar egallaydi [5]. Ugom-Chotqol Milliy bog'i Toshkent viloyatining bioxilma-xilligi yuqori bo'lgan eng muhim hududlardan biri bo'lib, daraxt va buta turlarga boyligi bilan ham ajralib turadi.

Toshkent viloyati va uning ayrim muhofaza etiladigan hududlarini o'rganishga bag'ishlangan floristik tadqiqotlarda G'arbiy Tiyonshon dendroflorasiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, K.Sh. Tojibayevning "Janubi-G'arbiy Tiyonshon florasi"ga bag'ishlangan tadqiqotda 32 oila, 54 turkumga oid 155 takson [7], X.D. Mirzakarimova "Ugom-Chotqol Davlat Milliy tabiat bog'i dendroflorasi" ro'yxatda daraxt va butalarning 30 oila, 55 turkumga mansub 151 turi tadqiqot hududida o'sishi qayd etilgan [3]. SHuningdek, "Toshkent viloyati florasining kadastr" davlat dasturi doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda hudud florasida 32 oila 54 turkumga mansub 181 daraxt va buta turlari uchrashi aniqlandi.

An'anaviy klassik floristikada va floristik tadqiqotlarda tadqiq etilayotgan hudud florasini taksonomik va qiyosiy tahlil qilishd muhim ahamiyatga ega. Ayrim ilmiy manbalarda hudud florasini qiyosiy tahlil qilishda hududni kattaligi bo'yicha tanlash kerakligi ko'rsatilgan bo'lsa, ba'zi floristik tadqiqotlarda esa mualliflar tomonidan taqqoslangan flora geografik jihatdan bog'langan va ma'lum qarindoshlik aloqalarga ega bo'lish kerakligi aytib o'tilgan [4, 7, 9]. Ugom-Chotqol milliy bog'i O'zbekiston hududida bioxilma-xilligi yuqori bo'lgan hududlaridan biri hisoblanadi va u Toshkent viloyatida joylashgan. Daraxtlar va butalar, ayniqsa tog' archa va bargli o'rmonlar muhim ekologik rol o'ynaydi, shuningdek, qulay mikroiqlimni saqlash, mintaqaning tuproq qoplami va suv resurslarini saqlashda katta ahamiyatga ega. Shunga ko'ra, ushbu tadqiqotda, UChMT va TVF (Toshkent viloyati florasi) hududining joylashuv o'rni va balandlik mintaqalari, iqlim sharoitlari yaqin bo'lganligi bois, mazkur hududlarda tarqalgan daraxt va butalarning qiyosiy tahlili amalga oshirildi.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqot obyekti

Tadqiqot ob'ekti Ugom-Chotqol milliy bog'i va Toshkent viloyati florasida tarqalgan daraxt va buta turlari.

Tadqiqot uslublari

2020–2023-yillarda Toshkent viloyatining hududida olib borilgan marshurutli dala tadqiqotlari davomida yig'ilgan ma'lumotlarlardan hamda TASH, MW, GBIF, Plantarium va iNaturalist ma'lumotlaridan foydalanildi. Olingan natijalar asosida turlarning solishtirma taksonomik, qiyosiy va statistik tahlillari amalga oshirildi.

Natijalar. Ugom-Chotqol davlat tabiat bog'i va Toshkent viloyati dendroflorasiga oid ma'lumotlar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida E. Regel, O.A. Fedchenko, B.A. Fedchenko, Z.A. Minkvits, O.E. Knorrung, M.G. Popov, R.I. Abolin, M.M. Sovetskina, I.A. Linchevskiy, P.A. Gomolitskiy, E.P. Korovin, M.V. Kultiasov, A.I. Vvedenskiy, V.N. Pavlov va boshqalarning ilmiy asarlarida, ocherklarida qayd etilgan [3, 4, 5, 6]. Shuningdek, XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida M.X. Axunov (1966) "Экологический анализ древесно-кустарниковой флоры Ташкентского горно-промышленного района", V.N. Pavlov (1972-1980) "Ботанико-географическое районирование Западного Тянь-Шаня", "Растительный покров Западного Тянь-Шаня", L.S. Krasovskaya va I.Levichevlarning (1986) "Флора Чаткальского заповедника", Z.U. Muzaffarova (1993) "Флора и растительность бассейна реки Наувалисай", E.A. Butkov (2008) "Состав лесов и древесные ресурсы Угам-Чаткальского национального парка" [2], K.Sh. Tojibayev (2004-2010) "Материалы к флоре Угам-Чаткальского национального парка", "Флора Юго-Западного Тянь-Шаня" [5, 6], O'. Pratov (2012) "Ugom-Chotqol Milliy bog'inining tabiat" [4], K.SH. Tojibaev va boshq. "Ugom-Chotqol milliy bog'i florasining rasmlı aniqlagich" [8], "The flora of Tien Shan Mountains: endemic species" (Tojibaev et al., 2019), "Checklist of vascular plants of the Tian-Shan Mountain System" (Sennikov, Tojibaev, 2021) nomli asar va monografiyalarda Milliy bog'ning daraxt va butalariga oid ma'lumotlar keltirilgan.

X.D. Mirzakarimova (2009-2012) tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida Ugom-Chotqol davlat milliy tabiat bog'i dendroflorasining ilk ro'yxati keltirilgan. Ushbu ro'yxatda daraxt va butalarning 30 oila, 55 turkumga mansub 151 turi milliy tabiat bog'i hududida o'sishi qayd etilgan, shundan 5 turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan. "Toshkent viloyati florasi kadastro" loyihasini amalga oshirish natijasida UChMB dendroflora ro'yxati 27 daraxt va buta turlari bilan to'ldirildi. Shunday qilib, zamonaviy ma'lumotlarga ko'ra, Ugom-Chotqol milliy bog'i hududida 47 turkum va 29 oilaga mansub daraxt va butalarning 153 turi ro'yxatga olingan. Bu Toshkent viloyati dendroflorasining 84.53% va G'arbiy Tiyonshonning O'zbekiston qismiga tegishli dendroflorani tahminan 82.64% tashkil qiladi. Ugom-Chotqol milliy bog'i hududi uchun keltirilgan oila, turkum va turlar sonidagi tofovutlar X.D. Mirzakarimova tomonidan dendroflora ro'yxatiga (dendroflora hisoblangan va hisoblanmaydigan (pl. dendroflora полукустарники va полукустарчик)) yarim buta va yarim butacha singari hayotiy shaklga ega bo'lgan 10 turi kiritilganligi hamda hozirgi vaqtida turkum va turlar doirasida amalga oshirilayotgan malekulyar filogenetik va malekulyar genetik tadqiqotlar natijasiga ko'ra tan olingan xalqaro ba'zalarda taksonomiya va nomenklaturaga oid jiddiy o'zgarishlar kiritilayotganligi bilan izohlanadi.

Aniqlangan turlarning 10 tasi Qarag'aytoifa (Pynophyta) bo'limiga mansub, qolgan 135 tur Magnoliyasimonlar (Magnoliopsida) ajdodiga tegishli bo'lib, Milliy tabiat bog'i dendroflorasining asosiy qismini o'z ichiga qamrab oladi (1-jadval). X.D. Mirzakarimova o'z tadqiqotlarida turlarning taksonmik tahlilini — bo'lim, ajdod, ajdodcha, qabila, oila, turkum, tur kabi sistematik birliklar bo'yicha amalga oshirgan. Jumladan, Rosidae ajdodchasi 17 ta oilani qamrab olishi hisobiga Ugom-Chotqol milliy bog' hududida yaqqol ustunlikka ega. Olima tomonidan dendroflora ro'yxatida keltirilgan oilalarning taksonomik tahliliga ko'ra, Rosaceae oilasi 13 turkum va 47 tur bilan ustunlik qiladi va keyingi o'rinnlarni esa Fabaceae (18), Caprifoliaceae (12 tur), Salicaceae (10), Lamiaceae (7), Plumbaginaceae, Polygonaceae (har biri 5 tur), Ephedraceae, Ulmaceae, Rhamnaceae (har biri 4 tur) oilalari egallaydi (1-jadval). Shuningdek, Cupressaceae, Berberidaceae, Tamaricaceae, Elaeagnaceae, Oleaceae, (har biri 3 tur), Anarcardiaceae, Crossulariaceae, Celastraceae Betulaceae, Ranunculaceae, Amaranthaceae (har biri 2 tur), Aceraceae, Thymelaceae, Vitaceae, Solanaceae, Simaroubaceae, Juglandaceae, Plantanaceae (har biri 1 tur) oilalari kam sonli turlardan tashkil topganligi ko'rsatib o'tilgan (1-jadval).

1-jadval

Daraxt va butalarning taksonomik xilma-xilligi

№	Oila	UCHMB			TVF			Tur	%	ET
		Turkum		ET	Turkum		ET			
		ts	%	ts	%	ts	%			
Ochiq urug'lilar (Gymnosperms)										
1	Cupressaceae	1	1.81	3	2	—	1	1.85	3	1.65
2	Ephedraceae	1	1.81	4	2.64	—	1	1.85	4	2.21
Yopiq urug'lilar (Angiosperms)										
3	Rosaceae	13	23.6	47	31.12	1	11	20.37	66	36.46
4	Fabaceae	6	11	18	11.92	—	6	11.11	18	9.94
5	Caprifoliaceae	1	1.81	11	7.28	—	1	1.85	8	4.41
6	Salicaceae	2	3.63	10	6.62	—	2	3.7	17	9.39
7	Lamiaceae	1	1.81	7	4.63	—	1	1.85	3	1.65
8	Polygonaceae	2	3.63	5	3.31	—	2	3.7	7	3.86
9	Plumbaginaceae	1	1.81	5	3.31	2	1	1.85	6	3.31
10	Rhamnaceae	2	3.63	4	2.64	—	2	3.7	3	1.65
11	Ulmaceae	2	3.63	4	2.64	—	2	3.7	6	3.31
12	Elaeagnaceae	2	3.63	3	2	—	2	3.7	2	1.10
13	Tamaricaceae	2	3.63	3	2	—	2	3.7	9	4.97
14	Berberidaceae	1	1.81	3	2	—	1	1.85	3	1.65
15	Oleaceae	1	1.81	3	2	—	1	1.85	2	1.10
16	Amaranthaceae	2	3.63	2	1.32	—	1	1.85	1	0.55
17	Anarcardiaceae	2	3.63	2	1.32	1	2	3.7	2	1.10
18	Ranunculaceae	1	1.81	2	1.32	—	1	1.85	2	1.10
19	Betulaceae	1	1.81	2	1.32	—	1	1.85	2	1.10
20	Grossulariacea	1	1.81	2	1.32	—	1	1.85	2	1.10

21	Celastraceae	1	1.81	2	1.32	–	1	1.85	1	0.55	–
22	Sapindaceae	1	1.81	1	0.66	–	1	1.85	2	1.10	–
23	Solanaceae	1	1.81	1	0.66	–	1	1.85	3	1.65	–
24	Zygophyllaceae	1	1.81	1	0.66	–	–	–	–	–	–
25	Juglandaceae	1	1.81	1	0.66	–	1	1.85	1	0.55	–
26	Thymelaeaceae	1	1.81	1	0.66	1	1	1.85	1	0.55	1
27	Platanaceae	1	1.81	1	0.66	–	1	1.85	1	0.55	–
28	Moraceae	1	1.81	1	0.66	–	1	1.85	1	0.55	–
29	Simaroubaceae	1	1.81	1	0.66	–	1	1.85	1	0.55	–
30	Vitaceae	1	1.81	1	0.66	1	1	1.85	1	0.55	1
31	Santalaceae	–	–	–	–	–	1	1.85	1	0.55	–
32	Asteraceae	–	–	–	–	–	1	1.85	1	0.55	–
33	Convolvulaceae	–	–	–	–	–	1	1.85	1	0.55	–
Jami		55	100	151	100	6	54	100	181	100	5


Izoh: TS: turlar soni; ET: Endemik tur.

Tahlil natijalari uchun yetakchi oilalar qatoriga 5 dan ortiq turga ega bo‘lgan oilalar tanlab olindi (1-rasm). 1-jadval hamda 2-rasmida keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, UChMB yetakchi oilalar bo‘yicha TVF o‘xshash bo‘lib, polimorf oilalarning ketma-ketligi bo‘yicha 7 ta oilalar qisman bir xilda, faqat oilalar ketma-ketligi tartibi o‘zgargan.

Ugom-Chotqol milliy bog‘i dendroflorasida hamda Toshkent viloyati florasining daraxt va buta turlari bo‘yicha yetakchi oilalar spektrini Rosaceae oilasi boshqaradi (2-rasm). Bu holat, birinchidan bir qator tadqiqotchilar tomonidan Rosaceae oilasi O‘rta Osiyo (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston va Afg‘oniston) mamlakatlari floralarida daraxt va buta turlari bo‘yicha eng boy oilalardan biri sifatida tan olinganligi va oila tarkibidagi turlarning aksariyati adir, tog‘ elementlariga xos bo‘lgan turlarning yetakchi o‘rni bilan izohlanadi. Bundan tashqari, Rachid Meddour (2021) tadqiqotlarida ham Rosaceae oilasi O‘rtaerdengizi va Evropa mamlakatlaridagi floralar tarkibida keltirilgan daraxt va buta turlari uchun eng boy oila sifatida qayd etilgan [1, 10, 11]. Shuningdek, ushbu oilaga mansub turlarning asosiy maydonlari G‘arbiy Tiyonshonning Ugom, Piskom, Maydontol, Chotqol, Qurama va Qorjontov tizmalarida joylashganligini asos qilib keltirish mumkin.

Fabaceae oilasi *Astragalus*, *Caragana*, *Oxytropis* va boshqa turkum vakillari hisobiga polimorf oilalar spektrida ikkinchi qatorni egalladi (2-rasm). Bu oila vakillari O‘rta Osyoning aksariyat qismidagi floralarda, shuningdek, O‘rtayer dengizi hamda tropik mintaqalarida ham dendroflora turlari bo‘yicha ustunlik qilishi qayd etilgan [1, 6, 7, 9, 10, 11, 12].

Yetakchi oilalar



2-rasm. UChMB va TVF yetakchi oilalari

Milliy bog‘ dendroflorasida birinchi uchlikning oxirgi qatorini Caprifoliaceae, Toshkent viloyati florasida esa Salicaceae oilasi egalladi. Milliy bog‘ dendroflorasida asosan tog‘, adir va cho‘l (tekislik) mintaqalarining qurg‘oqchil iqlim sharoitlarida yaxshi o‘sishga moslashgan *Lonicera* turkumiga oid turlarning ko‘pligi Caprifoliaceae oilasini yetakchi oilalar spektrida birinchi uchlikka kirishiga asos bo‘lgan. Toshkent viloyati florasida esa Salicaceae oilasi turlar xilma-xilligi bo‘yicha

Fabaceae oilasidan keyingi o'rinda turadi. Bu holat, Toshkent viloyati egallagan maydon milliy bog'ga nisbatan katta ekanligi, tog' va tog' daryo vodiylari hamda soyliklar atrofida, shuningdek, tekislik zonasining sernam hududlarida yaxshi o'sishga moslashgan *Salix* turlariga boyligi bilan izohlanadi (2-jadval). Bundan tashqari, *Populus* turkumiga oid uch tur ushbu hududda uchrashi qayd etilgan. Qiyosiy tahlil qilinayotgan ikki hudud florasida Caprifoliaceae va Salicaceae oilalari polimorf oilalar spektrida ketma-ket tartibdagi o'rirlarni egallaydi.

Lamiaceae yetakchi oilalar qatoridan joy olishda *Scutellaria* turlari asosiy rol o'ynaydi. Tadqiqotchi tomonidan UChMB turkum turlariga boyligi bilan ajralib turishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan [3, 4]. Shu o'rinda shuni alohida takidlash kerakki, G'arbiy Tiyonshon florasi hayotiy shakliga ko'ra buta (*Scutellaria adsurgens*, *Scutellaria cordifrons*, *Scutellaria phyllostachya*) va yarim buta (*Salvia karelinii*, *Salvia kudrjaschevii*, *Scutellaria chaematochlora*, *Scutellaria immaculata*, *Scutellaria intermedia*, *Scutellaria microdasys*, *Scutellaria pycnoclada*) hisoblangan *Salvia* va *Scutellaria* turkumlari ko'p sondagi turlarni qamrab oladi. Mazkur oila vakillari TVF turlar soniga ko'ra, Tamaricaceae oilasidan keyingi o'rinni egallaydi.

Toshkent viloyati florasida Tamaricaceae oilasining 2 turkumga mansub 9 turi uchrashi qayd etildi. Mazkur oilaning yetakchi oilalar qatoriga kirishida *Tamarix* turkumi asosiy rol o'ynaydi. *Tamarix* turkum turlari viloyatning cho'l va adir mintaqasida, shuningdek, Dalvarzin davlat o'rmon-ovchilik xo'jalik hududida nisbatan keng tarqalgan. Ushbu oila vakillarining ulushi milliy bog' dendroflorasida past ko'rsatkichga ega.

Polygonaceae va Plumbaginaceae oilalarining turlar xilma-xilligida teng va farqli tomonlari 1-jadval hamda 2-rasmida keltirilgan. Polygonaceae oilasining *Atrapaxis* turkumiga oid turlar UChMB va Toshkent viloyatining shimoliy va janubiy qismlarining tog' va adir mintaqalarida keng tarqalish diapazoniga ega ekanligi bilan oiladagi boshqa turkum vakillaridan ajralib turadi. Shuningdek, milliy bog'i hududida cho'l mintaqasiga xos tabiiy landshaftlarning kamligi Polygonaceae oilasining turon provitsiyasiga mansub daraxtga o'xshash *Calligonum* turlarini ushbu huddudda uchramasligiga ko'rsatadi. Ammo viloyat hududida *Calligonum* turlari cho'l va adir mintaqasida uchraydi, bu holat Toshkent viloyatida Dalvarzin davlat o'rmon-ovchilik xo'jaligi va boshqa cho'l mintaqasiga xos tabiiy landshaftlarning mavjudligi bilan izohlanadi.

2-jadval

Yetakchi turkumlar spektri

№	UCHMB			TVF		
	Turkum	Tur	%	Turkum	Tur	%
1	<i>Rosa</i>	14	9.21	<i>Rosa</i>	18	9.94
2	<i>Lonicera</i>	11	7.89	<i>Prunus</i>	13	7.18
3	<i>Salix</i>	7	4.60	<i>Cotoneaster</i>	13	7.18
4	<i>Cotoneaster</i>	6	3.94	<i>Salix</i>	12	6.62
5	<i>Acantholimon</i>	5	3.29	<i>Lonicera</i>	8	4.41
6	<i>Crataegus</i>	5	3.29	<i>Tamarix</i>	8	4.41
7	<i>Cerasus</i>	5	3.29	<i>Astragalus</i>	7	3.86
8	<i>Prunus</i>	4	2.63	<i>Acantholimon</i>	6	3.31
9	<i>Amygdalus</i>	4	2.63	<i>Crataegus</i>	5	2.76
10	<i>Astragalus</i>	4	2.63	<i>Pyrus</i>	6	3.31
Jami:		66	43.4	Jami:	96	52.98
Qolgan turkumlar (45)		86	56.6	Qolgan turkumlar (44)	85	46.98
Hammasi		152	100	Hammasi	181	100

Ilmiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, tarqalish maydonlari nisbatan tor bo'lgan G'arbiy Tiyonshon areal sinflariga xos bo'lgan *Acantholimon* turlarining xilma-xillik markazlari G'arbiy Tiyonshonning Ugom, Piskom, Maydontol, Chotqol, Katta Chimyon va Qurama tizmalariga to'g'ri keladi. Ushbu tog' tizmalarining O'zbekiston hududiga tegishli maydonlarining asosiy qismi Toshkent viloyati va uning tarkibidagi UChMB hududida joylashgan bo'lishiga qaramay kirpio't turkumiga mansub turlar ishtiroki dendroflora ro'yxatida past ko'rsatkichga ega. Bu holat, ushbu hududlarda olib borilgan dala tadqiqotlarida tadqiqot hududi to'laligicha qamrab olinmaganligiga ishora beradi. Bu esa yaqin yillar ichida G'arbiy Tiyonshon hududida tarqalgan daraxt va butalarni inventarizatsiya qilish va to'r tizimli xaritalashga bag'ishlangan monitoring tadqiqotlar o'tkazish kerakligini taqozo etadi.

Ugom-Chotqol davlat milliy tabiat bog'i dendroflorasida turkum doirasida amalga oshirilgan tahlil natijalariga ko'ra, *Rosa* turkumi 14 tur (9.65%) bilan barcha turkumlar orasida eng yuqori koeffitsientga ega ekanligi qayd etilgan. *Lonicera* – 11 tur (7.28), *Salix* – 7 tur (4.82%), *Cotoneaster* – 6 tur (4.13%), *Acantholimon*, *Crataegus* va *Cerasus* – har biri 5 tur (3.44%), *Prunus*, *Amygdalus*, *Astragalus*, *Atraphaxis*, *Populus* – har biri 4 turdan (2.75%) tashkil topgan (2-jadval). Qolgan turkumlarda turlar sonining kamayib borish tartibi 3 tadan 1 ta gacha ko'rsatilgan. Shu bilan birga 8 turkum Milliy bog'i dendroflorasida bitta turdan iborat bo'lgan turkumlar hisoblanadi (1-jadval). Monotip turkumlar soni 6 ta, ular umumiy dendrofloraning 3.95% tashkil qiladi.


Milliy tabiat bog'i dendroflorasining yetakchi turkumlari qatoridan joy olgan *Cerasus* turkumi oiladagi *Amygdalus* turkumi bilan hozirga vaqtida turkum doirasi amalgan oshirilayotgan botanik taksonomiya va nomenklaturaga oid o'zgarishlar natijasida *Prunus* turkumiga o'tkazilgan. Bu esa o'z navbatida *Prunus* turkumini yetakchi turkumlar spektrida *Rosa* turkumidan keyingi o'rinni egallashini ko'rsatadi.

TVF yetakchi turkumlar spektrini *Rosa* (18 tur, 9.94%), *Acantholimon*, *Prunus*, *Cotoneaster* (har biri 13 tur, 7.18%), *Salix* (12 tur, 6.62%), *Lonicera*, *Tamarix*, (har biri 8 tur, 4.41%), *Astragalus* (7, 3.86%), *Acantholimon*, *Pyrus* (har biri 6 tur, 3.31%) va *Crataegus* (5 tur, 2.76%) tashkil qiladi (2-jadval). Ushbu turkumlar floradagi daraxt va butalar ulushining 52.98% qamrab oladi va turlar boyligining asosiy qismini (96 tur) tashkil etadi.

Taksonomik tahlil qilinayotgan UChMB hududida O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va endemik turlardan *Acantholimon ekatherinae*, *Nanophyton botschantzevii*, *Pyrus asia-mediae*, *Rhus coriaria*, *Restella albertii*, *Vitis vinifera* kabi turlar uchrashi qayd etilgan. TVF ushbu turlardan tashqari *Acantholimon margaritae*, *Platanus orientalis*, *Ziziphus jujuba* va *Cercis griffithii* singari kamyob turlar uchraydi. Shuningdek, viloyat kesimida 71 tur Qizil kitobga kiritilgan bo'lib, shundan 14.1% dendroflora turlari tashkil qiladi. Bundan tashqari, Tabiatni Muhofaza Qilish Xalqaro Ittifoqi (IUCN Red List, 2023)ning qizil ro'yxatiga *Malus niedzwetzkyana* (EN B2ab(iii,v)), *Malus sieversii* (VU A2cde), *Prunus bucharica* (*Amygdalus bucharica* Korsh. (VU B2ab(iii,v)), *Pyrus korshinskyi* (CR B2ab(iii,v), *Pistacia vera* (NT A2cd), *Populus pruinose* (NT) singari turlari kiritilgan [17].

2020–2023 yillarda "Toshkent viloyati florasining kadastri" davlat dasturi doirasida viloyatning muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda tarqalgan daraxt va butalarini inventarizatsiya qilish natijasida Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasida 15 oila 22 avlodga mansub 75 tur, Ugom-Chotqol milliy bog'ida 29 oila 47 turkumga oid 153 tur, Ugom-Chotqol biosfera rezervatida 21 oila 31 turkumga tegishli 99 tur va Dalvarzin davlat o'rmon-ovchilik xo'jalida uchun 6 oila 7 avlodning 20 turi uchrashi aniqlandi (3-rasm).

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda uchraydigan turlar soni 16 ta (3 oila 6 turkum), bu toshkent viloyati dendroflorasining 8.84% tashkil etadi. Viloyat florasida tarqalgan daraxt va butalarning 91.16% muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda uchraydi.




3-rasm. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning dendroflora tarkibi

Shu o'rinda shuni alohida takidlash kerakki, viloyatning muhofaza etiladigan tabiiy hududlarida tarqalgan daraxt va butalar hududning iqlim sharoitlarini yaxshilashda, tog' daryo vodiyalaridagi suv toshqinlari va sel kelishi oqibatida yuz beradigan turli eroziyalarni oldini olishda katta rol o'ynaydi, shuningdek, sanitariya, gigiena, sog'lomlashdirish va rekreatsion ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ushbu hududlarda tarqalgan o'simlik jamoalaridagi dominat hisoblangan archa daraxtlarining sekin o'sish va tabiiy regeneratsiyaning zaifligi tufayli archazor jamoalari eng zaif fitotsenozlar qatoriga kiradi.

Muhokama. "Toshkent viloyati florasining kadastri" loyiha natijalariga ko'ra, Ugom-Chotqol milliy bog'i mintaqaning butun o'simlik xilma-xilligini, viloyat va G'arbiy Tiyonshon dendroflorasini saqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ugam-Chotqol Milliy bog'i Toshkent viloyati dendroflorasining 84.53% va g'arbiy Tiyonshon (O'zbekiston qismi) dendroflorasining 82.64% tashkil qiladi, shu jumladan 6 turi Respublika Qizil kitob kiritilgan bo'lib, milliy bog' hududida muhofaza etiladi.

Taksonomik tahlil natijalari UChMB va TVF daraxt va buta turlarining xilma-xilligi yuqori ekanligini ko'rsatdi. Tadqiq etilayotgan har ikki hudud dendroflorasida yetakchi oilalar spektrini Rosaceae oilasi boshqaradi. Mazkur holat, tadqiq etilayotgan hududlarning asosiy qismi G'arbiy Tiyonshonning Ugom, Piskom, Chotqol va Qurama tizmalariga tegishli bo'lib, ushbu hududlarda cho'l (tekislik) va adir mintaqalariga nisbatan namgarchilikning yuqoriligi Rosaceae oilasining dominantlik qilishiga asos bo'ladi va ushbu oila tarkibida tog' elementlariga xos bo'lган daraxt va buta turlarini ko'pligi hamda tarqalish diapazonining kengligi bilan izohlanadi.



4-rasm. Chotqol tizmasi. Amirsoy hududida olib borilayotgan qurilishlar

UChMB yetakchi oilalar spektrida keyingi uchlikni Fabaceae, Caprifoliaceae va Salicaceae oilalari egallaydi. TVF ham ushbu oilalarning turlar xilma-xilligi yuqori bo'lib, spektrda joylashgan o'rning ketma-ketligiga ko'ra farq qiladi. Bu holat oila tarkibiga kiruvchi cho'l (tekislik), adir va tog' mintaqalari uchun xos bo'lган kserofit hamda sernam hududlarida yaxshi o'sishga moslashgan turlarning yetakchi o'rni bilan izohlanadi. Navbatdagi o'rnlarni UChMB Lamiaceae, Polygonaceae va Plumbaginaceae oilalari, TVF esa Tamaricaceae, Lamiaceae, Polygonaceae va Plumbaginaceae egallaydi. Dendrofloralari ro'yxatida keltirilgan polimorf oila va turkumlar ketma-ketligi, turlar tarkibi, yetakchi taksonlarning joylashuviga ko'ra, Tog'lio'rtaosiyo mintaqasining cho'l (tekislik), adir, tog' va yaylov florasiga tegishli ekanligini ko'rsatdi. Hozirgi vaqtida O'zbekistonda doimiy yashovchi aholi sonini keskin o'sib borishi tabiiy landshaftlarga antropogen ta'sirlarning ortib borishiga va ayrim tabiiy landshaftlarni butunlay o'zlashtirilishiga oqibatda esa hududda tarqalgan biologik xilma-xillikni butunlay yo'qolishiga olib kelmoqda. UChMB va TVF hududida joylashgan

tabiiy landshaftlarga ham antropogen ta'sirlar ko'lami yil sayin ortib bormoqda, bunga misol qilib Katta Chimyon, Ugom, Piskom, Chotqol va Qurama tog' tizmalari oralig'ida olib borilayotgan qurilishlarni keltirish mumkin (4-rasm).

Antropogen omillar ta'sirida 10 yildan ortiq vaqt mobaynida ro'y bergan o'zgarishlar, taksonomik va qiyosiy tahlil natijalari G'arbiy Tiyonshon tog' tizmalari (O'zbekiston qismi) egallagan maydonlarda daraxt va butalarni (dendroflorani) inventarizatsiya qilish, tur tarkibini aniqlash, kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlarni *in-situ* va *ex-situ* sharoitida muhofaza qilish, biogeografik va ekologik xususiyatlarini o'rganish va to'r tizimli xaritalashga bag'ishlangan monitoring tadqiqtolar o'tkazish kerakligini talab etadi.

Minnatdorchilik. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Botanika instituti ma'muriyatiga "Toshkent viloyati florasi kadastri" davlat dasturi doirasida dala tadqiqtarlarni amalga oshirishda yaqindan yordam bergenligi uchun minnatdorchilik bildiramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Daminova N.E. Farg'ona vodiysi dendroflorasi. Diss. B.f.f.d. avtoref. Toshkent, 2023. – 44 b.
2. Daminova N.E., Beshko N.YU. *Astragalus rubrivenosus* Gontsch. ning tarqalishi va muhofazasi. Xorazm ilmiy axborotnomasi, 2023. 29-35 B.
3. Mirzakarimova X.D. Ugom-Chotqol davlat milliy tabiat bog'i dendroflorasi. Diss. b.f.f.d. – Toshkent, 2012. – 177 b.
4. Pratov O'. Ugom-Chotqol Milliy bog'ining tabiat. Toshkent: Fan, 2012. –66.
5. Тожибаев К.Ш.Материалы к флоре Угам-Чаткальского национального парка. – Ташкент-Газалкент: Угам-Чатк. Гос. Природ. Нац. Парк, 2008. – С. 54-58.
6. Тожибаев К.Ш.Флора Юго-Западного Тянь-Шаня. – Ташкент: Фан, 2010. – 100 с.
7. Тожибаев К.Ш. Флора Юго-Западного Тянь-Шаня (в пределах республики Узбекистан). Дисс....докт. биолог. наук. – Ташкент, 2010. – 271 с.
8. Tojibaev K.Sh., Beshko N.Yu. Gaziev A.D. Qodirov U.H. Malsev I.I. Ugom-Chotqol milliy bog'i florasing rasmlni aniqlagichi. – Tashkent, "Samo nashr" 2023. – 348 b.
9. Xoshimov X.R. Farg'ona vodiysi shimoliy adirlarining florasi. Diss. B.f.f.d. avtoref. Toshkent, 2023. –44 b.
10. Abbate G., Iberite M., Bonacquisti S., Giovi E., Iamonico D. & Scassellati E. 2012. Taxonomical and chorological diversity of native woody flora of Italy at regional scale. //Bocconeia. – 2012. – T. 24. – S. 169-175.
11. Beech E., Rivers M., Oldfield S. & Smith P.P. 2017. GlobalTreeSearch: the first complete global database of free species and country distributions. Journal of Sustainable Forestry 36(5): 454–489.
12. Médail, F., Monnet, A. C., Pavon, D., Nikolic, T., Dimopoulos, P., Bacchetta, G., & Leriche, A. What is a tree in the Mediterranean Basin hotspot? A critical analysis. //Forest Ecosystems. – 2019. – T. 6. – №. 1. – S. 1-19.
13. Profile E. Mountains of Central Asia Biodiversity Hotspot. 2017. – C. 44.
14. Roma-Marzio F., Bedini G., Müller J.V. & Peruzzi L. 2016. A critical checklist of the woody flora of Tuscany (Italy). //Phytotaxa. 287(1): 1–135.
15. Sennikov A. N., Tojibayev K. S. Checklist of vascular plants of the Tian-Shan Mountain System //Korea National Arboretum, 2021. – 607 pp.
16. Ekologiya vazirligining rasmiy sayti <https://uznature.uz/yz/activity/biodiversity?numer=444>
17. <https://www.iucnredlist.org/>

UDK 581.582.57·2(575·15)

KO'HITANG TIZMASI FLORASI TARKIBIDAGI POA L. TURKUMI TURLARINING BIOEKOLOGIYASI

A.J.Ibragimov, dots., Termiz davlat universiteti, Termiz

M.A.Abdimominova, magistrant, Termiz davlat universiteti, Termiz

Annotatsiya. Ushbu maqolada Poaceae oilasiga mansub Poa L.turkumi turlarining Ko'hitang tizmasida 9 turni ya'ni umumiyl oila vakillarining 8.41 % ni tashkil etishi, ushbu turlarning bioekologik tasnifi, hamda populyatsiyasining hozirgi kundagi holati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: flora, tur, turkum, endem, o'simliklar dunyosi, qo'riqxona, tog', adir

Аннотация. В данной статье представлены 9 видов видов Poa L., принадлежащих к семейству Poaceae в ареале Кохитанг, т.е. 8,41% от общего числа представителей семейства, биоэкологическая классификация этих видов и современное состояние их популяции.

Ключевые слова: флора, вид, категория, эндемик, растительный мир, заповедник, гора, холм.

Abstract. In this article, there are 9 species of *Poa L.* species belonging to the Poaceae family in the Kohitang range, i.e. 8.41% of the total family members, bioecological classification of these species, and the current state of their population.

Key words: flora, species, category, endemic, plant world, nature reserve, mountain, hill

Ko'hitang tizmasi Pomir-Oloy tog' tizimining Janubi-G'arbiy qismida joylashgan bo'lib, ma'muriy jihatdan Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani hududiga qarashlidir.

Ko'hitang botanik-geografik rayoni shimoldan Janubi-G'arbiy Hisor okrugining Tarqopchig'ay, sharqi va janubidan Surxon-Sherobod, hamda g'arbidan Turkmaniston Respublikasi bilan chegaradosh bo'lib, taksonomik xilma-xillikning yuqoriligi, kamyob, endem hamda relikt turlarga boyligi bilan ajralib turadi. [1]

Ko'hitang botanik-geografik rayonida S.A. Nevskiy [2], F.O. Xasanov [3] va A.J. Ibragimovlar [4] tomonidan tadqiqotlar olib borilgan va gerbariy namunalari olib kelingan. Mazkur gerbariy ma'lumotlari tarqoq holatda bo'lib, mazkur tadqiqot hududi florasi to'g'risida yaxlit ma'lumot bermaydi. Ya'ni, ilmiy izlanishlarga bog'liq gerbariy namunalari hududning ma'lum bir qismi yoki hududlari bo'yicha mavjud. Bu esa mazkur rayon hududida aniq maqsadga yo'naltirilgan tadqiqotlar olib borishga zarurat ortishi hamda ishning dolzARB ekanligidan dalolat beradi.

Ko'hitang tizmasi (6,7 ming km²) va uning atrofidagi hududlar florasi R.V. Kamelin [5] hisobi bo'yicha 1435 tur, 545 turkum va 92 oilalardan tashkil topgan. Bu flora Janubi-G'arbiy Hisor okrugining juda boy va o'ziga xos bo'lgan bo'lagi sifatida e'tirof etiladi. Aynan, Ko'hitang tizmasining florasi uchun keltirilgan turli ma'lumotlar [6] asosida fikr yuritadigan bo'lsak, shuni aytish mumkinki, tizma sharqiy yonbag'rligining markaziy qismida joylashgan Surxon qo'riqxonasining yuksak o'simliklari tarkibi tizmaning umumiylor florasiga nisbatan reprezentativ xarakterga ega va tizma sharqiy yonbag'rligida mavjud bo'lgan o'simliklar xilma – xillagini o'zida aks ettiradi.

Poaceae Barnhart oilasi Tog'li O'rta Osiyo va Eron-Turon floralarida yetakchi o'rinnarda birini egallaydi hamda mazkur floralarni turlarga boyligi jihatidan o'zaro bog'lab turadi. Hozirgi kunda yer yuzida *Poaceaenning* 759 turkumga oid 11 554 ta turi uchrashi aniqlangan. (<http://www.theplantlist.org/1.1/browse/A/Poaceae/>) O'zbekistonda esa 301 ta turi o'sishi aniqlangan. *Poa L* turkumini esa 537 ta turi tarqalgan. *Poa L* turkumini O'rta Osiyoda 68 dan ortiq, [6] O'zbekistonda esa 18 dan ortiq turlari tarqalgan. Oxirgi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar va Markaziy gerbariy (TASH) fondida saqlanayotgan namunalarni tahlil qilish natijasida mazkur florada turkumning 20 ta turi uchrashi ma'lum bo'ldi. Oxirgi izlanishlar natijasida Ko'hitang botanik geografik rayonida turkumning 9 ta turi tarqalganligi aniqlandi.

Ilmiy tadqiqotlar natijasida aniqlandiki, hududning umumiylor florasida *Poaceae* oilasi uchinchi (107 tur yoki 9.28%) o'rinda turadi. Bu holat Tog'li O'rta Osiyo floralarini uchun xos xususiyat bo'lsa [6], shimoliy hududlarning floralarida tutgan o'rni ancha salmoqli bo'ladi [5, 6]. Bu oilaning yetakchilik o'rni *Bromus* (13), *Poa* (9 tur), *Stipa* (8), *Aegilops* (5) turkumining turlarga boyligi bilan ham asoslanadi.

1- jadval

Ko'hitang tizmasi florasi tarkibidagi *Poa L.* turkumi turlari

Turkum	Tur	Sinonimi
<i>Poa L</i>	<i>Poa annua</i> L.	<i>Ochlopoa annua</i> (L.) H.Scholz
<i>Poa L</i>	<i>Poa angustifolia</i> L.	<i>Poa pratensis</i> var. <i>angustifolia</i> (L.) Sm.
<i>Poa L</i>	<i>Poa bactriana</i> Roshev	
<i>Poa L</i>	<i>Poa bulbosa</i> L.	<i>Poa alpina</i> f. <i>vivipara</i> Wahlenb.
<i>Poa L</i>	<i>Poa diaphora</i> Trin	<i>Poa persica</i> var. <i>diaphora</i> (Trin.) Asch. & Graebn.
<i>Poa L</i>	<i>Poa glauca</i> subsp. <i>Glauca</i>	<i>Poa litwinowiana</i> Ovcz.
<i>Poa L</i>	<i>Poa pratensis</i> L.	<i>Poa angustifolia</i> var. <i>pratensis</i> (L.) Simonk.
<i>Poa L</i>	<i>Poa trivialis</i> L	<i>Poa sylvicola</i> Guss.
<i>Poa L</i>	<i>Poa versicolor</i> Besser	<i>Poa relaxa</i> Ovcz.

Poaceae oilasiga mansub *Poa L.* turkumi turlarining Ko'hitang tizmasida 9 turni ya'ni umumiylor oila vakillarining 8.41 % ni tashkil etishi, Ko'hitang tizmasining Janubi-G'arbiy Hisor okrugiga xos

maydonlardan biri va Pomir-Oloy tizmasi umumiy florasiga nisbatan reprezentativ xarakterga ega ekanligini namoyon etadi [7].

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida, Ko'hitang tizmasining sharqiy qismi florasi tarkibidagi *Poa L.* turkumi turlarining bioekologiyasi va populyatsiyasining ahvoli o'rganildi.

1. *Poa annua* L.- Surxon davlat qo'riqxonasining Kampirtepa bo'limi hududida tarqalgan. Tog'ning pastki va o'rta qismida (d.s. 1600 m balandlikkacha) toshli, shag'al-toshli yerlarda o'suvchi bir yillik o't. Sariq-yashil rangga ega, barg uchlari dumbasimon, o'ziga xos oq rangli gul boshi bilan ajralib turadi. Nam, soyali joylarda yaxshi o'sadi, u kuzdan bahorgacha, gullaydi va keyin issiq ob-havoning boshlanishi bilan nobud bo'ladi. U dorivor xususiyatga ega bo'lib, bir qancha kasalliklarni davolash uchun dori sifatida va hayvonlar uchun oziq-ovqat sifatida ishlatiladi.

2. *Poa angustifolia* L.- Bu ko'p yillik o'simlik bo'lib, asosan mo'tadil biomassada o'sadi. Bu tur uzoq muddat yashovchi ildizpoyalarga ega. Poyalarning balandligi 5-80 sm ga etadi. Barglari o'ralgan, kamroq tekis, kengligi 0,5-2 mm; yuqori barg uzunligi 0,5-7 sm; 3,5-5 (6) mm uzunlikdagi boshoqchalar, 2-4 ba'zan 5-6 gulli bo'ladi. Pastki gullari uzunligi 2,5-3 mm ga yetadi. May-iyun oylarida gullaydi. Surxon davlat qo'riqxonasining Kampirtepa, Qizilolma hududlarida tarqalgan. Tog'ning pastki va o'rta qismida (d.s. 1800 m balandlikkacha) toshli, shag'al-toshli, mayda zarra tuproqli yerlarda o'sadi. Bu o'simlik yem-xashak o'simligi sifatida ishlatiladi.

3. *Poa bactriana* Roshev — Surxon davlat qo'riqxonasining Qizilolma hududida tarqalgan ko'p yillik o't. Barglari yassi va mayda, och rangli to'pgullari bilan ajralib turadi. Guli kichik oq gul bo'lib, to'p bo'lib o'sadi. Urug'i mayda, qora, ovalsimon urug'dir. Poyasi ingichka va och yashil rangga ega. *Poa bactriana* bog'larda manzarali o'simlik va chorva mollari uchun oziq-ovqat manbai sifatida ishlatiladi. Bundan tashqari, an'anaviy tibbiyotda isitma, bosh og'rig'i va oshqozon og'rig'i kabi kasalliklarni davolash uchun ishlatilgan.

4. *Poa bulbosa* L.- Surxon davlat qo'riqxonasining Shalqon bo'limi hududida tarqalgan ko'p yillik o'simlik bo'lib, barglari asosan bazal yoki pastki poyada, uzunligi 4 smgacha, kengligi 1 mm dan 2,5 mm gacha, tuksiz, buklangan yoki tekis, uchi qayiq shaklida. Poyasi tik yoki asosdan yoyilib o'suvchi, shoxsiz, tuksiz, asosdan ko'p bo'lib, aralash gullah va vegetativ kurtaklar hosil qiladi. O'simlik yem-xashak o'simligi sifatida ishlatiladi.

5. *Poa diaphora* Trin — Bu bir yillik bo'lib, asosan mo'tadil biomassada o'sadi. Surxon davlat qo'riqxonasining Kampirtepa bo'limi hududida tarqalgan. Tog'ning pastki va o'rta qismida (d.s. 1600 m balandlikkacha) toshli, shag'al-toshli yerlarda o'sadi. Poyasi ingichka, barglari chiziqli, uzunligi 10 sm gacha. Odatda oq yoki ko'k rangga ega bo'lgan kichik, nozik gullarga ega. Urug'lari mayda va jigarrang, ko'chatlari esa nozik va maysaga o'xhash nozik ko'rinishga ega. *Poa diaphora* bog'larda manzarali o'simlik sifatida ishlatiladi. Bundan tashqari, yem-xashak ekini sifatida va pichan ishlab chiqarish uchun ishlatiladi.

6. *Poa glauca* subsp. *Glauca*.- Bu ko'p yillik o'simlik bo'lib, balandligi 10-30 sm gacha o'sadi. *Gullari kichik, oq rangda*. Urug'lari mayda, to'q jigarrang, ovalsimon. Ko'chatlari mayda, bir barg va kalta poyali. Surxon davlat qo'riqxonasining Qizilolma hududida tarqalgan. *Poa glauca* bog'larda manzarali o'simlik sifatida ishlatiladi va maysazorlarda maysazor o'ti sifatida ham ishlatiladi. Bundan tashqari, u eroziyaga qarshi kurashda va qoplamali ekin sifatida ishlatiladi.

7. *Poa pratensis* L.- Asosan mo'tadil biomassada o'suvchi ko'p yillik o'simlikdir. Bo'yi 0,2-0,9 m, ildizpoyali o't. Barglari ko'pincha bazal, qayiq shaklida, bargning yuqori yuzasi markazi bo'ylab ko'zga ko'ringan tomirlar bilan qoplangan. May-iyul oylarida gullaydi. Surxon davlat qo'riqxonasining Qizilolma hududida tarqalgan. U hayvonlar uchun oziq-ovqat sifatida hamda, ekologik maqsadlar uchun ishlatiladi. Oddiy o'tloq o'ti sifatida tanilgan.

8. *Poa trivialis* L.- Surxon davlat qo'riqxonasining Tangidara bo'limi hududida tarqalgan ko'p yillik o'simlik. Poyasi ingichka va silliq bo'lib, 30 dan 60 sm gacha (1 dan 2 metrgacha) o'sadi. Barglari sarg'ish-yashil rang, chetlari to'lqinsimon. Gul boshlari piramida shaklida bo'lib, uzunligi 15-20 sm va kengligi 3-6 sm. Har bir tuxumsimon boshoqchada 2-3 ta gul bor, uzunligi 3-4 mm. Fevraldan martgacha gullaydi. Meva va urug'lari yaltiroq, sariq rangli, elliptik, uzunligi 2,2 mm. O'simlik yem-xashak o'simligi sifatida ishlatiladi.

9. *Poa versicolor* Besser- Bu ko‘p yillik o‘simlik bo‘lib, asosan mo‘tadil biomassada o‘sadi. Poyasi tik, zikh tupli, bo‘yi (25–)30–60(–75) sm, bo‘ladi. Barg qobig‘i odatda pichoqdan uzunroq; tor chiziqli, tekis yoki ichkariga o‘ralgan, kengligi 0,5–2,5 (-3) mm. Mevasi sarg‘ish malla, yaltiroq. Surxon davlat qo‘riqxonasining Xo‘janqo hududida tarqalgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Tog‘li O‘rta Osiyo provintsiyasining lokal floralari, jumladan Tiyon-Shon va Pomir-Oloy floralari *Poaceae* Barnhart oilasi turlarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu esa oilaga mansub bo‘lgan turlarning yangi populyatsiyalarini o‘rganish muhimligini ko‘rsatadi. Bugungi kunga qadar olib borilgan ilmiy tadqiqot va izlanishlar natijasida Ko‘hitang botanik geografik rayonida *Poaceae* Barnhart oilasiga mansub *Poa L.* turkumi turlarining Ko‘hitang tizmasida 9 turni ya’ni umumiy oila vakillarining 8.41 % ni tashkil qilishi aniqlandi. Ushbu turlar xalq xo‘jaligidagi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, dorivor, yem-xashak, oziq-ovqat, ekologik maqsadlarda, manzarali o‘simlik sifatida, hamda qishloq xo‘jaligining turli tarmoqlarida ishlataladi.

**Poa annula****Poa versicolor****Poa angustifolia****Poa bulbosa****Poa pratensis****Poa trivialis**

1-rasm. Ko‘hitang botanik geografik rayonida tarqalgan *Poa L.* turlarining foto suratlar. (rasmlar

<https://www.planterium.ru/> internet saytidan olindi)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Определитель растений Средней Азии. Т.1. Ташкент Фан, 1968.
2. Flora Uzbekistana. V 1-i t. – Tashkent: Izd. AN UzSSR, 1955.
3. Невский С.А. Материалы к флоре Кугитанга и его предгорий // Труды БИН АН СССР. – 1937. Вып. 4. – С. 199-346.
4. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси 2022-5/1.Б-62 Ибрагимов А.Ж., Абдимўминова М.А. “Сурхон Давлат қўриқхонаси флорасининг *Poaceae* оиласига мансуб ўсимликлари”.
5. Ибрагимов А.Ж. Флора Сурханского государственного заповедника (хребет Кугитанг): Автореф. дис...канд. биол. наук. – Ташкент, 2010.– 22 с.
6. Ибрагимов А.Ж. Эндемизм флоры хребта Кугитанг // Биоразнообразие: проблемы и перспективы сохранения: Материалы межд. науч. конф. 13-16 мая 2008 г. – Пенза, 2008. – С. 217-219.
7. <https://powo.science.kew.org/>
8. <https://www.planterium.ru/>
9. <http://www.theplantlist.org/>
10. https://rusneb.ru/catalog/000200_000018_rc_4744780/

**XALQ TABOBATIDA QO'LLANILADIGAN MAHALLIY DORIVOR
O'SIMLIKLARNING QANDLI DIABET KASALLIGINI DAVOLASH MAQSADIDA
QO'LLANISHI**

*F.S.Jalilov, prof., Alfraganus Universiteti, Toshkent
M.B.Saidova, tyutor, Alfraganus Universiteti, Toshkent*

Annotatsiya. Bu maqolada asosan dorivor o'simliklardan olinadigan fitopreparatlarni qo'llash bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: dukkakli o'simliklar, qandli diabet, dorivor o'simliklar, loviya po'stlog'i, xalq tabobati, salomatlik.

Аннотация. В данной статье в основном предусмотрена разработка и реализация организационных мероприятий по использованию фитопрепаратов, полученных из лекарственных растений.

Ключевые слова: бобовые растения, сахарный диабет, лекарственные растения, стручки фасоли, народная медицина, здоровье.

Abstract. This article mainly provides for the development and implementation of organizational measures for the use of phytopreparations obtained from medicinal plants.

Key words: leguminous plants, diabetes, medicinal plants, bean pods, folk medicine, health

Kirish. Bugungi kunda jahon sog'lijni saqlash tizimida qandli diabet bilan kasallanish global tibbiy va ijtimoiy muammolardan biri bo'lib hisoblanadi. Xalqaro diabet federatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, «...2019 yilda dunyoda 425 mln.dan ortiq II tip qandli diabet kasalligiga chalingan bemorlar borligi ta'kidlangan. 2040 yilda esa ularning soni 642 mln gacha ortish ehtimolligi borligi bashorat qilinmoqda». Qandli diabetning tibbiy-ijtimoiy ahamiyati kasallikning og'ir asoratlari, yuqori darajadagi nogironlik va o'lim soni bilan izohlanadi. Shu sababli ushbu patologiyani oldini olish va davolash maqsadida maxalliy o'simliklar asosida olingan dori vositalarining farmako-toksikologik xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda dorivor o'simlik hisoblangan dukkakli don ekinlari vakili loviya o'simligiga qiziqish tobora ortib bormoqda. Butun dunyo insonlar sog'ligiga alohida e'tibor berishi, salomatlik sirlaridan xabardorligi ortishi, yurak-tomir sistemasi kasalliklari, qandli diabet, revmatizm, siyidik yo'li kasalliklari chalingan insonlarni davolash uchun tabiiy vositalarni afzal ko'rishi, tabiiy vositalarning mutloq zararsizligi va xalq tabobatida loviya o'simligiga bo'lgan talabning keskin ortishi sabab bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.05.2022 yildagi PQ-251-soni qaroriga asosan dorivor o'simliklardan olinadigan fitopreparatlar iste'mol bozorini tashkil etishga qaratilgan. Xususan ularning dorixonalar tizimida sotuvini yo'lga qo'yish, fitopreparatlar yaratish texnologiyasida xalq tabobati usullarini keng qo'llash, sog'lijni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida dorivor o'simliklardan olinadigan fitopreparatlarni qo'llash bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ko'zda tutilgan.

Prezidentimiz tomonidan 2020-yilning 10-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida aholiga tibbiy sanitar yordam ko'rsatish, turli xil, ayniqsa, surunkali kasalliklar profilaktikasida va ularni davolashda sifat, xavfsizlik va samaradorlik jihatidan amalda sinalgan xalq tabobatini rivojlantirish masalasi qaror topgan. Qarorning asosiy maqsadi, xalq tabobatining kasalliklarni profilaktika qilish, tashxis qo'yish va davolash bo'yicha samarali usullarini zamонави тиббиёт амалийотига жадал интегративлаш, fuqarolar salomatligini yanada mustahkamlash, tizimini yo'lga qo'yishdir.

Hozirda aholini tashvishga solayotgan irsiyat orqali, yengil uglevodlar, tozalangan oziq-ovqat, fastfud, to'yingan va transyog'lar iste'mol qilish, shuningdek, ozuqaviy tolalar yetishmovchiligi, ortiqcha vazn va semirish, endokrin tizimidagi patologiyalar va uzoq muddatli, surunkali stresslar oqibatida kelib chiqadigan kasalliklardan biri bu-qandli diabet kasalligidir.

Xalqaro diabet federatsiyasining ma'lumotlariga ko'ra, 20 yoshdan 79 yoshgacha bo'lgan insonlarning har o'n nafaridan bittasiga qandli diabet tashxisi bilan aziyat chekmoqda. Bu butun dunyo bo'yicha 537 milliondan ko'proq odam deganidir. [6]

Qandli diabetni zamonaviy davolashda sintetik yo'llar bilan olingen manelin, amarin, insulin kabi o'nlab kimyoviy birikmalarni qabul qilish buyuriladi. Bu dorivor moddalarning barchasi qondagi qand moddasining hujayralarga oson o'tishini ta'minlaydi, evaziga qonda va siydikda qand miqdori kamayadi. Qondagi qand miqdorini kimyoviy moddalar bilan kamaytirish oshqozon osti bezining insulin ishlab chiqarish faoliyatini yanada susayishiga sabab bo'ladi. Uzoq muddat kimyoviy moddalarni qabul qilish esa oshqozon osti bezining atrofiyaga uchrashiga olib boradi [7]. Kimyoviy dorivor moddalar to'xtatilishi bilan qonda qand miqdori ko'tarilib ketaveradi. Shuning uchun zamonaviy tibbiyotda qandli diabet bilan og'iganlarga muntazam dorivor moddalarni qabul qilish tavsiya etiladi.

Xalq tabobatida qo'llanadigan dorivor vositalar esa oshqozon osti bezi faoliyatini faollashtiradi, bu organizmda ishlab chiqariladigan insulin miqdorini ko'paytirish orqali qonda qand miqdorini kamaytirishga qaratilgan. Shuning uchun qandli diabet kasalligi xalq tabobati uslublari yordamida davolanganda oshqozon osti bezining ish faoliyatini tiklashga yordam beradi. Bu esa bemorda doridarmon ichishni to'xtatish imkonini beradi[8].

Material va metod. Yurtimizda o'sayotgan har bir o'simliklar shifobaxsh o'simliklardir. Ularning tarkibini o'rganib kasalliklarni davolashda foydalanish bizning oldimizga qo'yilgan asosiy maqsadlardan biridir. Ular asosida qandli diabet kasalligini fitoterapevtik davolashda qo'llash mumkin. Shular jumlasiga, eng keng tarqalgan oziq ovqat o'simliklaridan burchoqdoshlar oilasi vakili loviyani misol keltirish mumkin. Loviya qadimdan dorivor vosita sifatida ishlatilib kelinadi. Yapon, shved, yunon va avstraliyalik qariyalarning ta'kidlashlariga qaraganda, loviya iste'mol qilish o'lim xavfini tizimli ravishda kamayishga olib keladi. Ko'rinish turibdiki, loviyaning go'shtga teng qiymatga ega oqsilga boyligi, dorivorligi hamda yetishtirishga qulayligi, hatto tuproqni yaxshilashga xizmat qilish xususiyatlari va hatto kosmetologiya sohasida ham qo'llanilishi uning ishlab chiqarilish hajmi ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Urug'i tez pishadi, yaxshi hazm bo'ladi. To'la pishmagan dukkaklari tarkibida 18% oqsil, 2% qand, 22 mg/100 g. da C vitamini bo'ladi. Donning tarkibida 20-31% oqsil, 0,7-3,6% moy, 50-60% kraxmal, 2,3-37,1% to'qima, 3,1-4,8% kul moddasi mavjud.

Sistematikasi. Loviya – Fabaceae oilasi, Phaseolus L. turkumiga mansub, bo'lib o'z ichiga 150 dan ortiq turlarini qamrab olgan bir yillik o'simliklidir. Bu turlar tropik va subtropik mintaqalar - AQSh, Osiyo, Afrikada tarqalgan. Dehqonchilikda 30 ga yaqin turlari ekilmoqda.

Oilasi: Fabaceae – Burchoqdoshlar – Мотыльковые

Turkum: Phaseolus L. – Fasol – Фасоль.

Tur: Ph. vulgaris L. – Oddiy loviya – Φ. Обыкновенная

Amerikadan kelib chiqqan turlari: oddiy loviya (Phaseolus vulgaris L.), lima loviyasi (Phaseolus lunatus L.), uchi ingichka bargli loviya (Phaseolus acutifolius Aza Gray), ko'p gulli loviya (Phaseolus multiflorus Wild). Osiyo loviyalaridan ko'p tarqalgani: Osiyo loviyasi yoki mosh (Phaseolus aureus Pip), adzuki (Phaseolus angularis Wilch), sholisimon loviya (Phaseolus calcaratus Piper).

Tabobatda qo'llanilishi. Loviyaning urug'idan ajratilgan dukkak po'stlog'laridan yurak, buyrak, gipertoniya, revmatizm kasalliklari uchun dori sifatida qabul qilish mumkin. Urug'idan ajratilgan dukkak po'stlog'laridan glikoglikemik ta'sirda foydalanish mumkin. Buning uchun quritilgan po'stloqlardan damlama sifatida qabul qilish ancha samara beradi. Loviya dukkaklaridan tayyorlangan quyuq va quruq ekstraktlarning qondagi qand miqdorini 30 foizgacha kamaytirishi tajribada aniqlangan. Loviyaning qondagi qandni kamaytirish xossasi borligi klinika sharoitida ham isbotlangan. Uning bunday ta'siri loviya qozoqlarida boladigan argininga bog'liq, deb xisoblanadi. Bundan tashqari teri kuyishlari, ekzema, kosmetologiyada seckillarni yo'qotishda ham loviyadan foydalilanadi.

Xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Dukkakli don ekinlari dehqonchilikda uchta asosiy vazifani: o'simlik oqsili masalasini, don yetishtirishni ko'paytirishni va tuproq unumdarligini oshirishni hal etishga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, diyorimizda o'sayotgan juda ko'plab o'simliklarni dorivorlik xususiyati bor. Kasalliklarni davolashda tabiiy vositalardan foydalanish organizm uchun ko'proq foyda beradi shunday kasallilardan biri bu qandli diabet kasalligidir. Qandli diabetni davolashda loviya dukkagining po'stlog'idan dorivor o'simlik sifatida foydalanish ham iqtisodiy ham jismoniy sog'lom bo'lishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 20.05.2022 yildagi PQ-251-son Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishslash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida//www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi PQ-4310-sonli "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori//www.lex.uz
3. R.O.Orripov, N.X.Xalilov O'simlikshunoslik .Toshkent 2007
4. Qayumov E.G'. Qandli diabetdan tuzalish mumkin. – Toshkent "Meditina" – 1988 y
5. Azizova S.S. "Farmakologiya". T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2006-yil
6. Sirli tabobat. Fan va texnologiya nashriyoti-matba uyi. 2021. -1010-bet
- I R Asqarov
7. Ismailov S. I. Endokrinologiyadan tanlangan maruzalar. -Toshkent -2005 y.
8. Ming dardga ming davo Jan 2009 Muxtorov Muhammad-Nasaf. -2009 y.
9. Zohidov Homidjon. Shifo xazinasi. -Toshkent Yangi asr avlod. -2002 y.
10. Biologik kimyo. -Toshkent "Yangi asr avlod R A Sobirova,Abrorov O A Inoyatova F X Aripov-2006 y
11. Asqarov I.R. Tabobat qomusi. T.: Mumtoz so'z" -2019 339 bet
12. Tib qonunlari" 2-bob Abu Ali IbnSino
13. Qandli diabetdan tuzalish mumkin. -Toshkent "Meditina" -1988 E G' Qayumov
14. Izuchukwu A.C., Folarin A.A. Physical Properties of African Kidney Bean (*Phaseolus vulgaris L.*) and Their Processing Impact // Food Biology. – 2013. – V.2, N2. – P. 18-23.
15. Journal.edapplus.info - Журнал здорового питания и диетологии
16. Диабет. Полный курс лечения. Авторская методика Авторы: Роза Волкова
17. Блинова К. Ф. и др. Ботанико-фармакогностический словарь: Справ. пособие / Под ред. К. Ф. Блиновой, Г. П. Яковleva. – М.: Высш. шк., 1990. – С. 250.
18. Авилова К.Х. Роль латыни в медицинской терминологии в современном мире. Modern Scientific Research International scientific journal/Vol Issue9 2023 152-157 стр

UO'K 633.174

BUXORO VOHASI SHAROITIDA JO'XORI NAVLARINING AYRIM BIOEKOFIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI

*O.T.Jo'raeva, o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro
A.E.Xolliyev, professor, Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

Annotation. Maqolada jo'xorining Qorabosh, Massino, Samuray va O'zbekiston pakanasi hamda O'zbekiston-18 navlarining har xil namlik sharoitlardagi bioekofiziologik xususiyatlarini o'rGANISH asosida olingan ma'lumotlar keltirilgan. Suv tanqis sharoitda o'rGANILGAN ayrim fiziologik ko'rsatkichlardan- barglardagi kunduzgi va qoldiq suv tanqisligi qiyamatining navlar kesimida har xil darajada o'zgarishi ularning chidamlilik va moslashish hamda biologik xossalariiga bog'liqligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: jo'xori, navlar, tuproq namligi, suv tanqisligi, qurg'oqchilik, kunduzgi suv tanqisligi, qoldiq suv tanqisligi, moslashish.

Аннотация. В статье представлены данные, полученные на основе изучения биоэкофизиологических особенностей сортов сорго Карабаш, Массино, Самурай, Узбекистан карлик и Узбекистан-18 в различных условиях увлажнения. Среди некоторых физиологических показателей, изученных в условиях дефицита воды, установлено, что значения суточного и остаточного дефицита воды в листьях изменяются в разной степени в зависимости от их выносливости и адаптации, а также биологических свойств.

Ключевые слова: сорго, сорта, влажность почвы, дефицит воды, засуха, дневной дефицит воды, остаточный дефицит воды, адаптация.

Abstract. The article presents the data obtained based on the study of the bioecophysiological characteristics of the Karabash, Massino, Samurai, Pakana of Uzbekistan and Uzbekistan-18 varieties of sorghum under different moisture conditions. Among some physiological indicators studied under water deficit conditions, it was determined that the daily and residual water deficit

values in leaves vary to different degrees depending on their endurance and adaptation, as well as their biological properties.

Key words: sorghum, varieties, soil moisture, water deficit, drought, daytime water deficit, residual water deficit, adaptation.

Kirish. Aholi sonining ortishi oziq-ovqat, jumladan, go'sht, sut mahsulotlari va boshqa sohalarni turli mahsulotlar bilan ta'minlash uchun o'simlik xom-ashyosi yetishtiriladi. Shu jihatdan, sho'rangan, qurg'oqchil va suv tanqis hududlarda mahsulorlik va ozuqaviylik salohiyati yuqori bo'lgan yangi o'simlik turlarining ekofiziologik hamda biokimyoiy xususiyatlarini baholash hamda amaliyatiga joriy qilish va asoslashga katta e'tibor berilishi bois, bu yo'nalishda amalgalashirilayotgan tadqiqotlar dolzarb vazifalar sifatida qaralmoqda.

Qishloq xo'jaligi va iqlim o'zgarishi turli jihatlarda bir-biri bilan o'zaro bog'liqdir, chunki iqlim o'zgarishi biotik va abiotik stresslarning asosiy sababi bo'lib, mintaqqa qishloq xo'jaligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunga kelib, oziq-ovqat xavfsizligi va ekotizimning barqarorligi butun dunyo bo'yab eng dolzarb muammolardan ri hisoblanadi. Ekologik o'zgarishlardan- suv tanqisligi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga halokatli ta'sir ko'rsatmoqda. Dunyo aholisining tez sur'atlarda o'sishi bilan birga, global atrof-muhitning barqarorligi bilan bog'liq muammolar tufayli oziq-ovqatga bo'lgan talab ham shunga mos ravishda ortib bormoqda. Qurg'oqchilik tuproq unumdarligini pasaytirib, atrof-muhit sharoitlarining keskin o'zgarishi bilan abiotik stresslarning to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ta'siri tufayli o'simliklarning hosildorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda[1].

Iqlim sharoitlarining o'zgarishi va antropogen ta'sirning kuchayishi tufayli sho'rangan hududlarning maydoni doimiy ravishda o'sib bormoqda va meliorativ chora-tadbirlar yordamida ularni to'liq tuzsizlantirish deyarli mumkin emas. Qishloq xo'jalik o'simliklari tuproq sho'rلانishiga chidamsiz bo'lib, u o'sishni sekinlashtiradi va hosilni kamaytiradi [2].

Jo'xori boshqa qishloq xo'jaligi ekinlaridan farqli o'laroq, havo va tuproq qurg'oqchiligidagi quruq shamolga va yuqori haroratga bardosh bera oladi. Bu turli xil adaptiv anatomiq va fiziologik xususiyatlar bilan bog'liq: yaxshi rivojlangan ildiz tizimi, og'izchalar tuzilishi va suv o'tkazuvchi tizimning strukturaviy xususiyatlari, barglari va moyalarining mumsimon qoplamasi, ayniqsa, tinim holatiga tushib qolish qobiliyati. Bundan tashqari, jo'xori o'ziga xos xususiyati uning tuproqlarga nisbatan kam talabchanligi, shu jumladan sho'r va ishqorli tuproqlarda o'sish qobiliyatidir. Kuchli ildiz tizimi tufayli jo'xori boshqa ekinlar uchun mos bo'limgan tuproqda yaxshi hosil berishi mumkin[3].

Ko'p sonli biotik va abiotik stresslar turli xil ekologik sharoitlarda dalada o'sadigan ekinlarning o'sishini doimiy ravishda qiyinlashtiradi. Global iqlim o'zgarishi tufayli harorat va atmosferadagi CO₂ darajasi ko'tarilib, qurg'oqchilik tez-tez va keng tarqalmoqda. Qurg'oqchilik ekinlar yetishtirish va hosildorlikni cheklovchi eng muhim abiotik stresslardan biridir. Bu dunyoning katta qismlarida tez-tez uchraydi va barcha asosiy ekinlarga ta'sir qiladi. Kuchli qurg'oqchilik hosildorlik va sifatni sezilarli darajada pasaytiradi va yetarli darajada oziq-ovqat bilan ta'minlanmagan hududlarda ocharchilikka olib kelishi mumkin. Biroq, ekinlar qurg'oqchilik stressiga chidamliligi bilan farq qiladi va o'simlik turida o'zgaruvchanlik mavjud. Jo'xori asosan yarim qurg'oqchil va qurg'oqchil hududlarda joylashgan mamlakatlarda yarim milliarddan ortiq odam uchun asosiy ekin hisoblanadi,. Bu protein, tolaga boy va glyutensiz oziqlanishni ta'minlaydi. Inson ovqatlanishidan tashqari, u bioetanol ishlab chiqarish uchun xom ashyo manbai sifatida ishlatiladi[4].

Garchi, jo'xori qurg'oqchilikka chidamli ekin hisoblansa-da va unumdarligi kam bo'lgan sharoitlarda mahsulorligi yuqori bo'lishi mumkin bo'lsa-da, suv tanqisligi tufayli yuzaga keladigan qurg'oqchilik stressi uning tuproqdan ozuqa moddalarini o'zlashtirish qobiliyatiga va ozuqa moddalarini qabul qilishi va tashishiga ta'sir qiladi. Jo'xori asosan suv tanqisligiga moyil bo'lgan yarim qurg'oqchil va qurg'oqchil hududlarda o'stiriladi. Misol uchun, Afrikaning Sahroi Kabirda jo'xori ekiladigan yerlarning 60% takroriy qurg'oqchilikka moyil hisoblanadi va AQSHda yetishtiriladigan jo'xori 80% asosan sug'orilmaydigan sharoitlarda, kam hollarda suv bilan ta'minlangan holda yetishtiriladi, u asosiy cheklovchi omil bo'lib, hosildorlikni sezilarli darajada kamaytiradi [5].

Stress jo'xori o'sishi va rivojlanishiga unib chiqishdan reproduktiv va don bilan to'ldirish bosqichlariga, shuningdek o'simliklarning fizik-kimyoviy xususiyatlariga ta'sir qiladi, bu esa don hosildorligi va sifatini sezilarli darajada pasayishiga olib keladi[6].

Suv tanqisligining vegetativ o'sishga ta'siri qurg'oqchilikka chidamli jo'xori navlariga qaraganda chidamsizligi ko'proq qurg'oqchilikka sezgir hisoblanadi. Qurg'oqchilikka chidamli genotiplarga nisbatan qurg'oqchilikka sezgir navlarda qurg'oqchilik stressi sharoitida kurtaklar, nish va ildiz uzunligi qisqardi. Bu shuni ko'rsatadiki, uzoq va keng ildiz tizimini rivojlantira oladigan navlar muvaffaqiyatlari rivojlanadi, chunki ularning ildiz tizimlari tuproqning yuqori qatlamlariga tez kirib, suvni olish uchun nam tuproq qatlamlariga yetib boradi va shu bilan suv tanqisligi tufayli yuzaga keladigan stressni yumshatadi. Demak, qurg'oqchilikka chidamli jo'xori genotiplarini tekshirishda o'simliklarning o'sishi va rivojlanishining dastlabki bosqichida urug'ning unishi va unib chiqish potensiali, unib chiqish tezligi va ildiz o'sishi, shuningdek ildiz va kurtaklar o'sishi kabi xususiyatlarni hisobga olish juda muhimdir[7].

Jo'xori, bug'doy va boshqa asosiy don ekinlarini o'stira olmaydigan yoki qurg'oqchil iqlim tufayli unchalik kam hosil bera olmaydigan hududlar uchun qimmatli oziq-ovqat va ozuqa ekinidir. Jo'xori yem-xashak ekini sifatida mamlakatimizning qurg'oqchil hududlari uchun nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Yuqori qurg'oqchilikka chidamliligi va unchalik unumdon bo'limgan tuproq sharoitiga ega bo'lgan jo'xori hosildorligi bo'yicha arpa va hatto makkajo'xoridan ham oshib ketadi[8].

Ekinning yuqori qurg'oqchilikka chidamliligi ildiz tizimining xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, u birinchi bosqichlarda yer usti massasidan sezilarli darajada tezroq o'sadi. Bundan tashqari, barcha 3 turdag'i ildiz o'sadi va ishlaydi: germinal (birlamchi), tugunli (ikkilamchi) va havo, poyaning pastki yer usti tugunlaridan poya fazasida hosil bo'ladi. Nodal ildizlar tuproqning quruq qatlamini yorib, 2 m yoki undan ko'proq chuqurlikka kirib, nam gorizontlarga yetib borish qobiliyatiga ega. Qattiq qurg'oqchilik davrida ildizlarda himoyaviy kremniy qatlami hosil bo'lib, ularni qurishdan himoya qiladi. Xuddi shu rolni o'simliklarning poyalari va barglarida mumsimon qoplama o'ynaydi. Bundan tashqari, barglarning bug'lanish yuzasi makkajo'xorining yarmini tashkil qiladi. Quruq modda birligini hosil qilish uchun jo'xori makkajo'xoriga qaraganda 15-20% kamroq suv sarflaydi. Agar tuproqda kamida bir oz suv qolsa, haddan tashqari issiqqlik, past havo namligi va quruq shamollarga qaramay, u o'sishda davom etadi. Tuproq to'liq quriganida o'simliklar uyqu holatiga o'tadi, o'sish va rivojlanishdan to'xtaydi, yog'ingarchilikdan keyin yana faol hayot kechira boshlaydi[9].

O'simliklarda fiziologik jarayon mahsuli -bu organik moddalarning miqdori hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich mahsuldorlik yoki hosildorlik kabi ko'rsatkichlar bilan baholanadi. O'z navbatida mahsuldorlik genotip va tashqi muhitning mahsuli hisoblanadi. Tashqi muhit va genotipning ijobiy hamkorligi bu yuqori mahsuldorlik hisoblanadi. Shu sababdan tashqi muhitning genotipga ta'sirini o'rganish bir tarafdan qiziqarli, ikkinchidan murakkab hisoblanadi. Jo'xori o'simligida mahsuldorlik tashqi muhitga bog'liq bo'lishi bilan birga genotiplarning biologik xususiyatlariga ham bog'liqligi qayd etilgan. Jo'xorining kolleksion nav namunalarini o'rganish natijasida xudud uchun istiqbolli kolleksion namunalar tanlab olingan[10].

Demak, qurg'oqchilikning jo'xori o'simliklariga umumiy ta'siri va o'simliklarning qurg'oqchilikka bo'lgan javob xususiyatlari haqida aniqroq tushunchaga ega bo'lish uchun o'simliklarning o'sishi va rivojlanishining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi yaxshi rejalshtirilgan va batafsil tadqiqotlar o'tkazish zarur. Umuman olganda, qurg'oqchilik stressining salbiy ta'sirini oldini olish uchun turli agroqlim sharoitlariga, ayniqsa qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil hududlarga mos keladigan qurg'oqchilikka chidamli navlarni yaratish juda muhimdir. Shu nuqtai nazardan, qurg'oqchilikka chidamliligi kuchli bo'lgan jo'xori genotiplarini aniqlash turli kerakli xususiyatlarga ega bo'lgan qurg'oqchilikka chidamli navlarni yaratish zarur. Biroq, qurg'oqchilikka chidamli genotiplarni aniqlash o'simliklarning vegetatsiya davridagi qurg'oqchilik stressining o'zgaruvchan jadalligi va davomiyligini hamda asosiy jo'xori o'sadigan hududlarda edafik sharoitlarning o'zgarishini aks ettiruvchi yaxshi rejalshtirilgan tadqiqotlarni amalga oshirish talab qiladi[11].

Qishloq xo'jaligi va iqlim o'zgarishi turli jihatlarda bir-biri bilan o'zaro bog'liqdir, chunki iqlim

o'zgarishi biotik va abiotik stresslarning asosiy sababchisi bo'lib, mintaqa qishloq xo'jaligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunga kelib, oziq-ovqat xavfsizligi va ekotizimning barqarorligi butun dunyo bo'ylab eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ekologik o'zgarishlardan- suv tanqisligi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga halokatli ta'sir ko'rsatmoqda. Dunyo aholisining tez sur'atlarda o'sishi bilan birga, global atrof-muhitning barqarorligi bilan bog'liq muammolar tufayli oziq-ovqatga bo'lgan talab ham shunga mos ravishda ortib bormoqda. Qurg'oqchilik tuproq unumdorligini pasaytirib, atrof-muhit sharoitlarining keskin o'zgarishi bilan abiotik stresslarning to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ta'siri tufayli o'simliklarning hosildorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda[12].

Tadqiqot ob'ekti va uslublari. Buxoro vohasi sharoitida jo'xori navlarining ayrim bioekofiziologik xususiyatlarini o'rganish uchun dala tajribalari davomida tadqiqot ob'ekti sifatida jo'xorining (*Sorghum vulgare* (Pers.)) turkumiga mansub bo'lgan Qorabosh, Massino, Samuray va O'zbekiston pakanasi hamda O'zbekiston-18 navlari olindi. Laboratoriya va dala tajribalari sharoitida nazorat va tajriba variantlarida yetishtirilgan jo'xori navlarining ayrim fiziologik ko'rsatkichlari (barglardi kunduzgi va qoldiq suv tanqisligi) sho'rlangan tuproqlarning optimal va suv tanqis sharoitlarida o'rganildi. Barcha dala tajribalarida sug'orishdan oldingi tuproq namligi, uning hajmiy og'irligi va dala nam sig'imini aniqlash yo'li bilan tuproqning suv tanqisligi o'rganilib, sug'orish ishlari amalga oshirildi. Sug'orish me'yorlari tuproqdagi namlikning taqchilligi asosida belgilandi. Tajribalar ikki xil: optimal va qurg'oqchil-suv tanqis variantlarda amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalar va uning muhokamasi. Ilmiy izlanishlarimiz davomida jo'xorining rayonlashtirilgan Qorabosh, Massino, Samuray, O'zbekiston pakanasi hamda O'zbekiston-18 navlari barglarida kunduzgi va qoldiq suv tanqisligi naychalash, ro'vaklash va gullash fazalarida ikki xil (optimal va cheklangan) namlik sharoitida aniqlanib borildi.

Tadqiqot natijalaridan olingan ma'lumotlarga ko'ra, tuproqdagi suv tanqisligi o'simliklar tomonidan suvning qabul qilinishi va sarflanishiga salbiy ta'sir qilib, suv balansida o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bu esa o'simlik organlarida, ayniqsa uning barglarida suv tanqisligini yuzaga keltiradi. Qishloq xo'jalik o'simliklarining qurg'oqchilikka bo'lgan chidamlilik darajasini aniqlashda ushbu ko'rsatkichlardan keng foydalilanigan. Shuningdek, havo harorati yuqori va uning nisbiy namligi past bo'lganda, ayniqsa tushki soatlarda o'simliklar bargida suv tanqisligi yuqori bo'lib, bu esa o'simliklarda kechadigan suv almashinuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Barglarning kunduzgi va qoldiq suv tanqisligiga namlik ta'sirini baholash bo'yicha olingan ma'lumotlarga qaraganda kunduzgi va qoldiq suv tanqisligi ikkala namlik sharoitida ham barcha navlarda naychalash va ro'vaklash bosqichlariga qaraganda gullashda ancha yuqori bo'lishi kuzatildi. Tuproq namligi darjasasi kamayib borishi bilan barcha o'rganilgan navlarda ushbu ko'rsatkichning qiymati ancha yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Tuproqda namlik darajasining pasayishi bilan barglarning kunduzgi va qoldiq suv tanqisligi qiymatining oshishi aniqlandi.

O'simliklar uzoq vaqt tuproq qurg'oqchiligi hamda tuproq sho'rланishi sharoitida o'stirilsa, kunduzgi suv tanqisligi oshib, kechqurungi soatlarda ham barg hujayralari turgor holatiga qaytmaydi. Natijada ertalabki soatlarda barg hujayralarida qoldiq suv tanqisligi kuzatiladi. Qoldiq suv tanqisligining paydo bo'lishi o'simliklardagi suv almashinuvi va fiziologik jarayonlarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Tuproq namligi optimal ya'ni, suv yetarli sharoitda o'stirilgan Qorabosh navida naychalash bosqichida- 14,6 %, ro'vaklash bosqichida -15,8, gullash bosqichida-16,9%, Massino navida naychalash bosqichida - 9,5%, ro'vaklash bosqichida -10,4, gullash bosqichida -11,1%, Samuray navida esa naychalash bosqichida- 10,5%, ro'vaklash bosqichida -11,0%, gullash bosqichida - 12,2%, O'zbekiston pakanasi navida naychalash bosqichida -12,3%, ro'vaklash bosqichida -13,0%, gullash bosqichida -14,3%, O'zbekiston-18 navida naychalash bosqichida-13,0%, ro'vaklash bosqichida-14,2%, gullash bosqichida-15,1% ni tashkil qilganligi tajribalarimiz davomida aniqlandi.

Tuproq namligi cheklangan, ya'ni suv tanqisligi sharoitida o'rganilgan barcha navlarda barglarning kunduzgi suv tanqisligining qiymati optimal namlik variantlariga qaraganda ancha yuqori bo'ldi. Yuqoridaq ko'rsatkichlar bo'yicha o'rganilgan navlar o'rtasida ancha farqlar kuzatildi. Eng yuqori qoldiq suv tanqisligi barcha rivojlanish bosqichlarida Qorabosh navining cheklangan namlik sharoitda o'stirilgan o'simliklarida aniqlandi. Namlik darajasining pasayishi bilan ushbu

ko'rsatkichlar qiyematining oshishi kuzatildi. Eng past qiyamat Massino navining optimal namlik sharoitida o'stirilgan variantlarda kuzatildi. Bu ko'rsatkich bo'yicha oraliq o'rirlarni Samuray, O'zbekiston-18 va O'zbekiston pakanasi navlari egalladi.

Tuproq namlik darajasi optimal va cheklangan muhitida o'rganilgan barcha jo'xori navlarida kunduzgi va qoldiq suv tanqisligining qiymati o'simliklarning biologik va individual xususiyatlari bog'liq holda har xil bo'lidi. Olingan ma'lumotlarga qaraganda, qoldiq suv tanqisligining qiymati bo'yicha Qorabosh navi oldingi o'rinni va Massino navi oxirgi o'rinni egalladi. Qolgan uchala nav esa ushbu ko'rsatkich bo'yicha oraliq o'rinda ekanligi kuzatildi.

O'simliklarning noqulay omillar ta'siriga moslashish tabiatini uch bosqichdan iborat. Bular qo'zg'alish, qarshilik va holsizlanish bosqichlaridir. Agar holsizlanish bosqichi uzoq davom etsa o'simlik nobud bo'ladi. Suv yetishmasligi o'simliklarni suvga bo'lgan talabini qondira olmaydigan meteorologik sharoitdir. Suv yetishmasligining asosiy sabablari yog'ingarchilikning bo'lmasligi, transpiratsiya va tuproq yuzasidan suvning ko'plab bug'lanishidir. Ayniqsa, kuchli shamollar ildiz tarqalgan tuproq qatlaming qurishiga olib keladi. Atmosfera qurg'oqchiligi quruq va issiq havo ta'sirida havo namligi juda kam bo'lganda paydo bo'ladi. Bunda o'simlik o'sishdan to'xtaydi va barg sathi kengaymaydi, natijada ekinlarning hosildorligi kamayadi. Qurg'oqchilik o'simliklar tanasida boradigan biosintetik jarayonlarni keskin sekinlashtiradi, oqsillarning parchalanishi ro'y beradi, organik zahira moddalar miqdori kamayadi.

Tajribalarimiz davomida barglarning qoldiq suv tanqisligiga namlik darajalarini ta'sirini ham o'rganildi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, qoldiq suv tanqisligi tuproqdagi namlik darajalariga hamda rivojlanish bosqichlariga bog'liq holda har xil bo'ladi. Qoldiq suv tanqisligining qiymati o'rganilgan barcha navlарimизда naychalash, ro'vaklash va gullash fazasigacha ikki xil namlik sharoitida ham oshib bordi. Eng yuqori qoldiq suv tanqisligi barcha navlarning gullash fazasida cheklangan namlik sharoitida kuzatildi.

Cheklangan namlik sharoitida Qorabosh navining naychalash fazasida barglarning qoldiq suv tanqisligi 1,73, Massino navida 0,70, Samuray 0,88, O'zbekiston pakanasi navida 1,15, O'zbekiston-18 navida 1,39% ni tashkil etdi. Cheklangan namlik sharoitida ro'vaklash va gullash fazalarida ham xuddi shunga yaqin bog'liqliklar kuzatildi. Qorabosh navida cheklangan namlik sharoitda qoldiq suv tanqisligi ro'vaklash fazasida 1,91, gullash fazasida esa 2,16, Massino navida ro'vaklash fazasida 0,71, gullash fazasida esa 0,82, Samuray navida ro'vaklash fazasida 0,97, gullash fazasida esa 1,12, O'zbekiston pakanasi navida ro'vaklash fazasida 1,20, gullash fazasida esa 1,33, O'zbekiston-18 navida ro'vaklash fazasida 1,52, gullash fazasida esa 1,68% ni tashkil qildi. Shunga o'xshash bog'liqliklar optimal namlik sharoitida o'stirilgan barcha o'rganilgan navlarda kuzatildi. Lekin, qoldiq suv tanqisligining qiymati optimal namlik sharoitida o'stirilgan navlarda, cheklangan namlik sharoitda o'stirilgan navlarga qaraganda past qiymatga ega bo'lidi.

Barcha cheklangan namlik sharoitlarida qoldiq suv tanqisligining qiymati mo'tadir namlik variantlariga qaraganda ancha yuqori bo'lidi. Yuqoridagi ko'rsatkichlar bo'yicha o'rganilgan navlar o'rtasida ham ancha farqlar kuzatildi. Eng yuqori qoldiq suv tanqisligi namlik cheklangan variantlarda aniqlandi. Eng past qiyamat mo'tadir namlik variantlarda kuzatildi. Bo'ko'rsatkich bo'yicha eng past qiyatlar Massino va Samuray navlarining ikkala namlik sharoitida ham aniqlandi.

Xulosalar. Buxoro viloyatining sho'rangan tuproq va suv tanqis sharoitida jo'xorining fiziologik xususiyatlari va suv almashinuviga namlik darajalari ta'siri barglarning kunduzgi va qoldiq suv tanqisligi ko'rsatkichlari navlar kesimida solishtirma baholandi va Buxoro viloyatining suv tanqis va sho'rangan tuproq sharoitida jo'xori navlarining ozuqaviylik xususiyatlari va ozuqabop ekin sifatida foydalanish mumkinligi asoslandi. Suv tanqisligi va boshqa ekstremal omillarga chidamli hamda hosildorligi va sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan navlar ilmiy asoslangan holda hududlar kesimida ishlab chiqarish bo'yicha tavsiyalar berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Arunanondchai, P.; Fei, C.; Fisher, A.; McCarl, B.A.; Wang, W.; Yang, Y. How does climate change affect agriculture. In *The Routledge Handbook of Agricultural Economics*; Routledge: Abingdon-on-Thames, UK, 2018.
2. Мохова В.И. Устойчивость к разнокачественному засолению зернового сорго сорта Рось, выращенного на фоне минерального удобрения. Вестник КрасГАУ. 2020; 7: 72-77.
3. Ионова Е.В., Алабушев А.В. Засухоустойчивость сорго зернового // European Social Science Journal.

4. Impa SM, Perumal R, Bean SR, Sunoj VSJ, Jagadish SVK (2019) Water deficit and heat stress induced alterations in grain physico-chemical characteristics and micronutrient composition in field grown grain sorghum. *J. Cereal Sci* 86:124–131.
5. Sarshad A, Talei D, Torabi M, Rafiei F, Nejatkhan P (2021) Morphological and biochemical responses of *Sorghum bicolor* (L.) Moench under drought stress. *SN Appl Sci*.
6. Bobade P, Amarshtettwar S, Rathod T, Ghorade R, Kayande N, Yadav Y (2019) Effect of polyethylene glycol induced water stress on germination and seedling development of rabi sorghum genotypes. *J. Pharmacogn Phytochem* 8(5):852–856.
7. Fadoul HE, Siddig MAE, Abdalla AWH, Hussein AAE (2018) Physiological and proteomic analysis of two contrasting *Sorghum bicolor* genotypes in response to drought stress. *Aust J. Crop Sci* 12(09):1543–1551.
8. Кадралиев, Д. С. Орошающее земледелие дельты Волги в решении проблемы производства кормов для развивающегося животноводства / Д. С. Кадралиев, Е. Н. Григоренкова. // Орошение земель в обеспечении продовольственной безопасности России: Материалы Международной научно-практической конференции. - Волгоград, 2008. - С. 77- 80.
9. Балакай, С. Г. Показатели продуктивности сорго зернового при различной влагообеспеченности на орошаемых землях Ростовской области / С. Г. Балакай // Пути повышения эффективности орошающего земледелия: сб. науч. тр. / ФГБНУ «РосНИИПМ». - Вып. 50. - Новочеркасск: Геликон, 2013. -С. 24-28.
10. Ковтунова Н.А., Ковтунов В.В. Биоразнообразие сорго// Зернобое хозяйство России. №5(59), 2018. - С.49-52.
11. Kibrom B, Abreha, Muluken Enyew, Anders S, Carlsson, Ramesh R, Vetukuri, Tileye Feyissa, Tiny Motlhaodi, Dickson Ng'uni, Mulatu Geleta. Sorghum in dryland: morphological, physiological, and molecular responses of sorghum under drought stress *Planta* (2022) 255:20
12. Noya, I.; Gonzalez-García, S.; Bacenetti, J.; Fiala, M.; Moreira, M.T. Environmental impacts of the cultivation-phase associated with agricultural crops for feed production. *J. Clean. Prod.* 2018, 172, 3721–3733.

UO'K 576.31

EKSPERIMENTAL ZAHARLI GEPATITDA AYRIM POLIFENOLLARNING GLUTAMILTRANSFERAZA FAOLLIGIGA TA'SIRINI ANIQLASH

*M.M.Mallayeva, o'qituvchi, Samarqand davlat tibbiyat universiteti, Samarqand
M.A.Mustafoqulov, o'qituvchi, O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali, Jizzax*

Annotasiya. Jigar metabolizmning har bir bosqichida muhim rol o'ynaydi va boshqa tizimlar bilan birlgilikda tananing tashqi va ichki o'zgarishlarga adekvat javob berishi uchun javobgardir. Bugungi kunda ko'plab kasalliklarning oldini olish va davolashda erishilgan muvaffaqiyatlarga qaramay, jigar kasalliklaridan kasallanish va o'lim darajasi barqaror o'sish tendentsiyasiga ega. Atrof-muhit omillarining ortib borayotgan ta'siri va sanoat va kimyoviy sintez mahsulotlari sonining ko'payishi tufayli hepatoprotektorlar tobora muhim ahamiyat kash etmoqda, jigarning kimyoviy moddalarga chidamlilagini oshiradi va toksik stressga javobni normallashtiradi.

Kalit so'zlar: o'tkir toksik hepatit, profilaktika, hepatoprotektorlar, fermentlar, polifenol, gossipol.

Аннотация. Печень играет важную роль на каждом этапе обмена веществ и вместе с другими системами отвечает за адекватную реакцию организма на внешние и внутренние изменения. На сегодняшний день, несмотря на успехи, достигнутые в профилактике и лечении многих заболеваний, заболеваемость и смертность от болезней печени имеют устойчивую тенденцию к росту. В связи с усилением влияния факторов внешней среды, увеличением количества продуктов промышленного и химического синтеза все большее значение приобретают гепатопротекторы, повышающие устойчивость печени к химическим веществам и нормализующие реакцию на токсический стресс.

Ключевые слова: острый токсический гепатит, профилактика, гепатопротекторы, ферменты, полифенол, госсипол.

Abstract. The liver plays a major role at every stage of metabolism and, together with other systems, is responsible for an adequate response of the body to external and internal changes. To date, despite the progress made in the prevention and treatment of many diseases, the incidence and mortality from liver diseases have a steady upward trend. In connection with the increasing influence of environmental factors, an increase in the number of products of industrial and chemical synthesis,

hepatoprotectors are becoming increasingly important, increasing the resistance of the liver to chemicals and normalizing the response to toxic stress.

Key words: acute toxic hepatitis, prevention, hepatoprotectors, enzymes, polyphenol, gossypol.

Mavzuning dolzarbligi: Gepatotoksinlar jigar shikastlanishining turli xil klinik va gistopatologik ko'rsatkichlarini hosil qiladi. Jigar shikastlanishiga alanin aminotransferaza (ALT), aspartat aminotransferaza (AST), ishqoriy fosfataza (ALF) va bilirubin kabi ma'lum biokimyoviy belgilar bilan tashxis qo'yish mumkin. Qon plazmasidagi fermentlar darajasining ko'tarilishi jigar toksik zararlanishini tegishli ko'rsatkichlari sifatida qabul qilinadi, umumiyligi konyugatsiyalangan bilirubin darajasining oshishi esa jigarning umumiyligi funksiyasini ko'rsatadi. Transaminaza darajasining ko'tarilishi bilirubin darajasining normal yuqori darajasidan ikki baravar oshishi bilan birgalikda gepatotoksik zararni yuqori belgisi sifatida qabul qilinadi. Makroskopik, xususan, gistopatologik kuzatishlar va qo'shimcha klinik biokimyoviy ko'rsatkichlarni o'rganish gepatotoksik zararlanishni tasdiqlash imkonini beradi. Alanin aminotransferaza yoki zardobdag'i glutamat piruvat transaminaza (ALT) (EC 2.6.1.2) faolligi gepatotoksiklikning eng ko'p ishonchli biomarkeridir. Bu aminokislotalar almashinuvi va glyukoneogeneza muhim rol o'ynaydigan jigar fermenti. U glutamat va piruvat hosil qilish uchun aminokislotalarning alanindan a-ketoglutaratga reduktiv o'tishini katalizlaydi. Oddiy darajalar 5-50 U/L oralig'ida. Ushbu fermentning yuqori darjasasi jigar shikastlanishi paytida chiqariladi [2].

Ma'lumki, jigarda organizmning normal fiziologik holatini ta'minlovchi bir qator fermentlar sintezlanadi. Jigardagi shikastlanish jarayonlari haqida gepatotsitlarning sitozoldagi asosiy markerlari – alaninaminotransferaza (ALT), aspartataminotransferaza (AST), ishqoriy fosfataza (IF) va gammaglutamiltransferaza (GGT) guvohlik berishi mumkin [4]. Mazkur fermentlar faolligining ortishi jigar to'qimalari faoliyatining buzilganligini bildiradi.

Ishning maqsadi: Toksik hepatit sharoitida qon plazmasi va jigarda glutamiltransferaza faolligini aniqlash va polifenollar ta'sirini o'rganishdan iborat.

Material va metodlar: Tadqiqotlar og'irligi 200-250 gr bo'lgan oq erkak zotsiz kalamushlarda olib borildi. Tajribalar eksperimental hayvonlardan foydalangan holda ish olib borish qoidalariga, shuningdek eksperimental tadqiqotlar uchun yoki boshqa ilmiy maqsadlarda ishlataladigan umurtqali hayvonlarni himoya qilish bo'yicha Yevropa konvensiyasida qabul qilingan qoidalarga muvofiq o'tkazildi [5, 8]. Toksik hepatitni modellashtirishda zotsiz oq erkak kalamushlari qorin bo'shlig'iga inektsiya yo'li bilan amalga oshiriladi. Buning uchun CCl₄ zaytun moyida eritilib 50% eritma hosil qilinadi. 50% CCl₄ eritmasi haftasiga ikki marta 1 kg tana vazniga 1.5 ml ni hisoblab yuboriladi. Polifenollarning gepatoprotektiv potentsialini baholash uchun 24 ta (Rattus vulgaris L.) oq erkak zotsiz kalamushlari teng ravishda 6 (n=4) guruhga bo'lingan. I guruh kalamushlari nazorat sifatida olindi. II, III, IV, V va VI guruh kalamushlari CCl₄ (zaytun moyida 50%, 1.5 ml/kg) bilan haftasiga ikki marta bir hafta davomida intraperitoneal yo'l orqali yuborildi. γ -glutamiltransferaza tahlilini o'tkazish uchun 37°C ga oldindan qizdirilgan 3,0 millilitr reagentga tekshiriladigan namunaning 200 mikrolitri qo'shiladi. 37°C da bir daqiqa davomida inkubatsiya qilingandan so'ng absorbans ko'rsatkichlari 405 nm vaqt oralig'ida amalga oshiriladi, shundan so'ng daqiqada absorbansning o'rtaча o'zgarishi aniqlanadi. Ushbu ma'lum miqdordagi γ -glutamiltransferaza o'z ichiga olgan standart kalibrash materiali xuddi shunday ishlov berilganda olingan nazorat bilan taqqoslanadi. Shu bilan bir qatorda, kalibrator tahlilini o'tkazib yuborish va ferment tahlillarini o'tkazish bo'yicha malakali kishilarga yaxshi ma'lum bo'lgan matematik formuladan foydalanib, p-nitroanilinning 405 nm yo'qolib ketish koeffitsienti asosida namunadagi γ -glutamiltransferaza miqdorini hisoblash mumkin [1].

Olingan natijalar va ularning taxlili: Ma'lumki, jigarda organizmning normal fiziologik holatini ta'minlovchi bir qator fermentlar sintezlanadi. Jigardagi shikastlanish jarayonlari haqida gepatotsitlarning sitozoldagi asosiy markerlari – alaninaminotransferaza (ALT), aspartataminotransferaza (AST), ishqoriy fosfataza (IF) va gammaglutamiltransferaza (GGT) guvohlik berishi mumkin [3]. Mazkur fermentlar faolligining ortishi jigar to'qimalari faoliyatining buzilganligini bildiradi.

Eksperimental toksik hepatit sharoitida kalamush qon zardobi gammaglutamiltransferaza konsentratsiyasiga polifenol birikmalarining ta'siri (U/L)

Intakt	Gepatit	Gepatit+karsil 50 mg/ml	Gepatit+Glabra 32 mg/ml	Gepatit+Sumax 40 mg/ml
52.43±0.29	78.65±1.05**	63.87±0.95***	72.63±0.77**	63.91±1.02**

Izoh: (*P<0,05, **P<0,01, ***P<0,001 n=5-6)

Navbatdagi tajribada jigar faoliyati bilan bog'liq bir qator fermentlar faolligiga CCl4 ning toksikligi ta'sirini o'rgandik. Adabiyotlarda keltirilishicha, jigar to'qimasi shikastlanganda qondagi ALT, AST, IF va GGT fermentlarining faolligi ortadi [7, 8].

GGT turli patologik holatlar diagnostikasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning miqdorining ortishi ferment joylashgan hujayra membranalarining shikatlanishi yoki turli tashqi omillar ta'sirida mikrosomal oksidlanish induktsiyasidan darak beradi [6].

Eksperimental toksik hepatit sharoitida kalamush qon zardobi gammaglutamiltransferaza konsentratsiyasiga polifenol birikmalarining ta'siri (U/L)

Intakt	Gepatit	Gepatit+karsil 50 mg/ml	Gepatit+Glabra 32 mg/ml	Gepatit+Sumax 40 mg/ml
88.68±0.31	129.91±1.48**	111.63±0.87***	121.13±0.89**	123.79±1.21**

Izoh: (*P<0,05, **P<0,01, ***P<0,001 n=5-6)

Ma'lumki, IF hujayra membranasida joylashib, organik birikmalardan fosfor kislotasining ajralib chiqishini katalizlaydi va shu orqali fosfor transportida ishtirok etadi. IF fermentlari organizmda jigar hujayralari, osteoblastlar, ichakning shilliq qavati, plasenta va sut bezlarida aniqlangan. Klinik tadqiqotlarda IF faolligining summar yig'indisi aniqlangani uchun IF faolligining qon zardobida ko'tarilishi har doim ham jigar shikastlanishlarini ifoda qilavermaydi. IF ning jigar hujayralariga tegishli ekanligini tasdiqlash uchun uning faolligi jigarning boshqa marker fermentlari – GGT, leysinaminopeptidaza bilan birgalikda oshgan bo'lishi kerak. Shuning uchun biz, navbatdagi tajribamizda kalamush gepatotsitlari gomogenatlardagi va qon zardobidagi GGT faolligiga ultratovush to'lqinlarining ta'sirini o'rgandik. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ultratovush to'lqinlarining ta'siri natijasida gepatotsitlar gomogenatlarda GGT fermenti faolligining kamayishi dastlabki 14 kunda kuzatilib, nazoratga nisbatan 1.5 barobar ortganligini kuzatildi. Aksincha, polifenollar ta'siri natijasida qon zardobida ferment faolligi nazorat guruhiga nisbatan ortib, dastlabki mos ravishda 1.2 va 1.15 barobar hepatitga nisbatan kamaygan qiymatni ko'rsatdi.

GGT fermenti gamma-glutamil siklda glutationning parchalanish reaktsiyalarini katalizlaydi va qondagi glutation miqdoriga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi [9]. GGT ning membranadan ajralishi va jigar to'qimalarining sitoplazmatik fraktsiyasida va qon zardobida faolligining ortishi oksidlovchili stressning bevosita natijasi hisoblanadi [10] va antioksidant GP/GR tizimining normal faoliyatiga to'sqinlik qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, karsil, glabra, sumax kabi polifenollar pepatit sharoitida ayrim polifenollar ta'siriga uchragan kalamushlar jigar gomogenati va qon zardobidagi ALT, AST, IF va GGT fermentlarini faolligining me'yorlashuviga samarali ta'sir ko'rsatar ekan.

Xulosa: Tadqiqotlarda polifenollarning kalamush gepatotsitlariga ta'siri natijasida qon zardobidagi sitolitik fermentlar: alaninaminotransferaza, aspartataminotransferaza, ishqoriy fosfotaza, gammaglutamiltransferazalar faolliklarining ortishi kuzatilib, bu esa o'z navbatida jigar gepototsit hujayra membranasining shikastlanganidan dalolat beradi. Tadqiqot natijalari asosida olingan ma'lumotlar pepatit sharoitida kalamush gepatotsitlariga ta'sirini korreksiyalashda qo'llanilgan glabra va sumax kabi polifenollarning yuqori antioksidant faollikka ega ekanligini ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ishankhodjaev T. et al. Study on Effects of Liposomal Quercetin on Biochemical Parameters of the Nigrostriatal System of Rats with Experimentally Induced Neurodegenerative Disease //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 6128-6143.
2. Mukhammadjon M. et al. The effect of ngf on indicators of the antioxidant system in rat brain tissue //Universum: химия и биология. – 2021. – №. 9 (87). – C. 82-86.
3. Saatov T. et al. Antioxidant and hypoglycemic effects of gossitan //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2019. – T. 63.

4. Saatov T. et al. Study on hypoglycemic effect of polyphenolic compounds isolated from the Euphorbia L. plants growing in uzbekistan //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2020. – Т. 70.
5. Saatov T. et al. Correction of oxidative stress in experimental diabetes mellitus by means of natural antioxidants //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2021. – Т. 73.
6. Irgasheva S. et al. Study on compositions of lipids in tissues of rats with alimentary obesity //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2019. – Т. 63.
7. Mamadalieva N. I., Mustafakulov M. A., Saatov T. S. The effect of nerve growth factor on indicators of the antioxidant system in rat brain tissue //eurasian union of scientists. series: medical, biological and chemical sciences Учредители: ООО "Логика+". – 2021. – №. 11. – С. 36-40.
8. Saatov T. et al. Study on antioxidant and hypoglycemic effects of natural polyphenols in the experimental diabetes model //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2018. – Т. 56.
9. Mustafakulov M. et al. Determination of antioxidant properties of l-cysteine in the liver of alloxan diabetes model rats //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – №. Special Issue. – С. 47-54.
10. Мамадалиева Н. И., Мустафакулов М. А., Саатов Т. С. Влияние фактора нервного роста на показатели антиоксидантной системы в тканях мозга крысы //Environmental Science. – 2021. – Т. 723. – С. 022021.

UO'K: 581.522.6

O'ZBEKİSTONDA AİLANTHUS ALTISSIMA (MILL.) SWİNGLE NİNG TEZ TARQALISHİGA SABAB BO'LUVCHI OMİLLARNI O'RGANİSH: İNVAZİVLİK VA URUG'LARNING UNUVCHANLIGI HAQIDA TUSHUNCHALAR

T.X. Maxkamov, dots., Toshkent davlat agrar imiversiteti, Toshkent

K. Suyunova, talaba, Toshkent davlat agrar imiversiteti, Toshkent

D.I. Sotiboldiyeva, dots., O'zbekiston Milliy imiversiteti, Toshkent

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ailanthus altissima (Mill.) Swingle ning bioekologik xususiyatlari bo'yicha olingan natijalar tahlili keltirildi. A. altissima ning uchrash holati, barqarorlik darajasi va ekologik-fitotsenotik xususiyatlari ko'ra invazivlik maqomi yuqori ko'rsatgichga ega bo'lib, 12 ballni tashkil etdi. Haroratning unib chiqish ko'rsatgichlariga ta'siri natijalariga ko'ra, eng yuqori yakuniy unib chiqish foiziga 30 °C (95%) haroratda erishilgan. Bu nihollarning tez va qulay rivojlanishi uchun optimal harorat sifatida belgilandi.

Kalit so'zlar: Bo'ychan aylant, invazivlik maqomi, urug' unuvchanligi, saqlanish muddatlari, haroratning ta'siri

Аннотация. В статье представлен комплексный анализ биоэкологических свойств Ailanthus altissima (Mill.) Swingle. Инвазионный потенциал A. altissima оценивается путем оценки его устойчивости, частоты встречаемости и эколого-фитоценотических характеристик. По применяемой методике A. altissima набирает 12 баллов, что свидетельствует о потенциальном риске инвазии в природную флору. Влияние температуры на всхожесть семян показывает, что 30°C (95%) является оптимальной температурой, позволяющей достичь замечательного конечного процента всхожести семян. Такая температура определена как благоприятная для быстрого и удобного развития рассады.

Ключевые слова: Айлант высочайший, инвазионность, динамика всхожести семян, длительность хранения, влияние температуры.

Abstract. The article presents a comprehensive analysis of the bioecological properties exhibited by Ailanthus altissima (Mill.) Swingle. The invasive potential of A. altissima is evaluated through an assessment of its resistance, frequency of occurrence, and ecological-phytocoenotic characteristics. Utilizing the applied methodology, A. altissima accumulates 12 points, signifying a potential invasion risk to natural flora. The effect of temperature on seed germination shows that 30°C (95%) is the optimal temperature to achieve a remarkable final seed germination percentage. This temperature is identified as conducive to the rapid and convenient development of seedlings.

Key words: Ailanthus altissima, invasiveness, seed germination dynamics, storage longevity, temperature influence.

Kirish. *Ailanthis altissima* (Mill.) Swingle Simaroubaceae DC. oilasiga mansub daraxt o'simlik bo'lib, Jannat daraxti (tree of Heaven) va O'zbekiston hududida aholi orasida sassiq daraxt sifatida ham tanilgan. Uning tabiiy tarqalish areali Xitoy bo'lib, mo'tadil iqlim zonasini bo'yab invaziv tur sifatida keng tarqalgan [1]. *A. altissima* Avstraliya, Hindiston, Yaponiya, Malayziya va Indoneziyani o'z ichiga olgan ko'plab mo'tadil mintaqalarda tabiiylashgan o'simlikdir. *A. altissima* Hindistonga Xitoy va Yaponiyadan manzaralni o'simlik sifatida, obodonlashtirish ishlarida foydalanish uchun olib kelingan. Hindistonda shimoliy tekislik va adirlarda ekib o'stiriladi [2]. U Himachal-Pradesh shtatidagi yo'llar bo'yab o'ta ko'p miqdorda o'stiriladi. U Jammu va Kashmirda madaniy o'rmon barpo etish uchun, boshqa hududlarida xiyobon daraxti sifatida ishlatiladi. Eronda u yarim qurg'oqchil hududlardagi shaharlar atrofida yashil belbog'lar yaratishda ishlatilib kelinadi [3].

Ailanthis altissima urug'ida 38% moy mavjud bo'lib, gektaridan (4x5 ekish sxemasida yoki yol chetlaridagi 500 dona osimlikdan) taxminan 250 kg yog' olish mumkin. *A. altissima* ning ekologik diapazoni keng bo'lib, tuproq tanlamaydi, ochiq o'ta yorug' quyoshli va soya nam bo'lган sharoitlarda bemalol o'sa oladi. Bu esa O'zbekistonning aksariyat hududlarida o'sishini ta'minlaydi. Uning urug'i tarkibidagi katta miqdordagi moy, uni moyli iste'mol qilinmaydigan o'simlik hisoblashga asos bo'ladi. Shuning uchun biodizel ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida ishlatilishi mumkin [4]. O'simlik moyining zaharli komponentlari ularni inson iste'moli uchun yaroqsiz holga keltiradi. Oziq-ovqat yoki dorivor maqsadlarda ishlatilmaydigan maxsulotlarni yetishtirishda optimal sharoitlar talab qilinmaydi. Masalan bioneft ishlab chiqarish uchun yetishtirish. Shuning uchun iste'molga yaroqsiz mana shunday moyli ekinlarni unumsiz tuproqlarda, bo'sh yerlarda, yo'l/dala chetlarida, buzilgan o'rmonzorlarda va sug'orish kanallarining chetlarida bioyoqilg'i ishlab chiqarish va boshqa sohalarda foydalanish uchun, aholidan uzoqroq joylarda (kuchli allergen o'simlik bo'lGANI sababli) yetishtirish mumkin.

Ailanthis altissima asosan himoya yo'laklarida yahshi o'sishi va erroziyadan himoya qilish xususiyatlari sababli shahatlarning unumsiz tuproq va ifloslangan havo muhitida obodonlashtirish ishlarida foydalaniladi. Shu bilan birga chiqindixonalarning tuproqlarini rekultivatsiya ishlarida ham foydalaniladi [5]. Yogochi och tusli va yumshoq, sariq-jigarrang o'zakli. Yog'ochini qayta ishslash mumkin bo'lib, chirishga chidamli. Qurilish, qadoqlash, mebel, qog'oz homashyosi, tola sanoati va gugurt ishlab chiqarishda ishlatiladi. Qator mamlakatlarda o'tin va yog'och ko'mir ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Barglari ipak qurti uchun ozuqa sifatida ishlatilishi mumkin. Ildizlari epilepsiya va astmani davolashda ishlatiladi. Urug'lari yog' va oqsil manbai hisoblanadi, moyi achchiq, lekin tozalanganidan keyin foydalanish mumkin [6]. Ildiz va barglarida allelopatik va gerbitsid birikmalari mavjud [7, 8].

O'zbekistonga qachon va qanday yo'l bilan kirib kelganligi to'g'risida aniq ma'lumotlar mavjud emas. Ammo obodonlashtirish ishlarida tez-tez ishlatilib turishi to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Toshkent va Samarcand atroflarida noturg'un strukturaga egaadir tuproqlari va tog' qoyalarida lalmi sharoitda o'stirilib, yahshi natijalar olingan. Tez o'sganligi sababli sug'orilmaydigan hududlarning ko'kalamzorlashtirish ishlarida qimmatbaho assortimentlar qatoriga kiritilgan [9]. Ushbu o'simlik ikki uyli o'simlik bo'lib, changchili tuplari gullagan vaqtida insonlarda kuchli allergiya chaqirsa, urug'chili tuplari yuqori unuvchan urug'larining ko'pligi va tabiiy floradagi ayrim jamoalarning strukturasi va floristik tarkibiga salbiy ta'siri sababli foydalilik koeffitsiyentini tushib ketishiga olib kelib, katta zarar keltiradi. Ammo arid iqlim sharoitida, qurg'oqchilikga chidamli bo'lGANI bois, aholi punklaridan yiroqda madaniy o'rmonlar tashkil etishda foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Sababi undan unumsiz, antropogen bosim kuchli bo'lgan hududlarda foydalanish imkoniyatlari mavjud.

O'zbekistonda invaziv o'simliklarni o'rganishga qaratilgan ilmiy nashrlar mavjud bo'lib [10, 11], ularda bo'ychan aylantning muvaffaqiyatlari tarqalish sabablari yoritib berilmagan. Ushbu maqolada *Ailanthis altissima* ning invazivlik maqomi va urug' unish ko'rsatgichlari bo'yicha olingan natijalar tahlili keltirildi.

Tadqiqot uslublari. Turni barqarorlik darajasi Notov va Notov bo'yicha baholandi [12]. Uchrash holati Yu.I. Bulanyy [13] shkalasi bo'yicha baholandi. Turning ekologik-fitotsenotik

xususiyatlari baholash uchun E.V. Pismarkina va T.B. Silaeva [14] tomonidan taklif etilgan shkala qo'llanildi. Urug'larning unuvchanligiga haroratning ta'sirini 25, 30 va 35°C haroratlarda o'rGANildi. Pishib yetilgan urug'larning tinim davomiyligini aniqlash uchun turli muddatlarda terib olindi va laboratoriya sharoitida ekildi. Urug'lar terilgandan so'ng qanotlaridan (qo'l kuchi bilan) tozalandi. Turli muddatlarda terilgan urug'lar 15 kun davomida xona va -10°C li sharoitda muzlatgichda saqlandi. Songra 2 qavat filtr qog'oz qo'yilgan Petri idishlariga (9 sm kattalikdagi) urug'lar bir-biridan 1 sm oraliqda joylandi. Tajribalarda disterlangan suvdan foydalanildi. Tajribalar davomida ishlataladigan barcha asbob-uskunalarning sterilligiga va yagona omillik printsipiga alohida e'tibor qaratildi. Urug'lar termostatda 30°C haroratda, 24 soat qorongulik rejimida undirishga qo'yildi.

Olingen natijalar va ularning tahlili. O'zbekistonda *A. altissima* antropogen ta'sir kuchi yuqori bo'lgan avtomobil va temir yo'llar va ariqlar yoqalari, tashlandiq joylar, shaharlar aro obodonlashtirish yolkilari, istirohat bog'lari va boshqa ko'plab ruderal hududlarini egallagan, keng tarqalgan invaziv tur xisoblanadi. *Ailanthus altissima* ning uchrash holati, barqarorlik darajasi va ekologik-fitotsenotik xususiyatlari ko'ra o'simlikning invazivlik maqomi yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, 12 ballni tashkil etdi. Ushbu tur tabiiy floraga bostirib kirish darajasi yuqori ekanligini namoyon etdi: barqarorlik darajasiga ko'ra 4 ball (tur juda barqaror va u faol tarqaladi, yuqori samarali generativ ko'payish xususiyatiga ega); uchrash holatiga ko'ra 6 ball (keng ekologik amplitudaga ega bo'lgan, bir formatsianing ko'pchilik o'simliklar guruhida mavjud bo'lgan, ko'pincha dominant/subdominant sifatida jamoani boshqarayotgan va deyarli hamma joyda keng tarqalgan, ko'p sonli populyatsiyaga ega tur); ekologik-fitotsenotik xususiyatiga ko'ra 2 ball (tabiiy biotoplarga qaraganda urbanizatsiyalangan biotoplarda kengroq tarqalgan).

Ailanthus altissima (Mill.) Swingle O'zbekistonda (ochiq quyoshli) quruq va (soya) nam hududlarda uchrab, uning bo'yisi mos ravishda 10/20 metr balandlikni tashkil etadi. Uning mevalari yashil-sariq rangga ega. O'simlikning muvaffaqiyatli tarqalish sabablarini aniqlash maqsadida, meva va urug'larining sifat ko'rsatkichlari aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Ailanthus altissima meva va urug'larining sifat ko'rsatkichlari

Nº	Sifat ko'rsatkichlari	Qanotli mevasi (samara)	Urugi (qanotsiz)
1	Uzunligi, sm	$4,1 \pm 0,7$	$0,43 \pm 0,02$
2	Eni, sm	$0,98 \pm 0,03$	$0,36 \pm 0,02$
3	1000 dona urug'ining og'irligi, gr	33,9	13,5

Ailanthus altissima meva va urug'larining sifat ko'rsatkichlari mavjud ma'lumotlar bilan [15] deyarli birhil bo'lib, 1000 dona qanotchali urug' og'irligi 33,9 gr, ya'ni 0,02 gr og'irroq bo'lsa, qanotsiz urug'ları 13,5 gr ni tashkil etib, 0,03 gr og'irroq, qanotli mevasining uzunligi 0,07 sm ga kaltaroq va eni 0,01 ga uzunroq ekanligi aniqlandi. Ushbu holat o'simlik urug'larini uzoqroqqa uchish imkoniyatlarini kamaytiradi ammo og'irligi evaziga tuproqqa kirish imkoniyatini oshiradi. Bu esa O'zbekistonning arid iqlim sharoitida urug'larning unish ko'rsatkichlarini (tuproq ostida qulay sharoit xisobiga) oshishiga sabab bo'ladi.

1000 ta urug'ning og'irligi 33,9 g bo'lib, har bir daraxt 1,5-2,0 kg dan urug' berishi o'tkazilgan tajribalarda aniqlandi. Avtomobil yo'llarining chetlarida rejasiz o'sib chiqqan tuplaridan (gektar xisobiga) 750-900 kg urug' yig'ish imkoniyati mavjudligi aniqlandi. *Ailanthus altissima* qurg'oqchilikka chidamli o'simlik bo'lib, yozning eng issiq vaqtlarida transpiratsiya jarayonini nazorat qilish, ya'ni suv bug'latishni kamaytirish xususiyatiga ega. Shu bilan birga o'simlikning ichki qismini, yani otkazuvchi to'qimasini halqa-g'ovak tuzilishi suvning ildizdan barglarga tez yetib borishiga imkon beradi. O'zbekistonning arid iqlim mintaqasida *A. altissima* muvaffaqiyatli tarqalishiga uning ushbu xususiyatlari yordam bermoqda. Ushbu ilmiy xulosalarini Magomadova [16], Lepart va boshqalar [17] tomonidan chiqarilgan xulosalar ham tasdiqlaydi.

A. altissima muvaffaqiyatli tarqalishiga urug'larning shamol yordamida tarqalishga moslashganligi, ya'ni vaznini yengil, urug' qanotlarini (urug'ga nisbatan) yirik va morfologiyasini o'ziga xos tuzilishga egaligi ham sabab bo'lmoqda. O'simlikning urug'larini bahorgacha daraxtda saqlanib qolishi, tuproq yoki barg ostida qolmasdan sovuq harorat stratifikatsiyasidan o'tishini ta'minlaydi. Urug'larini qanotchalarining strukturasi suv yordamida ham tarqalish imkoniyatini beradi. Qanotlari suvda chokmasligini taminlasa, suv urug'larni stratifikatsiya jarayonini otab,

unuvchanligini ortishiga imkon beradi. *A. altissima* urug'lari besh oy davomida suvda saqlangandan keyin ham yuqori unish ko'rsatgichini (94%) saqlab qolgan [18]. Bu xususiyatlar noqulay o'sayotgan muhitda yuqori hosildorlik imkoniyatini ta'minlaydi. Urug'larini unuvchanligini o'rganish maqsadida tajribalar olib borildi. Tajribalarda haroratni urug'larning unuvchanligiga ta'siri va urug'larning tinim davrining davomiyligini o'rganildi.

Harorat unib chiqish tezligiga, o'rtacha unib chiqish davriga, unib chiqish tezligi koeffitsientiga va nihol uzunligiga sezilarli darajada bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadigan omillardan biridir.

O'simlikning urug'lari O'zbekiston sharoitida iyul-avgust oyalarida pishib yetiladi. *A. altissima* urug'larining yakuniy unib chiqish foizi (YUCF), o'rtacha unib chiqish vaqt (O'UCV), unib chiqish tezligi koeffitsienti (UCTK), 50% unib chiqish vaqt (V50) ($n=4$) va nihollarning uzunligiga (NU) ($n=10$) harorat turli xil ta'sir qiladi. O'simlik urug'larining unuvchanligiga haroratning ta'siri 25, 30 va 35°C larda o'rganildi. O'simlik urug'larining unuvchanligi bo'yicha olingan natijalar quyidagi 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval

O'simlik urug'larining unish ko'rsatgichlariga haroratning ta'siri

№	Unish ko'rsatkichlari	Harorat darajasi		
		25 °C	30 °C	35 °C
1	YUCF, %	42±6.8	95±3.75	63±7.25
2	O'UCV, kun	4.45±0.31	4.38±0.36	4.40±0.03
3	UCTK, %	21.7±1.29	22.4±0.35	22.9±0.18
4	V50, kun	4.15±0.36	3.92±0.05	3.89±0.06
5	NU, sm	3.56±0.81	6.94±0.78	1.15±0.12

Haroratning unib chiqish ko'rsatgichlariga ta'siri natijalariga ko'ra, 2-jadvaldan ko'rinish turibdiki, eng yuqori yakuniy unib chiqish foiziga 30°C (95%) haroratda erishilgan bo'lib, nihollarning uzunligi 6.94 sm ni taskil etdi va bu nihollarning tez va qulay rivojlanishi uchun optimal harorat sifatida belgilandi. Bu holat proteaz faolligini qo'zg'atish uchun urug'larning suvni shimishni boshlashining dastlabki soatlaridan boshlab suvning yaxshi gideratsiyasi (organizmning normal funksiyasi uchun yetarli miqdorda suv bilan ta'minlanishi) uchun muhimdir, bu urug'pallabarglardagi zahira oqsilning parchalanishini va ildizlarning keskin o'sishini ta'minlaydi [19]. Eng past YUCF 25°C (42%) da qayd etilgan bo'lib, nihollarning uzunligi 3.56 sm ni tashkil etdi. Har xil haroratda urug'larning unib chiqish tezligi turlicha bo'lib, harorat ortgan sari unish tezligi ham ortib bordi, ya'ni harorat 35°C bo'lganda unish tezligi 22,9% ni tashkil etdi va 30°C (22,4%) haroratdan sezilarli farq qilmadi.

Keying tajribalarda urug'larning tinim davrini ularning unuvchanlik ko'rsatgichlariga ta'siri o'rganildi. Urug'lar termostatda 30°C haroratda, 24 soat qorongulik rejimida undirishga qo'yildi. Olingan natijalar quyidagi 3-jadvalda keltirildi.

3-jadval

Urug'larning tinim davrini unish ko'rsatgichiga ta'siri: 1* stratifikatsiyalanmagan, 2* stratifikatsiyalangan

№	Urug'larning terilgan va ekilgan vaqt	Unish ko'rsatkichlari, %	
		1*	2*
1	2021 yil oktyabr	25	64
2	2021 yil dekabr	48	82
3	2022 yil fevral	75	85
4	2022 yil aprel	93	94

Yuqoridagi jadvaldan ma'lumki, urug'larning unuvchanligini ortishi tinim davrining uzunligi bilan to'g'ri propartsional bo'ldi. Tinim davrining ortishi unuvchanlikni ortishiga olib keldi. Fevral va aprel oyida ekilgan, ya'ni 5-7 oylik tinim davrini o'tkazgan urug'larning unish ko'rsatkichi yuqori bo'lib, mos ravishda 75/93 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga stratifikatsiya jarayoni ham o'simlik urug'larining unishiga ijobiy ta'sir qilib, unuvchanlikni ortishiga olib keldi. Bu ko'rsatgich oktyabr (64 %) va dekabr (82 %) oyida ekilgan urug'larda yaqqol namoyon bo'lgan bo'lsa, fevral (85 %) va aprel (94 %) oyida ekilgan urug'larda sezilarsiz bo'ldi. Bu tabiiy stratifikatsiya jarayonini daraxt shoxlarida o'tkazgan urug'larning unish ko'rsatgichlari yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi.

Xulosa. *A. altissima* O'zbekistonning arid iqlim sharoitaiga juda yahshi moslashgan bo'lib, kundan kunga arealini kengaytirib borayotgan invaziv tur deb hisoblash mumkin. Bioxilma-xillikga

ta'siri bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar olib boorish talab etiladi. Shu bilan birga ushbu turdan madaniy o'rmonlar barpo etish, himoya ihotazorlari tashkil etish amaliyotini ham aholi yashash maskanlaridan uzoqroqda, rekultivatsiyaga muhtoj hududlarda tashkil etish foydadan holi bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. POWO. <https://powo.science.kew.org/taxon/urn:lsid:ipni.org:names:813521-1>
2. Singh R. P. et al. Autecology of Ailanthus glandulosa Desf. in Western Himalayas //Indian Forester. – 1992. – T. 118. – №. 12. – C. 917-921.
3. Luna R.K. Plantation trees. – Delhi: International Book Distributors, 1996.
4. Hoseini S. S. et al. Ailanthus altissima (tree of heaven) seed oil: Characterisation and optimisation of ultrasonication-assisted biodiesel production //Fuel. – 2018. – T. 220. – C. 621-630.
5. Lee KyongTae L. K. T., Han BongHo H. B. H., Cho Woo C. W. The appropriate mounding height and selection of ornamental trees on consideration of the environmental characteristics in an apartment complex. In the case of Sanggyoi-Dong sanitary landfill. – 1997.
6. Chiang H. C. et al. A noval cytotoxic flavonoid glycoside from Physalis angulata //Anticancer Res. – 1992. – T. 12. – C. 837-843.
7. Heisey R. M. Allelopathy and the secret life of Ailanthus altissima //Arnoldia. – 1997. – T. 57. – №. 3. – C. 28-36.
8. Lin L. J. et al. Identification of plant growth inhibitory principles in Ailanthus altissima and Castela tortuosa //Journal of Agricultural and Food Chemistry. – 1995. – T. 43. – №. 6. – C. 1708-1711.
9. Линчевский И.А. Род 549 (1). Ailanthus Desf. – Айлант. // Флора Узбекистана. Т. 4. – Ташкент: Академии наук УзССР, 1954. – С. 77-78.
10. Makhkamov T.Kh., Brundu G., Jabborov A. M., Gaziev A. D. Predicting the potential distribution of Ranunculus sardous (Ranunculaceae), a new alien species in the flora of Uzbekistan and Central Asia // BioInvasions Records. – 2023. – T. 12. – №. 1. – C. 63-77.
11. Maxkamov T. Adventiv o'simlik Erigeron canadensis L. ning O'zbekiston florasidagi invazivlik maqomi // Journal of Experimental Studies. – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 12-18.
12. Нотов А.А., Нотов В.А. Основные направления изучения генезиса адвентивного компонента флор // Вестник Тверского государственного университета. Серия «Биология и экология». – 2009. – Т. 14. – С. 127–141.
13. Буланый Ю.И. Флора Саратовской области: Дисс. ... докт. биол. наук. М., 2010. – 500 с.
14. Письмаркина Е.В., Силаева Т.Б. Особенности натурализации чужеродных растений на северо-западе Приволжской возвышенности // Российский журнал биологических инвазий. – 2018. – Т. 11 (1). – С. 88-102.
15. Kheloufi A. et al. Effect of temperature and salinity on germination and seedling establishment of Ailanthus altissima (Mill.) Swingle (Simaroubaceae) //Reforesta. – 2020. – №. 9. – С. 44-53.
16. Магомадова Р. С. Влияние промышленных выбросов на состояние насаждений Ailanthus altissima (Mill.) Swingle в условиях г. Грозного: дис. – Чеченский гос. ун-т, 1998. – 141 с.
17. Groves R. H., Di Castri F. (ed.). Biogeography of Mediterranean invasions. – Cambridge University Press, 1991.
18. Kaproth M. A., McGraw J. B. Seed viability and dispersal of the wind-dispersed invasive Ailanthus altissima in aqueous environments // Forest Science. – 2008. – T. 54. – №. 5. – C. 490-496.
19. Bewley J. D. et al. Germination // Seeds: Physiology of Development, Germination and Dormancy, 3 rd Edition. – 2013. – С. 133-181.

UO'K 579.64: 579.222: 631.95: 632.4

POMIDOR O'SIMLIGINING ZAMBURUG'LI KASALLIKLARIKA NISBATAN ANTAGONISTIK MIKROORGANIZMLAR

**D.D.Murodullayev, o'qituvchi, Qarshi davlat universiteti, Qarshi
M.N.Shermanova, magistrant, Qarshi davlat universiteti, Qarshi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada pomidor o'simligida kasallik qo'zg'atuvchi zamburug'larga qarshi kurashda antagonist Penicillium sp. va Aspergillus sp. zamburug'i Fusarium oxysporum zamburug'ini faoliyatini cheklab, o'sishiga yo'l qo'yunganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: chapeka , suslo agar, Apergillus, Fusarium, Penicillium

Аннотация. В этой статье антагонист Penicillium sp. и Aspergillus sp. Сообщается, что он подавляет активность гриба Fusarium oxysporum и предотвращает его рост.

Ключевые слова: чапека, агаровое сусло, Apergillus, Fusarium, Penicillium

Abstract. In this article, the antagonist Penicillium sp. and Aspergillus sp. It is reported that it inhibits the activity of Fusarium oxysporum fungus and prevents its growth.

Key words: chapeka, agar wort, Apergillus, Fusarium, Penicillium

Kirish. Qishloq xo'jaligida kimyoviy sintez qilingan fungitsidlardan uzoq vaqt foydalanish, tuproqning foydali mikroflorasini yo'q qilishga sabab bo'lmoqda, buning natijasida fitopatogen zamburug'larning tuproqda ko'plab massaviy koloniyasi to'planishiga va tuproq unumdoorligi tushib ketishi kuzatilmoxda. Shuning uchun, keyingi paytlarda o'simliklarni zararkunandalar va kasalliklardan himoya qilishda istiqbolli usullardan biri sifatida, qo'zg'atuvchilarning tabiiy antagonist mikroorganizmlaridan foydalanishga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. N.A. Krasilnikovning fikricha, o'simliklarda bakterial, zamburug' aktinomitset va protozoy qo'zgatuvchilarning har biriga qarshi bo'lgan antagonistlarni tanlash mumkin [11]. Chunki ular ajratadigan moddalar fitopatogen zamburug'larning rivojlanishini to`xtatish bilan cheklanmay, balki o'simlik ildizlari orqali uning tanasiga kirib, kasallikka chidamliligin oshiradi. O'simlik kasalliklariga qarshi kurashda mikroorganizmlardan foydalanish yaxshi samara beradi [1]. Chunki ular ajratadigan antibiotik moddalar fitopatogen zamburug'larning rivojlanishini nafaqat to`xtatibgina qolmay, balki o'simlik ildizlari orqali uning tanasiga kirib, kasallikka chidamliligin oshirishga yordam beradi. O'simlik kasalliklariga qarshi kurashda mikroorganizmlardan ya'ni antoganistik mikroorganizmlardan foydalanish yaxshi natijalarga olib keladi [1]. Mikroorganizmlarda antagonizm xususiyati ancha ilgari o'r ganilgan. Dastlab L. Paster 1877-yilda mikroorganizmlarda yuz beradigan antagonizm jarayonini aniqlagan. Mikroorganizmlarning antagonizm xususiyatiga asoslangan holda antagonist mikroblardan foydalanish boshqa kurash vositalariga nisbatan bir qator afzalliklarga egadir [2].


Mikroorganizmlardan 20-yillarda antibiotiklar kashf etilgunga qadar fitopatogen mikrofloraga qarshi kurashda foydalanilgan. Aktinomitsetlar va mikolitik bakteriyalarning turlaridan zig'ir, g'o'za, sabzavot ekinlari, danakli mevalarning kasalliklariga qarshi qo'llab ko'rilgan va ijobiy samaraga erishilgan. N.A.Krasilnikovning fikricha, o'simliklarda bakterial, zamburug', aktinomitset va protozoy kasalliklarini qo'zg'atuvchilarning har biriga qarshi samarali bo'lgan antagonistlarni tanlab foydalanish mumkin. Shu kunlarda antagonit zamburug'lar orasida trixoderma avlodni vakillaridan keng ko'lamda foydalanilmoqda. Trixoderma zamburug'idan mevali daraxtlar kuydirgisiga qarshi qo'llaniladi. Hozirgi kunda AQSHda trixodermani yeryong'oq sklerotiniyasiga qarshi tuproqqa berish maqsadida ishlab chiqarishing bir qancha usullari rivojlantirilmoqda. Fransiyada uzumning qo'ng'ir chirish kasalligiga qarshi trixoderma preparatlari bilan ishlov berish orqali ijobiy natijalar olingan. Isroilda kartoshkaning rizoktonioz kasalligi va boshqa kasalliklariga qarshi trixodemin preparati ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan Antagonist bakteriyalarni qo'llash, foydali va zararli mikroorganizmlaming o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi antibioz mexanizmiga asoslangandir [11]. Hozirgi paytlarda o'simlik kasalliklariga qarshi kurash uchun mo'ljallangan bakterial preparatlar, asosan, ikkita *Pseudomonas* va *Bacillus* turkumlari namoyandalarini qo'llab tayyorlanilmoqda. *Pseudomonas* turkumiga mansub bakteriyalardan ayniqsa keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Bakteriyalar har xil organik substratlarni yaxshi o'zlashtiradi, tez o'sadi, antibiotiklar, bakteriosinlar, sideroforlar va o'sishni jadallashtiruvchi stimulatorlarni sintez qiladi [9]. Ўсимликларнинг ўсиш ва ривожланишини кучайтирувчи гиббереллин, ауксин, цитокинин ва юқори миқдорда фитогормонлар синтезловчи маҳаллий замбуруғ штаммлари асосида экологик тоза комплекс таъсирга эга биопрепаратлар яратилганлиги улардан қишлоқ хўжалигига фойдаланиб келинмоқда [10]. Бизни илмий тадқиқотимизда вилоят худудларида помидор экинларининг замбуруғли касалликлariiga қарши antoganistik mikroorganizmlarni o'r ganish ва штаммларини ажратишdir.

Tadqiqot metodlari. Pomidor ekinidan ajratib olingan zamburug'larga antibiotikning faolligini, mikroorganizmlarning ularga sezgirligini va chidamliliginani aniqlash usullaridan foydalanildi. Fitopatogen mikroorganizmlarga qarshi tekshirish uchun olingan mikroorganizmlarni antibiotik hosil qilish xususiyatlarini agarli ozuqa muhitlariga ekish orqali aniqlandi [3]. Antagonistik zamburug'lar yoki bakteriyalar ajratib olingandan so'ng ularning toza kulturasini har xil test mikroblar: saprofit va patogen formalar, gramm musbat, gramm-manfiy, spora hosil qiluvchi, gifa hosil qiluvchi zamburug'lar bilan munosabatlari orqali antagonistik xususiyatlari aniqlanadi [12]. Hozirgi vaqtida zamburug'larning antagonistik xususiyatlarini aniqlashning agarli blok, agarli o'yiqcha, filtr qog'ozli disk, perpendikulyarli shtrix kabi biologik usullari ishlab chiqilgan.

Agarli blok usulida test kulturalar agarli ozuqa muhitida petri likopchasida ozuqa muhitining sirtida o'stirildi. So'ngra diametri 8mm bo'lgan shisha, plastmassa yoki temirli moslama bilan kesib olindi. Kerakli ozuqa muhiti tayyorlanadi va petri likopchalariga 20 mm dan quyib chiqiladi va zamburug'larning 10^6 huj/ml konsentratsiyadagi sporasi 0,1 ml dan ozuqa muhitining yuzasiga ekip chiqildi. So'ngra ushbu ekilgan zamburug'larning ustiga petri likopchalarining markaziga test kulturalarining kesib olingen agarli bloklari joylashtirib chiqildi.

Perpendikulyarli shtrix usulida bakteriyalarga nisbatan antagonizmni o'rganishda zamburug' kulturasini dastlab 1 kun davomida 30°C haroratda termostatda o'stiriladi, so'ngra bakteriyalar ekiladi va keyingi o'sishi 37°C da, 2 kun davomida anaerostatda davom ettiriladi. Shuning uchun ham ikkala bakteriya ham kultura yaqinida o'smaydi, zaif o'sish faqat sezilarli masofada normal bo'ldi. Agar zamburug' o'sib zona hosil bo'lsa, zamburug'ning shu bakteriyaga antagonistikligi borligini bildiradi. Bu masofa qanchalik katta bo'lsa sinov kulturasini ishlab chiqarilgan antibiotik moddasiga shunchalik sezgir bo'ladi [3].


Dastlab pomidorning zararlangan a'zolaridan zamburug'larni "nam kamera" usulidan foydalanib *Rizactonia solani*, *Cladosporium fulvum*, *Fusarium oxysporum*, *Alternaria alternata* kabi zamburug'larni ajratib oldik [4]. Ajratib olingen zamburug' na'munalaridan vaqtinchalik preparatlar tayyorladik va ularni binokulyar mikroskop yordamida [5] va aniqlagichlar hamda turli ilmiy adabiyotlardan foydalanib zamburug'larning tur tarkibini aniqladik [6], [7], [8].



1-rasm. Ozuqa muhitidan va nam kamera usulida zamburug'larni ajratib olish


Kasallangan pomidor o'simligi ekilgan joydan tuproq namunasi olindi va bu tuproq 9:1 nisbatda suytirilib uning tarkibidan mikroorganizmlarni ajratib olindi va ularning tur tarkibi aniqlandi. Tuproq tarkibidan *Trichoderma sp*, *Aspergillus sp*, *Penicillium sp* zamburug'lari aniqlandi. Bu zamburug'larning antagonistik xususiyatini aniqlash uchun agarli blok va perpendikulyarli shtrix usulidan foydalandik.

Tadqiqot natijalari. Perpendikulyarli shtrix usulida *Penicillium sp* zamburug'i bilan *Fusarium oxysporum* zamburug'i o'rta sidagi munosabatni ko'rdik. Har ikkala zamburug'ni petri idishga quyilgan saburo ozuqasiga shtrix usulida ekildi va bir hafta davomida kuzatdik. Natijada *Penicillium sp* zamburug'i *Fusarium oxysporum* zamburug'ining o'sishiga yo'l qo'ymadidi (2-rasm).



2-rasm. *Penicillium sp* zamburug'i va *Fusarium oxysporum* o'rta sidagi munosabat

Agarli blok usulidan foydalanib *Aspergillus sp* va *Fusarium oxysporum* zamburug'ining o'zaro munosabatini ko'rdik. Buning uchun saburo ozuqa muhitiga *Fusarium oxysporum* zamburug'ini suyultirib ekib olindi, bir haftadan so'ng petri idish markaziga test kulturalar 8 mm dan kesib olib joylashtirildi. Bir haftadan keyin *Aspergillus sp* zamburug'i *Fusarium oxysporum* zamburug'ini faoliyatini cheklab, petri idishni qoplaganini ko'rdik (3-rasm).



3-rasm. *Aspergillus sp* zamburug'i va *Fusarium oxysporum* zamburug'i o'rtaqidagi antagonizm

Shunday qilib, o'simliklarni kasalliklardan himoya qilishda mikroorganizmlardan foydalanish biologik himoya usullari yordamida yuqori miqdorda fitogormonlar sintezlovchi mahalliy zamburug' shtammlari asosida ekologik toza kompleks ta'sirga ega biopreparatlar yaratishda ulardan qishloq xo'jaligida foydalanish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Zamburug'larning antagonistik xususiyatlarini aniqlashning biologik usullari ishlab chiqilgan bo'lib, bu usullarning barchasida test shtammlar va o'rganilayotgan fitopatogen mikroorganizmlardan foydalaniladi.

Xulosa qilishimiz mumkinki, pomidorda uchraydigan *F. oxysporum* zamburug'iga qarshi kurashda ularga nisbatan antagonistik xususiyatga ega zamburug'lar borligi o'simliklarni kasalliklardan himoya qilishda biologik usullar yaratilishiga asos bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alimuhamedov S.N., Adashkevich B.P., Odilov J.K., Xo'jayev SH.F. G'o'zani biologik usulda himoya qilish. T., "Mehnat", 1990-yil
2. Gariyev B.G. Mikrobiologiya. T., "Mehnat", 1998. – 192 c.
3. Дудка И.А., Вассер С.П., Элланская И.А. и др. Методы экспериментальной микологии: Справочник / Под. ред. В.И. Билай. – Киев: Наукова Думка, 1982.– 549c.
4. Наумов Н.А. Методы микологических и фитопатологических исследований. – Л.: Сельхозгиз, 1937. – 272 с.
5. Роскин Г.И. Микроскопическая техника. – М.: Сов. Наука, 1967. – 447 с.
6. Сагдулаева М.Сх., Киргизбаева Х.М., Рамазанова С.С., Гулямова М.Г., Файзиева Ф.Х. Флора грибов Узбекистана. Т. ВИ. Гифалные грибы. – Ташкент: Фан, 1990. – 129 с.
7. Сокирко В.П., Горковенко В.С., Зазимко М.И. Фитопатогенные грибы (морфология и систематика) – Краснодар, 2014 –С. 108.
8. Пидопличко Н.П. Грибы паразиты культурных растений определител. Т. ИИ. Грибы Несовершенные. – Киев, 1977. – С. 102-233.
9. Xamrayev A.Sh., Xasanov B.A., Sulaymonov B.A., Kojevnikova A.G., Xolmuradov E.A. O'simliklarni biologik himoya qilish: Toshkent: Cho'lpon nomidagi N M IU , 2013. 195-b
10. Тураева Б.И. Истиқболли маҳаллий микромицет штаммларининг ўсимликлар ривожланишига таъсири ва антифунгал хусусияти. Автореф. дис. ... б.ф.ф.д . – Ташкент, 2019. – 22 б.
11. Штерншис М .В., Джалилов У., Андреева И.В., Томилова О.Г. Биологическая защита растений. — Москва: «К олосС», -2004. -264 с.
12. Sherqulova J.P. Mikrobiologik tadqiqot usullari. Qarshi "Fan va ta'lim", 2023-yil. –100 б.

**EKSPERIMENTAL GIPOTIREOZ SHAROITIDA NEYRODEGENERATIV
KASALLIKLAR RIVOJLANISHIDA QALQONSIMON BEZ TO'QIMASINING
GISTOLOGIK VA BIORIMYOVIY O'ZGARISHLARNI O'RGANISH**

M.A.Mustafakulov, ilmiy xodim, Biofizika va biokimyo instituti, Toshkent

T.M.Ishanxodjayev, ilmiy xodim, Biofizika va biokimyo instituti, Toshkent

T.S.Saatov, ilmiy xodim, Biofizika va biokimyo instituti, Toshkent

I.R.Yalalova, ilmiy xodim, Biofizika va biokimyo instituti, Toshkent

Annotatsiya. Maqolada gipotireoz modeli asosida chaqirilgan Alsgeymer modeli hayvonlarda biokimyoviy hamda histologik o'zgarishlarni polifenollar asosida korreksiyalash usullari hamda to'qimalarning kislrorod bilan yetarli ta'minlanmasligi yoki kislroroddan foydalanishning buzilishi, natijada turli xil patologik o'zgarishlar kelib tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Gipotireoz, Alsgeymer, merkozolil, streptozotsin, glabra, euforbin-3, kversetin.

Аннотация. В статье рассмотрены методы коррекции биохимических и гистологических изменений у животных на основе модели гипотиреоза, методы коррекции биохимических и гистологических изменений на основе полифенолов, а также недостаточного снабжения тканей кислородом или нарушения использования кислорода, приводящие к различным патологические изменения.

Ключевые слова: Гипотиреоз, болезнь Альцгеймера, меркозолил, стрептозоцин, глабра, эуфорбин-3, кверцетин.

Abstract. The article discusses methods for correcting biochemical and histological changes in animals based on a model of hypothyroidism, methods for correcting biochemical and histological changes based on polyphenols, as well as insufficient oxygen supply to tissues or impaired oxygen use, leading to various pathological changes.

Key words: Hypothyroidism, Alzheimer's disease, mercazolil, streptozocin, glabra, euphorbin-3, quercetin.

Mavzuning dolzarbliji: Bugungi kunda dunyoda qalqonsimon bez gormonlari yetishmovchiligi kasalliklari keng tarqalgan bo'lib, jahon ham jamiyati mamlakatlari sog'liqni saqlash tizimlarining jiddiy muammolaridan biridir. Organizmda kechadigan qalqonsimon bez gormonlari yetishmovchiligi moddalar almashinuvining pasayishiga olib keladi. Bu esa to'qimalarning kislrorod bilan yetarli ta'minlanmasligi yoki kislroroddan foydalanishning buzilishiga olib keladi, natijada turli xil patologik o'zgarishlar kelib chiqadi. Organizmda kechadigan har qanday kasallik oqibatida erkin radikallarning hosil bo'lishi kuchayib ketadi. Tibbiyotda qo'llanilib kelinayotgan dorivor moddalar orasida o'simliklardan ajratilgan biologik faol birikmalarining ahamiyati katta bo'lib, bular yuqori fiziologik faolligi, farmakologik ta'siri bilan tavsiflandi. Biologik faol moddalarni hujayra va mitoxondriya darajasida bo'ladigan fiziologik va biokimyoviy buzilishlarni korreksiyalash mexanizmlarini aniqlash tibbiy-biologik nuqtai nazardan dolzarb mavzulardan biriga aylanmoqda. Turli patologiyalarni oldini olishda, davolashda va samarali farmakologik preparatlarni yaratishda biologik faol birikmalar istiqbolli manbalar hisoblanadi. So'nggi paytlarda to'qima va hujayralardagi gipotireoz rivojlanishida energiya, kislrorodning faol shaklini hosil bo'lishi bilan boradigan patologik jarayonlarni korreksiyalash muammolariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi: Gipotireoz modeli asosida chaqirilgan Alsgeymer kasalligida peroksidlanishli stress jarayoni ta'siridagi buzilishlarni korreksiyalashdan iborat.

Material va metodlar: Tadqiqotlar O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Biofizika va biokimyo instituti Metabolomika laboratoriysi qoshidagi vivariyda oq kalamushlarda olib borildi. Tajribalarda jami 24 ta 282 ± 17 g kalamushlardan foydalanildi. Foydalanilgan kalamushlar toza, tabiiy yorug'lik rejimidagi xonalarda alohida kataklarda saqlandi. Kalamushlar oziq-ovqatni va suvni chegaralanmagan holda iste'mol qilishdi. Hayvonlarning ozuqasi bug'doy, pista, sut va sut mahsulotlari, go'sht mahsulotlari, bug'doy noni, ko'katlar, sabzavotlar, osh tuzi va yemlardan iborat

edi. Ular xona harorati 22-24°C, namligi 40-60% bo'lgan sharoitda saqlandi. Tadqiqotlar sanitariya qoidalari va laboratoriya hayvonlariga insoniy munosabatda bo'lish standartlari va Xelsinki Deklaratsiyasi (Butun Jahon Tibbiyot Assotsiatsiyasi, Edinburg, 2000 y.), Xalqaro tibbiy ilmiy jamiyatlar kengashi (CIOMS; the council for international organizations of medical sciences) va eksperimental hayvonlarni saqlash va ularda tadqiqotlar olib borishda xalqaro «Guide for the Care and Use of Laboratory Animals», qoidalariغا muvofiq amalga oshirildi. Tadqiqot hayvonlarida gipotireoz chaqirish uchun merkazolildan Alsgeymer modelini chariqrish uchun streptozotsindan foydalanildi. Tajriba uchun ajratilgan kalamushlar guruhlarga ajratildi: I guruh – nazorat (n=8), II guruh – tajriba (gipotireoz+Alsgeymer, n=8), III guruh — tajriba (gipotireoz+ Alsgeymer+kversetin, n=8), IV guruh- tajriba (gipotireoz+ Alsgeymer+glabra, n=8), V guruh — tajriba (gipotireoz+Alsgeymer+euforbin-3, n=8) gipotireoz kasalligi chaqirish uchun bir kunlik ochlikdan so'ng bir marta merkazolil 50 mg/kg og'iz bo'shlig'i orqali peroral yuborildi. Alsgeymer kasalligining modelini chaqirish uchun streptozotsin 3 mg/kg miqdorda burun orqali in'eksiya qilingandan keyin 14 kun o'tib, qondagi gormonlar miqdori hamda kalamushlardagi morfologik tekshirildi. III guruhdagi kalamushlarga 14 kun mobaynida bir xil vaqtida, bir marta merkazolil (50 mg/kg), streptozotsin 3 mg/kg va kversetin (40 mg/kg), IV guruhdagi kalamushlarga merkazolil, streptozotsin va glabra (32 mg/kg) og'iz bo'shlig'i orqali peroral yuborildi. V guruhdagi kalamushlarga merkazolil, streptozotsin va euforbin-3 (40 mg/kg) yuborildi.

Gistologik preparatlarni tayyorlashning asosiy bosqichlari:

1. Materialni olish. Gistologik tekshiruv uchun to'qimalardan 1 smdan oshmaydigan bo'laklari olinadi.

2. Fiksasiya. Gistologik tekshiruvga olingen material zudlik bilan fiksatsiya qilish kerak. Oddiy va murakkab fiksatorlar mavjud. Oddiy bo'lganlarga 10-20% li formalin eritmasi, 96% spirt, 1-2% osmik kislota eritmasi va boshqalar kiradi. Murakkab fiksatorlar: spirt — formal (spirt 70-100 ml va formalin 2-5 ml). Zenker suyuqligi (simob xlorid — 5 g, natriy sulfat — 1 g, distillangan suv — 100 ml, muzli sirka kislotasi 5 ml) va boshqalar.

3. Suvda yuvish. Fiksasiyalashdan keyin material ortiqcha fiksator suyuqliklarining turli qatlamlaridan xalos bo'lish uchun yuviladi. Organning bir qismi mikroskopik bo'lishi uchun uni qalinligi mikrometrarda o'lchanadigan juda ingichka plitalar — qismlarga ajratish kerak. Bunday bo'limlar maxsus qurilmalar — mikrotomlar yordamida olinadi. Ammo mikrotomda bir bo'lak to'qimani kesib olish uchun avval uni zichlash kerak.

4. Suvsizlantirish. To'qimalar asta-sekin 50-100°C oralig'idagi kuchaytirib boriluvchi spirtli eritmalar orqali suvsizlantiriladi. Har bir spirtli eritmarda qismlar bir necha soatdan 1 kungacha olib boriladi.

5. To'yintirish. Parafin bilan to'yintirish. Parafinga singdirilganda, mutlaq spirtning qismlari teng miqdordagi xloroform yoki ksilen bilan mutloq spirt aralashmasiga, so'ngra toza ksilenga va nihoyat, parafinning xloroformdagi eritilgan to'yingan eritmasiga o'tkaziladi.

Olingen natijalar: Hayvonlar eksperimental va nazorat guruhlari bo'lingan. Eksperimental guruh hayvonlariga 50 mg/kg miqdorda merkazolil peroral ravishda 14 kun berildi va nazorat guruhi hayvonlariga 1,0 ml fiziologik eritma berilgan. Eksperimentning 15-kunidan boshlab 3 kun davomida eksperimental hayvonlar burun bo'shlig'i orqali 3 mg/ml miqdorda streptozosin yuborilgandan so'ng dumidan qon olindi. Eksperimental gipotireoz asosida chaqirilgan Alsgeymer hayvonlar guruhlari erta lab 1-2 soat oralig'ida 32 mg/kg glabra va 40 mg/kg euforbin-3 polifenollari 14 kun davomida berildi. Ulardan ham ikki haftadan so'ng dumidan qon olinib, gormonlar miqdori aniqlandi. Sog'lom organizmda tiroksin (T4) miqdori $5,36 \pm 0,05$ ng/ml gipotireoz keltirilib chiqarilganda bu ko'rsatkich 29,0% ga pasaygan, glabra polifenoli berilganda organizmda bu gormon miqdori 83% ga oshgan. Kversetin glabradan ham yuqori samara berib bu gormon miqdorini 93,4% ga yaxshilagan. Triyodotriyonin (T3) miqdori sog'lom organizmda $1,73 \pm 0,04$ ng/ml bo'lib, qalqonsimon bez faoliyati susayganda bu miqdor 71,3% ga pasaygan, digidrokversetin berilganda bu ko'rsatkich 87,4% ga ortgan. Kversetin bilan korreksiyalaganda bu gormonning qondagi miqdori 83,3% ga ortgan. ErT4 qiymati sog'lom organizmda $1,66 \pm 0,05$ ng/ml qiyamatda bo'lsa, gipotireozdan keyin bu ko'rsatkich 25,6% ga pasaygan. Glabra bilan korreksiyalaganda mos ravishda bu ko'rsatkich ham 90,4% ga

ko'tarilib normaga yaqinlashgan. Kversetin berilgan kalamushlarda bu ko'rsatkich 94,0% ga yetgan. ErT3 qiymati dastlab $4,72 \pm 0,06$ pg/ml bo'lib eksperimental gipotireozda nisbatan pasaygan (54,3%). Glabra ta'sirida esa 89,0% ga ko'tarilgan. Kversetinning biologik faolligi glabraga nisbatan yuqori bo'lib qondagi erkin triyodotriyonin miqdorini 94,5% ga oshirgan (1-jadval). Euforbin-3 polifenoli ham yaxshi ta'sir qilganligi tadqiqotlardan ko'rinish turibdiki, berilgan polifenollar ijobiy natija bergen.

1-jadval

Eksperimental gipotireoz orqali chaqirilgan Alsgeymer modeli hayvonlari qonida kversetin, glabra va euforbin-3 polifenollarining T3, T4, erT3, erT4 gormonlari miqdoriga ta'siri


Nº	Hayvon guruhlari	T ₃ ng/ml	T ₄ ng/ml	er T ₄ pg/ml	er T ₃ pg/ml
1	Intakt	1,73±0,04	5,36±0,05	1,66±0,04	4,72±0,06
2	Gipotireoz+Alsgeymer	1,28±0,05**	1,56±0,1*	0,45±0,03**	2,59±0,05***
3	Gipotireoz+Alsgeymer+Kversetin	1,44±0,03**	5,04±0,08**	1,53±0,08*	4,48±0,1*
4	Gipotireoz+Alsgeymer+Gabra	1,53±0,03*	4,48±0,08**	1,57±0,05**	4,23±0,04***
5	Gipotireoz+Alsgeymer+Euforbin-3	1,46±0,05*	4,25±0,11**	1,32±0,09**	4,10±0,11***

Izoh: barcha holatlarda *P<0,05; **P<0,01; ***P<0,001, n=5

Gistologik tadqiqotlar jarayonida qalqonsimon bez follikulalari tuzilishidagi morfologik o'zgarishlarni aniqlandi. Qalqonsimon bez to'qimasi follikulyar hujayralar faoliyatiga qarab hajmi jihatidan farq qiladi. Follikulalar dam olish (harakatsiz) bosqichida bo'lsa, follikulyar hujayralar tekis oddiy silliq bo'ladi [6].

Follikulalar juda faol bo'lsa, follikulyar hujayralar ozgina to'qnashgan oddiy ustunli bo'ladi. O'rtacha faollik paytida follikulalarning normal holatida hujayralar oddiy kuboidal bo'lib, bo'shliq o'rtacha miqdordagi kolloid bilan to'ldirilgan holatda bo'ladi. Shu bilan birga, turli xil hujayralar bir xil qalqonsimon to'qima ichida turli darajadagi faollikni namoyon qilishi mumkin [7].

Ular metabolizm tezligiga ta'sir qiluvchi ikkita gormonni chiqaradilar. Parafollikulyar hujayralar (C-hujayralar) tiniq hujayralar yoki yorug'lik hujayralari deb ham ataladi. Bu yondosh hujayralar C kal'sitonin yoki shaffof degan ma'noni anglatadi [40]. Bular oval va ekssentrik yadroli katta, ko'p qirrali, rangpar rang beruvchi hujayralar. Ular follikulyar hujayralar va ularning bazal membranasi o'rtasida keng tarqalgan. Ular, shuningdek, qo'shni follikulyar hujayralar orasida yotadilar, ammo lumenga yetib bormaydilar. Ular kal'sitonin deb ataladigan gormonni chiqaradilar. Intakt hayvonlarda qalqonsimon bez follikulalari yumaloq yoki ovalsimon shaklda bo'lib, (1-A. rasm) intrafollikulyar bo'shliqda kolloid, tiroglobulin bor. Tirositlar kubik shaklga ega. Merkazolilni qabul qilishni ikkinchi kuni: kalamushlar kunlik faolligini pasaytirib, ko'p vaqtini uyquga sarfladilar. Eksperimentning 3-kunidan boshlab tajovuzkor hatti-harakatlar alomatlari qayd etildi; 9-kuni ikki kalamush motor funksiyalarining falajini rivojlantirdi. 14 kun davomida tana vaznining 10 mg/100 g dozasida qalqonsimon bezning funksional susayishini qayd etdi (1-B. rasm). Tirositlarni yo'q qilish belgilari bo'lgan deformasiyalangan follikulalar topildi. Intrafollikulyar koloidsiz bo'shliqlar joylashgan tirositlar bo'sh edi. Kalamushlarga Glabra o'simligidan ajratib olingen polifenolni berilganda nodulyar shakllanishlar uchun punksiyon biopsiyasi juda informatsiondir, shuning uchun bu diagnostika usuli qalqonsimon bez tugunlari bilan birlashtirganda hosil bo'ladi (1-C. rasm). Autoimmun jarayonning morfologik belgisi bez stromasining limfold infiltratsiyasi hisoblanadi. Ushbu infiltratlar limfotsitlar, bitta plazma hujayralari va makrofaglar bilan ifodalanadi. Har xil darajadagi yetuklikdagi plazmatsitlar limfold hujayralarining birikmali aniqlanadi. Surunkali "rangli" limfold infiltratning mavjudligi xarakterlidir: makrofaglar, gistiotsitlar va kamroq tarqalgan neytrofillar, Ashkenazi hujayralari, follikulyar epiteliyning yagona hujayralari, kigizsimon tuzilmalar, tolali to'qimalarning elementlari aniqlanadi (1-D. rasm). Euforbin-3 polifenoli berilganda tireositlar fonida va klasterlari ichida limfotsitar infiltratlar mavjudligi patognomonik belgilaridir. Sitologik surtmalarda ko'p miqdorda kolloid, anisonuklyoz va ko'p sonli hujayralarining kombinatsiyasi mavjud bo'lsa, diagnostika xatolar xavfini kamaytirish va qalqonsimon bezning boshqa kasalliklarini o'tkazib yubormaslik uchun tashxisni diqqat bilan talqin qilish kerak.



1-rasm. Eksperimental gipoterioz orqali Alsgeymer kasalligida qalqonsimon bez follikulasining o'zgarishi.
Bo'yoq: gematoksilin:ezoz X: 10x40.

Gipotireoz follikulalarda qalqonsimon bez kolloidi yo'q va follikular devorlar buklangan. Ayrim buzilgan tirositlar basal membrana bilan aloqasini yo'qotdi va erkin joylashdi, follikullar bo'shilg'idan orqada qolgan. Tirositlarning yadrolari hajmi kamaygan. Interlobar konnektorda kichik va yirik qon tomirlari joylashgan tomirlarida qon kam ekanligi, bezning markaziy qismida qon aylanishining pastroq ekanligini ko'rsatdi. Bazal membrana bilan aloqasini saqlab qolgan tirositlarning apikal uchlari bor bo'lib, ushbu mikromorfologik o'zgarishlar qalqonsimon bez gormonlari darajasining pasayishi bilan birga kechdi.

Xulosa: Tadqiqot quyidagi bosqichlarda bajarildi. Gipotireozda kalamush qoni tarkibidagi TTG, T4, T3, TPO, erT4, erT3 gormonlar o'zgarishi aniqlandi. Bunda quyidagi natijalarga erishildi, ya'ni gipotireoz sharoitida Alsgeymer modeli tiroksin (T4) miqdori intakt kalamushga nisbatan 29,0% ga pasayganligi kuzatildi. Euforbin-3, glabradan ham yuqori samara berib ushbu gormon miqdorini 93,4% ga yaxshilaganligi aniqlandi. Triyodotriionin (T3) miqdori 71,3% ga pasayganligi, glabra berilganda bu ko'rsatkich 87,4% ga ortganligi, shuningdek, euforbin-3 bilan korreksiyalaganda bu gormonning qondagi miqdori 83,3% ga ortganligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Алиkenova Л.З., Еспенбетова М.Ж., Амренова К.Ш., С.Б. Амангельдинова С.Б. Особенности функции щитовидной железы во время беременности: обзор литературы. //Наука и Здравоохранение.- 2015.- №1.- С.13-21.
- Andreeva A.C., Vologzhanina M.A., Raimov C.A., Stojkina C.N. Заболевания щитовидной железы. // Интернаука. — 2020. № 44 (173)-С.32-34.
- Беккер Р.А., Быков Ю.В. О роли нейроэндокринных нарушений в патогенезе когнитивной дисфункции при депрессивных состояниях (обзор литературы с комментариями). // Consilium Medicum. — 2016.- №4.- С.57-61.
- Исаева Т.Ш. Патология щитовидной железы. / Наука сегодня: вызовы и решения. Материалы международной научно-практической конференции. Научный центр «Диспут». Изд-во: ООО «Маркер», 2016.- С.12-15.

5. Сеит-Асан Л. С. Изучение уровня гормонов щитовидной железы при экспериментальной модели альцгеймера на фоне гипотериоза //International conferences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 270-275.
6. Petrova I., Mitevska E., Gerasimovska Z., Milenkova L., Kostovska N. Histological structure of the thyroid gland in apolipoprotein E deficient female mice after levothyroxine application. Pril (Makedon Akad Nauk Umet Odd Med Nauki). 2014;35(3):135-40.
7. Tuychiboyev J. I. et al. Gipotireoz modelida kalamush antioksidant tizimiga E vitamin va kurkumining korreksiyalovchi tasiri //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 234-236.

UDK: 59.592.595.7.

QASHQADARYO VILOYATI NINACHILAR (INSECTA: ODANATA) FAUNASINING TAKSONOMIK TAHLLILI

Z.B.Norqobilova, o'qituvchi, Qarshi davlat universiteti, Qarshi
G.S.Mirzayeva, b.f.d., professor, O'zR FA Zoologiya instituti, Toshkent
A.Y.Raxmatullayev, b.f.n., dotsent, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. Mintaqada ninachilarning 2 ta kenja turkum, 5 ta oila va 10 ta avlodga mansub, 19 tur vakili qayd etildi. *Ophiogomphus reductus*, *Orthetrum albistylum*, *Sympetrum pedemontanum*, *Sympetrum striolatum* ninachi turlari ushbu mintaqa uchun birinchi marta ro'yxatga olindi. Umumiy turlarning avlodlar kesimida taqsimlanishiga ko'ra, *Ophiogomphus* 5,26%, *Anax Leach*, va *Libellula Linnaeus* har biri 10,52% dan, *Sympetrum Newman*, 21,05%, *Orthetrum Newman* va *Calopteryx Leachlar* 10,52%, *Sympetrum Burmeister* va *Coenagrion Kirby* 5,26% dan, *Ischnura Charpentier esa* 10,52% ko'rsatgich vakillarni qamrab olganligi aniqlandi. Shuningdek, hududida tarqalgan ninachi turlarining mahalliy uchrash koordinatalari yoritib berildi.

Kalit so'zlar: ninachi, insecta, odanata, turkum, oila, avlod, tur, hududi, kanal, zovur, kollektor, o'zlashtirilgan cho'l, adir, tog', yaylov, mintaqa.

Аннотация. В регионе зарегистрировано 19 видов стрекоз, относящихся к 2 подотрядам, 5 семействам и 10 родам. Впервые для этого региона отмечены виды стрекоз *Ophiogomphus reductus*, *Orthetrum albistylum*, *Sympetrum pedemontanum*, *Sympetrum striolatum*. По распределению общих видов по родам *Ophiogomphus* 5,26%, *Anax Leach* и *Libellula Linnaeus* по 10,52%, *Sympetrum Newman* 21,05%, *Orthetrum Newman* и *Calopteryx Leach* 10,52%, *Sympetrum Burmeister* и *Coenagrion Kirby* имели 5,26% и *Ischnura Charpentier* имела репрезентативный охват 10,52%. По распределению общих видов по родам *Ophiogomphus* 5,26%, *Anax Leach* и *Libellula Linnaeus* по 10,52%, *Sympetrum Newman* 21,05%, *Orthetrum Newman* и *Calopteryx Leach* 10,52%, *Sympetrum Burmeister* и *Coenagrion Kirby* 5,26%, было обнаружено, что *Ischnura Charpentier* охватывает 10,52% представителей. Также выделены локальные координаты встречи видов стрекоз, распространенных в данной местности.

Ключевые слова: стрекоза, насекомое, оданата, род, семейство, род, вид, регион, канал, канава, коллектор, возделываемая пустыня, холм, гора, настбище, регион.

Abstract. 19 species of dragonflies have been recorded in the region, belonging to 2 suborders, 5 families and 10 genera. For the first time in this region, dragonfly species *Ophiogomphus reductus*, *Orthetrum albistylum*, *Sympetrum pedemontanum*, *Sympetrum striolatum* were recorded. According to the distribution of common species by genus, *Ophiogomphus* 5.26%, *Anax Leach* and *Libellula Linnaeus* 10.52% each, *Sympetrum Newman* 21.05%, *Orthetrum Newman* and *Calopteryx Leach* 10.52%, *Sympetrum Burmeister* and *Coenagrion Kirby* had 5.26% and *Ischnura Charpentier* had a representative coverage of 10.52%. According to the distribution of common species in the genera *Ophiogomphus* 5.26%, *Anax Leach* and *Libellula Linnaeus* 10.52% each, *Sympetrum Newman* 21.05%, *Orthetrum Newman* and *Calopteryx Leach* 10.52%, *Sympetrum Burmeister* and *Coenagrion Kirby* 5.26%, *Ischnura Charpentier* was found to cover 10.52% of the representatives. Local coordinates of encounters of dragonfly species common in the area are also identified.

Key words: dragonfly, insect, odanata, genus, family, genus, species, region, canal, ditch, sewer, cultivated desert, hill, mountain, pasture, region.

Kirish. Bugungi kunda dunyo miqyosida demografik vaziyatning murakkablashishi oqibatida vujudga kelgan urbanizatsiya jarayonlari va antropogen omillar hisobiga kuzatilayotgan transformatsiya jarayoni ekologik holatning keskin o'zgarishiga va bioxilma — xillikning tur tarkibiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Ekologik muvozanatning buzilishi hasharotlar dunyosi xilma-xilligining kamayishiga hamda arealining qisqarishiga olib kelmoqda. Hasharotlar sinfining eng qadimiy vakili hisoblangan ninachilarining lokal yashash joylarining qisqarishiga, noyob va kamyob turlarning yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun ham tabiiy va urbanizatsiyalashgan hududlarda ninachilarining tur tarkibini aniqlash, bioekologik xususiyatlarini o'rganish, munozarali turlarni morfologik hamda molekulyar usullar yordamida tahlil qilish, kamyob va yo'qolib borayotgan turlarini muhofaza qilish chora-tadbirlari ishlab chiqish muhim ilmiy –amaliy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda hasharotlar bioxilma-xilligini aniqlash va muhofaza qilish bo'yicha qator chora-tadbirlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada ko'pgina ishlar amalga oshirilib, tabiiy ekotizimlar va biotoplар barqarorligini ta'minlash, flora va faunani monitoring qilish, hasharotlarning kamyob va yo'qolib borayotgan turlarini muhofaza qilish bo'yicha ko'plab chora-tadbirlari ishlab chiqilgan [2, 4, 7]. Jumladan, 2019-2028 yillar davomida amalga oshirish rejalashtirilgan O'zbekiston Respublikasi strategiyasida [1] "...biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishni ta'minlash, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni rivojlantirish va kengaytirish, tabiiy ekologik tizimlarning tanazzulga uchrash sur'atlarini pasaytirish, hayvonlar va o'simliklarning kamyob va yo'qolib borayotgan turlarini qayta tiklash" bo'yicha bir qancha vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, Qashqadaryo viloyati odonatofaunasining zamonaviy holatini baholash, ninachilar bioekologiyasi va hayot siklini asoslash, kamyob va yo'qolib borayotgan turlarini muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari. Ilmiy izlanish materiallari Qashqadaryo viloyati hududidan 2021-2023 yillar davomida yig'ildi. Ninachilarni o'rganish individual va kompleks faunistik ekspeditsiyalar bilan olib borildi. Tadqiqotlarda asosan Qashqadaryo viloyatining Koson, Kasbi, Nishon, Yakkabog' va Qarshi tumanida joylashgan Qashqadaryo daryosi hamda Yakkabog' tumanidagi Qizildaryo o'zani atrofidagi, tashlama kanallar, zovur va kollektorlarda amalga oshirildi. Shuningdek, tadqiqotlar davomida hududning barcha vertikal mintaqalari – past tekislik (o'zlashtirilgan cho'l), adir, tog' va yaylov mintaqalari to'liq qamrab olindi. Materiallarni yig'ish jarayonida statsionar va marshrutli mintaqalar belgilab olinib, yilning baxop, ёз, куз fasllarida amalga oshirildi. Jumladan, statsionar tadqiqotlarda Koson, Qarshi, Yakkabog' tumanlaridagi kanalar, zovurlar va Yakkabog' dagi Qizildaryo o'zanlari hamda irmoqlar atrofi o'rganildi. Marshurt izlanishlarga esa Nishon, Kasbi, Mirishkor, Muborak, Chiroqchi, Ko'kdala, Qamashi, G'uzor, Dehqonobod, Shahrisabz va Kitob tuman hududlari qamrab olindi. Tadqiqotlar natijasida 60 ta koordinatadan ninachilarining lichinka va imago bosqichidagi jami 1500 dan ortiq individ namuna yig'ildi. Tadqiqot jarayonlarida zoologik, entomologik, morfologik, ekologik, morfometrik, biotsenometrik, gidrobiologik va matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi [3, 5, 6, 8, 9, 10, 11, 12].

Aniqlangan turlar O'zR FA Zoologiya instituti Entomologiya laboratoriysi hamda O'zbekiston tabiat muzeyi fondidagi ninachilarga oid kolleksiya materiallari yordamida identifikatsiya qilindi.

Tadqiqot natijalari. Qashqadaryo viloyati odonatofaunasining hozirgi holati tahlil qilinishi natijasida 2 ta kenja turkum, 5 ta oila va 8 ta kenja oila, 10 ta avlodga mansub 19 tur aniqlandi. Hududda tarqalgan ninachi turlari Calopterygidae, Lestidae, Gomphidae, Aeshnidae, Libellulidae oilalariga mansubligi qayd etildi (1-jadval).

Ninachilar oilalar miqdorining avlodlar bo'yicha taqsimlanishi tahlil qilinganda, jami 5 ta oilaga kiruvchi avlodlarning 40% Libellulidae oilasiga mansub ekanligi qayd etildi. Gomphidae, Aeshnidae, Calopterygidaelarining ulushi 10% dan, Lestidae oilasi esa 30% tashkil etdi. Guruhda Libellulidae oilasi vakillari 40% bilan dominantlik qildi (2-jadval, 1-rasm).

**Hududida aniqlangan ninachi turlarining
taksonomik tavsifi**


Kenja turkum	Oila	1.Kenja oila 2.Avlod	Tur
Anisoptera	Gomphidae Rambur, 1842	1.Onychogomphinae Chao , 1984	<i>Ophiogomphus reductus</i> Calvert, 1898 (= <i>Ophiogomphus forficula</i> Okumura, 1937)
		2. <i>Ophiogomphus</i> Selys, 1854	
	Aeshnidae Rambur, 1842	1.Aeshninae Rambur , 1842 (Leach, 1815)	<i>Anax imperator</i> Leach, 1815 (= <i>Anax formosus</i> Vander Linden, 1820)
		2. <i>Anax</i> Leach, 1815	<i>Anax parthenope</i> Selys, 1839 (= <i>Anax parisinus</i> Rambur, 1842)
	Libellulidae Rambur, 1842	1.Libellulinae Rambur , 1842	<i>Libellula quadrimaculata</i> Linnaeus, 1758 (= <i>Leptetrum quadrimaculatum</i> Linnaeus, 1758)
		2. <i>Libellula</i> Linnaeus, 1758 (= <i>Leptetrum Newman</i> , 1833)	
		1.Libellulinae Rambur , 1842	<i>Orthetrum albistylum</i> (Selys, 1848)
		2. <i>Orthetrum</i> Newman, 1833	<i>Orthetrum brunneum</i> Fonscolombe, 1837 (= <i>Libellula brunnea</i> Fonscolombe, 1837)
		1.Libellulinae Tillyard , 1917	<i>Orthetrum cancelatum</i> Linnaeus, 1758 (= <i>Libellula cancellata</i> Linnaeus, 1758)
		2. <i>Crocothemis</i> Brauer , 1868	<i>Orthetrum sabina</i> Drury 1770 (= <i>Libellula sabina</i> Drury, 1770; = <i>Orthetrum gibba</i> Fabricius, 1798)
Zygoptera	Calopterygidae Selys, 1850 (=Agrionidae)	1.Sympetrinae Tillyard , 1917	<i>Crocothemis erythraea</i> (Brullé, 1832)
		2. <i>Sympetrum</i> Newman, 1833 (= <i>Diplax</i>)	<i>Sympetrum flaveolum</i> Linnaeus, 1758 (= <i>Libellula flaveola</i> Linnaeus, 1758; = <i>Libellula victoria</i> Fourcroy, 1785)
	Lestidae Calvert, 1901 (=Coenagrionidae)	1.Sympetrinae Fraser , 1951	<i>Sympetrum meridionale</i> Selys, 1841 (= <i>Libellula meridionalis</i> Selys, 1841)
		2. <i>Sympetrum</i> Burmeister, 1839 (= <i>Sympycna</i>)	<i>Sympetrum pedemontanum</i> Müller in Allioni, 1766
		1. Sympecmatinae Tillyard , 1917	<i>Sympetrum striolatum</i> (Charpentier, 1840)
		2. <i>Calopteryx</i> Leach, 1815 (= <i>Agrion</i>)	<i>Calopteryx splendens</i> Harris, 1780 (= <i>Agrion splendens</i> Harris, 1782)
		1. Sympecmatinae Fraser , 1951	<i>Calopteryx virgo</i> Linnaeus, 1758 (= <i>Agrion virgo</i> Linne, 1758)
		2. <i>Sympetrum</i> Burmeister, 1839 (= <i>Sympycna</i>)	<i>Sympetrum fusca</i> Vander Linden, 1820 (= <i>Sympycna fusca</i> Vanderlinden, 1823)
		1. Pseudagrioninae Tillyard , 1917	<i>Coenagrion pulchellum</i> Vander Linden, 1825
		2. <i>Coenagrion</i> Kirby, 1890	<i>Ischnura elegans</i>

		1. Ischnurinae Fraser, 1957 2. <i>Ischnura</i> Charpentier, 1840 (= <i>Micronympha</i>)	Vander Linden, 1820 (= <i>Agrion elegans</i> Vander Linden, 1820) <i>Ischnura pumilio</i> Charpentier, 1825 (= <i>Agrion pumilio</i> Charpentier, 1825)
--	--	---	---

2-jadval

Ninachilarining avlod va tur tarkibi bo'yicha taksonomik taqsimlanishi

Nº	Oilalar	Avlod soni	%	Tur soni	%
1	Gomphidae	1	10,00	1	5,26
2	Aeshnidae	1	10,00	2	10,52
3	Libellulidae	4	40,00	10	52,63
4	Calopterygidae	1	10,00	2	10,52
5	Lestidae	3	30,00	4	21,05
Jami:	5	10	100	19	100

**1-расм. Ninachi avdodlar miqdorining oilalar kesimida taqsimlanishi**

Ninachilar tur miqdorining taqsimlanish natijasiga binoan, *Ophiogomphus* Selys, avlodiga 5,26%, *Anax* Leach, 10,52%, *Libellula* Linnaeus, 10,52%, *Sympetrum* Newman, 21,05%, *Orthetrum* Newman, 21,05%, *Calopteryx* Leach, 10,52%, *Sympetrum* Burmeister, va *Coenagrion* Kirby, 5,26%, *Ischnura* Charpentierga mansub vakillar esa 10,52% ni tashkil etdi.

Xulosa. Qashqadaryo viloyatida ninachilarning 2 ta kenja turkum, 5 ta oila va 10 ta avlodga mansub 19 turdan iborat bo'lgan taksonomik tarkibi aniqlanib, tahlil qilindi. Ninachilardan *Ophiogomphus reductus*, *Orthetrum albistylum*, *Sympetrum pedemontanum*, *Sympetrum striolatum* turlari ushbu mintaqaga uchun ilk bor qayd etildi. Turlarning avlodlar kesimida taqsimlanishiga ko'ra, *Ophiogomphus* 5,26%, *Anax Leach*, va *Libellula Linnaeus* larining har biri 10,52% dan, *Sympetrum* Newman, 21,05%, *Orthetrum Newman* va *Calopteryx Leachlar* 10,52%, *Sympetrum* Burmeister, va *Coenagrion Kirby* 5,26% dan, *Ischnura Charpentier* 10,52% turlarni qamrab olganligi aniqlandi. Shuningdek, hududida tarqalgan ninachi turlarining mahalliy uchrash koordinatalari yoritib berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2019-2028 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида биологик хилма-хилликни сақлаш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” 2019 йил 11 июндаги 484-сон карори.

2. Ахмедова М.Ш., Медетов М.Ж. Хоразм воҳасида учратилган *Orthetrum* (Newman, 1833) (Odonata: Anisoptera: Libellulidae) авлодига мансуб турларининг морфобиологияси ва ареаллари. Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. 2021, 6. 14-16 бетлар.

3. Белишев Б.Ф., Харитонов А.Ю. Определитель стрекоз по крыльям. Новосибирск: Наука, 1976.-397 с.

4. Bobonazarov G.Y. Bioxilma-xillik. Qarshi, “Nasaf NMIU” 2021. 284 bet.

5. Борисов С.Н., Харитонов А.Ю. «Стрекозы (Odonata) средней азии. часть 2 (Anisoptera)» © Euroasian Entomological Journal, 2008. Институт систематики и экологии животных СО РАН. Россия. 200 с.
6. Дедюхин С.В. Принципы и методы эколого-фаунистических исследований наземных насекомых: Учебно-методическое пособие. Ижевск: Издательство «Удмуртский университет», 2011. С.87-88.
7. Мўминов Б.А., Зокирова М.С. Фарғона водийси табиий ландшафтлари ниначилар (Insecta: Odonata) фаунасининг морфобиоэкологик тавсифлари. Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. 2020, 2/1. 18-26 бетлар.
8. Николаева Н.В., Одышванг В.Н. Простейший биоценометр для учёта водных насекомых в мелких водоёмах. // Экология, 1978. №5. -С. 93- 95.
9. Плавильщиков Н. Н. Определитель насекомых. — М: Топикал, 1994. — 544 с.
10. <https://www.inaturalist.org/observations/189572675>.
11. <https://www.indianodonata.org/>.
12. <https://www.odonata.dk/info/>.

UO'K 574.58

**JANUBIY OROLBO‘YI MINTAQASI SHAROITIDA KARATEREN KO‘LINING
ZAMONAVIY EKOLOGIK HOLATINI BAHOLASH**

G.K.Nurabullayeva, o‘qituvchi, Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Nukus
S.Sh.Yeshchanova, PhD, Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Nukus
M.Sh.Toremuratov, PhD, Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Nukus
Q.Q.Yesemuratov, o‘qituvchi, Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Nukus

Annotatsiya. Maqolada Orol bo‘yi suv havzalarida suvning kimyoviy tarkibi va zaharli tuzlar miqdorining natijalari keltirilgan. Ichki suvlarning sho‘rlanishi o‘ta jiddiy ekologik muammo hisoblanadi. Amudaryoning ifloslantiruvchi va zaharli moddalarni olib tashlashi Orol dengizi ekotizimiga katta ta’sir ko‘rsatadi. O‘tkazilgan tahlillar barcha uchta suv havzasida eng zararli toksik tuzlarini aniqladi.

Kalit so‘zlar: Suvning kimyoviy tarkibi, mineralizasiya, zaharsiz, zaharli, o‘rtacha zaharli tuzlar

Аннотация. В статье приведены результаты химический состав воды и содержание токсичных солей в водных объектах Приаралья. Засоление внутренних вод представляет очень серьезную экологическую проблему. Вынос загрязняющих и токсичных веществ со стоком Амудары оказывает существенное воздействие на экосистему Аральского моря. Проведенные анализы, были выявлены наиболее вредные токсичные соли во всех трех рассматриваемых водных объектах.

Ключевые слова: химический состав воды, минерализация, нетоксичные, токсичные, умеренно токсичные соли

Abstract. The article presents the results of the chemical composition of water and the content of toxic salts in the water bodies of the Aral Sea. Salinization of inland waters is a very serious environmental problem. The removal of pollutants and toxic substances from the Amu Darya runoff has a significant impact on the ecosystem of the Aral Sea. The analyzes carried out revealed the most harmful toxic salts in all three considered water bodies.

Keywords: Chemical analysis of water composition, high mineralization, dry residue, non-toxic salts, moderately toxic and harmful toxic salts

Tabiiy ekotizimlarning barqarorligi va o‘zgaruvchanligini, turli darajadagi ierarxiya ekotizimlarning ekologik turg‘unligini, ularning tashqi ta’sirlarga sezgirligini baholashga ilmiy tomondan qiziqish XX asrning 1960-yillarning oxiri — 1970-yillari boshlarida shakllangan. Bir tomondan, bu klassik ekologiyada erishilgan muvaffaqiyatlar va ekologik jarayonlarni modellashtirish jadal rivojlanishi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, ekotizimlarga "ekologik

XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI –3-1/2024

halokatga olib keladigan bosimning miqdoriy bahosini olish zarurati", ya'ni ekotizimni yo'q qilish, tabiiy va antropogen jihatdan o'zgartirilgan murakkab tizimlarning xususiyatlarini baholash mezonlarni izlash bilan izohlanadi. Ushbu muammoni hal qilish atrof-muhitni tartibga solish muammosi umuman tashqi ta'sirlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning asosiy mazmuni "tabiiy ekotizimning holati normalari" va "unga ta'sir qilish normalari" ekotizimning javobini izlashdir.

Suvning tabiiy sifatining o'zgarishi — bu inson ta'siri natijasida suv ob'yekti holatidagi sifat o'zgarishlarining foni va asosidir. Shu munosabat bilan kuchli antropogen ta'sir sharoitida suv muhiti komponentlarini baholash muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Ekotizimlarning ekologik turg'unligi baholash mezonlari va usullarini ishlab chiqish maxsus ilmiy tadqiqotlar va suv havzalari monitoringini takomillashtirishni talab qiladi.

Sharqiy Qorateren ko'li Qoraqalpog'iston Respublikasining shimolida, Beltau tog' etagida joylashgan. Eng yaqin aholi punkti Taxtako'pir bo'lib, ko'ldan 25 km uzoqlikda joylashgan. Ko'lning umumiyligi maydoni 4000 ga, uzunligi 11,1 km, eni 2,9 km, maksimal chuqurligi 30 m, minimal 0,7 m, suvning o'rtacha shaffofligi 0,5 m. Kuanishjarma kanalining oxirgi suv tushirish joyi ko'l hisoblanadi. Ko'lning shimoliy chekkasida sathni tartibga solish uchun ortiqcha suvni Orol dengizi tomon haydash uchun nasos stansiyasi qurildi. Ko'l suvlaridan sug'orish uchun foydalanilmaydi. Suvning shaffofligi 1-1,2 m dan oshmaydi, oqadigan joylarida 20-30 sm. Asosiy tuproq — qum, gil, organik qoldiqlar va qobiq jinslari aralashmasi bo'lgan bo'z tuproq. Suv havzasidagi o'simliklarning asosiy turlari gidrofitlar (haqiqiy suv o'simliklari) va gelofitlar (botqoq o'simliklari). Ko'lning haddan tashqari o'sishi past (suv maydonining 10% dan ko'p bo'lmagan) qamish va rogoza ko'rinishidagi yuqori suv o'simliklari asosan ko'lning shimoli-g'arbiy qismining qirg'oqbo'y zonasida to'plangan [1].

Qarateren ko'li suvi kimyoviy tarkibi va toksik tuzlarini tahlil qilish maqsadida 2021 yilning kuzida Arinushkina (1970) usuli bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Shuning bilan birga, KKS-1, KKS-2 suvlarining kimyoviy tarkibi va toksik tuzlari tahlil qilindi

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Qarateren ko'li suvi yuqori minerallashuvga ega, pH-8, sho'rланish turi (xlorid-sulfat), quruq qoldiq 4,239%, toksik bo'lmagan Ca(HCO₃) tuzlari-0,779%, CaSO₄- 0,436%, o'rtacha toksik tuzlar Na₂SO₄-0,555%, NaCL-0,968%, zaharli MgSO₄ tuzlari-1,263% (jadval.1).

1-jadval

Orolbo'yisi suv havzalarida zaharli tuzlarning tarkibi (2021y)

Suv ob'yekti	Quruq qoldiq %	Summa, tuz %	Toksik bo'lmagan tuzlar%		O'rtacha zararli toksik tuzlar,%				Eng zararli toksik tuzlar,%					
			Ca (HCO ₃) ₂	CaSO ₄	Na ₂ SO ₄	NaCL	NaHCO ₃	CaCl ₂	MgSO ₄	MgCL ₂	Na ₂ CO ₃	MgCO ₃	Mg(HCO ₃) ₂	
Karateren koli	4,239	4,00	0,779	0,436	0,555	0,968	-	-	1,263	-	-	-	-	-
№1 Kollektor	0,752	0,707	0,175	0,084	-	0,131	-	-	0,286	0,031	-	-	-	-
№2 Kollektor	3,571	3,359	0,519	0,449	1,124	0,605	-	-	0,662	-	-	-	-	-

2-jadval

Orolbo'yisi suv havzalaridagi suvning kimyoviy tarkibi (g/l/mg/ekv)

Suv ob'yekti	Quruq qoldiq %	CO ₃ ⁻ (% ,mg/ekz)	Umumiyligi HCO ₃ ⁻ % mg/ekz	CL ⁻ % mg/ekz	SO ₄ ⁻ % mg/ekz	Ca % mg/ekz	Mg % mg/ekz	Anionlar-kationlar % mg/ekz	Na+K farqi bilan		Konponentlar yig'indisi %	Sho'rланish turi	Eslatma
									mg/ekz	%			
Karateren koli	4,239	-	0,586 9,6	0,568 16,0	1,680 35,0	0,321 16,0	0,255 21,0	60,6 37,0	23,60	0,59	4,00	Xlorid-sulfat	kuchli sho'rланган
№1 Kollektor	0,752	-	0,132 2,16	0,099 2,8	0,288 6,0	0,068 3,4	0,066 5,4	10,96 8,8	2,16	0,054	0,707	Xlorid-sulfat	O'rtacha sho'rланган
№2 Kollektor	3,571	-	0,390 6,4	0,355 10,0	1,584 33,0	0,261 13,0	0,134 11,0	49,4 24,0	25,4	0,635	3,359	Xlorid-sulfat	kuchli sho'rланган

Tadqiqotlar davomida KKS-1 suvining minerallashuvi o'rtacha 0,707%, pH-8, minerallashuv turi (xlorid-sulfat), quruq qoldiq 0,752%, toksik bo'lmagan Ca(HCO₃) tuzlari-0,175%, CaSO₄-0,084%, tuzlar ekanligi aniqlandi. o'rtacha toksik NaCl-0,131%. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, uchta suv havzasida MgSO₄ eng zararli toksik tuzlari aniqlangan.

Shunday qilib, Qarateren ko‘li tarkibidagi $MgSO_4$ 1,263%, KSS-1 suvida ularning tarkibi 0,286%, KSS-2da esa 0,662% ni tashkil etdi. Shuningdek, KKS-1 suvidagi zararli toksik tuzlari $MgCl_2$ -0,031% miqdori aniqlandi.

Suv havzasining sho‘rlanish darajasiga kelsak, tahlil shuni ko‘rsatdiki, Karateren ko‘li va KKS-2 suvlari juda sho‘rlangan, KSS-1 kollektor suvlari esa o‘rtacha sho‘rlanish darajasiga ega. Ko‘rib chiqilayotgan barcha ob‘yektlarda suv massasining sho‘rlanish turi xlorid-sulfat hisoblanadi.

Orolbo‘yining ko‘rib chiqilayotgan suv havzalarida suv tarkibini kimyoviy tahlil qilish asosida KKS-2 suvining minerallashuvi 3,359%, pH-8, minerallashuvi (xlorid-sulfat), quruq qoldiqlari yuqori ekanligi aniqlandi. Toksik bo‘lmagan tuzlar 3,359%, $Ca(HCO_3)_2$ - 0,519%, $CaSO_4$ -0,449%, o‘rtacha zaharli tuzlar Na_2SO_4 -1,124%, NaCL-0,605%. Shuningdek, eng zararli zaharli tuzlar $MgSO_4$ -0,662% ekanligi aniqlandi.

Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, global iqlim o‘zgarishi bu salbiy omillarning ta’sirini kuchaytiradi. Suv zaxiralarining, jumladan yer osti va yer osti suvlarining keskin taqchilligi va ifloslanganligi insoniyat uchun katta tashvish tug‘dirmoqda. Hududimizdagi daryolar, kanallar, suv omborlari va hatto yer osti suvlari ham inson faoliyati ta’siriga uchramoqda. Suv zaxiralarining kamayib ketishi va havzalardagi suvning sifati tobora yomonlashib borishiga mintaqamizda 60-yillardan boshlab yangi yerlarning keng ko‘lamda o‘zlashtirilishi, sanoat, chorvachilik komplekslarining rivojlantirilishi, kollektor zovur tizimlari qurilishi hamda urbanizatsiya kuchayishi o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazdi.

Insoniyat jamiyati taraqqiyoti jarayonida tabiiy suv tarkibini o‘zgartirdi va tezlik bilan o‘zgartirmoqda. Shuning uchun suvni muhofaza qilishda, iflos suvlarni tozalashdagi muhandislik usullarini yanada takomillashtirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Аденбаев Е.А., Темирбеков Р.О., Мусев А.К., Исаилова И.О., Озеро Караганда: Современное состояние популяции промысловых видов рыб» Вестник №2,2000 г.

2. Suv havzalarining ifloslanishi va uni tozalashning biologik imkoniyatlari. А.Курбанов, Б.Бозоров. <http://conferences.neasmo.org.ua/>

3. Бахиев А., Трещин С.Е. Лимнологические проблемы в водоемах южно-Аральского бассейна и их международное решение// Материалы Международной конференции «Устойчивое развитие Южного Приаралья». Нукус 2011г

4. Духовный В.А., Шуттер Ю. Южное Приаралье – новые перспективы. Ташкент 2003.

5. Курбанбаев Е., Каримова О.Ю., Курбанбаев С.Е. Оценка качества коллекторно-дренажных вод и возможность их повторного использования в низовьях реки Амударья// Тезисы докладов Международной конференции «Мировой опыт и передовые технологии эффективного использования водных ресурсов». Ашхабад. 2010. –С. 268-271.

UO‘K 599.74

XORAZM VILOYATI MUSHUKLAR (FELIS) AVLODIGA MANSUB TURLARNING TAVSIFI VA UCHRASH HUDDULARI

A.O.Otaboyev, tayanch doktorant, Xorazm Ma’mun akademiyasi, Xiva

I.I.Abdullaev, b.f.d., professor, Xorazm Ma’mun akademiyasi, Xiva

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyati hududida iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan yirtqich sutevizuvchilarning ro‘yxatga olingan 16 turi, shuningdek yovvoyi mushuklar avlodiga mansub To‘qay mushugi, Cho‘l mushugi va Barxan mushugi turlarining qisqacha tasnifi, hududiy tarqalishi va GAT xaritasi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: GAT, ekspeditsiya, binokl, to‘qay, to‘qay mushugi, cho‘l mushugi, qum mushugi.

Аннотация. В данной статье перечислены 16 видов хищных млекопитающих Хорезмской области, имеющих хозяйственное значение, а также дана краткая классификация, территориальное распространение и распространение диких видов кошек лесного, пустынного и барханного кота.

Ключевые слова: ГИС, экспедиция, бинокль, лес, Туркестанский камышовый кот, Степная кошка, Барханская кошка.

Abstract. In this article lists 16 species of predatory mammals of the Khorezm region that are of economic importance, and also provides a brief classification, territorial distribution and distribution of wild cat species of the forest, desert and dune cat.


Key words: GIS, expedition, binoculars, forest, Jungle cat, Steppe cat, Sand cat.

Tadqiqotning dolzarbliyi. O'zbekiston tabiatining biologik va landshaftlar xilma-xilligi milliy boyligimizning ajralmas qismidir. Bu boylik bir necha ming yillik evolyutsiya davomida yuzaga kelgan hamda ajodolarimiz tomonidan bizga qoldirgan ulkan merosdir. Zimmamizda ushbu merosni avlodlarga xilma-xil va barqaror tizim ko'rinishida qoldirishdek ulkan va mas'uliyatli vazifa turibdi. Respublika faunasi juda qadimiy bo'lib, u murakkab genetik rishtalar bilan bog'langan. Bu o'lkada endemik va avtoxton turlarning ahamiyati katta. Shu bilan birgalikda tarixiy o'tmishda bu yerga boshqa o'lkalardan kirib kelgan hayvon guruhlarining ham muayyan o'rni mavjud [3].

O'zbekistondagi ko'plab hayvon turlari kuchli antropogen ta'sir ostida qolib, ularning yashash joylari va soni qisqaradi, ba'zilari esa butunlay yo'q bo'lib ketdi. Ayniqsa, ov ob'yektlari sifatida muhim ahamiyatga ega sutevizuvchilarining yirik turlari, shuningdek, inson tomonidan ayovsiz o'zlashtirilayotgan, tashqi ta'sirga unchalik chidamli bo'lman ekotizimlarning endemik va cheklangan turlari katta xavf ostida qoldi. Buxoro qo'yłari, morxo'r, qoraquloq, qunduz kabi turlar yo'q bo'lib ketish xavfi ostida turibdi [4].

Sug'oriladigan maydonlarni kengaytirish maqsadida ko'plab to'qaylar o'zlashtirildi. Sug'orish tufayli o'zlashtirilgan hududlarda ekologik vaziyati tubdan o'zgardi. Bunday sharoitga moslasha olmagan ko'plab cho'l hayvonlarning soni keskin kamayib ketdi. To'qayzorlarning aksariyat qismi kesib tashlanishi hamda suv rejimining o'zgarishi tufayli tanazzulga yuz tutdi. Bu esa to'qayzorlarda yashovchi Jayron, Buxoro bug'usi kabi endemik kenja turlar yashash joylarining keskin qisqarib ketishiga olib keldi [7].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda Xorazm viloyati yovvoyi sutevizuvchilar faunasining geografik tarqalishi, tur tarkibi, soni, yashash muhiti, xo'jalikdagi ahamiyati va undan foydalanish, shuningdek iqtisodiy bahosi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va qonun hujjatlariga muvofiq yuritiladigan muntazam yangilanib turuvchi kadastrni yaratish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Bu O'zbekiston Respublikasining "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi 2016-yil 19-sentyabrdagi 408-son Qonuni bilan belgilab berilgan [8].



1-rasm. Tadqiqot amalga oshiriladigan Xorazm viloyati xaritasi

Xorazm viloyati yovvoyi sutevizuvchilar faunasining holati va xususiyatlarini baholash uchun asosiy rasmiy ma'lumot manbai, shuningdek noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlarni, hayvonlarning xilma-xilligini muhofaza qilish bo'yicha maqbul qarorlar qabul qilish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda biz tadqiqotlarimizda Xorazm


viloyati hududida yovvoyi sutmizuvchi hayvonlar faunasining zamonaviy holati, ekologiyasi va ahamiyatini o'rganishni maqsad qilib oldik. Sundan kelib chiqib, Xorazm viloyati tabiiy ekotizimlari (to'qay, tabiiy ko'llar, cho'llar va boshqalar) tarqalgan iqtisodiy ahamiyatga ega sutmizuvchilarning bugungi kundagi tur tarkibini aniqlash, hoziri holatini o'rganish bo'yicha dala tadqiqotlarini amalga oshirish, hududiy taqsimlanishini aniqlash va GAT texnologiyasi yordamida xaritalash kabi vazifalarni belgilab oldik.

2023-yilda biz Xorazm viloyatining 1-rasmida ko'rsatilgan Xorazm milliy tabiat bog'i (Xiva, Urganch, Yangibozor, Xonqa, Tuproqqa'l'a), Shovot tumani Bo'ston-Amirkum ovchilik xo'jaliklari hududlarida "Xorazm viloyatining noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan sutmizuvchi hayvon turlarining raqamlı kadastrini yuritish" bo'yicha tadqiqot ishlarni amalga oshirdik. Tadqiqot ishlar 1-rasmida ko'rsatilgan hududlarda amalga oshirildi.

Tadqiqot materiallari va uslublari.

Tadqiqotlar olib borilgan hududning asosiy tasnifi

Xorazm viloyatida tabiiy hududlar "Xorazm o'rmon xo'jaligi" "Xorazm milliy tabiat bog'i" va "Ovchilik xo'jaliklari" hududlaridan iborat. Jumladan, "Xorazm milliy tabiat bog'i" hududi Xiva (1163 ga), Tuproqqa'l'a (19538,8 ga), Xonqa (45,0 ga), Yangibozor (743,2 ga), Urganch (197,5 ga) tumanlarida jami 21687,5 ga maydon mavjud.



Tadqiqotlar 6 ta ekspeditsiya davomida amalga oshirildi. 2023 yilgi tadqiqot hududiga quyidagi geografik hududlar kiritildi:

Yangibozor tumanining "Yangibozor milliy tabiat bog'i" da (2-rasmga qarang) noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan hayvonlar turlari to'g'risida ma'lumotlar to'plangan va sanog'i o'tkazildi. Ekspeditsiya sanalari: 2023 yil 20 noyabr – 8 dekabr.



Urganch tumanining "Urganch Cholish milliy tabiat bog'i" (3-rasmga qarang) da noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan hayvonlar turlari to'g'risida ma'lumotlar to'plangan va sanog'i o'tkazildi. Ekspeditsiya sanalari: 2023 yil 20 oktyabr – 12 noyabr.

Xiva tumanining "Xiva Qoraqum milliy tabiat bog'i" da (4-rasmga qarang) noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan hayvonlar turlari to'g'risida ma'lumotlar to'plangan va sanog'i o'tkazildi. Ekspeditsiya sanalari: 2023 yil 23 sentyabr – 14 oktyabr.

Shovot tumanining “Bo’ston-Amirqum ovchilik xo‘jaligi” da (5-rasmga qarang) noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan hayvonlar turlari to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plangan va sanog‘i o‘tkazildi. Ekspeditsiya sanalari: 2023 yil 20 avgust – 12 sentyabr.



Xonqa tumanining “Xonqa milliy tabiat bog‘i” (6-rasmga qarang) da noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan hayvonlar turlari to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plangan va sanog‘i o‘tkazildi. Ekspeditsiya sanalari: 2023 yil 20 oktyabr – 12 noyabr.

Tuproqqal’a tumanining “Tuproqqal’a milliy tabiat bog‘i” da (7-rasmga qarang) noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan hayvonlar turlari to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plangan va sanog‘i o‘tkazildi. Ekspeditsiya sanalari: 2023 yil 23 sentyabr – 14 oktyabr.



4-rasm. Xorazm Milliy tabiat bog‘i (Xiva tumani)

5-rasm. Xorazm ovchilik xo‘jaligi (Shovot tumani)



6-rasm. Xorazm Milliy tabiat bog‘i (Xonqa tumani)

**7-rasm. Xorazm Milliy tabiat bog‘i
(Tuproqqal'a tumani)**

Hayvon turlarini tur tarkibini aniqlashda, tadqiq qilishda umum qabul qilingan uslublardan foydalanildi [4]. Bunda: Kuzatish va sanashning marshrutli uslubi (piyoda, avtomobilida); Ayrim turlarning hayotiy faoliyat izlarini qayd etish (axlatlar, ovozlar); binoklda kuzatish va vizual kuzatishlar; To‘qay va chakalakzorlarda hayvonlarning ovozini audio dastur orqali kuzatish va turini aniqlash asosida amalga oshirildi. Kuzatuv nuqtalari va diqqatga sazovor joylarning koordinatalari *Locus Map* yordamida qayd etildi [5, 6].

Turning mayjudligini to‘g‘ridan-to‘g‘ri vizual tasdiqlash imkoniyati bo‘lmaganda, bir qator bilvosita belgilarga amal qilindi. Jumladan, boshpanasi va iz yo‘llari orqali aniqlandi. Najaq qulay pinset yordamida germetik yopiq plastik qoplarga to‘plandi va tur aniqlandi [2].

Natijalar va uning muhokamasi. 2022-2023 yillar davomida amalga oshirilgan tadqiqot ishlarimizda Xorazm viloyati hududida iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan yirtqich suteemizuvchilarning 16 turi ro‘yxatga olindi (1-jadval).

1-jadval

Xorazm viloyati hududida iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan yirtqich suteemizuvchilarning (*Mammalia*) ro‘yxati

N	Turning ilmiy nomi	Turning ruscha nomlanishi	Turning o‘zbekcha nomlanishi
Sutemizuvchilar			
1	<i>Mustela eversmanii</i> Lesson, 1827	Степной хорь	Sariq sassiqo‘zan
2	<i>Spermophilus fulvusii</i> Lichtenstein, 1832	Жёлтый суслик	Sariq yumronqoziq
3	<i>Hemiechinus hypomelas</i> Brandt, 1836	Длинноиглый ёж	Uzun ignali kirpi (tipratikan)
4	<i>Felis chaus</i> Schreber, 1777	Туркестанский камышовый кот	To‘qay mushugi
5	<i>Lepus tolai</i> Pallas, 1778	Заяц-толай, или песчаник	Qum quyon, tolay tovushqoni
6	<i>Vulpes vulpes</i> Linnaeus, 1758	Лисица	Tulki
7	<i>Cervus hanglu</i> Wagner, 1884	Бухарский олень, хангул	Xongul (Buxoro bug‘usi)
8	<i>Canis aureus</i> Linnaeus, 1758	Обыкновенный шакал	Chiyabo‘ri
9	<i>Felis caracal</i> Schreber, 1776	Каракал или степная рысь	Qora qulqoq
10	<i>Sus scrofa</i> Linnaeus, 1758	Дикий кабан	Yovvoyi cho‘chqa (To‘ng‘iz)
11	<i>Gazella subgutturosa subgutturosa</i> Guldenstaedt, 1780	Джейран	Jayron
12	<i>Ondatra zibethica</i> Linnaeus, 1776	Ондатра	Ondatra
13	<i>Myocastor coypus</i> Molina, 1782	Нутрия	Nutriya
14	<i>Meles meles</i> Linnaeus, 1758	Обыкновенный барсук	Bo‘rsiq
15	<i>Felis lubica</i> Forster, 1780	Степная кошка	Cho‘l mushugi
16	<i>Felis margarita thinobia</i> (Ognev, 1927)	Барханская кошка	Qum, barxan mushugi




8-rasm. To‘qay mushugi (*Felis chaus*)

2023 yilda amalga oshirilgan tadqiqotlarimizda hududda mushuksimonlar oilasi yovvoyi mushuk avlodiga mansub 3 turdag'i (To'qay mushugi, Cho'l mushugi va Qum yoki barxan mushugi) yovvoyi mushuklar qayd etildi.

To'qay mushugi (*Felis chaus* Schreber, 1777) ruscha nomi Туркестанский камышовый кот — Yirik, oyoqlari uzun, erkagining tana uzunligi 70-90 sm, dumi 30 sm gacha, vazni 7-12 kg og'irlikda [1]. Quloqlari uchida kalta tutam yungi bor. Sariq kulrang tusda. Tanasining osti ochiq rangda. Ko'pincha tunda harakatlanib, kunduzi juda kam uchraydi. 2-3 m balandlikka sakraydi 8-rasm.

Kemiruvchilar, qumsichqon va uy sichqonlar bilan oziqlanadi. Urg'ochisi aprel va may oylarida 3 tadan 5 tagacha bolalaydi. Keyingi yillarda soni qisqarib ketgan. Asosiy raqibi chiyabo'rilar.

Yashash joylarining tavsifi: Amudaryo yaqinidagi to'qaylarda uchraydi. Jumladan Xorazm viloyatining Tuproqqa'l'a, Urganch, Yangibozor tumanlari to'qaylarida tarqalgan. Turning tarqalish hududi xaritasi 9-rasmida ko'rsatilgan.



9-rasm. To'qay mushugining Xorazm viloyatida tarqalish xaritasi


Qum mushugi (*Felis margarita* Loche, 1858) ruscha nomi Барханный кот — Qum mushugi (*Felis margarita*) — suv manbalaridan uzoqda joylashgan qumli va toshli cho'llarda yashaydigan kichik yovvoyi mushuk. Qumli va och kulrang mo'ynasi bilan u cho'l muhitida yaxshi moslashgan. Uning boshi va tanasi uzunligi 40–57 sm, dumining uzunligi 23–31 sm [7]. Uning 5–7 sm kalta quloqlari boshning yon tomonlarida pastaga qaragan holatda bo'lib, yer ostida harakatlanayotgan o'ljani aniqlashga yordam beradi. Panjalari tagini qoplagan uzun sochlari cho'llardagi haddan tashqari issiq va sovuq haroratdan himoya qiladi (10-rasm).



10-rasm. Qum mushugi (*Felis margarita*)

Yashash joylarining tavsifi: Yarim mustahkamlashgan, mustahkamlashmagan past-balанд qumlarda uchraydi.

Hududiy tarqalishi: Respublikamizda Qizilqum cho'lining qumli massivlari (Yomonqum, Oqbaytal, Taspen va boshqalar), Sandiqli, Kemmireqqum va Kattaqum, Ustyurd qumloq joylari, shuningdek Xorazm viloyatining Qizilqum bilan bog'liq Tuproqqal'a tumanidagi Qizilqum qo'riqxonasida mustahkamlashmagan va mustahkamlashgan qumlarda tarqalgan. Turning tarqalish hududi xaritasi 11-rasmda ko'rsatilgan.



11-rasm. Qum mushugi Xorazm viloyatida tarqalish xaritasi

Cho'l yoki dasht mushugi (*Felis lubica* Forster, 1780) ruscha nomi Степной кот, или степная кошка yoki пятнистый кот. Dasht mushugi mushuklar urug'iga mansub sutemizuvchilar turi, ba'zan yovvoyi o'rmon mushugining kenja turi hisoblanadi (*Felis silvestris lybica*). 2017 yilda qabul qilingan taksonomik tasnifga ko'ra, u alohida tur sifatida qayd qilingan. Ikkala ilmiy nom ham bugungi kunda qo'llaniladi. Ushbu kichik tur taxminan 130 ming yil oldin paydo bo'lgan. Ushbu kichik turning 5 ta vakili Yaqin Sharqda taxminan 10 000 yil oldin xonakilashtirilgan va uy mushugining ajdodlari bo'lgan [2]. Cho'l mushugining palto rangi qumli-jigarrangdan sariq-kulranggacha, yon tomonlarida jigarrang dog'lar va quyruqda qora chiziqlar bo'lishi mumkin. Palto yevropalik mushuknikidan qisqaroq. O'rmon mushugidan bir oz kichikroq hajmda. Tana uzunligi 45 dan 75 sm gacha, quyruq — 20 dan 38 sm gacha. Og'irligi 3 dan 6 kg gacha. Yovvoyi tabiatda qarovsiz uy mushuklari bilan chatishirishi mumkin. Cho'l mushugi Afrika, G'arbiy, O'rta va Markaziy Osiyo, Shimoliy Hindiston, Zaqafqaziya va Qozog'istonning dasht, yarim cho'l, cho'l va tog' oldi hududlarida yashaydi. Saratov va Orenburg viloyatlarining Qizil kitoblariga kiritilgan. Bu o'zining ko'p qismida juda keng tarqalgan tur, garchi uning soni inson faoliyati tufayli kamayib bormoqda (12-rasm).




12-rasm. Dasht mushugi (*Felis lubica*)

Dasht mushugi asosan sichqonlar, kalamushlar va boshqa mayda sute Mizuvchilar bilan oziqlanadi. Imkoniyat paydo bo'lganda, u qushlar, sudraluvchilar, amfibiyalar va hasharotlar bilan ham oziqlanishi mumkin. Ular yolg'iz ov qilishadi, ov paytida mushuklar asta-sekin o'ljasiga yaqinlashadi va taxminan bir metr masofadan hujum qiladi. Dasht mushuklari asosan tunda va kechqurun faol bo'ladi. Dushman bilan to'qnashuv paytida dasht mushugi kattaroq ko'rinish va dushmanni qo'rqtish uchun mo'ynasini ko'taradi. Kunduzi u odatda butalar ichida yashirinadi, lekin ba'zan bulutli kunlarda faol bo'ladi. Urg'ochilar ikkitadan oltitagacha asosan uchta mushukchalar tug'adilar. Dasht mushugi mushukchalarni tayyor chuqurchalarda, boshqa hayvonlarning (tulkilar, bo'rsiqlar, kirpilar) tashlandiq teshiklaridan iborat uyalarda boqadi va dam oladi. Dasht mushugi boshqa qarindosh turlardan, shuningdek, uy mushuklaridan farqli o'laroq, ular juda jim bo'ladi, hatto urchish davrida ham ovozi juda kamdan-kam eshitiladi.

Yashash joylarining tavsifi: Respublikamizning Ustyurt yassi tekisligi, Janubiy Orol bo'yи, Qizilqum cho'li, shu jumladan Xorazm viloyatining Qoraqum va Qizilqum cho'llari, suv havzalarda, baliqchilik ko'llari atrofida uchraydi.

Hududiy tarqalishi: Xorazm viloyatining Qizilqum va Qoraqum va atrofidagi qishloq xo'jaligi ekinlari dalalarida cho'l hududlarida tarqalgan. Turning tarqalish hududi xaritasi 13-rasmida ko'rsatilgan.



13-rasm. Cho'l yoki dasht mushugining Xorazm viloyatida tarqalish xaritasi

Olingan tadqiqot natijalarga ko'ra, Xorazm viloyati hududida mushuksimonlar oilasi yovvoyi mushuk avlodiga mansub 3 turdag'i To'qay mushugi, Cho'l mushugi va Barxan mushugilar uchrashi o'rganildi. Cho'l hududlarining o'zlashtirilishi, odam tomonidan ta'qib qilinishi tufayli soni qisqarib borayotganligi, o'ta sovuq qish mavsumida ozuqasining etishmasligi asosiy cheklovchi omil hisoblanadi. Bugungi kunda ular Amudaryo qirg'oqlari to'qaylarida va Qizilqum, Qoraqum cho'llaridagi qo'riqxonada uchrashi qayd etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Сагитов А.К., Салимов Х.В. Животный мир Кызылкумского заповедника, Ташкент, 1978
- Палваниязов М. Хищные звери пустынь Средней Азии. – Нукус. Издательство Каракалпакстан", 1974. – 320 с.
- Ўзбекистон Республикасининг Қизил китоби Ҳайвонлар бўлими. Тошкент 2019. 392 б.
- Флинт В. Е., Чугунов Ю. Д., Смирин В. М. Млекопитающие СССР / М.: Мысль, 1965. С. 151-152. 438 с.
- Степной кот. www.moscowzoo.ru. Дата обращения: 26 апреля 2020. [Архивировано](#) 27 октября 2019 года.
- Степной кот *Felis libyca* (Forster, 1780) — Млекопитающие (Mammalia) — Разделы — Красная книга Оренбургской области. redbook56.orenlib.ru. Дата обращения: 26 апреля 2020. [Архивировано](#) 28 сентября 2020 года.
- Jumanov M.A., Asenov G.A., Bekbergenova Z.O., Qoshanov D.E. Qoroqalpog'istonning hayvonot olami Nokis «Qaraqalpaqstan» 2020 637 b.
- O'zbekiston Respublikasining "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalish to'g'risida"gi 2016-yil 19-sentyabrdagi 408-son Qonuni

BIRYOFITLARNING XUSOR TOG' TIZMASIDA TARQALISHI VA TURLARI*S.B.Pardaboyev, o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax*

Annotatsiya. Brionyofitlar, shu jumladan moxlar, jigar o'simliklari va shoxli o'tlar yer ekotizimlarining muhim tarkibiy qismlari bo'lib, ozuqa moddalarining aylanishiga, tuproqning barqarorligiga va mikrohabitat bilan ta'minlanishiga yordam beradi. Biroq, ularning Xusor tog' tizmasi kabi o'ziga xos geografik mintaqalarda tarqalishi va xilma-xilligi hali ham yaxshi o'rganilmagan. Ushbu tadqiqot Xusor tog' tizmalarida bryofitlarning tarqalish shakllari va turlarini o'rganish, ularning ekologik ahamiyati va tabiatni muhofaza qilish oqibatlarini yoritishga qaratilgan. Laboratoriya tahlillari bilan to'ldirilgan dala tadqiqotlari diapazondagi turli xil yashash joylarida turli xil brionyofit jamoalarini aniqladi. Natijalar atrof-muhit omillari, balandlik gradyanlari va mikroiqlim sharoitlari ta'sirida bryofit tarqalishining aniq naqshlarini ko'rsatadi. Ushbu naqshlarni tushunish tog' ekotizimlarida brionyofit xilma-xilligini samarali saqlash va boshqarish uchun juda muhimdir.

Kalit so'zlar: Brionyofitlar, Xusor tog' tizmasi, tarqalishi, xilma-xilligi, muhofazasi

Аннотация. Мохообразные, в том числе мхи, печеночники и роголистники, являются жизненно важными компонентами наземных экосистем, внося вклад в круговорот питательных веществ, стабилизацию почвы и создание микросреды обитания. Однако их распространение и разнообразие в конкретных географических регионах, таких как Хусорский горный хребет, остаются плохо изученными. Целью данного исследования является изучение закономерностей распространения и типов мохобразных в Хусорском горном хребте, проливая свет на их экологическое значение и последствия для сохранения. Полевые исследования, дополненные лабораторным анализом, выявили разнообразные сообщества мохобразных в различных средах обитания в пределах ареала. Результаты указывают на различные закономерности распределения мохобразных, на которые влияют факторы окружающей среды, градиенты высот и микроклиматические условия. Понимание этих закономерностей имеет решающее значение для эффективного сохранения и управления разнообразием мохобразных в горных экосистемах.

Ключевые слова: мохообразные, Хусорский хребет, распространение, разнообразие, охрана.

Abstract. Bryophytes, including mosses, liverworts, and hornworts, are vital components of terrestrial ecosystems, contributing to nutrient cycling, soil stabilization, and microhabitat provision. However, their distribution and diversity in specific geographic regions, such as the Khusor Mountain Range, remain poorly understood. This study aims to investigate the distribution patterns and types of bryophytes in the Khusor Mountain Range, shedding light on their ecological significance and conservation implications. Field surveys, supplemented by laboratory analyses, revealed diverse bryophyte communities across various habitats within the range. Results indicate distinct patterns of bryophyte distribution influenced by environmental factors, elevation gradients, and microclimatic conditions. Understanding these patterns is crucial for effective conservation and management of bryophyte diversity in mountain ecosystems.

Keywords: Bryophytes, Khusor Mountain Range, Distribution, Diversity, Conservation

Kirish. Xusor tog' tizmasi biologik xilma-xillikning tayanch nuqtasi bo'lib, uning qo'pol yon bag'irlari va turli mikroiqlimlari ko'plab o'simlik va hayvon turlarini qo'riqlash joyi bo'lib xizmat qiladi. Uning qoya cho'qqilari va yam-yashil vodiylari ichida moxlar, jigar o'tlar va shoxli o'simliklardan iborat jumboqli brionyofit jamoalari joylashgan. Ko'zga ko'rinas bo'lishiga qaramay, bu qadimiy nasl o'simliklari butun dunyo bo'ylab tog' ekotizimlarining ekologik gobelenini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Qon tomir to'qimalarinin yo'qligi va ko'payish uchun namlikka tayanishi bilan ajralib turadigan brionyofitlar uzoq vaqtidan beri botaniklar va ekologlarning qiziqishini o'ziga tortdi. Ularning turli xil yashash joylarida, nam o'rmon pollaridan tortib to toshlarga gacha o'sish qobiliyatini

ularning chidamliligi va moslashuvchanligi haqida gapiradi. Xusor tog' tizmasida bu oddiy organizmlar ko'katlardan murakkab gobelenlarni to'qib, tuproqni barqarorlashtirish, ozuqa moddalarining aylanishi va mikro yashash joylarini ta'minlashga hissa qo'shadi.

Biroq, ularning ekologik ahamiyatiga qaramay, bizning Xusor tog' tizmasidagi briofitlarning tarqalishi va xilma-xilligi haqidagi tushunchamiz cheklanganligicha qolmoqda. Oldingi tadqiqotlar turli xil balandlik gradyanlari va yashash joylari turlari bo'yicha turli xil briofit jamoalarining mavjudligiga ishora qilgan, ammo keng qamrovli baholashlar kam. Shunday qilib, ushbu q'pol erlarda bryofitlar dunyosiga chuqurroq kirib borish, ularning tarqalish naqshlari, yashash joylarining afzalliklari va ekologik rollarini aniqlash zarurati mavjud.

Ushbu tadqiqot Xusor tog' tizmalarida yashaydigan briofitlarning tarqalishi va turlarini chuqur o'rganish orqali ushbu bo'shlqnini to'ldirishga harakat qiladi. Laboratoriya tahlillari va atrof-muhitni baholash bilan to'ldirilgan puxta dala tadqiqotlari orqali biz briofitlar va ularning tog'li muhiti o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aniqlashga harakat qilamiz. Bu tadqiqot Xusor tog' tizmasidagi moxlar, jigar o'tlar va shoxli o'tlar yashiringan olamiga oydinlik kiritib, tog'larning biologik xilma-xilligi haqidagi tushunchamizni boyitish va tabiatni muhofaza qilish bo'yicha bilimli sa'y-harakatlarga yo'l ochishga intiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bryofitlarning tarqalishi va xilma-xilligini baholash uchun Xusor tog' tizmasining turli yashash joylarida dala tadqiqotlari o'tkazildi. Namuna olish joylari turli balandlik gradyanlarini, o'simlik turlarini va mikroiqlim sharoitlarini qamrab olish uchun tanlangan. Bryofit namunalari standart dala protokollari bo'yicha to'plangan, ularning joylashuvi, yashash joylari va tegishli o'simliklarni diqqat bilan hujjatlashtirgan. Laboratoriya to'plangan namunalar morfologik xususiyatlar va mikroskopik tekshiruvdan foydalangan holda tur darajasida aniqlandi. Bundan tashqari, har bir namuna olish joyida harorat, namlik va tuproq xususiyatlari kabi atrof-muhit o'zgaruvchilari ularning briofit tarqalishiga potentsial ta'sirini tahlil qilish uchun qayd etilgan.

Natijalar: Dala o'rganishlar natijasida Xusor tog' tizmasida turli xil yashash joylari va balandlik gradyanlarida yashovchi turli xil briofit turlari aniqlandi. Moslar eng ko'p va keng tarqalgan guruh bo'lib, ko'plab turlari o'rmonlarda, o'tloqlarda va toshloq joylarda aniqlangan. Liverworts va shoxli o'tlar kamroq tarqalgan, ammo baribir ma'lum mikro yashash joylarida, ayniqsa nam va soyali joylarda mavjud.

Atrof-muhit o'zgaruvchilari tahlili bryofitlarning tarqalishi va balandlik, namlik mavjudligi va substrat turi kabi omillar o'rtasidagi muhim korrelyatsiyani ko'rsatdi. Yuqori balandliklarda, odatda, pastroq balandliklarga nisbatan turli xil briofit jamoalari joylashgan bo'lib, balandlik gradyanlari bo'ylab alohida turlar birikmalari kuzatilgan. Bundan tashqari, ba'zi briofit turlari o'ziga xos yashash joylarini afzal ko'rdi, masalan, ba'zi jigar o'simliklari uchun kalkerli jinslar va ba'zi mox turlari uchun soyali o'rmon pollari.

Xusor tog' tizmalarida briofitlarning tarqalishi va xilma-xilligi atrof-muhit omillari va yashash muhiti xususiyatlarining murakkab o'zaro bog'liqligini aks ettiradi. Balandlik gradyanlari, namlik mavjudligi, substrat turi va o'simlik qoplami bu mintaqada briofit jamoalarini shakllantirishning asosiy omillari sifatida namoyon bo'ladi. O'rmonlardan toshli qoyalargacha bo'lgan turli xil mikrohabitatlarning mavjudligi turli xil briofit turlari uchun qulay imkoniyatlarni taqdim etadi, bu esa ekotizimning umumiyligi barqarorligi va bioxilma-xilligiga hissa qo'shadi.

Tog'li ekotizimlarda bryofitlarning ekologik ahamiyatini oshirib bo'lmaydi. Bu kichik o'simliklar boshqa organizmlarning omon qolishi va tarqalishiga ta'sir qiluvchi ozuqa moddalarining aylanishi, tuproqni barqarorlashtirish va mikroiqlimni tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, briofitlar atrof-muhit sifatining bioindikatori bo'lib xizmat qiladi, ularning mavjudligi yoki yo'qligi yashash muhiti salomatligi va buzilish darajasini aks ettiradi.

Xusor tog' tizmasida briofitlarning tarqalishi va turlarini o'rganish tog' ekotizimlarida ushbu qadimgi nasl o'simliklarining ekologik dinamikasi haqida qimmatli ma'lumotlar berdi. Puxta dala tadqiqotlari, laboratoriya tahlillari va atrof-muhitni baholash orqali biz briofitlar va ularning abiotik muhiti o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berdik, ularning tarqalish shakllari, yashash joylarining afzalliklari va ekologik ahamiyatiga oydinlik kiritdik.

Bizning tadqiqotimiz Xusor tog' tizmasida yashovchi moxlar, jigar o'tlar va shoxli o'tlar bilan o'rmon tubidan tortib to toshli tepaliklarga bo'lgan turli xil yashash joylarining ekologik gobeleniga hissa qo'shadigan boy xilma-xilligini aniqladi. Ko'tarilish gradyanlari, namlik mavjudligi, substrat turi va tuproq pH ko'rsatkichlari briofitlar jamoalarini shakllantirishning asosiy omillari bo'lib, turlar tarkibiga va turli balandlik zonalarida tarqalish naqshlariga ta'sir ko'rsatdi.

Yuqori balandlikdagi yashash joylari ekstremal ekologik sharoitlarga moslashgan noyob birikmalarni o'z ichiga olgan briofit xilma-xilligining issiq nuqtalari sifatida aniqlandi. Endemik va kam uchraydigan briofit turlarini antropogen tahididlar va iqlim o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan buzilishlardan himoya qilish uchun tabiatni muhofaza qilish bo'yicha sa'y-harakatlar ushbu yashash joylarini birinchi o'ringa qo'yishi kerak.

Bizning topilmalarimiz natijalari Xusor tog' tizmasi chegarasidan tashqariga chiqib, butun dunyo bo'ylab tog' ekotizimlarida briofit xilma-xilligini saqlash va boshqarish bo'yicha qimmatli tushunchalarni beradi. Briofitlarning ekologik rolini tushunish va tabiatni muhofaza qilishning ustuvor yo'naliшlarini aniqlash orqali biz bu kichik, ammo ajralmas organizmlarni va ular yashaydigan zaif yashash joylarini saqlab qolishga harakat qilishimiz mumkin.

Oldinga qarab, Xusor tog' tizmasi va undan tashqaridagi briofit jamoalari monitoringini davom ettirish, vaqt o'tishi bilan o'zgarishlarni kuzatish va ularning atrof-muhit o'zgarishiga munosabatini baholash zarur. Mahalliy hamjamiyatlarni va manfaatdor tomonlarni tabiatni muhofaza qilish bo'yicha sa'y-harakatlarga jalb qilish va briofitlarning ekologik ahamiyati haqida xabardorlikni oshirish ularning uzoq muddatli omon qolishi va ortib borayotgan ekologik muammolarga tog'li ekotizimlarning barqarorligini ta'minlash yo'lida muhim qadamdir.

Xulosa qilib aytganda, bizning tadqiqotimiz tog 'ekotizimlarida briofit xilma-xilligini himoya qilish uchun kelishilgan tabiatni muhofaza qilish choralarini ko'rish zarurligini ta'kidlab, bu qadimiy nasl-nasab o'simliklarini kelajak avlodlar uchun qadrlash va asrab-avaylash muhimligini ta'kidlaydi. Birgalikdagi sa'y-harakatlar va tabiatni muhofaza qilish bo'yicha umumiylajtirishda davom etadigan barqaror kelajak sari intilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Cox, C. J., Goffinet, B., Shaw, A. J., & Boles, S. B. (2004). Phylogenetic relationships among the diplolepidous-alternate mosses (Bryidae) inferred from nuclear and chloroplast DNA sequences. *The Bryologist*, 107(1), 128-140.
- Damanhuri, A., Faridah-Hanum, I., & Latiff, A. (2010). Diversity of bryophytes in Sungai Sedim forest reserve, Kedah, Peninsular Malaysia. *Biodiversity & Conservation*, 19(1), 189-205.
- Gradstein, S. R., Churchill, S. P., & Salazar-Allen, N. (2001). Guide to the bryophytes of tropical America. *Memoirs of the New York Botanical Garden*, 86, 1-577.
- Heinrichs, J., Hentschel, J., & Wilson, R. (2007). New insights into the phylogenetics and taxonomy of the leafy liverwort genus Herbertus (Marchantiophyta). *Botanical Journal of the Linnean Society*, 153(3), 387-398.
- Longton, R. E. (1997). Bryophyte communities: an ecological review. *Biological Reviews*, 72(2), 211-228.

УО‘К 502/504:630*17:582.06

QIZILQUM DAVLAT QO'RIQXONASI FLORASINING YETAKCHI OILALARI TAHLILI

N.R. Rahmonov, o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro
H.Q. Esanov, dotsent, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qizilqum davlat qo'riqxonasi florasingning yetakchi oilalar tarkibi to'g'risidagi fikrlar bayon etilgan. Tahlil natijalari yetakchi oilalarning tarkibi cho'l florasiga xos xususiyatlar namoyon qilganligini asoslagan. Ushbu oilalarning tadqiqot hududidagi o'rni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Qizilqum davlat qo'riqxonasi, yetakchi oilalar, to'qay, cho'l, gerbariy, tur.

Аннотация. В данной статье изложены мнения о составе ведущих семейств флоры Кзылкумского государственного заповедника. Результаты анализа показали, что в составе ведущих семейств присутствуют черты, характерные для пустынной флоры. Объяснено место этих семейств в районе исследования.

Ключевые слова: Кызылкумский государственный заповедник, ведущие семейства, роица, пустыня, гербарий, виды.

Abstract. This article describes the opinions on the composition of the leading families of the flora of the Kyzylkum State Reserve. The results of the analysis proved that the composition of the leading families showed characteristics characteristic of the desert flora. The place of these families in the research area is explained.

Keywords: Kyzylkum State Reserve, leading families, grove, desert, herbarium, species.

Kirish. Qizilqum cho'lining o'simliklar dunyosi qadimdan juda ko'p tadqiqotchilarni o'ziga jalg qilib kelgan. Mazkur hududda juda ekspeditsiyalar tashkil qilinib o'simliklar va hayvonot dunyosi o'rganilgan. Shunga qaramasdan hududning juda katta maydoni ya'ni, 300 ming km² ni egallashi [10], qurg'oqchil iqlim sharoiti, geologik qazilma ishlarining olib borilishi, qo'riqlanadigan hududlarning mavjudligi va boshqalar uning florasini o'rganish imkoniyatlarini murakkablashtiradi. Qizilqum cho'lida qo'riqlanadigan hududlardan bir sifatida "Qizilqum davlat qo'riqxonasi" mavjud. Biz olib borayotgan tadqiqotlarimizda mazkur qo'riqxona florasi tarkibini o'rganishni maqsad qilib oldik. Chunki qo'riqxonada flora tarkibi tabiiyligicha saqlangan. Shuningdek u yerda ikki xil to'qay va cho'l landshafti mavjud [11,14]. Bu yerda Qizilqum cho'lida uchraydigan aksariyat o'simliklarni uchratish mumkin. Shuningdek, ushbu qo'riqxona O'zbekiston qo'riqxonalari orasida florasi tadqiq qilinmaganlar toifasiga kiradi. Qo'riqxona hisobotlarida oxirgi ma'lumot sifatida 175 tur keltirilgan. Ushbu ro'yxatda cho'lida keng tarqalgan turlarning mavjud emasligi, aksincha tog' floralariga mansub turlarning mavjudligini ko'rish mumkin. Shuning uchun tadqiqotlarni dastlab Qizilqum qo'riqxonasi florasini o'rganishni maqsad qilib oldik.

Tadqiqot ob'yekti va metodlari. Tadqiqot ob'yekti Qizilqum davlat qo'riqxonasi yuksak o'simliklari hisoblanadi. Florani o'rganishda tadqiqot hududidan marshrutli va yarim statsionar usulda o'simliklardan namunalar yig'ilib gerbariylar tayyorlandi. Dala tadqiqotlarida A.I. Tolmachev [4] va B.A. Yursev [12] tomonidan ishlab chiqilgan metodlardan foydalilanilgan holda olib borildi. Yig'ilgan gerbaryi namunalarini aniqlashda 11 jildli "Определитель растений Средней Азии" [2,3], 6 jildli "Флора Узбекистана" [5,6,7], 11 jildli "Флора Туркмении" [9], 30 jildli "Флора CCP" [8] asarlaridan va "Растительный покров Юго-Западных Кызылкумов" [1] ma'lumotlaridan foydalaniildi. Flora tarkibidagi oilalar ketma-ketligi APG IV [15] zamonaviy tizimi asosida keltirildi.

Tadqiqot natijalari. Qizilqum ma'muriy jihatdan Buxoro (1467 ga) va Xorazm (8844 ga) viloyatlari hududlarida joylashgan. Bu hududda to'qay, suv-botqoq va cho'l ekotizimlari, shuningdek, madaniy landshaftlar mavjud. Umumiylar maydonining 7134 hektari Qizilqum cho'li va 3177 hektari Amudaryo o'zani qirg'og'idagi to'qay zonasidan iborat. Qizilqum davlat qo'riqxonasi dengiz sathidan 150 metrdan 180 metrgacha balandlikdagi hududni o'z ichiga oladi.

Qizilqum qo'riqxonasining to'qay hududi asosan jiydazor (*Elaeagnus angustifolia* L.), tolzor (*Salix songarica* Andresson, *S. wilhelmsiana* M. Bieb.) va turang'ilzorlardan (*Populus pruinosa* Schrenk, *P. euphratica* Olivier), qisman shirinmiya va yulg'unzorlardan tashkil topgan [14]. Ushbu turlar to'qayda alohida populyatsiyalarni hosil qilgan va ba'zan aralash holda uchraydi. Har yili Amudaryo suvining iyun-iyul oylarida ko'payishi natijasida ushbu daraxtzorlarda suvning 1,5-2 metrgacha ko'tarilishi ularning tabiiy ko'payish jarayonlarini va yashab qolish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shuningdek, daryo qirg'oqlarida daraxt va butalarning yosh populyatsiyalarini ko'rish mumkin. Bunday populyatsiyalarda butalardan *Caragana halodendron* (Pall.Dum.Cours.) va *Tamarix* turlari uchraydi.

Qo'riqxona florasining asosiy tarkibi cho'l landshaftiga to'g'ri keladi. Ularni ko'proq qumli va sho'r tuproqlarda uchratish mumkin. Mazkur hudud qurg'oqchil zona bo'lganligi tufayli bu yerda kserofit, efemeroit va efemer turlar tarqalgan. Mazkur muhitlarda keng tarqalgan daraxt va butalardan *Haloxylon ammodendron* (C.A.Mey. Bunge ex Fenzl), *H. persicum* Bunge, *Ammodendron conollyi* Bunge ex Boiss, *Calligonum aphyllum* (Pall.) Gürke, *C. arborescens* Litv., *C. caput-medusae* Schrenk, *C. eriopodium* Bunge, *C. leucocladum* (Schrenk) Bunge, *C. microcarpum* I.G.Borschch, *Astragalus unifoliatus* Bunge, *A. villosissimus* Bunge va boshqalarni ko'rish mumkin. Ular ko'proq hududdagi Buxoro bug'ulari uchun yem-xashak sifatida xizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqotlarning dastlabki natijalari sifatida 10 ta yetakchi oilalar tahlil qilindi va quyidagi natijalar olindi: Amaranthaceae (39 tur, umumiyligi turlarning 16,96%), Asteraceae va Poaceae (25, 10,87%), Brassicaceae (20, 8,69%), Fabaceae (18, 7,83%), Polygonaceae va Boraginaceae (9, 3,91%), Apiaceae va Convolvulaceae (7, 3,04%) hamda Caryophyllaceae (6, 2,16%) bilan ishtirok etdi (jadval). Flora tarkibida kam sonli turlardan tashkil topgan oilalarning ko‘p uchrashi chetdan kirib kelayotgan turlarning ko‘p ekanligini ko‘rsatadi.

1- jadval

Qizilqum qo‘riqxonasi florasi tarkibidagi yetakchi oilalarning turkum va turlar soni

Nº	Oila	Turlar soni	Turlar floradan % hisobida	Turkumlar soni	Turkumlar floradan % hisobida
1	Amaranthaceae	39	16,96	23	15,03
2	Asteraceae	25	10,87	18	11,76
3	Poaceae	25	10,87	19	12,42
4	Brassicaceae	20	8,69	15	9,80
5	Fabaceae	18	7,83	9	5,88
6	Polygonaceae	9	3,91	3	1,96
7	Boraginaceae	9	3,91	6	3,92
8	Apiaceae	7	3,04	6	3,92
9	Convolvulaceae	7	3,04	4	2,61
10	Caryophyllaceae	6	2,61	5	3,27
	Jami	165	71,73	108	70,57

Qo‘riqxona hududida Gultojixo‘rozdoshlar (Amaranthaceae) oilasi yetakchi oila sifatida qayd etildi [11]. U holat Turon provinsiyasi florasiga xos xususiyat hisoblanadi. Mazkur oila O‘rtal Osiyoning cho‘l floralari tarkibida birinchi o‘rinni egallaydi [13]. Oila vakillari O‘rtal Osiyonni Eron florasini bilan bog‘laydi. Turlar orasida bir qancha qarindosh turlar uchraydi. Ushbu oila endem turlarga (*Agriophyllum lateriflorum* (Lam.) Moq., *Halimocnemis latifolia* Iljin, *Halimocnemis macrantha* Bunge, *Turania aperta* (Paulsen) Akhani) boy hisoblanadi. Oila vakillari qo‘riqxona hududining qumli va sho‘r tuproqlarida keng tarqalgan.

Keyingi o‘rinni Asteraceae oilasi egallaydi. Oila tarkibi 18 turkumga mansub 25 turdan tashkil topgan. Oila vakillari asosan tadqiqot hududining qumli cho‘l qismida va qisman to‘qay hududlarida ham uchraydi. Mazkur oila butun Golarktika hududlarining yetakchi oilasi sifatida qayd etilgan. Jumladan Qadimiy O‘rtal Yer dengizi hududlaridan ham yetakchilik qiladi. Ushbu oilaning o‘ziga xos xususiyatidan biri uning tarkibida adventiv turlarning (*Cichorium intybus* L., *Xanthium strumarium* L.) ko‘pligini ko‘rish mumkin. Qumli muhitlarda *Artemisia diffusa* Krasch. ex Poljakov, *Artemisia terrae-albae* Krasch., *Cousinia dichotoma* L., *Heteroderis pusilla* (Boiss.), *Takhtajaniantha pusilla* (Pall.) Nazarova, *Cousinia prolifera* Jaub. et Spach, *Koelpinia turanica* Vassilcz., *Microcephala lamellata* (Bunge) Pobed., *Epilasia hemilasia* (Bunge), C. B. Clarke va boshqa turlarni keng tarqalganligini ko‘rish mumkin.

Keyingi o‘rinni 19 turkumga (12,42%) mansub 25 tur (10,87%) bilan Poaceae egalladi. Oila vakillari asosan efemer o‘t o‘simliklaridan tashkil topgan. Ular bahor oxiri va yozning boshlarida o‘z vegetatsiyasini tugatadi. Mazkur oila vakillaridan to‘qaylarda keng tarqalgan: *Aeluropus littoralis* (Gouan) Parl., *Cynodon dactylon* (L.) Pers., *Imperata cylindrica* (L.) P. Beauv., *Phragmites australis* (Cav.) Trin. ex Steud. va qumlarda dominant sifatida *Poa bulbosa* L., *Bromus tectorum* L., *Cutandia memphitica* (Spreng.) Benth., *Schismus arabicus* Nees kabi turlarni uchratish mumkin.

Turon provinsiyasi eng muhim oilalaridan yana biri Brassicaceae oilasidir. Ushbu oila vakillari bir yillik efemerlardan tashkil topgan. Ular asosan yem-xashak xususiyatini namoyon qiladi. Erta bahorda Buxoro bug‘ulari uchun vitaminli oziqa sifatida foydalilanadi. Ular orasida O‘rtal Osiyo endemlari ham uchraydi. Jumladan, *Cithareloma lehmannii* Bunge, *Cithareloma vernum* Bunge, *Isatis violascens* Bunge, *Streptoloma desertorum* Bunge. Brassicaceae oilasining yetakchiligi quyidagi turkumlar oraqlari amalga oshdi: *Strigosella* – 3 tur, *Isatis* – 2 tur, *Goldbachia* – 2 tur, *Cithareloma* – 2 tur. Qolgan turkumlar bir turdan tashkil topgan. Mazkur holat qo‘riqxona hududida turlar kirib kelishi, turlar migratsiyasi yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Keyingi oila Fabaceae 9 turkumga (5,88%) mansub 18 tur (7,83%) bilan beshinchli o‘rinni egalladi. Oilaning yetakchiligi yagona *Astragalus* turkumining 8 tur (5,23%) bilan ishtirokiga

bog'liq. Astragal turkumi O'rta Osiyon Oron florasi bilan bog'laydigan asosiy ko'priklardan biri hisoblanadi. Ushbu turkum vakillari O'rta Osiyoning cho'l va tog' floralarida yetakchilik qiladi. Uning asosiy vakillari tog'larda uchrashiga qaramasdan cho'l florasida ham oila tarkibida bиринчи о'rinni egallaydi va bu mazkur hududga xos xususiyatlardan biri ekanligini ko'rsatadi. Qo'riqxona hududida astragaldan so'ng 3 tur bilan yantoq (*Alhagi canescens* (Regel) (Shap. ex Keller & Shap.), *A. pseudalhagi* subsp. *kirghisorum* (Schrenk, Yakovl), *A. pseudalhagi* (M. Bieb. Desv. ex B. Keller & Shap.) turkumi egalladi.

Xulosa qilib aytganda qo'riqxona florasing yetakchi oilalar tarkibi Turon provinsiyasi floralari tarkibiga mutanosiblikni namoyon qildi. Flora tarkibidagi Amaranthaceae, Asteraceae, Poaceae, Brassicaceae va Fabaceae oilalari boshqa cho'l floralari tarkibidagi kabi dastlabki 5 ta o'rinni egallaydi. Ushbu oila vakillarining keng tarqalishi cho'l floralariga xos xususiyatini namoyon qildi. Mazkur yetakchi oilalar tarkibidagi turlar qo'riqxonaning cho'l hududida uchrasa-da ular orasidagi ayrim turlarni to'qay florasi tarkibida ham uchratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Гранитов И.И. Растительный покров Юго-Западных Кызылкумов. В 2-х т. – 2. Ташкент: Наука, 1964. Т. 1. — 335 с.
2. Определитель растений Средней Азии: Т. I–Х. – Ташкент: Фан, 1968 – 1993.
3. Определитель растений Средней Азии: Т. XI: – Ташкент: Фан, 2015. – 456 с.
4. Толмачев А.И. Введение в географию растений. – Л.: ЛГУ, 1974. – 244с.
5. Флора Узбекистана. В 6 т-х. – Ташкент: изд. АН УзССР, 1941-1963.
6. Флора Узбекистана. – Ташкент: Навруз, 2016-2017. 1-2 т-х.
7. Флора Узбекистана. – Ташкент: Манавият, 2019. Т. 3. 201 с.
8. Флора ССР. В 30 т. М.Л.: изд. АН СССР, 1934-1960. 206 с.
9. Флора Туркмении. Издательство Туркменского филиала Академии Наук СССР. Год: 1950. 165 с.
10. Хасанов Ф.О., Шумуродов Х.Ф., Кадыров Г. Краткий очерк и анализ эндемизма флоры пустыни Кызылкум // Бот. журн. – Санкт Петербург: Наука, 2011. Т. 96, — № 2. – С. 237-245.
11. Эсанов Х.К., Раҳмонов Н.Р. Семейство Amaranthaceae во флоре Кызылкумского государственного заповедника (Узбекистан) // Материалы III Международной научной конференции «Актуальные вопросы охраны биоразнообразия». – Уфа, 2022. – С. 91-94.
12. Юрцев Б.А. Программа сравнительно флористических исследований. В кн. Теоретические вопросы сравнительной флористики. – Л.: Наука, 1987. – С. 156-198.
13. Esanov H.Q. Janubiy-G'arbiy Qizilqum florasi. Biol. fan. dokt. dis. – Тошкент, 2023. – 195 б.
14. Esanov H.Q., Rahmonov N.R., Aslonova K.A. Qizilqum davlat qo'riqxonasi to'qay o'simliklarining hozirgi holati. // Материалы международной научно-практической конференции «Экологический мониторинг последствий аральской катастрофы для здоровья человека и сохранения биосферы» посвящённая 70-летию доктора биологических наук, профессора Азата Таубалдиевича Матчанова. Нукус, 2022. – Б. 262-264.
15. The Angiosperm Phylogeny Group. An update of the Angiosperm Phylogeny Group classification for the orders and families of flowering plants: APG IV // Botanical Journal of the Linnean Society, 2016.– Vol. 181 (1). 1-20 p.

UO'K 595.76

BUXORO VILOYATIDA UCHROVCHI QO'NG'IZLAR (COLEOPTERA)NING SISTEMATIK TAHLILI

A.R. Rayimov, b.f.d., PhD, Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro

M.M. To'raev, b.f.n, dos., Buxoro davlat universiteti, Buxoro

H.M. Mustafoyev, k.f.n, dos., Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro

M.S. Saidova, talaba, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro viloyatida uchrovchi qo'ng'izlarning xilma-xilligi, tur tarkibining mavsumiy o'zgarishi, ekologik xususiyatlari, ozuqa ixtisosligi, sistematik tahlili keltirilgan. Qo'ng'izlarning madaniy o'simliklarga salbiy ta'sirini baholash, populyatsiyalar zichligini aniqlash, hamda estetik ahamiyatga ega bo'lgan, kamyob turlarni muhofaza qilish bo'yicha chora tadbirlarni Buxoro viloyati sharoitida ishlab chiqish ham o'rganilgan.

Kalit so'zlar: poliz tugmacha qo'ng'izi, yetti nuqtali xonqizi, Kolorada qo'ng'izi, Bo'xcha qo'ng'iz.

Аннотация. В данной статье представлен систематический анализ разнообразия, сезонных изменений видового состава, экологических особенностей, пищевой специализации видов жуков, обитающих в Бухарской области. Изучаются оценка негативного воздействия

жуков на культурные растения, определение плотности популяции и разработка мер по охране эстетичных и редких видов в условиях Бухарской области.

Ключевые слова: бахчевая коровка, семиточечная коровка, колорадский жук, священный скарабей.

Abstract. This article presents a systematic analysis of the diversity, seasonal changes of the species composition, ecological features, food specialization of the beetle species found in Bukhara region. Assessment of the negative impact of beetles on cultural plants, determination of population density, and the development of measures for the protection of aesthetic and rare species in the conditions of Bukhara region are studied.

Key words: *ephilachna chrysomelina*, *Coccinella septempunctata*, *Leptinotarsa desemlineata*, *Scarabaeus sacer*.

Kirish. Tabiatda va inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan qo‘ng‘izlarni har tomonlama o‘rganish orqali ularning sonini boshqarishga, ekologik barqarorlikni va qo‘ng‘izlar xilma-xilligini saqlashga erishishimiz mumkin. Buxoro viloyatida qo‘ng‘izlar tur tarkibi, soni, ko‘payishi, bioekologik xususiyatlari, tabiiy ekosistemalar va agrosenozlarda tarqalishi, hamda ahamiyati bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlariga yetarlicha e’tibor qaratilmagan. Mamlakatda qishloq xo‘jaligi ekinlari tarkibidagi yangilanishlar, yangi nav va ekin turlariga ixtisoslashtirish, o‘z navbatida, ularga xos bo‘lgan qo‘ng‘izlar xilma-xilligining ortib borishiga, ayniqsa, invaziv turlarning kirib kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Coleoptera turkumining turlar soni yer yuzida 300000 turni[8], so‘ngi ma’lumotlarga ko‘ra 400000 turni (Bouchard, 2014) tashkil qiladi [2]. Coleoptera turkumining 4 ta kenja turkum, 179 ta oila, 498 ta kenja oila, 15 ta ust triba va 1628 tribasi mavjudligi aytilgan [4]. Qizilqum hududida [5], Histeridae va Tenebrionidae oilalarini Ustyurt hududida [2] Tenebrionidae oilasini [6] o‘rganishgan. *Coccinellidae* oilasiga mansub *Coccinella*, *Propyela*, *Hippodamia*, *Oenopia* avlodlari butun yer yuzida birmuncha o‘rganilgan. *Coccinella* avlodni turlari 20-asrning boshlaridagi bir qancha kataloglarda 30 paleoarktik turlari keltirilgan [7].

Material va metodika: Turli xil guruhga mansub qo‘ng‘izlarning ahamiyatini o‘rganish uchun Buxoro viloyati (Jondor, Romitan, Buxoro, Peshku, G‘ijduvon, Shofirkon, Qorovul bozor) dagi turli tabiiy biotoplarida — chala cho‘l, tabiiy suv havzalari, o‘zlashtirilgan hududlar, agrolandshaftlar va o‘zlashtirilgan urbanozonalarda statsionar va marshrut metodida, yilning turli mavsumlarida (bahor, yoz, kuz) kuzatish, namunalar yig‘ish orqali olib borildi.

Qo‘ng‘izlar entomologik matrab yordamida tutildi[9]. Tuproqda yashovchi va o‘simglik yer ostki organlariga zarar keltiruvchi qo‘ng‘izlarni ekishdan avval o‘rganishda V.P.Vasileva va boshqalar (1975) tavsiya etgan uslublardan foydalanildi. Bunda tuproq qo‘ng‘izlarni hisobga olish uchun har bir dalada shaxmat usulida 50x50 sm o‘lchamli 8-16 ta chuqurchalar kavlanib namunalar olindi. Ulardagi qo‘ng‘izlar toza efirga solindi, 4% formalin yoki 70% li spirt bilan 1 % glitserin aralashmasida turini aniqlash maqsadida saqlandi [10;11].

O‘suv davrida tuproqdagi qo‘ng‘izlarni o‘rganish uchun tuproq tutqichlaridan foydalanildi. Ya’ni 0,5 l hamjli shisha bankalar ekin maydonlarga og‘zi tuproq sathidan 1-2 sm chuqurroqqa joylashtirildi. Banka ichiga 3-4 sm qalinlikda nam tuproq solingan bo‘lib, og‘zini diametri 2 sm teshikli pylonka bilan yopib qo‘yildi. Har bir statsiyaga maydon diagonallari bo‘yicha 10 tadan shunday tutqichlar joylashtirildi. Tutqichlar har 5-7 kunda kuzatib borildi [12].

Hasharotlarning uchrash darajasi, populyatsiya miqdor zichligi va dominantligi K.K.Fasulati uslubida aniqlandi [13]. Individlarning miqdor zichlik ko‘rsatkichlari quyidagi formula bo‘yicha aniqlandi: $V=R/n$

Bunda V – populyatsiya miqdor zichligi; R – barcha namunadagi bir turga mansub bo‘lgan hasharotlar soni yig‘indisi; n – olingan namunalar soni.

Qo‘ng‘izlarning yig‘ish davomida alohida ahamiyatga ega turlarning hayot tarzi, xatti-harakati o‘rganildi. Yig‘ilgan qo‘ng‘izlarni vaqtinchalik saqlash uchun og‘zi keng shisha yoki plastmassa idish ishlataldi. Qo‘ng‘izlarning sistematik o‘rnini aniqlashda sohaga oid qator aniqlagichlar va ilmiy

manbalardan foydalanildi [14;15]. Zarur hollarda turlarni aniqlashda onlayn-aniqlagichlardan ham foydalanildi [16;17;18]. Tungi marshrut hisoblari oddiy diodli fonarlar yordamida o'tkazildi.

Natija va muhokama. Buxoro viloyatida qo'ng'izlarning faunasi tur tarkibini aniqlash maqsadidagi kuzatuvlarimizni 2015-2023-yillar oralig'ida amalga oshirildi. Biz to'plagan dala materiallarining tahlili asosida Buxoro viloyatida uchrovchi qo'ng'izlarning 14 ta oila (Scarabaeidae, Coccinellidae, Tenebrionidae, Meloidae, Chrysomelidae, Carabidae, Elateridae, Curculionidae, Cerambycidae, Dutisidae, Cyrinidae, Silphidae, Ipidae, Buprestidae) 70 turi uchrashi aniqlandi. (1 - jadval).


1 -Jadval.

Buxoro viloyatida uchrovchi qo'ng'izlarning sistematik tahlili.

	Qo'ng'iz turlari	Fitofag	Yirtqich	Nekrofag	Kaprofag
		Kenja olam: Metazoa			
		Bo'lim: Eumetazoa.			
		Tip: Arthropoda.			
		Kenja tip: Tracheata.			
		Sinf: Insecta.			
		Kenja sinf: Ectognata.			
		Turkum: Coleoptera.			
		Oila: Scarabaeidae.			
1	<i>Lethus rosmarus.</i>	+			
2	<i>Polyphylla adspersa</i>	+			
3	<i>Oxythyrea cinctella</i>	+			
4	<i>Epicometis turanica</i>	+			
5	<i>Protaetia marginicollis</i>	+			
6	<i>Oxythyrea cinctella</i>	+			
7	<i>Protaetia turkestanica</i>	+			
8	<i>Stalagmosoma allbellum</i>	+			
9	<i>Protaetia agglomerata</i>	+			
10	<i>Scarabaeus sacer</i>				+
11	<i>Synapsis tmolus</i>				+
12	<i>Copris lunaris</i>				+
13	<i>Copris hispahus</i>				+
14	<i>Cetonia aurata</i>	+			
15	<i>Melolontha hippocostani</i>	+			
16	<i>Melonotha afficta</i>	+			
17	<i>Rpicometis hirta</i>	+			
	Oila. Coccinellidae				
18	<i>Ephilachna chrysomelina</i>	+			
19	<i>Coccinella septempunctata</i>		+		
20	<i>Adalia bipunctata</i>		+		
21	<i>Coleomegilla maculata</i>		+		
22	<i>Hippodamia undecimpunctata</i>		+		
23	<i>Propylea quatuordecimpunctata</i>		+		
	Oila. Tenebrionidae				
24	<i>Blaps halophile</i>	+			
25	<i>Pisterotarsa gigantea</i>	+			
26	<i>Opatrioides punctulatus</i>	+			
27	<i>Dailognatha nasute</i>	+			
	Oila. Meloidae				
28	<i>Mulabris guad ripunctata</i>	+			
29	<i>Mulabris turkestanica</i>	+			
30	<i>Mulabris sedecimpunctata</i>	+			
31	<i>Mylabris frolove</i>		+		
	Oila. Chrysomelidae				
32	<i>Leptinotarsa desemlineata</i>	+			
33	<i>Chrysomela populi</i>	+			
34	<i>Galeruceia tenella</i>	+			
35	<i>Galierusella luteola</i>	+			

36	<i>Chrysomela menthastris</i>	+			
37	<i>Lema melonopus</i>	+			
Oila. -Carabidae					
38	<i>Calosoma sycophanta</i>	+			
39	<i>Cicindela deserticola</i>		+		
40	<i>Calosoma auropunctatum</i>		+		
41	<i>Scarites bucida</i>		+		
42	<i>Cicindela decempustulata</i>		+		
43	<i>Carabus campestris</i>	+			
44	<i>Amara aenea</i>		+		
45	<i>Amara ovata</i>		+		
46	<i>Cicindela turkestanica</i>		+		
47	<i>Anthia mannerheimi</i>		+		
48	<i>Zabrus morio</i>	+			
49	<i>Machozetus lehmanni</i>	+			
Oila. Elateridae					
50	<i>Agriotes meticulosus</i>	+			
51	<i>Cion cerambycinus</i>	+			
Oila. Curculionidae					
52	<i>Anthonomus pomorum</i>	+			
53	<i>Sitobhilus granarius</i>	+			
54	<i>Sitona longula</i>	+			
55	<i>Phytonomus variabilis.</i>	+			
56	<i>Sitona cylindricollis</i>	+			
Oila. Cerambycidae					
57	<i>Agapanthia dahi</i>	+			
58	<i>Prionus turkestanicus</i>	+			
59	<i>Dorkadion turkestanicum</i>	+			
60	<i>Aeolesthes sarta</i>	+			
Oila. Dutisidae					
61	<i>Dytiscum marginais</i>		+		
Oila. Cyrrinidae					
62	<i>Gyrinus marinus</i>		+		
Oila. Silphidae					
63	<i>Necrophorus investigator</i>			+	
64	<i>Necrophorus satanas</i>			+	
65	<i>Necrophorus humator</i>			+	
66	<i>Thanatophilus terminatus</i>			+	
Oila. Ipidae.					
67	<i>Scolytus scolytus</i>	+			
68	<i>Scolytus rugulosus</i>	+			
Oila. Buprestidae					
69	<i>Iulodes bucharica</i>	+			
70	<i>Iulodes variolaris</i>	+			
Jami		46	16	4	4

Kuzatishlarimiz davomida Buxoro viloyatida uchrovchi qo'ng'izlar oziqlanishiga ko'ra - Fitofag 46 ta tur (65%) tashkil etib qo'ng'izlar orasida yaqqol yetakchilik qilgan bo'lsa, Yirtqich 16 ta tur (23%). Nekrofag 4 ta tur (6%) va Kaprofag 4 ta turni (6%) tashkil qilishi aniqlandi. (1-rasm).



1-rasm. Buxoro viloyatida uchraydigan qo'ng'izlar oziqning xiliga qarab ekologik guruhlari kesimida taqsimlanishi

Qo'ng'izlarning hayoti uchun qulay bahor, yoz va kuz mavsumlarida ular bir necha marta ko'payib nasl qoldiradi natijada populatsiyadagi individlar soni ortadi.

2 — jadval

Buxoro viloyatida uchrovchi qo'ng'izlarning yetakchi oilalar spektri

	Oilalar	Tur soni	%
1	Scarabaeidae	17	24,2
2	Coccinellidae	6	8,5
3	Tenebrionidae	4	5,7
4	Meloidae	4	5,7
5	Chrysomelidae	6	8,5
6	Carabidae	12	17,1
7	Elateridae	2	2,8
8	Curculionidae	5	7,1
9	Cerambycidae	4	5,7
10	Dutisidae	1	1,4
11	Cyrinidae	1	1,4
12	Silphidae	4	5,7
13	Ipidae	2	2,8
14	Buprestidae	2	2,8
	Jami	70	100

Olingen natjalarga ko'ra, Buxoro viloyatida uchrovchi 70 tur Qo'ng'izlardan tur tarkibi bo'yicha eng ko'pi Scarabaeidae oilasiga 17 ta tur (24,2 %), Carabidae oilasiga 12 ta tur (17,1 %), Coccinellidae oilasiga 8 ta tur (8,5 %), Tenebrionidae oilasiga 4 ta tur (5,7 %), Meloidae oilasiga 4 ta tur (5,7 %), Chrysomelidae oilasiga 6 ta tur (8,5 %), Elateridae oilasiga 2 ta tur (2,8 %), Curculionidae oilasiga 5 ta tur (7,1 %), Cerambycidae oilasiga 4 ta tur (5,7 %), Dutisidae oilasiga 1 ta tur (1,4 %) Cyrinidae oilasiga 1 ta tur (1,4 %), Silphidae oilasiga 4 ta tur (5,7 %), Ipidae oilasiga 2 ta tur (2,8 %), Buprestidae oilasiga 2 ta tur (2,8 %), kiradi (2- jadval).

Vizildoq qo'ng'izlar qishloq xo'jalik ekinlari zararkunandalarini qirib yo'qotadi. Qo'ng'izlar tabiatda oziqa zanjirida ham o'z o'rni bor. Qo'ng'izlar sutkaning qaysi davrida faol hayot kechirishiga ko'ra, kunduzgi va tungi qo'ng'izlarga bo'linadi. Kunduzgi qo'ng'izlar uchishi, oziqlanishi, ko'payishi sutkaning yorug' davriga to'g'ri keladi. Kech tushishi bilan ular pana joy topib, yashirinib olishi bilan bir-biridan xarakterlanadi. Bugungi kunda hayvonot dunyosi ob'yeqtalarining davlat kadastri ma'lumotlari Buxoro viloyatida uchraydigan qo'ng'izlar turlarining umumiyl miqdori to'g'risida aniq ma'lumot olish imkonini bermaydi. Shuning uchun bu boradagi amaliy ishlarni olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Qo'ng'izlar populatsiyalar sonining davriy o'zgarishi yil fasllari almashinishi bilan bog'liq. Qo'ng'izlar populyatsiyalar sonining nodavriy o'zgarishi muhit sharoitlarida kuzatiladigan tabiiy noqulayliklar — qurg'oqchilik, qish mavsumi odatdag'i qattiq sovuq va yoz mavsumidagi yuqori harorat oqibatida oziq manbalarining qisqarishi oqibatida kuzatiladi. Kuzatishlarimiz olib borilgan hududlarida insoniyatning xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan so'ngi o'n yilliklarda viloyatning cho'l zonasida aholi punktlarining shakllanayotganligi, avtomobil va temir yo'l tarmoqlarining yotqizilishi, cho'l hududidagi suv havzalar tevaragida, yaylovlarda me'yordan ortiq chorva mollarini boqilishi, qamishzor va to'qaylarga o't qo'yish kabi noxush holatlar viloyatda qo'ng'izlar olami vakillarining son jihatdan kamayishiga sabab bo'lmoqda.

Xulosa. Buxoro viloyatida uchrovchi qo'ng'izlarni o'rganish, ularning kadastrini yaratish, doimiy monitoring olib borish amaliy ahamiyatga molik turlarni himoya qilish uchun juda muhimdir. Qo'ng'izlar xilma-xilligi, sistematik tahlili, son dinamikasini o'rganish yo'lidagi chora-tadbirlar qo'ng'izlar dunyosini muhofaza qilish uchun amalga oshirilmoqda. Buxoro viloyatida uchrovchi qo'ng'izlarni o'rganish orqali populyatsiyalarining holatini baholash va ularning o'zgarish tendensiyalarini aniqlash, noyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlarni saqlash yo'llari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish ahamiyatga ega. Tabiatda kamyob va noyob qo'ng'izlar tarqalgan hududlarning o'zlashtirilishi, u yerdagi o'simliklarning chorva mollarini uchun ishlatilishi, sanoatning rivojlanishi bu kabi tabiatning tabiiy boyliklarini qayta tiklab bo'lmash holatga olib kelmoqda. Ularni asrash va himoya qilish, hamda turlarini ko'paytirish kelajak avlod oldidagi bizning burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.R. Rayimov, M.M To'raev, N.Z. Zohirova, Insects fauna on the cucurbit crops of Bukhara region, Eurasian Journal of Academic Research, 2022.B .499-505
2. A.V. Ivanov, "New Data on the Beetle Fauna of the Families Histeridae and Tenebrionidae and the Superfamily Scarabaeoidea of Ustyurt State Natural Reserve, Kazakhstan," Euroasian Entomological Journal 11, 223–235 (2012)
3. Bouchard, P., The Book Of Beetles. Chicago: The University of Chicago Press. 2014.
4. Bouchard, P., Bousquet, Y., Davies, A., Alonso-Zarazaga, M., Lawrence, J., Lyal, C., Newton, A., Reid, C., Schmitt, M., Slipinski, A. and Smith, A., Family-Group Names In Coleoptera (Insecta). ZooKeys, 2011. 88, pp.1-972.
5. Davletshina, A.G., "Species Composition and Distribution of Tenebrionidae in Biotopes of South-West KyzylKumy," Zoologicheskii Zhurnal 46, 524–533 (1967).
6. L.V. Egorov, T.U. Rakhimov. "Materials to the knowledge of darkling beetles (Coleoptera: Tenebrionidae) of Uzbekistan" Eversmannia Suppl. 5. 2015
7. G.G. Jacobson Die Käfer Russlands und West Europas. Ein Handbuch zum Bestimmen der Käfer. A. F. Devriena, S.-Peterburg', 1915: pp. 865-1024.
8. М. Козлов, и И.Олигер, Школьный Атлас-Определитель Беспозвоночных. Москва: 1991. Просвещение
9. Козлов М.А., Нинбург Е.М., Ваша коллекция. Изд, Просвещение, 1971,160 с.
10. Володичев М.А. Методы учета вредителей // Защита растений. – Москва, 1986. -№6. –С. 15-16.
11. Васильев В.П. и др. Вредители сельскохозяйственных культур и лесных насаждений. Методы и средства борьбы с вредителями, системы мероприятий по защите растений. –Киев: Урожай, 1975. Т.3. –С. 528.
12. Адашкевич Б.П. Биологическая защита крестоцветных овощных культур от вредных насекомых. - Ташкент: Фан, 1983. — 200 с
13. Фасулати К.К. Полевое изучения насекомых беспозвоночных. –М.: Высшая школа, 1971. — 96 с.
14. Палий В.Ф. Методика фенологических и фаунистических исследований насекомых. –Фрунзе: Изд-во АН Киргизской ССР, 1966. — 175 с.
15. Плавильщиков Н.Н. Определитель насекомых. – М., 1950. — 542 с.
16. <https://play.google.com/store/apps/details?id=ua.agrosoftex.determinant2&hl=ru>
17. <https://insects.space/ru/>
18. <https://www.insectidentification.org/bugfinder-start.asp>

UDK 595.42

XORAZM VILOYATI G'O'ZA DALALARI SHAROITIDA O'RGIMCHAKKANA TARQALISHI

R.S. Ro'zmetov, katta ilmiy xodim, Xorazm Ma'mun akademiyasi, Xiva

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazm viloyati sharoitidagi g'o'za dalalarida o'rgimchakkananing tarqalishi, hududning joylashgan o'rniqa bog'liq ravishda zararlanishga moyil va moyil bo'limgan maydonlar ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: G'o'za, o'rgimchakkana, hudud, tarqalish, moyillik, zarar.

Аннотация. В данной статье показано распространение паутинный клещ на хлопковых полях в условиях Хорезмской области, а также на участках, подверженных и не подверженных заражению, в зависимости от местоположения территории.

Ключевые слова: хлопчатника, паутинный клещ, территория, распространение, предрасположенность, повреждение.

Abstract. this article shows the spread of the spider in cotton fields in the conditions of the Khorezm region, as well as in areas susceptible and not susceptible to infection, depending on the location of the territory.


Keywords: cotton, Spider, territory, spread, predisposition, damage.

O‘zbekistonda paxta yetishtirish yuzasidan qator ishlar amalga oshirilib yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda. Qishloq xo‘jaligi vazirligi matbuot xizmati ma’lumotlariga ko‘ra, joriy yilda 140 ta paxta-to‘qimachilik klasterlari va 32 mingga yaqin fermer xo‘jaliklari tomonidan 136 ta tumanda 1 million 12 ming hektar yerga soha olimlari tavsiyalari asosida hududlarning tabiiy iqlim sharoitiga mos 28 ta rayonlashgan va 17 ta istiqbolli g‘o‘za navlari ekilgan. Serhosil va tola sifati yuqori bo‘lgan 8 ta g‘o‘za navlari maydoni 157 ming hektarga kengaytirildi va ertapishar navlar maydoni 78 foizga yetkazilgan. Davlat tomonidan me’yoriy hujjatlar qabul qilingan: Paxta xomashyosini yetishtirish va paxta yig‘imterimi xarajatlarini kreditlash hamda ularni realizatsiya qilishning qo‘sishimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida[6].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.12.2023 yildagi 680 sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan 15.12.2023 yildagi «Paxtachilikda urug‘chilik tizimini rivojlantirish hamda paxta hosildorligini oshirishning qo‘sishimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-391-sون Qaror imzolandi. Qabul qilingan me’yoriy hujjatlarga asosan 2024 yil 1 yanvardan boshlab O‘simgiliklar karantini va himoyasi agentligi hamda Prezident huzuridagi Paxtachilik kengashi mutaxassislari nazorati ostida tajriba-sinov tariqasida yuqori hosildor xorijiy g‘o‘za navlari va duragaylarini olib kirish hamda paxta-to‘qimachilik klasterlari va fermer xo‘jaliklari tasarrufidagi paxta ekiladigan maydonlarning 10 % gacha joylashtirishga, istisno tariqasida ruxsat beriladi[5,7].


O‘rgimchakkana hamma o‘simgilik navlarni bir xilda zararlamasligi jahon olimlari tomonidan o‘rganilgan [1]. Ma’lum navlarda o‘rgimchakkana rivojlanishi deyarli to‘xtagan. Zararkunanda tuxum qo‘yishi o‘rganilganda pushdorligi ham kamaygan. Keyingi yillarda bunday tadqiqotlar turk olimlari tomonidan ko‘proq olib borilmoqda [3,4]. O‘zbekistondagi g‘o‘za dalalari sharoitida o‘rgimchakkana rivojlanishi samarali harorat yig‘indisiga bog‘liqligi yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan [2]. Chetdan g‘o‘za navlarini keltirilishi zararkunandalar tomonidan zararlanishini monitoring qilib borish va qaysi maydonlarga joylashtirish yuzasidan ma’lumotlar olish imkonini yaratadi.

Biz Xorazm viloyatining daryoga yaqin bo‘lgan Xonqa, Yangibozor va qum atrofida bo‘lgan Qo‘siko‘pir, Xiva tumanlaridan 5 tadan g‘o‘za dalalarini o‘rgimchakka tarqalishini o‘rganish maqsadida tanlab oldik. Dalalar tasodifiy tanlash usulida tanlab olindi. Har bir daladan diagonal boylab 100 o‘simgilik tekshirildi. 10 bargdagi o‘rgimchakkalar soni sanaldi va o‘rtacha qiymati hisoblab topildi. Zararlangan barglar soni va zararlangan o‘simgiliklar foizi hisoblab topildi. Tajriba olib borilgan tumanlarning xaritalari <https://www.google.com/intl/ru/earth/about/> sayt yordamida tayyorlandi (1-rasm). Daladan olib keltirilgan namuna LEICA EZ4D rusumli raqamli mikroskop yordamida suratga olindi.



1-rasm. Xorazm viloyatida Tajriba olib borilgan dalalar xaritasi

Daladan namunalar olib kelinib mikroskop ostida morfologik tahlil qilin mikroskopda ko'rinishi suratga olindi (2-rasm) sistematik tahlil qilindi. Eukatiotlar, hayvonot olami, bo'g'imoyoqlilar tipi, O'rgimchaksimonlar sinfi, Trimbidiform kanalari, o'rgimchakkalar oilasi, avlod *Tetranychus*, *Tetranychus urticae*




2-rasm Zararlangan barg



3-rasm. O'rgimchakkana

Tanasi oval shaklda, bo'yi 0,3-0,6 mm ga boradi. Uning bahor-yozdag'i bugini ko'kish-sariq, qishlab chiqadiganlari esa to'q sariq-qizil bo'ladi. Tanasining yon tomonlaridagi ikkita qoramtil dog'lari yaqqol ko'rilib turadi. Urg'ochisi rivojlanishida tuxum, lichinka, pronimfa, deytonimfa va yetuklik (imago) davrlarini kechiradi. Tuxumi yumaloq shaklda bo'ladi.




4-rasm. Bitta bargdagi o'rgimchakkananing o'rtacha soni

5-rasm. O'simlikdagi zararlangan barglar soni

Qo'shko'pir tumanidagi dalalar o'rganilganda bitta bargdagi o'rgimchakkana soni (4- rasm) iyun oylarida kam bo'lib iyul oyida ortib ketganligini ko'rish mumkin.avgust oylarida yana ularning

kamaya borgan. O'simlikdagi zararlangan barglar soni ham xuddi shu tartibda iyul oyi sonining ortishi kuzatildi. Bitta bargdagi o'rgimchakkana soni Yangibozor, Xonqa tumanlarida kam bo'lishi, Qo'shko'pir, Xiva tumanlarida yuqori bo'lishi kuzatildi (5-rasm). Xonqa tumanida deyarli uchramadi.

Daladagi zararlangan o'simliklar soni o'rganilganda ham Qo'shko'pir, Xiva tumanlarida iyun oyidan boshlab zararlanish ortganligini ko'rish mumkin.



6-rasm Zararlangan o'simliklar soni (foiz hisobida)

Zararlangan o'simliklarning foiz miqdori Xonqa tumanida juda kam bo'lib Qo'shko'pir, Xiva tumanlarida ko'proq bo'lishi kuzatildi. Avgust oyida zararlangan o'simliklar sonining kamayishi kuzatilgan. O'rgimchakkana ko'payishi bilan fermerlar tomonidan ularga qarshi kurash choralari olib borilganligi sababli dalada avgust oyida ularning soni va zarari kamayganligini ko'rish mumkin. Olingan natijalardan ko'rish mumkinki, daryoga yaqin bo'lgan hududlarda o'rgimchakkana bilan zararlanishga moyillik kamayishi, qumga yaqin hududlarda esa o'rgimchakkana bilan zararlanishga moyillikning ortishi kuzatiladi. Olingan natijalarga asoslanib g'o'za navlarini joylashtirishda yoki tumanlashtirishda qumga yaqin bo'lgan hududlarga imkon boricha o'rgimchakkana bilan zararlanishga chidamli navlarni joylashtirish zarur deb ko'rsatish mumkin. G'o'za navlarini yaratishda o'rgimchakkana bilan zararlanishga moyilligini baholash muhim elementlardan biri hisoblanadi. Ular namlikni ortishi bilan hayot faoliyati susaya boradi. Tajribalarimizda o'rgimchakkana bilan zararlangan baland bo'yli dalalardagi g'o'zalar sug'orilgach o'rgimchakkanalar ko'pchiligi nobud bo'lganlik holatlari ham kuzatildi. O'rgimchakkana asosan iqlimi quruq bo'lgan hududlarda, suv tanqis bo'lgan dalalarda ko'proq tarqalishi yuzasidan ma'lumotlar mavjud.

Xulosa qilib aytish mumkinki Xorazm viloyatining qum atrofidagi g'o'za dalalari o'rgimchakkana bilan zararlanishga moyilligi aniqlandi. Shunday holat mavjud bo'lganligi uchun o'rgimchakkanaga chidamli g'o'za navlarini aniqlab ularni qum atrofidagi maydonlarga ekishni tavsiya qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kranthi K. R. et al. Insecticide resistance in five major insect pests of cotton in India Crop protection. 2002. T. 21. S. 449-460.
2. Esanbaev Sh, Raxmanov A. X, Karanov A. A. G'o'zning asosiy so'ruchchi zararkunananalariga qarshi kurash yug'unlashgan kurash tizimidan foydalanish O'zbekiston agrar fani xabarnomasi N 3 9/2 2023 167 b.
3. Erdogan, P., Yildirim, A. and Sever, B. 2012 Investigations on the effects of five different plant extracts on the two spotted spider Tetranychus urticae Koch (Arachnida: Tetranychidae). Psyche, (10): 1155- 1159
4. Nazife Sulek, Ibrahim Chakmak 2024 Performarce of Tetranychus urticae (Acari: Tetranychidae) on six cotton varieties with varying degree Systematic and Applied of leaf pubeserse acarology vol 29 No 1 2024
5. <https://lex.uz/uz/docs/-6705749>
6. https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/pahta_hosildorligi_qanday_oshiriladi?ysclid=lse8c6oukn9531953

UO'K 504.75

OQOVA SUVLARINING INSONLAR SALOMATLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH

N.J.Shakarov, k.f.n.,dots., Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, Samarqand

M.N.Nomirov, o'qituvchi, Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, Samarqand

G.B.Eshmuradova, o'qituvchi, Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, Samarqand

Annotatsiya. Ushbu ishda oqova suvlarni yer yuzasidagi tabiiy suvlar tarkibida 65 ga yaqin mikroelementlar aniqlangan bo'lib, ulardan 20 tasi insonlar, jonivorlar va o'simliklar hayoti uchun juda ham muhimdir. Ular tirik organizmlar va o'simlik to'qimalarida, shuningdek hayvonlar tanasida faol moddalar bilan birikib, muhim biokimyoiy jarayonlarda qatnashadilar.

Kalit so'zlar: oqova suv, suv tarkibidagi makro va mikro elementlar, kasallik chaqiruvchi bakteriyalar, kimyoviy moddalar.

Аннотация. В данной работе в составе природных вод поверхности сточных вод определено около 65 микроэлементов, 20 из которых очень важны для жизнедеятельности людей, животных и растений. Они соединяются с активными веществами в живых организмах и тканях растений, а также в организме животных и участвуют в важных биохимических процессах.

Ключевые слова: сточные воды, макро- и микроэлементы в воде, болезнетворные бактерии, химические вещества.

Abstract. In this work, about 65 microelements were identified in the composition of natural waters on the surface of wastewater, 20 of which are very important for the life of people, animals and plants. They combine with active substances in living organisms and plant tissues, as well as in the body of animals and participate in important biochemical processes.

Key words: wastewater, macro- and microelements in water, pathogenic bacteria, chemicals.

Sayyoramizdag'i barcha suvlar tabiatdagi eng oddiy moddalardan biri bo'lib, lekin yerda hayot davom etishi uchun uning xizmati beqiyosdir. Suv juda tabiiy jarayonlarni borishida asosiy rolni o'ynaydi. Yerning assosiy 2/3 qismi suvdan iboratdir. Yerdagi mavjud barcha moddalarning tarkibida suv uchraydi. Insonlar tanasining 65% i suvdan iboratdir, uning miyasini 85% ini suv tashkil etadi. Birorta tirik organizmlarning, o'simliklarning hayotini suvsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Shuning uchun tabiiy suvlar tarkibida 65 ga yaqin mikroelementlar aniqlangan bo'lib, ulardan 20 tasi insonlar, jonivorlar va o'simliklar hayoti uchun juda ham muhimdir. Ular tirik organizmlar va o'simlik to'qimalarida, shuningdek hayvonlar tanasida faol moddalar bilan birikib, muhim biokimyoiy jarayonlarda qatnashadilar. Tirik organizmlar hayoti, ayniqsa, inson salomatligiga Cu, Zn, J, Mn, Co, Fe kabi mikroelementlar hamda Ca, K, Na, P singari kimyoviy elementlar nihoyatda zarur. Lekin bunday makro va mikroelementlar tirik organizmlar uchun juda oz miqdorda kerak bo'ladi. Shuning uchun, ularning me'yорини bilish muhim ahamiyatga ega. Bu moddalar organizmga suv, oziq-ovqat mahsulotlari bilan kirib, uning elementlarga bo'lgan ehtiyojini qondirib turadi. Agar makro va mikroelementlar organizmlarda yetishmasa turli, kasalliklar kelib chiqadi. Masalan, inson organizmida yod elementi me'yор darajasida bo'lmasa, buqoq kasalligi, (Ca) kalsiy va (F)ftor elementi yetishmasa tishlarning "karies" kasalligi kelib chiqadi. Aksincha (Ca) kalsiyning me'yorida ko'p bo'lish buyrakda tosh hosil bo'lishiga, (F)ftor esa „flyuroz“ kasalligining kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Demak yer yuzida yashovchi har qanday tirik mavjudot massasining asosiy qismini suv tashkil qiladi. Shunday qilib, balog'at yoshiga yetgan kishilar tana og'irligining yarmidan ko'p qismini suv tashkil qiladi. Yoshi ulg'ayib borishi bilan inson tanasida yog' to'planishi tezlashib, suv miqdori kamayib boradi. Organizmdagi suvning 70% i protoplazmalar to'qimasida, 7% i qon tomirlarida, 23% i to'qimalarni yuvib turish uchun sarf bo'lar ekan. Ovqat hazm qilish jarayoni organizmning suv muhitida kechadigan asosiy manbalardan biridir. Suv har qanday oziq-ovqat mahsulotini erituvchi zarur erigan eritma hamdir. Suv bilan birgalikda ozuqa moddalar oqsil, uglevodlar, yog'lar va mineral

tuzlar, oshqozonga va ichakka so'rilib, qon tarkibiga o'tadi. Qon bilan esa organizm bo'ylab teng tarqaladi. Suvni organizmdan chiqarib yuboruvchi muhim yo'l buyrak orqali chiqarib yuboriladi. Buyrak orqali odam organizmdan sutkasiga 1000 litr qon bilan birga suvning yarmi ham o'tadi. Bunda qon keraksiz moddalardan tozalanadi. Bu moddalarni esa organizmning turli a'zolaridan suvni olib chiqadi. Odam organizmida ro'y beradigan murakkab jarayonlardan so'ng suvning bir qismi siydiq orqali chiqib ketadi. Shuning uchun ham olimlar tomonidan suv va undagi kimyoviy moddalarning inson organizmiga ta'siri masalasi qadimdan muammo bo'lib kelgan. Shuning uchun, suvning kimyoviy tarkibi turli kasalliklar kelib chiqishida muhim rol o'ynadi. Masalan, ichak tayoqchalar, ichterlama bakteriyalari, dizenteriya mikrobi, vabo vibrioni, tulyaremiya (kuydirgi) mikrobi, brusellyoz mikrobi va boshqalar kiradi.

Hozirgi kunda aksariyat ishlab chiqarish korxonalarida toza suv ko'p miqdorda ishlatilib, yaxshi tozalanmasdan ochiq suv havzalaridagi tabiiy suvning kimyoviy tarkibi o'zgarib ketmoqda. Bu hol aholi orasida yuqorida ko'rsatilgan bakteriyalar ta'sirida har xil kasalliklarning tarqalishiga sabab bo'lmoqda.

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar tabiiy suvlar tarkibida suvning qattiqlik ko'rsatkichini belgilovchi kalsiy va magniy tuzlari bilan birga yana 12 ta element Be, B, Cd, K, Na va boshqa elementlar doim birga uchrashi, ular o'rtasida bog'liqlik borligini ko'rsatadi. Qattiqlik xususiyatiga ega bo'lgan suvdan ko'p iste'mol qilinganda organizmda ya'nii CaCO_3 , MgCO_3 tuzlari odamning o't va siydiq qopida, siydiq yo'lida va buyrakda toshlar paydo bo'ladi. Aholi o'rtasida suv orqali bo'ladigan va yuqadigan kasalliklarning kelib chiqishida ichimlik suvlari tarkibidagi azot gidridlar va azot nitratlar indikator rolini o'ynaydi. Bu moddalar bilan zaharlangan kishilarda quvvatsizlik, rangsizlik kabi alomatlar kuzatiladi. Odatda, nitratlar qonda metgemoglobin hosil qilmasa-da, dispepsiya, disbakterioz kasalliklari ta'sirida azot nitratlar azot nitritlarga aylanadi, nitratlarning ichaklarda so'riliishi qondagi metgemoglobin miqdorini oshirib yuboradi.

Keyingi yillarda gigiyenistlar e'tiborini jalb etayotgan omil nitrozaminlar bo'lib, ular sanoatda keng qo'llaniladi. Ular suv havzalarida ham, tabiiy holda ham inson organizmida sintezlana oladi. Ular sug'oriladigan yerlardan suv havzalariga quyiladi va tarkibida ushbu moddalar mavjud bo'lgan suvlardan foydalanish natijasida inson organizmiga o'tadi.

Hozirgi kunda aholini gigiyena talablariga javob beradigan toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, insonlar salomatligini muhofaza qilishning asosiy omillaridan bo'lib qolmoqda. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, suv orqali tarqaladigan yuqumli kasalliklardan asrash va suvning kimyoviy tarkibini o'zgarishidan kelib chiqadigan zaharlanishlarni oldini olish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun suvning sifati va tabiiy holatining buzilishi, ular tarkibida yuqumli kasalliklar qo'zg'atuvchi mikroorganizmlar va gijja tuxumlarining hamda turli kimyoviy moddalar miqdorining ko'payib ketishi, albatta, inson salomatligiga ziyon yetkazadi. Xavfli yuqumli kasalliklarning quyidagi turlari mayjud bo'lib, ichburug', gepatit, qorin tifi, paratif, diareya kabi kasalliklarni kelib chiqishida suv asosiy rol o'ynaydi. Suv havzalarida vabo vibrioni, vabo, ichterlama, ichburug' mikroblarning ko'payishi aholi orasida aynan shu kasalliklarning tarqalishiga sabab bo'ladi. Keyingi paytlarda ichak kasalliklarining, sariq, poliomielit va boshqa kasalliklarining tarqalishida suv tarkibidagi bakteriyalarning roli katta ekanligi aniqlangan. Chunki ular suv muhitida uzoq muddat yashashlari mumkin. O'zbekistonda suv orqali tarqaladigan ichak kasalliklarining 70-80% i hovuz, ariq va kanal suvlarini ichish, 8-13% kanal va katta ariqlar suvlarida cho'milish, 5-8% ifloslangan quduq suvlardan iste'mol qilish natijasida sodir bo'lmoqda. Bunday kasalliklar goho yetarlicha zararsizlantirilmagan vodoprovod suvlarni ichishdan ham yuqish mumkin. Juda ko'p kanalizatsiya suvlari tozalanmasdan, axlatlar, zararsiz holatga keltirilmasdandan ochiq suv havzalariga tashlanishdan daryo suvlari mikroblarning ortib borishga sabab bo'lmoqda.

1-jadval

Bakteriyalarning suv manbalarida yashash kunlari

Bakteriya nomi	Vodoprovod suvida	Daryo suvlarida	Quduq suvlarida
Ichak tayoqchalar	2-262	21-183	-
Ichterlama bakteriyalari	2-93	4-483	15-107
Dizenteriya mikroblari	15-26	19-92	-
Vabo vibrioni	4-28	05-92	1-92

Tulyaremiya (kuydirgi) mikrobi	92 kungacha	731	12-16
Brusellyoz	2-85	-	4-122

Qiziqarlisi shundaki, ichak kasalliklarining keltirib chiqaruvchi mikroblar tashqi muhitning murakkab omillari ta'sirida o'zgarib, o'zining kasallik keltirib chiqarish jarayonlarini keltirib chiqarmoqda.

Buning uchun oqova, vodoprovod va kanalizatsiya qurilmalarni tozalashda ichki organlarda uchraydigan kasallik tarqatuvchi infeksiyalarning suvgaga tarqalishga yo'l qo'ymaslik kerak. Oqova suvlari dagi bakteriyalarni batamom yo'q qilib, suv tozalash samaradorligini odatda, 90-95% tashkil etadi. Suv tozalash inshootlarida koagulyatsiyani amalga oshirish suvni tindirish va filtrlash, odatda, tabiiy suvdagi mikroflora va mikrofaunalarni yo'q qilishning asosiy qismini tashkil etadi. Demak ichimlik suvi orqali bir qancha xavfli yuqumli kasalliklar tarqalishi mumkin. Shuning uchun ichimlik suvlarni zararli oqova suvlardan, chiqindilardan va boshqa ifloslantiruvchi moddalardan ya'ni suv tarkibidagi organik, anorganik tuzlarni, tindiruvchi koogulyantlar, flokulyantlar, zanglashga qarshi moddalar me'yorlarni ilmiy tajribalar orqali hal etishni bugungi kunda mavjud davlat standartlarni takomillashtirishni taqozo qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.N.Musayev Sanoat chiqindilarini tozalash texnologiyasi asoslari Toshkent-2011
2. M.Xoljiddinova, A.Rizayev. Suv komyosi va mikrobiologiya Toshkent-2010
- 3.G.D.Shamsiddinova, D.A.Karimova. Kimyoviy ekologiya Toshkent-2010
- 4.P.S.Sultonov, B.P.Ahmedov. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari Toshkent-2004
- 5.R.Egamberdiyev, R.Eshchanov. Ekologiya asoslari. Toshkent-2004

UO'K 574.5

ANTROPOGEN OMILLARNING ZULUKLAR POPULYATSİYASIGA TA'SIRI

X.X.Solijonov, b.f.f.d., v/b. dots., Andijon davlat universiteti, Andijon

F.U.Umarov, b.f.f.d., v/b. dots., Andijon davlat universiteti, Andijon

Z.I.Izzatullayev, b.f.d., prof., Samarqand davlat universiteti, Samarqand

S.R.Maxsudova, magistrant, Andijon davlat universiteti, Andijon

Annotatsiya. Maqolada antropogen omillarning zuluklar populyatsiyasiga ta'siri Qoradaryoning yuqori, o'rta va quyi qismlaridagi biotoplarda tahlil qilingan. Olingan natijalarga ko'ra daryo oqimining yuqori qismidan quyi qismiga tomon zuluklarning turlar xilma-xilligi kamayishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: Antropogen omil, populyatsiya, Qoradaryo, zuluk, ifloslanish, maksimal ruxsat etilgan konsentratsiya (MREK).

Аннотация. В статье анализируется влияние антропогенных факторов на популяцию пиявок в биотопах верхнего, среднего и нижнего течения Карадарья. Согласно результатам, видовое разнообразие пиявок уменьшается от верхнего участка реки к нижнему.

Ключевые слова: Антропогенный фактор, популяция, Карадарья, пиявка, загрязнение, предельно допустимая концентрация (ПДК).

Abstract. The article analyzes the influence of anthropogenic factors on the population of leeches in the biotopes of the upper, middle and lower parts of Kara Darya. According to the results, the species diversity of leeches decreases from the upper part of the river to the lower part.

Key words: Anthropogenic factor, population, Kara Darya, leech, pollution, maximum permissible concentration (MPC).


Kirish. Dunyoda ekotizim barqarorligini ta'minlashda bioxilma-xillik komponentlaridan oqilona foydalanish muhim hisoblanadi. Biroq, insoniyatning tabiatga salbiy ta'siri oqibatida, bioxilma-xillikni saqlash, xususan, hayvonot dunyosini muhofaza qilish muammolari yuzaga kelmoqda. Jumladan, zuluklarning noyob va foydali turlarining kamayishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois, tabiiy suv ekotizimlarida tarqalgan zuluklarning tur tarkibini aniqlash, tarqalgan biotoplarini o'rganish, ularga tabiiy va antropogen omillar ta'sirini baholash, ekologik xususiyatlarini tadqiq etish, tabiatda va xo'jalikdagi ahamiyatini tahlil qilish, muhofazaga muhtoj turlarni himoya qilish muhim

hisoblanadi [3]. Zuluklarga antropogen omillarning salbiy ta'sirini O'zbekistonning eng sharqiy qismidagi Qoradaryo suv biotoplarida o'rgandik.

Adabiyotlar tahlil qilinganda, Qoradaryo gidrobiontlarining tadqiq etish XIX asrdan boshlanib, 1872-yilda I.I.Skornyakov Andijon viloyatining Bاليقchi tumani hududidan *Hirudo* va *Erpobdella* urug'iga mansub namunalarni terganiligini keltiradi [9]. Keyinchalik, 1948-yilda A.I.Yankovskaya tomonidan Qoradaryo gidrobiontlarini o'rganishga oid tadqiqtolar olib borildi. Natijalardan ma'lum bo'ldiki, tadqiqt hududi gidrobiontlarning bioxilma-xillligi juda kamligi aniqlandi. Buning sababi sifatida suv hajmining keskin ortib-kamayishi hamda daryo suvining loyqaligi yuqori darajada ekanlidir. Biroq, olim tomonidan Qoradaryo suv biotoplaridan zuluklarni keltirmagan [10]. Yurtimizning yetuk ixtioparazitologi S.O.Osmanov 1971-yilda yozgan monografiyasida baliqlarning ektoparazit zuluklaridan *Piscicola geometra* (Linnaeus, 1758) ni uchratgani bayon qilgan [8]. So'nggi yillarda (2018-2023) tadqiqt hududi zuluklarini o'rganishga oid izlanishlar X.X.Solijonov va Z.Izzatullayevlar tomonidan berilgan [4]. Mualliflar tomonidan Qoradaryo girudofaunasi va ularning populyatsion ko'rsatkichlariga oid yangi ma'lumotlarni aniqlash hamda zuluklarga antropogen omillarning ta'sirini o'rganishni maqsad qilib oldi.

Material va metodika. Qoradaryo – Sirdaryoning asosiy boshlang'ich irmog'i bo'lib, Tar va Qorag'ulja daryolarining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Qoradaryo havzasida hidrobiologik tadqiqtolar olib borgan olimlardan biri A.Boltaboyev (1971) tomonidan Qoradaryoni 3 qismga ajratilgan: yuqori oqimini Tar va Qoraqo'lja daryolari qo'shilgan joydan Andijon suv omborigacha; suvombordan Kuyganyorgacha o'rta oqim va undan keyin to Norin bilan qo'shilgan joygacha bo'lgan qismini quyi oqim deb ajratgan [3].

Tadqiqtolarda zuluklarga antropogen omillarning salbiy ta'sirini tahlil qilish maqsadida mualliflar tomonidan Andijon viloyati hududining sharqiy chegarasidan g'arbiy chegarasigacha bo'lgan masofadagi Qoradaryo daryosini shartli ravishda uchta: yuqori, o'rta va quyi qismlar (stansiyalar)ga ajratib olindi va namunalar yig'ildi (1-rasm). Yuqori qism sifatida Andijon suv omboridan boshlanish joyi (Xonobod shaharcha, Sultonobod qishlog'i – $40^{\circ}47'09.2''N$ $72^{\circ}59'32.2''E$), o'rta qismi sifatida Asaka tashlamasi quyladigan joyi (Oltinko'l tumani, Saroy MFY – $40^{\circ}48'53.2''N$ $72^{\circ}09'14.8''E$) va quyi qismi sifatida Norin daryosi bilan qo'shilish joyi (Bاليقchi tumani – $40^{\circ}54'57.5''N$ $71^{\circ}50'21.4''E$) belgilab olindi [4].



1-rasm. Tadqiqt olib borilgan Qoradaryoning 3 ta hududi: A- quyi, B-o'rta va D-yuqori qismlari

Tadqiqt materiallari 2020-2023 yillarda Qoradaryo daryosini 3 ta qismlari asosida hidrobiologik asboblar va qo'lida terildi. Ularni ichki va tashqi morfologiyasini o'rganish stereomikroskop (rusumi Bresser ETD-201, Germaniya) orqali amalga oshirildi. Turlarni aniqlash

hamda sistematik tarkibini shakllantirishda I.Lukin (1976) va F.Govedich (2019) uslublari hamda xalqaro darajadagi sistematik resurs bazalaridan foydalanildi [1, 7, 11].

Suvning gidrokimyoviy ko'rsatkichlari asosida tahlil qilishda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Andijon viloyat boshqarmasining 2020-2023 yillar davomidagi ma'lumotlaridan foydalanildi.

Olingen natijalar va ularning muhokamasi. Adabiyot tahlillari va olingen natijalar orqali aytish mumkinki, har bir tur o'ziga xos ekologik valentlikka ega hisoblanadi [6]. Jumladan, tibbiyot zuluklari *Hirudo verbana* Carena, 1820, *Hirudo orientalis* Utevsky & Trontelj, 2005 uchun suvning pH-6,8-8,6, iliq harorat 20-27°C, botqoqli, o'simliklarga boy litoral zonada tarqalgan bo'lsa-da, inson xo'jalik faoliyatlari orqali suvlarning ifloslanishi natijasida Qoradaryoning o'rta va quyi qismlarida populyatsiyalari yo'q bo'lib ketganligi aniqlandi. *Alboglossiphonia hyalina* (Müller, 1774), *Alboglossiphonia weberi* (Blanchard, 1897) va *Limnatis paluda* (Tennent, 1859) zuluklari kamroq ifloslangan o'rta qismida uchrasada, ko'proq antropogen omillarning salbiy ta'sirida qolgan quyi qismida uchratilmadi. Kosmopolit tur bo'lgan *Helobdella stagnalis* (Linnaeus, 1758) hamda yirtqich zuluklardan *Haemopis sanguisuga* (Linnaeus, 1758), *Erpobdella octoculata* (Linnaeus, 1758), *Erpobdella nigricollis* (Brandes, 1900) turlari organik ifloslanishga nisbatan ekologik valentligi yuqori bo'lganligi sababli, ularning barcha qismlarida tarqalgan (1-jadval).

Buning birinchi sababi, daryoga mahalliy qishloq xo'jaligidan foydalanilgan kimyoviy moddalar (pestitsid, gerbitsid, minerallar qoldig'i) bilan ifloslangan suvlar quyilishi bo'lib, natijada suvdagi maksimal ruxsat etilgan konsentratsiya (MREK) limitlari ortib ketgan. Keyingi sababi, sanoat korxonalari ("Andijonbank" OAJ qo'shma korxonasi, "VS Yuksak tex" korxonasi va boshqalar) hamda kanalizatsiya suvlari tozalovchi "Andijon shahar oqava suvlarni tozalash inshooti" faoliyati natijasida daryo suvining og'ir metallar bilan hamda organik ifloslanishda bosh omillardan biri bo'lmoqda (1-rasm). Bu o'z navbatida, ko'plab gidrobiontlar qatori, noyob bo'lgan tibbiyot zulukning tarqalishini va ko'payishini cheklab qo'ymoqda.

1-jadval

Qoradaryoning turli qismlarida tarqalgan zuluklar

Nº		.	weberi					paluda			
											0
	O'rta qism		+		-	-	+	+	+	+	7
		-	-	+	-	-	-	+	+	+	4


Ma'lumki, suv havzalarini doimiy monitoring qilish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi suv havzalarida suvni muhofaza qilish bo'yicha gigiyenik va epidemiyaga qarshi talablari (SanPiN O'zR №0318-15) ishlab chiqilgan [2]. Ushbu hujjatda qishloq xo'jaligi, sanoat, suvni tozalash inshootlari tomonidan suv havzalariga tashlanishi mumkin bo'lgan suvdagi maksimal ruxsat etilgan konsentratsiya (MREK) limitlari belgilab qo'yilgan. Xususan, vodorod ko'rsatkichi pH-6,5-8,5; suvning minerallashuvi (quruq qoldiq) 1000 mg/l; xloridlar 350 mg/l; sulfatlar 500 mg/l; azot nitritlar 0,08 mg/l; erigan kislород 4 mg/l; kislороддаги biologik ehtiyojga (KBE₅) 3 mg/l; kislороддаги kimyoviy ehtiyoj darajasi (KKE) 15 mg/l bo'lishligi keltirilgan.

Biroq Qoradaryoning yuqori qismidan quyi qismi tomon MREK limitlari ortib borishi kuzatildi. Tahlillardan xulosa qilish mumkinki, suvda erigan kislород miqdori daryoning yuqori qismida 8 mg/l, o'rta qismida 6 mg/l va quyi qismida 4 mg/l ko'rsatkich bo'lib, oksiofil bo'lgan *P. geometra* zulugining tarqalishini cheklaydi (2-rasm).

Tibbiyot zuluklari *Hr. verbana* va *Hr. orientalis* kabilar Qoradaryoning quyi qismida umuman tarqalmaganligi izlanishlarda ma'lum bo'ldi. Chekllovchi omil sifatida mahalliy brakonyerlar tomonidan tijoriy maqsadlarni ko'zlab tabiatda qoldirmasdan yig'ib olishi sabab bo'lgan.

Tadqiqot hududi bo'ylab amalga oshirgan kuzatishlarimizda mahalliy aholi bilan suhbat qurganimizda, 15-20 yillar avval Andijon viloyatining Bo'ston, Ulug'nor, Izboskan, Baliqchi

tumanlarida tibbiyot zuluklari doimiy uchraganligini tasdiqlashdi. Biroq, hozirgi kunga kelib ularning juda oz sonli, tarqoq populyatsiyalari faqatgina Qoradaryoning atrofidagi zovurlar, buloq irmoqlari va ayrim botqoqli sholipoyalarda (Qo'rg'ontep, Xo'jaobod va Oltinko'l tumanlari) saqlanib qolganligi o'z isbotini topdi [5].



2-rasm. Qoradaryo suv havzasining 2020-2023 yillar davomida turli qismlaridagi o'rtacha gidrokimiyoviy ko'rsatkichlari

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, Qoradaryo suv havzasiga qishloq xo'jaligi, sanoat korxonalarini va suvni tozalash inshootlari tomonidan oqova suvlarining to'liq tozalanmasdan tashlanishi natijasida suvdagi MREK limitlari ortib bormoqda. Buning oqibatida, zuluklar tur tarkibi va populyatsiyalari qisqarishiga yuzaga kelmoqda. Shuningdek, noyob tibbiyot zuluklarini brakonyerlar tomonidan ayovsiz tabiatdan ajratib olishlari ortidan ular qisqarib borayotgan, mozaik tarqalgan tur maqomida bo'lib qolmoqda. Bu o'z navbatida soha mutaxassislaridan atrof-tabiyyi muhitni asrash va tabiatdan oqilona foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Minnatdorchilik. Ushbu tadqiqot Samarqand davlat universitetining ALM-202303153-01 sonli "O'zbekiston zuluklari (Hirudinea): turlar tarkibi, bioekologik xususiyatlari, suv tiplarida tarqalishi, xo'jalikdagi ahamiyatini o'rganish va noyob turlarni muhofaza qilish choralarini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida amalga oshirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Govedich F.R., Moser W.E., Nakano T., Bielecki A., Bain B.A., Utevsky S. Subclass Hirudinida. In D.Ch.Rogers & J.H.Thorp (Eds.), Thorp and Covich's Freshwater Invertebrates Volume IV: Keys to Palaearctic Fauna 2019. – P. 491-507.
- O'zbekiston Respublikasi hududidagi suv havzalarida suvni muhofaza qilish bo'yicha gigienik va epidemiyaga qarshi talablari (SanPiN O'zR №0318-15)
- Solijonov X.X. Farg'ona vodiysi zuluklarining (Hirudinea) tur tarkibi va ekologik xususiyatlari (O'zbekiston). Biologiya fanlari falsafa doktori (PhD) dissertasiyasining avtoreferati. Andijon, 2023. – 48 b.
- Solijonov X.X., Izzatullayev Z. Farg'ona vodiysining Qoradaryo suv havzasi zuluklari tur tarkibi va ekologik xususiyatlari. Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar. – Qo'qon, 2021. – № 3. – B. 28-34.
- Solijonov X.X., Izzatullayev Z. Farg'ona vodiysi zuluklarining bioxilma-xilligi va noyob turlarni muhofaza qilishga oid tavsiyanoma. – Andijon, «Andijon nashriyot-matbaa», 2022 y. – 24 b.
- Климина О.М. Эйдэкология гирудофауны Ульяновской области. Автореферат дисс. на соис. уч. степ. канд. биол. наук. Ульяновск, 2009. 24 с.
- Лукин Е.И. Пиявки пресных и солоноватых водоёмов. В серии: Фауна СССР. Пиявки. Т.1. 1976. Л., Издво «Наука», — 484 с.
- Османов С.О. Паразиты рыб Узбекистана Т.: 1971. – С. 229-232
- Плотников В. *Glossosiphonidae, Hirudinidae* и *Herpobdellidae* Зоологиче-ского музея Академии Наук. Ежегодн. Зоол. муз. Акад. наук., X. 1905. – С.133-158.
- Янковская А.И. Материалы к гидробиологии бассейна Кара-Даръи. Известия АН УзССР, 1948, № I, с.60-69.
- Zoologiya nomenklaturasining rasmiy reestri – <https://zoobank.org/> (murojaat etilgan sana: 15.01.2024)

STUDY OF PANCREATIC ENZYMES

*B. B.Takhirov, dos., Bukhara State University, Bukhara
Z. Kakhorova, student, Bukhara State University, Bukhara*

Annotasiya. Maqolada oshqazon osti bezini davolashda ishlatalidigan preparatlar tarkibidagi fermentlar ularninig tabiiy mahsulotlardan olinishi, oshqazon osti bezi fermentarining tuzilishi vazifasi ,funksiyasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *Tripsin va ximotripsin papain, amilaza, karboksipeptidaza, fenilalanin, triptofan, metionin, pankreatin, katabolizm.*

Аннотация. В статье содержатся сведения о ферментах в препаратах, применяемых при лечении поджелудочной железы, их экстракции из натуральных продуктов, строении и функции ферментов поджелудочной железы.

Ключевые слова: *трипсин и химотрипсин, папаин, амилаза, карбоксипептидаза, фенилаланин, триптофан, метионин, панкреатин, катаболизм.*

Abstract. Vstate information on enzymes, ingredients and ingredients of preparations, used in the treatment of pancreatic diseases, extraction of natural products, structure and function of pancreatic enzymes.

Keywords: *Trypsin and chymotrypsin, papain, amylase, carboxypeptidase, phenylalanine, tryptophan, methionine, pancreatin, catabolism.*

Introduction: Most of the drugs used in the treatment of the pancreas contain proteinases of animal and plant origin: papain is obtained from unripe papaya fruits and bromelain is obtained from pineapple. [4]. Bromelain is a high molecular weight glycoprotein found in the juice of green fruits, with the highest amount found in the pineapple plant. This proteolytic enzyme is similar to other enzymes in terms of activity. Papain is a monothiol cysteine protease, the nature of activity is "green" pepsin. The range of action of papain is not only acidic, like pepsin, but also neutral and alkaline pH values (3.0-12.0 optimal pH5), playing a major role in maintaining activity. Papain splits proteins into polypeptides and amino acids, hydrolyzes any peptide bonds, except for proline and glutamic acid bonds with the dissociated carboxyl group. Papain is widely used in relation to cleavable proteins, many animal and bacterial proteases.

Results: Trypsin and chymotrypsin are hydrolyzable proteinases.

Peptide bonds differing from each other at the site of exposure to the polypeptide chain of the protein, the absorption center of Trypsin actively interacts with the lysine/arginine residue by hydrolysis of this peptide bond. These enzymes are proteins that are present in significant amounts in most people, which provides a large hydrolytic capacity of trypsin depending on the amount of protein to form small peptides. Chymotrypsin cleaves the side chains of hydrophobic amino acids (phenylalanine, tryptophan, methionine, etc.) into small peptide fragments. These proteinases are enzymes of general proteolysis and have low specificity. Especially trypsin and chymotrypsin are active due to the presence of peptide bonds against denatured proteins formed during inflammation.

Pancreatin is a drug prepared from the pancreas of animals, with proteolytic, lipolytic and glucolytic activity. In the acidic environment of gastric juice, pancreatin is partially inactivated and the therapeutic effect is lost

Amylase is an enzyme that hydrolyzes glycosidic bonds in polysaccharides. The main function of the enzyme is to digest starch and glycogen. The cleavage of cell wall polysaccharides determines the bacteriostatic effect of amylase, which is most clearly manifested in lysozyme, an enzyme of this subclass.

has an anti-inflammatory effect.[6]

The mechanisms of action of amylase are as follows. The mechanism of systemic action of enzyme mixtures is complex and determined by the following pharmacological effects:

- anti-inflammatory: the process of optimizing the inflammatory process, not only reducing it, as in the case of taking non-steroidal anti-inflammatory drugs;

- in combination with the effect on the rheological properties of fibrinolytic and thrombolytic blood, it can significantly accelerate the resorption of hematomas;

- decongestant: prevention and treatment of swelling as a result of enzymatic degradation of extravasally released proteins and peptides, consists in reducing their amount.

As for the osmotic effect, the lysis of microthrombi also contributes to the elimination of decomposition products from the affected tissues;

- due to the reduction of inflammatory mediators and oncotics by pain-relieving, conditional, direct splitting enzymes, pressure in the tissues, reduction of edema in them and improvement of microcirculation;

-immunomodulatory: enzymes have a regulatory effect on the immune system, it cannot be considered immunosuppressive or immunostimulatory.

For systemic effects, polyenzyme drugs can damage the protective biofilms of microbial colonies, increase the concentration of antibiotics in tissues by improving microcirculation, the rheological properties of the drug, the resorption of native enzyme molecules occurs through pinocytosis (receptor-mediated and there are no special receptors for molecules while);

- endocytosis through intestinal cells; paracellular diffusion; The basic mechanism of absorption amylase study is:

Absorption of local enzymes with a complex macromolecular structure from the small intestine and maintenance of enzymatic activity in the blood.

For a long time, the question of whether large protein molecules can be resorbed from the intestine has been a topic of discussion. In this regard, studies have been conducted using various methods to determine the presence of unchanged enzymes in the circulating blood. [7]

Chymotrypsin, an enzyme of the hydrolase class that breaks down proteins and peptides; found in the pancreatic secretion of animals and humans. Together with trypsin, it participates in the breakdown of food proteins in the small intestine.

Chymotrypsin (English: Chymotrypsin) is a proteolytic enzyme, endopeptidase, hydrolyzing peptides and proteins. Chymotrypsin (EC 3.4.21.1) is synthesized in the pancreas in the form of proenzymes chymotrypsinogen A and chymotrypsinogen B, and in this form enters the duodenum as part of the pancreatic juice. , where chymotrypsinogens are converted by trypsin. α -, β - and γ -chymotrypsins.

Chymotrypsin prefers bonds formed by COOH groups of amino acids with hydrophobic side chains and has a wider effect than trypsin. Unlike trypsin, chymotrypsin curdles milk. Chymotrypsin is most active at pH 7.5 to 8.2.[8]

Chymotrypsin is an enzyme of the hydrolase class that catalyzes the hydrolysis of peptide bonds located away from the ends of the protein chain (endopeptidase). From max. rate catalyzes the hydrolysis of bonds formed by the carboxyl groups of hydrophobic amino acids. It also hydrolyzes esters and amides formed from amino acids.

Chymotrypsin is an enzyme of most vertebrates. It is synthesized in the pancreas in the form of an inactive precursor of chymotrypsinogen (proenzyme or zymogen). Trypsin hydrolyzes peptide bonds in proenzyme 4 and removes two dipeptides from the molecule at positions 14-15 and 147-148. The resulting three fragments of the chymotrypsin molecule remain connected by two disulfide bonds. Chymotrypsin, together with trypsin, participates in the breakdown of proteins in the small intestine. Two different forms of chymotrypsin - A and B - are released, which differ in the composition of amino acids. Deputy. 6000-1.jpg modification of bovine chymotrypsin A (6000-2.jpg-X; mol. m. 25 thousand) is well-studied, the formation of a cut from the proenzyme is intermittent. edited forms of chymotrypsin A6000-3.jpg. The enzyme has 6 SS bonds; the dimensions of the molecule are close to spherical (5.5 x 3.5 x 3.8 nm). Max. catalytic 6000-4.jpg-chymotrypsin activity is manifested at pH 7.8-9.0; for the catalytic manifestation of the action of chymotrypsin groups are important: hydroxyl serine-195 (the numbering of amino acid residues in chymotrypsin to their positions in the proenzyme is assumed to match), imidazole histidine-57 and carboxyl aspartic acid-102 ("active triad"). This triad is stabilized by an ionic bond between the α -amino group of isoleucine-16 and the carboxyl group of aspartic acid-194. 6000-5.jpg-substrate sorption in the active center of

chymotrypsin is ensured by a hydrophobic gap. Its dimensions of 1.0 x 0.5 x 0.4 nm are optimal for binding the side chains of hydrophobic amino acid residues (tryptophan, phenylalanine, leucine, tyrosine), and the configuration allows only a certain orientation of the substrate. The catalytic mechanism includes the step of sorption of the hydrolysis substrate, cleavage of the peptide bond with the formation of an acyl enzyme, and the last transfer of an acyl group to a nucleophilic recipient. Chymotrypsin inhibitors - heavy metal ions, boron, to you, diisopropylphosphorus phosphate, etc.

Deficiency or excess of chymotrypsin is manifested in digestive diseases. The enzyme is used in medicine to break down necrotic tissue, tissues, thinning and easing sputum, with thrombophlebitis, etc. Chymotrypsin, trypsin and elastase represent a group of serine proteases due to the presence of serine in the active site. They belong to the same family and make up 44% of the total protein of the exocrine pancreas. According to modern concepts, chymotrypsin and trypsin (similar to the situation with pepsin and gastrin in the stomach) exist in the form of many isoforms.

Discussion: The mechanism of action of chymotrypsin is that chymotrypsin is a protease that catalyzes the hydrolysis of a peptide bond with aromatic amino acids (Trp, Phe, Tyr) next to it. The reaction is catalyzed by chymotrypsin, which shows the principle of stability of the transition state and is a classic example of general acid-base catalysis and covalent catalysis.

When determining chymotrypsin in feces, chymotrypsin is one of the most persistent proteolytic and lipolytic pancreatic enzymes, and is stored in feces at room temperature for up to two weeks. Changes in fecal chymotrypsin can be used to detect pancreatic enzyme secretion disorders, particularly in patients with chronic pancreatitis.

The study is carried out three days after canceling all oral enzyme preparations. It is preferable to take a small amount (1 g) of the daily volume of feces. The principle of the method is based on the cleavage of M-acetyl-tyrosine-ethyl ether with chymotrypsin to form acidic products titrated with alkali. With a serious violation of the exocrine function of the pancreas, the test reveals a significant decrease in the amount of chymotrypsin. At the same time, with moderate functional impairment, a large number of false-positive and false-negative results were recorded. In this regard, the determination of fecal chymotrypsin is recognized by most authors as an indicative test for the detection of specific exocrine diseases of the pancreas of various nature.

Chymotrypsin is also the trade name of the medicinal product, INN code "D03BA Proteolytic enzymes", there are the following indications for its use: thrombophlebitis, periodontal disease (inflammatory-dystrophic forms), osteomyelitis, sinusitis, otitis media, iritis, iridocyclitis, intracapsular extraction cataracts, bleeding in the anterior chamber of the eye, swelling of the periorbital region after operations and injuries; tracheitis, bronchitis; pleural empyema, exudative pleurisy; burns, purulent wounds, bedsores. Carboxypeptidases (EC 3.4.16 - 3.4.18) are proteolytic enzymes that hydrolyze (extend) the peptide bond of the C-terminal amino acid residue. (Compare with aminopeptidases, which cleave the peptide bond of the N-terminal amino acid residue). Several types of carboxypeptidases exist in humans, animals, and plants.

Jizzax shahri va unga tutash aholi punktlarini suv bilan ta'minlash hozirda markazlashgan usulda 7 ta guruhli suv olish inshootlari (Toshloq, O'zbekiston, Sangzor-shahar, A.Temur, Sanoat zonasasi va boshqalar) orqali amalga oshirilmoqda. Ammo suv olish inshootlari xarajatlarini oshishi va yer osti suvlarini muhofaza qilish masalasi bugungi kunning asosiy muammosi bo'lib qolmoqda. Suv olish inshootlarining oqim tezligini oshirish uchun A.Timur va Sangzor (shahar) suv olish inshootlarida yer osti suvlarini sun'iy sizdirish texnologiyasi (SST) (magazinlashtirish usuli)dan foydalanish uchun qulay gidrogeologik, gidrologik va ekspluatatsion sharoitlar yaratilgan. Suv olish inshootlarida suv qatlami zamonaviy to'rtlamchi davrdagi shag'al-qum to'ldiruvchisi bo'lgan tosh-shag'al yotqiziqlarda tarqalgan. Suv qatlaming qalinligi 35-50 m, filtrash ($K_f = 21$ dan 78 m/kun gacha) va sig'im ($r = 0,13$) xususiyatlari SST ning yaxshi kollektori hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun doimiy manba - Sangzor daryosi mavjud. Daryo oqimi betonlangan Iski Tuyatartar kanali suviga qo'shilgach, daryo suvi fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari bo'yicha SST uchun mos bo'ladi. SSTni joriy qilish uchun suv olish inshootlarining ish sharoitlari ham qulaydir, chunki dinamik sathi 10-28 m chuqurlikda bo'ladi, sig'imli zahiralar tugaydi, yer osti suvlar sathi 15-17 m gacha pasayadi, bunda qo'shimcha sun'iy zahiralarni olish imkoniyati bilan katta depressiya voronkasi hosil bo'lib, sathni loyiha qiyomatiga yetkazadi.

Ayniqsa A.Temur suv olish inshootida SST amalga oshirilgandan so'ng, suv olish oqimini 600 l/sek gacha oshirish mumkin va yer osti suvlarini sifatining yaxshilanishiga erishiladi, ya'ni yer osti suvlarining minerallanishi $0,45-0,56 \text{ g/l}$ gacha, umumiyligini qattiqligi $6,5-7,4 \text{ mg.ekv/l}$ gacha o'zgaradi. Ushbu maqsadlarga erishish $150 \times 130 \text{ m}$, chuqurligi $1,5-1,7 \text{ m}$ o'lchamdagagi 5 ta infiltratsiya havzalarini qurish orqali erishiladi, quduqlarning umumiyligi soni 16 tani, to'ldirish bilan esa 12 ta quduqni tashkil qiladi. 12 ta quduqning sarfi 50 l/sek bo'ladi, buning uchun ularni ETSV-12-255-30 tipidagi nasoslar bilan jihozlash kerak.

Tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlandiki, Sangzor daryosi suvi sifat ko'rsatkichlari bo'yicha ekspluatatsiya qilingan yer osti suv zaxiralarini sun'iy ravishda to'ldirish uchun mos emas. Qorabuloq, Sho'rbuloq va Kichikbuluoq kollektorlari ishga tushirilgandan keyin va o'tgan asrning 80-yillari boshidan Sangzor daryosiga sho'rlanish darajasi $4,5-5,6 \text{ g/l}$ va umumiyligini qattiqligi $28,3-33,4 \text{ mg.ekv/l}$ bo'lgan kollektor-drenaj suvlarining $2,0 \text{ m}^3/\text{sek}$ hajmda, shundan minerallanishi $1,0 \text{ g/l}$ gacha bo'lgan 23 ming m^3/sutka suvning quyilganidan beri suvning sifati sezilarli darajada yomonlashgan. Bundan tashqari, kollektor-drenaj oqimining qo'shilishiga qadar daryo suvning umumiyligini qattiqligi $4,6-5,5 \text{ mg.ekv/l}$ ni tashkil qilgan. Shu bois "Iski Tuyatartar" beton kanali suvlaridan sun'iy to'ldirish manbalarini sifatida foydalanish zarur.

Ushbu suv olish inshootlarida yer osti suvlarining sanitariya muhofazasi zonalari talablarga muvofiq: 1-zonaning chegarasi (qat'iy rejim) - qanotlarda va har bir yo'nalishda suv olish inshootidan 50 metr masofada foydalanish quduqlari belgilanadi. Barcha suv olish inshootlarida muhofazasi zonasini ularning konturlarini o'zgartirmasdan amalga oshiriladi va shuning uchun zonaning birinchi kamarining chegaralari bir xil bo'lib qoladi. Sangzor daryosi vodiysidagi suvli qatlarning infiltratsiya bilan to'ldirilishi sanitariya muhofaza zonasining ikkinchi va uchinchi zonalari chegaralari bir-biriga to'g'ri keladi va daryo vodiysining tadqiqot maydonini va Sangzor daryosi konus yoyilmasidagi intensiv suv almashinuvi va tranzit zonalarini o'z ichiga oladi.

Turkiston, Molguzar va Shimoliy Nurota tog'lari hamda tog' oldi tekisliklarining shimoliy hududlarida joylashgan qishloq aholi punktlarini suv bilan ta'minlash uchun buloqlarni berkitish, qishloqlarning joylashuviga qarab, foydalanish quduqlarini burg'ulash yoki boshqa hududlar suvuzatgichlarini qurish zarur. Buning uchun oldindan gidrogeologik tadqiqotlar xulosalari bo'lishi kerak.

Zomin chuchuk yer osti suvlari konida Sirdaryo viloyatining Mexnatobod va Oqoltin tumanlari qishloq aholi punktlarini, qisman Jizzax viloyati Zarbdar tumanidagi qishloq aholi punktlarini ichimlik suvi bilan ta'minlaydigan Zomin guruhli suv olish inshooti mavjud.

Hozirgi kunda salbiy jarayonlar Sangzar, Tog' oldi, Do'stlik va boshqa suv konlarida namoyon bo'lmoqda. Atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatish jarayonlarining natijasi yer usti va yer osti suvlarining ifloslanishi bo'ldi.

Bu hodisaning ko'lami keng bo'lganligi sababli O'zbekiston Respublikasida "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida(2004-yil 3-dekabr, 710-II-son)"gi qonun (shu jumladan, Mirzacho'l voxasida) va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ichimlik suvining mavjud va potentsial manbalari bo'yicha bir qator qarorlari qabul qilingan. Unga ko'ra Tog' oldi va Sangzor yer osti suvlari konlari (respublika miqyosida), Zomin va Ravot yer osti suvlari konlari (mintaqa miqyosda) chuchuk yer osti suvlari konlarini shakllantirishning alohida muhofaza qilinadigan zonalari sifatida belgilandi.

Mirzacho'l voxasidagi yer osti suvlarining davlat monitoringi natijalariga ko'ra, texnogen va qishloq xo'jaligi faoliyati ta'sirida suv resurslari (yer usti va yer osti suvlari) sifati yomonlashayotgani aniqlandi. Yer osti suvlarining ifloslanishining asosiy omillari kanalizatsiya va sug'oriladigan dalalardir. Sangzor daryosi havzasida barcha hosil bo'luvchi zovur-kollektor oqava suvlari daryoga quyilishi davom etmoqda, yer osti suv olish inshootlari (A. Temur, Sangzor-shahar) zonasida bozorlar, uy-joylar (kanalizatsiyasiz), yoqilg'i quyish shoxobchalari va boshqa ifloslantiruvchi manbalar joylashgan.

Sanitariya muhofazasining 2 va 3- zonalarida mineral o'g'itlar va pestitsidlar yordamida ekinlar yetishtirilmoqda. Aytish joizki, ko'plab suv olish inshootlari, ishlab chiqarish ob'yektlari va fermer xo'jaliklarida burg'ulash ishlari juda yomon olib borilmoqda, burg'ulash texnologiyasiga umuman amal qilinmayapti, quduqlarni tamponlash ishlari bajarilmayapti. Natijada, chuchuk suvni o'z ichiga olgan o'rta va yuqori to'rtlamchi suvli qatlamlar majmualaridagi istiqbolli yer osti suv konlarida yuqori minerallashgan ifloslangan suvning yuqori gorizontlaridan sifatsiz izolyatsiya qilinganligi sababli so'riliishi sodir bo'lmoqda.

Hozirgi kunda Mirzacho'l voxasi yer usti suvlarining minerallashuvi va kimyoviy tarkibining ortishi kuzatilmoqda va 2,0 g/l ga yetdi. Shaharlarning (Jizzax va boshqalar) kanal va ariqlari deyarli betonlashtirilmagan, suv yo'q davrida ular axlatxona va aholidan maishiy chiqindi suvlarni yig'ishda foydalaniladi, ko'p hollarda oqova suvlari ariqlarga quyiladi. Shaharlardan ichidagi ekologik va gidrogeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, shaharlarda suv sathining keskin ko'tarilishi bilan suv bosgan, ya'ni aeratsiya zonalari ifloslangan manbalar bilan to'liq to'yingan hududlar paydo bo'lmoqda. Suvni uzoq vaqt va noto'g'ri boshqarish natijasida tuproq sho'rlanishi va hududni suv bosish jarayoni sodir bo'lmoqda.

Shunday qilib, istiqbolli konlar (Zomin, Ravot, Sangzar va Tog' oldi)ning chuchuk yer osti suvlaridan oqilona foydalanish, ularni saqlash, kamayish va ifloslanishdan himoya qilish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- Ishlayotgan barcha suv olish inshootlarida kuzatuv tarmog'iga ega bo'lish. Oqim tezligini, dinamik va statik darajalarini kuzatib borish, foydalanish quduqlaridan va umumiy suv ta'minotidagi suv sifatini nazorat qilish. Magazinlashda oyiga bir marta yer usti suvlari sifatini va hovuzlarning loyqalanishini nazorat qilish tavsiya etiladi;

- go'ng chiqarish tizimlarini, pestitsidlar va mineral o'g'itlarni saqlash joylarini, shuningdek, maishiy oqava suvlarni to'kish joylarini amaldagi "Atrof-muhitni muhofaza qilish" talablariga qat'iy roya qilgan holda tartibga solish;

- yangi chorvachilik majmualarini joylashtirmaslik, pestitsidlar va mineral o'g'itlar saqlanadigan omborlarni sanitariya muhofazasi zonasidan tashqariga ko'chirish imkoniyatini ta'minlash;

- istiqbolli konlar doirasidagi yer osti suvlaring davlat monitoringini barcha hududlarda kuchaytirish, iloji bo'lsa barcha ifloslantiruvchi manbalarni bartaraf etish;

- chuchuk yer osti suvlari konlarining alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarida alohida rejim o'rnatish va xo'jalik faoliyatini qat'iy cheklash, yer osti suvlaring ekologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi obyektlarni suv muhofazasi zonasidan olib chiqish;

- yer osti suvlari hosil bo'lgan zonalarda insonning xo'jalik faoliyatini cheklash, buning uchun tog' tizmalarida sanitariya-ekologik-gidrogeologik tadqiqotlar o'tkazish;

- G'allaorol shahri va boshqa kollektorlardan Sanzor daryosi tubiga sifatsiz suv oqimining oldini olish;

- yer osti suvlarini ifloslantiruvchi har bir manba yaqinida kuzatuv punktlarini tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Pozilov M.N., Karimova F.S., Juraeva U.B. Jizzax viloyatida oqar suvlardan foydalanishning istiqbolli yo'llari//Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 1. – С. 482-488.

2. Позилов М.Н., Каримова Ф.С., Холмуминова Д. А. Нарушение естественных процессов активного водообмена Голоднотеплового региона и его воздействие на изменение рационального использования ресурсов подземных вод //Universum: химия и биология. – 2022. – №. 2-1 (92). – С. 5-9.

3. Джураев М. и др. Особенность загрязнения подземных вод г.Джизака. -ГИДРОИНГЕО, 2003г.

4. Pozilov M.N., Qurbanova L.M., Ibrohimova Z.I. The Structural-Hydrogeological Analysis of Formation of Underground Waters//Eurasian Research Bulletin, May, 2022.

5. Pozilov M.N., Holmuminova D.A., Karimova F.S. Change of hydrogeological conditions of golodnostep region in connection with violation of the natural products of water supply //Akademicheskie Globus: Inderseience Research. Volume 3, Issue 2, Feb, 2022.

6. Позилов М.Н., Курбанова Л.М., Иброхимова З.И., Тожикулова М.Н. Научные основы и обоснование размещения сети мониторинга подземных вод горных массивов//“Oziq-ovqat va kimyo sanoatida innovatsion texnologiyalarni joriy qilish” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami, 2023,Iyun, Namangan, 245 b.

UO'K 57**ASOSIY VA TAKRORIY EKIN INDIGOFEERA TINCTORIA L. O'SIMLIGINI
IQTISODIY SAMARADORLIGI**

G'.Q.Yoqubov, q.x.f.n, dots., Urganch davlat universiteti, Urganch

Sh.B.Hasanov, k.f.n., kat.i.x., Xorazm Ma'mun Akademiyasi, Xiva

Yu.Djumaniyozova, q.x.f.n., dots., Urganch davlat universiteti, Urganch

D.T.Xudayberganov, i.f.f.d., dots., Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyatining o'tloqi allyuvial tuproqlari sharoitida "Indigofera (Indigofera tinctoria L)" o'simligini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yuzasidan xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Samaradorlik, iqtisodiy samaradorlik, qishloq xo'jaligi, Indigofera o'simligi, o'g'it, agrotexnologiya, go'ng, pushta, tadqiqot.

Аннотация. В данной статье разработаны выводы и рекомендации по повышению экономической эффективности выращивания растения «Индигофера (Indigofera tinctoria L)» на аллювиальных почвах Хорезмской области.

Ключевые слова: Производительность, экономическая эффективность, сельское хозяйство, растение Индигофера, удобрения, агротехника, навоз, бобовые, исследования.

Abstract. In this article, conclusions and recommendations on increasing the economic efficiency of the cultivation of “*Indigofera (Indigofera tinctoria L.)*” plant in the alluvial soils of Khorezm region are developed.

Key words: Productivity, economic efficiency, agriculture, *Indigofera* plant, fertilizer, agrotechnology, manure, pulse, research.

Kirish. Mamlakatimizda respublikamizda qishloq xo‘jaligi sohasida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, import o‘rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish uchun yetarli imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Bu esa qishloq xo‘jaligi sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirishga olib kelmoqda. Bu borada ta’kidlaganidek: “Biz qishloq xo‘jaligida islohotlarni qat’iy davom ettiramiz” [1]. Shuningdek, mahalliy investitsiyalar bilan bir qatorda sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb etish ko‘لامи kengayib, pirovardida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi oshib boradi. Buning uchun ko‘p harajat talab qilmaydigan, yuqori hosildorlikka ega bo‘lgan, sifatli mahsulot beradigan qishloq xo‘jaligi ekinlarining yangi turlarini respublikamiz tuproq-iqlim sharoitiga moslab iqlimlashtirish yangi navlarini yaratish bilan birgalikda intensiv va resurstejamkor agrotexnologiyalarni joriy qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan birdir.

Adabiyotlar tahlili. Qishloq xo‘jaligi sohasida samaradorlikning doimiy oshib borishi ob’ektiv zarurat hisoblanib, milliy daromadning ko‘payishiga imkoniyat yaratadi. Qishloq xo‘jaligida yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, tuproq degradatsiyasini pasaytirish, tarmoq iqtisodiyotini tiklash va uni qo‘shimcha daromad manbaiga aylantirish yo‘llaridan biri bo‘lgan *Indigofera* o‘simligi noan’anaviy ekin o‘stirish usulidir [2]. Shundan kelib chiqib, *Indigofera* o‘simligini yetishtirish iqtisodiy samaradorligi yuzasidan ko‘pgina tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlar samaradorlik tushunchasi bilan bog‘liqdir.

Xususan, David Hayvatt ta’biricha, samaradorlik jamiyat farovonligini oshirishda rol egallab, bu holat raqobat siyosatini asosiy maqsadi hisoblanadi [3]. Mrs. Raymond G.Bressler and Richard A.King fikricha, firma samaradorligi mahsulot birligi uchun yirik miqdordagi kapital hisobiga amalga oshirishi mumkin [4]. Samaradorlik ishlab chiqarish faoliyati natijalari bilan ularga erishish uchun sarflangan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarning o‘zaro nisbatidir [5].

Samaradorlik rivojlangan mamlakatlardan tajribalariga muvofiq, qishloq xo‘jaligida yuqori natija berib, buni “*Indigofera (Indigofera tinctoria L.)*” o‘simligini yetishtirish misolida uning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini beradi. Xususan, xorijiy adabiyotlar tahlillariga ko‘ra, *Indigofera* o‘simligini xorijiy mamlakatlarda indigo bo‘yoqini tozaligi va sifatini inobatga olgan holda o‘rganilgan yiliga o‘rtacha Germaniyada 40 ye/kg, Hindistonda 80 ye/kg, Italiyada 200 ye/kg, El-Salvadorda 240 ye/kg, Fransiyada 260 ye/kg sotiladi. Ushbu ma’lumotlardan ko‘rinib turganidek, *Indigofera* o‘simliklaridan olinadigan tabiiy indigo bo‘yoqi va urug‘i jahon bozorida nihoyatda xaridorgir va serdaromad mahsulot hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada tadqiqotning tahlil, sintez, iqtisodiy usul, mantiqiy tahlil, induktiv, deduktiv va abstrakt fikrlash kabi usullardan foydalilanilgan.

Tahlil va natijalar. Ma’lumki, *Indigofera* o‘simligi dukkanlilar oilasiga mansub va *Indigofera* jinsi turi bo‘lgan o‘simlikdir. Ushbu o‘simlik Hindistonda kelib chiqib, ko‘plab tropik mamlakatlarda ko‘k bo‘yoq olish uchun yetishtirilgan [6]. Viloyatimizda bo‘yoq olishni rivojlantirish maqsadida tadqiqotlar amalga oshirildi.

Tadqiqotlarimizda *Indigofera* o‘simligini yetishtirish agrotexnologiyasi elementlari ishlab chiqilib, don va pichan hosildorligi, tuproq unumdorligini oshirish va hunarmandchilikning barcha sohalarida ishlataladigan tabiiy indigo bo‘yoqi yuqori iqtisodiy foyda olinishi ilmiy jihatdan asoslandi. Ammo, *Indigofera* o‘simligi yangi noan’anaviy ekin bo‘lganligi sababli undan olinadigan urug‘ va indigo bo‘yoqi narxi belgilanmaganligini inobatga olgan holda dukkanlilar ekinlar narxlari, xorijiy manbalardagi ma’lumotlaridan foydalaniib, shartli narxlari va *Indigofera* o‘simligini hosildorligi va iqtisodiy samaradorligini aniqlashda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jalik vazirligi Oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik sohasidagi strategik rivojlantirish va tadqiqotlar xalqaro

markazi, qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlash va mahsulotni yetishtirish bo'yicha namunaviy texnologik kartasining 2022-2026 yillarda mo'ljallangan uslubiy ko'rsatmalaridan ham foydalanildi.

Tajriba natijalarini iqtisodiy tahlil qilishda Indigofera tinctoria o'simligidan yer ustki biomassasi olish uchun 1 hektar maydonga sarflangan harajatlar olinib, urug'i va indigo bo'yoq pigmenti sotishdan kelgan jami daromadlar miqdori aniqlandi.

Tadqiqotlarimizda olingen tabiiy Indigo bo'yoqini o'rtacha 250 ming so'm/kg. dan, urug' sotib olish 100 ming so'm/kg. va sotish bahosini 50 ming so'm/kg narhda baholanib, tajriba natijalarini iqtisodiy samaradorligi aniqlandi. Indigofera o'simligini asosiy ekin sifatida yetishtirilganda Iqtisodiy samaradorligi bargi va poyasidan indigo bo'yoqi va urug' sotish bilan birgalikda hisoblandi. Tajribalarimizda Indigofera o'simligini asosiy ekin sifatida yetishtirilganda agrotexnologiyalar ya'ni tuproqqa ishlov berish usullarining o'simlikni o'sishi, rivojlanishiga ta'siri va takroriy ekin sifatida azotli o'g'itlarga talabi o'rzanildi (1-2 jadval).

Dastlab, Indigofera o'simligini iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun tuproqqa ishlov berish usullari o'rzanilib, unga sarflanadigan go'ng (t/ga), uning bargi va poyasini quruq massasi (s/ga), undan olingen bo'yoq pigmenti (kg/ga), sotishdan tushgan daromad (ming so'm/ga) va o'rtacha don urug' hosili (s/ga) kabilarga ham e'tibor qaratildi.

1-jadval

Indigofera o'simligini iqtisodiy samaradorligi (2022 yil)

Var.t.r	Tuproqqa ishlov berish usullari	Go'ng, t/ga	Bargi va povasini quruq massasi, s/ga	Olingen bo'yoq pigmenti, kg/ga	Sotishdan tushgan daromad, ming so'm/ga	O'rtacha don urug' hosili, s/ga	Sotishdan tushgan daromad, ming so'm/ga	Jani xarajatlar, so'm/ga	Jani daromad, so'm/ga	Sof daromad, so'm/ga	Rentabellik darajasi, %
1	Nazorat+pushta (azotli o'g'itsiz)	-	14,7	44,1	11025000	10,2	510000	9520814,98	11535000	2014185	21,1
2	Tekis yerga ekish	-	18,6	55,8	13950000	22,3	1115000	10154578,11	15065000	4910421,89	48,3
3	Pushtaga ekish	-	29,3	87,9	21975000	20,6	1030000	11741526,36	23005000	11263473,64	96,0
4	Tekis yerga ekish	10	21,2	63,6	15900000	24,3	1215000	11378568,34	17115000	5736431,66	50,4
5	Pushtaga ekish	10	47,8	143,4	35850000	25,8	1290000	13714805,70	37140000	23425194,3	170,8

Izoh: Barcha variantlarga haydashdan oldin 90 kg/ga fosfor, 60 kg/ga kaliy, nazorat variantidan boshqa variantlarga 60 kg/ga azot o'g'itining 50 % chin bargda va 50 % gullah davrida berildi

Ushbu jadvalga asosan, samaradorlik ko'rsatkichini rentabellik darajasi tavsiflaydi. Rentabellik ko'rsatkichi Indigofera o'simligini yetishtirish uchun ketgan jami xarajatlar ko'rsatkichini (so'm/ga) Indigofera o'simligini yetishtirishdan olingen foya yoki sof daromad ko'rsatkichini (so'm/ga) nisbatining 100 foizga ko'paytirish bilan hisob-kitob qilib aniqlangan.

Shular bilan birga, tuproqqa ishlov berish usullari va organik hamda ma'dan o'g'itlar ishlatalishi Indigofera o'simligining ho'l biomassasi miqdoriga turlicha ta'sir ko'rsatib, quruq massasi xisobidan iqtisodiy samaradorlik aniqlandi. Tajriba natijalari go'ng va azotli o'g'it qo'llanilmasdan pushtaga ekilgan 1-variantda quruq massasi 14,7 s/ga ni, urug' 10,2 s/ga, hektaridan sof daromad 2014185 so'm/ga ni, rentabellik darajasi 21,1 % ni tashkil qildi. Tekis yerga ekilgan go'ng bilan farqlanuvchi 2-variant 4-variantga nisbatan quruq holdagi barg va poya massasi 2,6 s/ga, sof daromad 826009,77 so'm/ga rentabellik darajasi 2,1 % ga kam bo'ldi. Bu yerda qo'llanilgan go'ngni ta'siri bilan izohlash mumkin. Shu usulda tuproqqa ishlov berib, pushta olinib, go'ng bilan farqlanuvchi 5-variant 3-variantga nisbatan quruq xoldagi barg va poya massasi 18 s/ga, urug'i 5,2 s/ga, sof daromad 12161720,7 so'm/ga, rentabellik darajasi 74,8 % ga ko'p bo'ldi.

Ma'danli o'g'itlarning kuzgi bug'doydan keyin Indigofera o'simligini rivojlanishiga ta'siri o'rzanildi. Bu borada kuzgi bug'doydan keyin dukkanlari yetishtirish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan. Shulardan kelib chiqib, tajribamizda qo'shimcha ravishda kuzgi bug'doydan keyin takroriy ekin sifatida Indigofera o'simligini parvarishlash va uning biomassasi hosiliga azot o'g'iti me'yorlarining ta'siri o'rzanildi. Shuningdek, kuzgi bug'doydan bo'shagan yerlarni agrofizikaviy va agrokimyoviy xossalari yaxshilash hamda o'simlikning yer ustki biomassasidan bo'yoq pigmenti olib, qo'shimcha iqtisodiy daromad olishdan iborat. Bunda bajarilgan tajribalarimizdan eng maqbul variant tanlab olindi. Ya'ni, tuproq haydalib, pushtaga ekilganda o'simlikning o'sishi, rivojlanishi, biomassasi hosili o'rzanildi. Tajriba olib borilgan maydon tuproqi o'tloqi allyuvial va mexanik tarkibi o'rtal qumoqli tuproqlar sharoitida o'tkazildi. Tajriba maydoni

tuprog'i o'rtacha sho'rangan, 0-30 sm li qatlama 100 gr.tuproqda xlor ioni 1,05 mg.ni, sulfat ionlari 100 g tuproqda 2,05 mg. ni quruq qoldiq 0,41 % ni tashkil qiladi.

Tajriba maydoni ozuqa unsurlar bilan kam darajada ta'minlanganligi aniqlandi. Tajriba tizimidan kelib chiqqan holda barcha variantlarga ekish oldidan 90 kg/ga fosfor, 60 kg/ga kaliy o'g'itlari berildi, tuproq 25-30 sm chuqurlikda haydalib, pushta olindi va urug' ekildi. Ekishdan keyin havo harorati yuqori (iyun oy) bo'lganligi sababli nihollar 3-4 kunda unib chiqdi. Azot o'g'iti (0; 60; 80; 100; 120 kg/ga) vegetatsiya davomida: ekin chin barg chiqarganda (yillik me'yorning 50 %) va gullah davrida (50 %) ikki marta qo'llanildi.

Takroriy ekinlar asosiy ekinga nisbatan o'simliklarning o'sishi, rivojlanishi, quruq modda to'plashi kabi ko'rsatkichlar bo'yicha nisbatan o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi bo'yicha kamroq bo'ladi. Chunki, amal davri qisqaligi va yetarlicha samarali haroratni to'liq olmasligi kuzatiladi. Unga unga abiotik omillar ta'siri bilan izohlash mumkin. Takroriy ekin sifatida yetishtirilgan Indigofera o'simligini yig'ishdan oldin barcha variatlarda ko'k va quruq biomassasi miqdori aniqlanib, quruq massasidan indigo bo'yoqi ajratib olindi (2-jadval).

2-jadval.

Takroriy ekin sifatida ekilgan Indigofera o'simligini iqtisodiy samaradorligi (2022 yil)

Var t/r	N	Bargi va poyasining quruq massasi, s/ga	Olingan bo'yoq pigmenti, kg/ga	Jami daromad, so'm/ga	Jami xarajatlar, so'm/ga	Shartli sof foyda, so'm/ga	Renta- bellik darajasi, %
1	0	15,5	46,5	11625000	6915865,7	4709134,3	68,1
2	60	21,2	63,6	15900000	8003804,0	7896196,1	98,7
3	80	23,2	69,6	17400000	8632078,5	8767921,5	101,6
4	100	24,0	72,0	18000000	8771391,5	9228608,5	105,2
5	120	23,4	70,2	17550000	8880704,5	8669295,5	97,6

Ushbu jadvalda ham rentabellik darajasi shartli sof foyda (so'm/ga) ko'rsatkichini jami xarajatlar (so'm/ga) ko'rsatkichiga nisbatining 100 foizga ko'paytmasi sifatida aniqlangan.

Shuningdek, tajriba yilidagi natijalar bo'yicha azot o'g'iti berilmagan 1-variantda o'simlik bargi va poyasining quruq massasi mutanosib ravishda 15,5 s/ga, shartli sof foyda 4709134,3 so'm/ga rentabellik darajasi 68,1 % ni tashkil qilib, 2-variantga nisbatan bargi va poyasining quruq massasi 5,7 s/ga, sof daromad 3187061,8 so'm/ga, rentabellik darajasi 30,6 % ga kam bo'ldi. Gektariga 120 kg/ga azot berilgan 5-variant bargi va poyasi quruq massasi 23,4 s/ga, shartli sof foyda 8880701,5 so'm/ga, rentabellik darajasi 97,6 % gektariga 100 kg/ga berilgan 4-variantga nisbatan bargi va quruq massasi 0,6 s/ga, shartli sof foyda 559313,0 so'm/ga rentabellik darajasi 7,6 foizga kam bo'lganligi aniqlandi.

Ulardan tashqari, azotli o'g'itlar me'yorlarining ortishi bilan o'simlik biomassasining ortib borganligi hamda barcha azot qo'llanilgan variantlardagi nazoratga nisbatan biomassasi miqdorlarining ko'payishi aniqlandi. Azot o'g'itini 120 kg/ga me'yorida berilgan variantlarda boshqalarga qaraganda biomassa yuqori bo'lib, sarf-xarajatlar hajmi ko'payib, biroq uning iqtisodiy samaradorligi biroz pastroq bo'lgan, Indigofera o'simligining yer ustki biomassaga to'plashida azotli o'g'itlarni 100 kg/ga me'yori maqbul ta'sir ko'rsatganligi aniqlandi.

Xulosa va takliflar. Xorazm viloyatining o'tloqi allyuvial tuproqlari sharoitida 2022 yilda noan'anaviy dukkakli ekin "Indigofera (Indigofera tinctoria L)" o'simligini yetishtirish agrotexnologiyasi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlardan olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, uni iqtisodiy tahlil natijalari Indigofera o'simligini iqtisodiy samaradorligini aniqlashga imkon beradi. Mazkur natijalar yuzasidan tadqiqotda o'simlikning iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan aniq xulosalar shallantirilib, tavsiyalar ishlab chiqilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr. // <https://president.uz/uz/lists/view/5774>

2. Djumaev F.Kh., Ataeva Z.A. Plant growth "Indigofera tinctorial" and its role in improving soil fertility in terms of the Bukhara region. // Вестник науки и образования, №3 (106), Часть 2, 2021. - с. 6-7.
3. David H. The Components of Efficiency. Network. Issue 62 March 2017. - p.1-20.
4. Raymond G.Bressler and Richard A.King. Arrangement of economic activity, 1978. - p. 402-418. https://legacy.farmdoc.illinois.edu/irwin/archive/books/_Markets-Prices/Markets-Prices_chapter21.pdf
5. Ортиқов А. Саноат иқтисодиёти. Дарслік. – Т.: Iqtisodiyot, 2014. - 94-95 6.
6. https://ru.wikipedia.org/wiki/Бобовые_культуры

УЎТ: 633.511:631.572:632:631.521.

ЯНГИ ЁЎЗА ОИЛАЛАРИНИНГ ТОЛА СИФАТИ

Дж.Х.Ахмедов, б.ф.д., проф., Пахта селекцияси, уругчилиги ва етишишии агротехнологиялари ИТИ, Тошкент

Б.М.Таджибаев, кат.и.х., Пахта селекцияси, уругчилиги ва етишишии агротехнологиялари ИТИ, Тошкент

Ж.С.Жабборов, таянч докторант, Пахта селекцияси, уругчилиги ва етишишии агротехнологиялари ИТИ, Тошкент

Мирхамирова Г.М., таянч докторант, Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялари ИТИ, Андижон

Дж.Дж.Ахмедов, қ.х.ф.д, кат.и.х., Ўсимликлар генетик ресурслари илмий тадқиқот институти, Тошкент

Аннотация. Мазкур мақолада лабораторияни кўп шиллик изланишилари натижасида бир қатор ўрганилган дурагай авлодлар орасидан юқори тола сифат кўсатгичларига эга 8та оила танлаб олинган ва вилт замбруги билан сунъий заратирилган фонда ўрганилганлиги. Ўрганилган 8та оиласининг асосий технологик сифат кўсатгичларидан микронейр, солиштирма нисбий узилиши кучи (*Str*), юқори ўртacha узунлик(*UHML*), узунлик бўйича бир хиллик индекси (*Unf*) ва ип йигириувчанлик коэффициенти(*SCI*) андоза навига нисбатан ўрганилиб таҳлиллар натижалари келитирилган.

Калим сўзлари: Ёўза, тола, технологик сифат кўурсатгичлар, андоза, микронейр, солиштирма нисбий узилиши кучи, юқори ўртacha узунлиги, бир хиллик индекси, ип йигириувчанлик коэффициенти

Аннотация. В данной статье приведены результаты изучения на искусственно заражённом вилтом фоне, отобранных 8 семейств по технологическим качествам волокна, среди ряда изученных гибридных поколений полученных в результате многолетних исследований лаборатории. Приведены результаты анализа коэффициента прядильности нити (*SCI*), высокая средняя длина(*UHML*), индекс однородности по длине (*Unf*), относительная разрывная нагрузка (*Str*) и микронейра 8 изученных семей по сравнению со стандартным сортом по основным технологическим качествам волокна.

Ключевые слова: Хлопчатник, волокно, технологические качества, стандарт, микронейр, относительная разрывная нагрузка, высокая средняя длина, индекс однородности, индекс прядильности.

Abstract. This article presents the results of a study on an artificially infected background of wilt, selected 8 families according to the technological qualities of the fiber, among a number of studied hybrid generations obtained as a result of many years of laboratory research. The results of the analysis of the yarn spinning coefficient (*SCI*), average length (*UHML*), length uniformity index (*Unf*), relative breaking load (*Str*) and micronaire of 8 studied families are presented in comparison with the standard variety according to the main technological qualities of the fiber.

Key words: Cotton, fiber, technological qualities, standard, micronaire, relative breaking load, average length, uniformity index, spinnability index.

Маълумки, толанинг технологик сифатлари пахтадан тайёрланадиган газламанинг сифатини ифодалайди. Тола қанча ингичка, пишиқ ва узун бўлса, ундан шунча яхши газлама тўқилади. Толанинг технологик сифатлари кўп жиҳатдан ёззанинг навига, тупроқ – иқлим

шароитига ва қўлланиладиган агротехник тадбирларга боғлиқ бўлиб, тола сифати белгилари бир неча генлар таъсирида бошқарилиши илмий адабиётларда келтирилган [2,7].

М.М.Миржўраев ва бошқалар [1] олиб борлган илмий тадқиқотларида ўзларининг тажрибасига асосланиб, пахта толасининг сифат кўрсаткичлари нафақат ота-она шаклларидан ўтган генетик хусусиятларга боғлиқ бўлмай, балки ўсимликнинг ривожланиш даврида ўtkазилган агротехник хусусиятларига ҳам боғлиқлигини уқтирадилар [3; 5].

Ж.Ахмедовнинг [4] олиб борган тажрибаларига кўра, тола узунлиги белгиси тўлиқ бўлмаган устунликда ирсийланади. *G. hirsutum* ва *G. barbadense* турлари ўзаро чатиштирилганда, биринчи авлодда узун толали навни тўлиқ устинлиги кузатилади.

М.И.Иксанов [6] ни фикрича, Республикада узун толали биринчи типга мансуб ғўза навларини келажаги порлоқ, асосан ички талабни ва нафақат хомашё балки тайёр маҳсулот билан ҳам экспорт қилиш даражасидаги имконият борлигida. Айниқса, уларни тола сифати – асосий селекцион белгилари ҳамда қимматли хўжалик кўрсаткичлари, деб ҳисоблайди. Чунки, бу толани нархини аниқлайди, уни бозордаги талабини ва текстил маҳсулотини ассортиментини белгилаб беради.

2022 йил маълумотларига кўра кўп йиллик изланишлар натижасида бир қатор ўрганилган дурагай авлодлар орасидан танлаб олинган юқори тола сифатига эга 8 та оила, назорат кўчватзорида, вилт билан сунъий зарартирилган фонда андоза С-6524 ғўза навига қиёсланиб толасининг технологик сифат кўрсаткичлари ўрганилди. Назорат кўчватзорида ўрганилган ғўза тизмаларнинг толасининг технологик сифат кўрсаткичлари бўйича маълумотлар келтирилган.

Микронейр кўрсаткичи. Жаҳон бозори асосан тола микронейрига катта эътибор қаратади. Микронейр–толанинг чизиқли зичлиги билан ўзаро боғлиқ микрограммнинг дюймга нисбатини, шу билан биргаликда, толанинг пишиб етилганлик даражасини ҳам белгилайди. Ушбу белги бўйича ўрта толали ғўза навларида энг сара оралиқ диапазони 4,0-4,9 бўлиб унинг даражаси “ўрта” саналади. Ўтказилган кузатувларимизда олиб борилган тахлиллар бўйича қуйидаги О-41, (F₅ СултонхAN-16) О-42, (F₅ Бухоро-6xJS-65) О-43, (F₅C-6524 xSP-225), О-44 (F₅C-6524xСултон-16) О-45, (F₅AN-16xC-6524), О-46, (F₅AN-16xC-9088), О-47 (F₅AN-16xSP-225), О-48 (F₅C-9085xАндижон-36) оиласада пахта толасининг микронейр кўрсаткич даражаси 4,1-4,9 оиласада бўлиб “ўрта” оралиқда жойлашганлиги кузатилди. Барча танлаб олинган ва ўрганилган оиласада микронейр кўсатгичи талаб даражасида бўлган.

Солиширма нисбий узилиш кучи (Str). Сифатли ва пишиқ мато ишлаб чиқишида толанинг солиширма нисбий узилиш кучи ёки тола мустаҳкамлиги асосий ўринда туради. Мазкур белги андоза С-6524 ғўза навида 35,0 гк/тексга, О-41, (F₅ СултонхAN-16), О-42, (F₅Бухоро-6xJS-65), О-48 (F₅C-9085x Андижон-36), О-43, (F₅ C-6524xSP-225), О-44 (F₅C-6524xСултон-16), О-45, (F₅ AN-16xC-6524), О-46, (F₅ AN-16xC-9088) О-47 (F₅AN-16xSP-225) 33,4-37,0 гк/текс оралиқларида жойлашганлиги кузатилди. Бунда барча ўрганилган оиласада толасининг мустаҳкамлик даражаси “жуда мустаҳкам” оралиғида бўлганлиги аниқланди.

Юқори ўртача узунлик (UHML). Толанинг асосий сифат кўрсатгичларидан бири бу тола узунлиги хисобланади. Юқори ўртача узунликнинг энг минимал миқдори андоза С-6524 ғўза нави ва О-45, (F₅ AN-16xC-6524) оиласада кузатилиб, 1,10-1,09 дюймни ташкил этди. О-43, (F₅ C-6524xSP-225) ва О-44 (F₅ C-6524xСултон) оиласада 1,12 дюймни, О-46, (F₅ AN-16xC-9088) ва О-47 (F₅AN-16xSP-225) оиласада 1,13 дюймни, О-41, (F₅СултонхAN-16) оиласада 1,14 дюймни ва индикатор сифатида олинган С-4727 ғўза навларида толанинг юқори ўртача узунлиги 1,16 дюймни ташкил этди. Толанинг юқори ўртача узунлиги бўйича энг юқори кўрсаткичларни О-42, (F₅Бухоро-6xJS-65) ва О-48 (F₅C-9085xАндижон-36) оиласада кузатилиб, 1,17-1,19 дюймга тенг бўлиб яъни юқори миқдорларга эга бўлганлиги кузатилди. Тола узунлиги бўйича 0,45 оиласада кўсатгичи андоза навидан ҳам паст бўлган, аммо микронейр кўрсаткичи 4,1 бўлиб ўрта толали навлар орасида тола узунлиги бўйича энг юқори сифатга эгалигини кузатиш мумкун. Шунинг учун ушбу оила бошқа оиласада кейинги селекция жараёнда ўрганишга тавсия этилди.

Узунлик бўйича бир хиллик индекси (Unf). Пахта тўқимачилик саноатида етиширилган толанинг бир хиллик индексига катта эътибор берилади. Чунки қанчалик толанинг бир хиллик индекси юқори бўлса шунчалик тўқимачилик ускуналарини ишлаш бир меъёрда ва унумли бўлиши таъминланиб, ундан сифатли калава олинади. Мазкур белги бўйича андоза С-6524 навида 83,8 % кўрсаткични ташкил этди. Мазкур белги бўйича энг юқори кўрсаткични О-42, (F₅Бухоро-6xJS-65) оиласида 86,0 % бўлган бўлса, О-41, (F₅СултонхАН-16), О-43, (F₅C-6524xSP-225), О-45, (F₅AN-16xC-6524), О-48 (F₅C-9085xАндижон-36) 84,0-85,9 % оралиқларида кузатилиб, бир хиллик даражаси “юқори” ни ташкил этди. Андоза С-6524 ғўза нави ва О-44 (F₅C-6524 xСултон-16) оиласида диапазони бўйича 82,0-83,9 % бўлса, толанинг бир хиллик даражаси “ўртадан юқори” бўлганлиги кузатилди. Оилаларни толасининг бир хиллик даражаси хам талаб даражасида бўлиб “ўртадан юқори” ва “юқори” бўлганлиги аниқланди.

Ип йигирувчанлик коэффициенти (SCI). Янги яратилаётган ғўза навларининг муҳим кўсатгичларидан бири бу толанинг ип йигирувчанлик коэффициенти хисобланади. Шунинг учун қанчалик ушбу кўсатгичи юқори бўлса шунчалик сифатли ва пишиқ мато тўқилади. Ўрганилган 8та оилалардан С-6524 андоза нави ва О-44 (F₅C-6524xСултон-16), О-45, (F₅AN-16xC-6 524) оилаларни кўрсатгичлари 140-149 оралиқларида жойлашган бўлиб, “юқори” мезонга, О-41, (F₅СултонхАН-16), О-42, (F₅Бухоро-6xJS-65), О-43, (F₅C-6524xSP-225), О-46, (F₅AN-16 x C-9088), О-47 (F₅AN-16xSP-225), О-48 (F₅C-9085xАндижон-36) оилаларни кўрсатгичлари 150 дан юқори бўлиб, “жуда юқори” мезонида жойлашганлиги кузатилди. Ип йигирувчанлик коэффициенти бўйича ўрганилган 8 та оиланинг кўрсатгичлари мезон бўйича “юқори” ва “жуда юқори” мезонга жавоб бериши аниқланди (1-жадвал).

1-жадвал

Оилаларнинг толасининг технологик сифат кўрсаткичлари, 2022 й.

№	Нав ва оилалар	Микронейр кўрсаткичи	Солиштирма узилиш кучи Str, гк/текс	Юқори ўртacha узунлик УНМЛ, дюйм	Узунлик бўйича бир хиллик индекси, Unf	SCI -ип йигирувчанлик коэффициенти
1	C-6524 ст	4,7	35,0	1,10	83,8	145
2	О-41, (F ₅ Султон x AN-16)	4,9	36,1	1,14	84,4	157
3	О-42, (F ₅ Бух-6 x JS-65)	4,7	35,3	1,17	86,0	161
4	О-43, (F ₅ C-6524xSP-225)	4,8	36,7	1,12	84,5	157
5	О-44, (F ₅ C-6524 x Султон-16)	4,5	35,2	1,12	83,3	147
6	О-45, (F ₅ AN-16 xC-6524)	4,1	33,4	1,09	84,2	143
7	О-46, (F ₅ AN-16 x C-9088)	4,6	35,5	1,13	83,9	151
8	О-47 (F ₅ AN-16 x SP-225)	4,8	37,0	1,13	86,3	170
9	О-48 (F ₅ C-9085 x Анд-36)	4,9	35,9	1,19	85,3	165

Умуман олганда шуни такидлаб ўтиш жоизки яъне хар бир янги ғўза навини яратилиш жараёни мураккаб ва давомийли бўлиб узига хос талаблардан иборатdir. Хосилдор ва юқори тола чиқимиға эга бўлишидан ташқари унинг толасининг сифат кўсатгичлари биринчи ўринда туради. Чунки ғўза асосан тола учун етиштрилади.

Шунинг учун хар бир селекционер олим олдига кўйган вазифани мақсадли қилиб олиб борса ўйлаган натижаларга эришади. Биз ўз олдимизга кўйган вазифада бугунги кун талабидан келиб чиқкан холда хосилдор ва юқори тола чиқимиға эга бирламчи ашёларни яратишида тола сифат кўсатгичларига хам алоҳида эътибор қаратдик. Бунда ўрганилган оилалар барча тахлил қилинган кўрсатгичлари талаб даражасида бўлганлиги кузатилди, жумладан микронейри 4.1-4.9 сара оралиғида, солиштирма узилиш кучи “жуда мустаҳкам” оралиғида, тола узунлиги бўйича битта оиладан ташқари қолганлари 1.12-1.19 дюймга эга бўлганлиги, толанинг бир хиллик индекси диапазони бўйича “ўртадан юқори” ва “юқори” бўлганлиги, асосий кўсатгичларидан ип йигирувчанлик коэффициенти бўйича “юқори” ва “жуда юқори мезонларда” бўлганлиги қўйилган мақсадга эришилгалигимизни кўсатади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Эгамбердиев А., Алиев А.И., Матякубов Х. Фўзанинг юқори тола сифатига эга бўлган тизмалар. // Фўза генетикаси, селекцияси, уруғчилиги ва бедачилик масалалари тўплами. – Тошкент, 1995. – Б. 16-20.
2. Эгамов Х., Қосимов А., Раҳмонов З., Тешаев А. Янги фўза тизмаларининг технологик сифат кўрсаткичлари. // “Фўза ва фўза мажмууда экинларни парвариш агротехнологияларини такомиллаштириши” Респ. Илмий-амалийанжумани. – Тошкент. 2013. – Б. 377-378.
3. Ортиқов С., Ибрагимов П.Ш. “Ҳосилни териш муддатининг тола сифатига таъсири” // “Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги” журнали 2-сон, Тошкент-1993, -Б. 17.
4. Ахмедов Ж.Х., Уралов С., Нуритдинов А., Нурмаматов А., Уралов Ж. Янги яратилаётган фўза навларини тола сифатини ошириш. // “Фўза ва фўза мажмууда экинларни парвариш агротехнологияларини такомиллаштириш” Респ. Илмий-амалий. Анжуман. – Тошкент. 2013. – Б. 326-328.
5. Миржўраев М.М. Влияние агротехнических факторов на технологические качества хлопкового волокна. Сб.работ аспирантов СоюзНИХИ, Ташкент, 1959, стр 109-110
6. Иксанов М.И. Качество волокна новейших сортов и линий тонковолокнистого хлопчатника. Материал международной научно-практической конференции «состояние селекции и семеноводства хлопчатника и перспективы ее развития» посвященной 110-летию академика А.И.Автономова, 80-летию академика С.М.Мирахмедова и профессора А.А.Автономова. УзНПЦСХ, Ташкент-2006, стр 192-194
7. Каримов Э.Ё., Шеримбетов А.Г. Изменение показателей крепости тонины, верхней и средней длины всех волокон, путём направленного отбора у хлопчатника вида *G.hirsutum L.* // Фундаментал фан ва амалиёт интеграцияси: муаммолар ва истиқболлар. Респ. Илмий-амалий конф. – Тошкент. 2018. – Б. 208-209.

УЎК:634.5, 635.6

ФЎЗАНИ СУГОРИШ ТАРТИБЛАРИНИ ПАХТА ҲОСИЛДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ**Ю.Р.Аширов, докторант, ТошДАУ, Тошкент****С.Х.Исаев, қ.х.ф.д., профессор “ТИҚҲММИ”МТУ, Тошкент**

Аннотация. Уибу мақолада ўтлоқи бўз тупроқлар шароитида гўза навларини сугориши тартибларига боғлиқ ҳолда сугорилганда дарё суви $195-475 \text{ м}^3/\text{га}$ иқтисод қилиниши, гўза қатор орасига ишлов берии қисқаршии, ёқилги мойлаш материаллари иқтисод қилиниши, пахта ҳосилдорлиги сугориши тартибларига нисбатан гектарига $1,6-3,3 \text{ ц}/\text{га}$ ча қўшимча ҳосил олиши мумкинлиги бўйича маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: механик таркиби, ўтлоқи бўз, сугориши тартиблари, туроқ ҳажсм массаси, сугориши меъёри, пахта ҳосилдорлиги.

Аннотация. В данной статье в зависимости от способов орошения сортов хлопчатника с экономом воды составляет $195-475 \text{ м}^3/\text{га}$, снижается междурядная обработка хлопчатника, экономия горюче смазочных материалы, урожайность хлопчатника $1,6-3,3 \text{ ц}/\text{га}$ о сравнению способов орошения хлопчатника.

Ключевые слова: механический состав, луговые очвы, способы орошения, обёмная массас очвы, нормы орошения, урожайность хлопчатника.

Abstract. In this article were given different information about savings son river water resources to $195-475 \text{ m}^3/\text{ga}$ during different types of irrigation of cotton-plant in conditions of topical grew soil, decreasing of definamental cotton-plant between rows, savings on fuel-grease materials and getting of extra yield capacity to $1,6-3,3 \text{ sentinel}$ of cotton-plant.

Keywords:mechanical composition, meadow soils, irrigation methods, volumetric mass of soil, irrigation standards, cotton productivity.

Кириш: Фўза дунёнинг бешта қитъасида: Осиё, Америка, Африка, Австралия ва Европада ўстирилади. «Фўза ўстиришнинг шимолий ареали шимолий кенгликнинг $38-47^{\circ}$ параллелидан (Қорақалпоғистон Республикаси), жанубий чегараси кенгликнинг 35° параллелидан (Австралия) ўтади. Бугунги кунда дунё миқёсида пахта хомашёсини етиштириш ҳажмининг асосий қисми 5 та давлат, яъни Хитой, АҚШ, Ҳиндистон, Покистон ва Ўзбекистон хиссасига тўғри келмоқда. International Cotton Advisory Committee (ICAC) маълумотларига кўра, 2020 йилда дунёда пахта хомашёси етиштириш ҳажми 23 млн. тоннани ташкил этган ва кўп йиллик меъёрга нисбатан 4 фоизга ошганлиги кузатилган». Пахта етиштирувчи давлатларда ва республикамизда фўза ҳосилдорлигини оширишда илғор агротехнологиялар асосида етиштириш, айниқса тупроқни ҳимояловчи, ресурстежамкор технологиядан

фойдаланиш, ғўза қатор ораларига ишлов беришда ҳайдов қатлами унумдорлигини сақлаш ва сифатли ҳосил олиш долзарб ҳисобланади.

Дунёда глобал иқлим ўзгариши шароитида деградация жараёнларини олдини олиш ҳамда қишлоқ хўжалик экинларидан юқори ҳосил етиштиришга тупроққа минимал ишлов бериш орқали эришилмоқда. Шу нуқтаи назардан қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришни кўпайтириш учун ғўзанинг қатор ораларига ишлов беришда тупроқни ҳимояловчи ва ресурстежамкор технологияларни ишлаб чиқиш ва кенг жорий этиш, миңтақа табиий тупроқ иқлим ҳамда экологик шароитларини ҳисобга олган ҳолда мазкур илмий тадқиқот ишлари долзарб бўлиб ҳисобланади.

Сўнги йилларда дунё бўйича қишлоқ хўжалигига деградацияга учраган ерлар майдони ортиб бормоқда, хусусан, сув эрозияси жараёни таъсирида 56 фоиз, шамол эрозияси таъсирида 28 фоиз, тупроқда озука моддалари микдорининг камайиши, шўрланиш, ифлосланиш, нордонлашиш жараёнлари туфайли 12 фоиз ва зичлашиш, ботқоқлашиш, чўкиш жараёнлари таъсирида эса 4 фоиз ерларнинг ҳолати ёмонлашмоқда. Деградация жараёнлари натижасида ҳар йили 7 млн гектар экин майдонлари қишлоқ хўжалик фойдаланувидан чиқиб кетиш ҳолатлари учрамоқда. Шунингдек, дунёнинг 80 та мамлакати чучук сув танқислиги муаммосига дучор бўлган, Н.Шакиров [1].

Механик таркиби ҳар хил бўлган тупроқни капиллярлар орқали кўтариш вақтни текшириб, шундай хуносага келган: тупроқ қаватининг қалинлиги қанчалик баланд бўлса, механик таркиби бир хил бўлишига қарамай, қалинлиги кам бўлишига нисбатан намнинг капиллярлар орқали кўтарилиши секин бўлади, чунки тупроқ таркибидаги ҳавони қаршилиги ҳисобига кўтарилиш секинлашади, М.А.Панков [2].

Сизот сувлар чуқурлиги 0,8-1,0 м бўлганда унинг таркибидаги умумий тузлар миқдори хлор иони 0,17 г/л, 1,0-1,5 м-тузларга тегишлича 1,0-2,0; 0,17-0,27; 1,5-2,5 м-2,0-3,0 ва 0,27-0,37 г/литр бўлиш кераклиги айтилган, яъни минераллашган сизот сувлар таркиби учун қўйидаги чуқурликни тавсия этишган, Қ.Мирзажанов, А.Каримов, С.Исаевлар [3].

Республикада ҳозирда сувни ҳар томонлама тежаш, дарёлар оқимини тўйлик бошқариш, сугориш тизимларини техник такомиллаштириш, замонавий технологияларни кўллаш, кам сув истеъмол қиласиган экинларни экиш ва интродукция қилиш ҳисобига сув танқислигини бартараф этиш мумкин дейишган, О.Рамазанов, М.Халмирзаева, В.Насонов [4].

Тошкент вилоятининг типик бўз тупроқлар шароитида ғўзани қора полиэтилен плёнка тўшаб сугоришда тупроқ намлиги яхши сақланиши, тупроқ ҳажм массасининг яхшиланиши ҳамда сугориш суви тежалиши аниқланган ва ишлаб чиқариш шароитига тавсия этилган, Г.А.Безбородов [5].

Тошкент вилоятининг типик бўз ва кам шўрланган, сульфат шўрланиш типига мансуб ўтлоқи бўз тупроқлар шароитида ғўзанинг ўсув даврида сугоришни қатор оралатиб, мавсумий сув меъёрини тупроқнинг ўсимлик илдиз тизими тарқалган 0–50 см ҳисобий қатламида: механик таркиби ўрта ва оғир қумоқ типик бўз тупроқларда гектарига 450-500 м³, механик таркиби енгил ва ўрта қумоқ ўтлоқи бўз тупроқларда эса гектарига 350-400 м³ меъёрда белгилаш ҳамда тупроқ намлиги ЧДНСга нисбатан 65-65-60% ва 70-70-60% тартибларда қатор ораси қора полиэтилен плёнка ва сомон билан вариантлардан энг юқори пахта ҳосили олиш, қўшимча пахта ҳосил оддий эгат орқали сугорилган вариантга нисбатан гектарига 4,9-6,8 ва 6,1-8,1 центнерни ташкил этиб, тупроқ намлиги ЧДНСга нисбатан 70-70-60% сугориш тартибида барча тажриба вариантларида юқори бўлиши, 65-65-60% тартибга нисбатан гектарига 0,6-3,5 центнер қўшимча ҳосил олингани қайд этилган, А.С.Шамсиев [6].

Тажриба обьекти: Жиззах вилоятининг Пахтакор туманидаги Жиззах тажриба станцияси даласида ғўзанинг С-6524 ва Пахтакор-1 навларининг сугоришда ғўзани сугориш олди туроқ намлиги ЧДНСга нисбатан 65-65-60 %; 70-70-60 % ва 75-80-70 фоиз тартибда ўтказишда тупроқни бир текисда намланишини таъминлаш сув танқислиги сезилаётган ҳозирги вақтда ўта долзарб ҳисобланади.

Ғўзани сугориш тартибларида сув сарфини камайтириш билан тупроқни сифатли намланишига эришиш ва пахтадан юқори ва сифатли ҳосил олиш мақсадида 2018-2020

йилларда Жиззах вилоятининг ўтлоқи бўз тупроқлари шароитида илмий тадқиқотлар олиб борилди.

Тажриба 6 вариантдан иборат бўлиб, қуйидагича яъни 1 ва 4 вариантлар ғўзани суғориш олди туроқ намлиги ЧДНСга нисбатан 65-65-60 фоиз тартибда, 2 ва 5 вариантлар ғўзани суғориш олди туроқ намлиги ЧДНСга нисбатан 70-70-60 фоиз тартибда, 3 ва 6 вариантлар ғўзани суғориш олди туроқ намлиги ЧДНСга нисбатан 75-80-70 фоиз тартибда ва 4 та такрорланишда олиб борилди. Ҳар бир вариантнинг майдони $7,2 \times 50 = 360 \text{ m}^2$ ни ташкил қилиб, 1 ярусда жойлаштирилган. Тажрибанинг умумий майдони эса 0,86 га ни ташкил этади.

Тажриба методикаси дала тажрибалари ПСУЕАИТИда қабул қилинган «Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах» (СоюзНИХИ, 1963 г.) ва «Методика полевых опытов с хлопчатником» (СоюзНИХИ, 1981 г.) услубий қўлланмалари асосида олиб борилди, [7, 8].

Илмий тадқиқот тажрибада даласида маъдан ўғитларни йиллик меъёри N-200 кг/га, Р-140 кг/га ва К-100 кг/га қўлланилди. Фосфорли ва калийли ўғитларни 70 фоизи кузги шудгордан олдин, қолган қисми экишдан олдин берилди. Ғўзага азотли ўғитларни 20-25 фоизи экишдан олдин қолган қисми ғўзани шоналаш ва гуллаш даврида берилди. Илмий изланишларимиз ғўзанинг С-6524 ва Пахтакор-1 навларида олиб борилди.

Ўтлоқи бўз туроқлари шароитида тажриба даласида тупроқнинг 0-100 см қатламида чиринди миқдори 0,820-0,845-0,825 фоиз (2018-2020 йй) ни, ҳаракатчан формадаги фосфор-29,6-27,8-26,2 мг/кг ни, нитратли азот 12,6-11,8-12,4 мг/кг ни ва калий 155-142-100 мг/кг ни ташкил этди.

Тажрибанинг натижалари 2018-2020 йилларда ўтказган тадқиқотларда тупроқнинг ҳажм оғирлиги эрта баҳорда 0-50, 0-70 ва 0-100 см қатламларда 1,40-1,41-1,42 г/см³ (2018 й), 1,38-1,40-1,41 г/см³ (2019 й) ни ва 1,36-1,37-1,38 г/см³ (2020 й) ни ташкил этди. Вегетация даврининг охирига келиб, тадқиқотлар олиб борилган йилларда тупроқнинг ҳажм оғирлиги барча варианtlарда бироз ошганлиги кузатилди.

Ғўза навларини суғориш олди тупроқ намлиги ЧДНСга нисбатан 65-65-60 фоиз тартибда 1 ва 2-вариантларда (иккала ғўза навида ҳам) тупроқнинг 0-50, 0-70 ва 0-100 см қатламларида тупроқнинг ҳажм оғирлиги 0,03-0,04-0,05 г/см³ гача кўпроқ зичлашганлиги аниқланди.

Ғўза навларини суғориш олди тупроқ намлигини ЧДНСга нисбатан 65-65-60 фоиз тартибда суғорилганда 5 марта, ғўзани амал даврида 4 маротаба, суғориш олди туроқ намлиги ЧДНСга суғориш олди туроқ намлиги ЧДНСга нисбатан 70-70-60 фоиз тартибда нисбатан 75-80-70 фоиз тартибда парваришланган варианtlарда эса 3 маротаба суғориш амалга оширилди.

Дала тажрибасида ғўза навларини суғориш олди тупроқ намлиги ЧДНСга нисбатан 65-65-60 фоиз тартибда 1 ва 2-вариантларда мавсумий суғориш меъёри (ўртacha уч йилда) 3785 м³/га ни ташкил этган бўлса, ғўзани суғориш олди туроқ намлиги ЧДНСга нисбатан 70-70-60 фоиз тартибда 3 ва 4-вариантларда мавсум давомида ҳар гектар ерга 3590 м³/га ни, ғўзани суғориш олди туроқ намлиги ЧДНСга нисбатан 75-80-70 фоиз тартибда 5 ва 6-вариантларда мавсум давомида ҳар гектар ерга 3310 м³/га сув сарфланганлиги аниқланди.

Олиб борилган илмий тадқиқотлар натижасига кўра энг юқори ҳосил ўртacha уч йилда-34,5 ц/га ғўзанинг Пахтакор-1 навини суғориш олди тупроқ намлиги ЧДНСга нисбатан 75-80-70 фоиз тартибда ўтказилган 6-вариантда олинди. Бу вариантда ғўзанинг С-6524 навига нисбатан 3,31 ц/га юқори ҳосил олинганлиги аниқланди, (1-жадвал).

1-жадвал

Ғўзани суғориш тартибларининг суғориш меъёри ва пахта ҳосилдорлиги, ц/га

Вар т/р	Ғўза навлари	Суғориш олди туроқ намлиги ЧДНСга нисбатан фоиз	Суғориш меъёри, м ³ /га	Ҳосилдорлик, ц/га	Кўшимча ҳосил, ц/га
1	C-6524	65-65-60	3785	28,9	
2	Пахтакор-1	65-65-60	3785	30,5	+1,6
3	C-6524	70-70-60	3590	29,8	
4	Пахтакор-1	70-70-60	3590	32,4	+2,6
5	C-6524	75-80-70	3310	31,2	
6	Пахтакор-1	75-80-70	3310	34,5	+3,3

Хулоса: Жиззах вилоятининг ўтлоқи бўз тупроқлари шароитида ғўзанинг Паҳтакор-1 навини суғориш олди тупроқ намлиги ЧДНСга нисбатан 75-80-70 фоиз тартибда ўтказилган 6 варианта 34,5 ц/га ёки шу тартибда ғўзанинг С-6524 навига нисбатан қўшимча 3,3 ц/га юқори пахта ҳосилдорлигига эришилганлиги аниқланди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Н.Шакиров-“Сугориладиган ерлар ва яйловларнинг таназзулга учрашини олдини олиш чоралари” Тошкент. ЎзМУ, 2016 йил, 23 бет.
2. М.А Панков -Мелиоративное почвоведение, Тошкент, 1974, с.30-36.
3. А.Х.Каримов, Қ.М.Мирзажонов, С.Х.Исаев-Повышение продуктивности использования водных ресурсов на уровне фермерских хозяйств //Водосбережение: технологии и социально-экономические аспекты Тараз-2002 г, 162-бет.
4. О.Рамазанов, М.Халмирзаева, В.Насонов-«Дехқончиликда сув танқислиги: муаммо ва ечим»-//Агро илм Ўзбекистон кишлоп хўжалиги журнали 1-сон, Тошкент-2008 йил, 41-бет.
5. Г.А.Безбородов, Ю.Эсанбеков, А.Шамсиев. Ш.Низамов-Влияние мульчирования почвы на её агрофизические свойства и продуктивность хлопчатника-Ўзбекистон пахтачилигини ривожлантириш истиқболлари мавзусидаги республика илмий анжуман тўплами, Тошкен-2014 йил 2-кисм, 254-256-бет.
6. А.С.Шамсиев-Қатор орасини мулчалаб суғориш орқали ғўзанинг сув истеъмолини мақбуллаштириш: к/х..фан...докторлик дис...автореферати. Тошкент.: ПСУЕАТИ, 2015. 1-26 б.
7. «Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах», СоюзНИХИ, 1963 й, 168 бет.
8. «Методика полевых опытов с хлопчатником» СоюзНИХИ, 1981 й., 197 бет.

УЎК 631.4.5. 633

**СИДЕРАТ ЭКИНЛАРИДАН КЕЙИН АСОСИЙ ЭКИНЛORИДАН ҒЎЗА ВА СОЯ
ЭКИНЛАРИНИНГ ҲОСИЛДОРЛИК КЎРСАТГИЧЛАРИГА ТАЪСИРИ**

**Д.Н.Бекназаров, таянч докторант, Жанубий дехқончилик илмий тадқиқот
институти, Қарши**

Аннотация. Сидерат экинидан кейин экилган ғўза ва соя экинларининг ўсиб ривожланиши даврининг ўсии, шоналаш, гуллаш, қўсаклаш ўсимликнинг ҳосилдорлигига ижобий таъсирни кўрсатиши.

Калим сўзлар: Сидерат, ғўза, соя, экини, ўсии, чин барг, етти саккиз барг, шохлаш, гуллаш, дуккаклаш, қўсаклаш, қўсак очилиши.

Аннотация. Период роста хлопчатника и сои, посаженных после посева сидерата, положительно влияет на продуктивность растения в период роста, кущения, цветения и бутонизации.

Ключевые слова: Сидерат, хлопок, семена, урожай, рост, настоящий лист, семь или восемь листьев, ветвление, цветение, бобы, бутонизация, раскрытие бутонов.

Abstract. The growth period of cotton and soybeans planted after sowing green manure has a positive effect on the productivity of the plant during the period of growth, tillering, flowering and budding.

Keywords: Green manure, cotton, seeds, harvest, growth, true leaf, seven or eight leaves, branching, flowering, beans, budding, opening of buds.

Кириш. Аҳолини қимматли озиқ-овқат маҳсулотига бўлган талабини қондиришида алмашлаб экиш энг муҳим ўринни эгаллайди. Тупроқ унумдорлигини сақлаш ва ошириш, экинлардан юқори ҳосил олишда, қишлоқ хўжалик экинларини навбатлаб экишнинг самарали ҳамда такомиллаштирилган услубларидан фойдаланишини талаб этади.

Республикамизнинг жанубий минтақасида сидерат сифатида жавдар, хантал асосий экин ғўза экинининг экилиши тупроқ унумдорлигини сақлаш ва оширишнинг илмий асослари чукур ўрганилмаган. Таъкидлаш жоизки, кузги сидерат жавдар, хантал асосий ғўза экинининг экилиши уларнинг ҳосилдорлиги ва тупроқнинг хоссаларига таъсири тўғрисида етарлича тадқиқотлар олиб борилмоқда.

Жавдар енг яхши яшил гўнг экинларининг ёрқин вакилларидан биридир, чунки у тупроқни жуда кўп фойдали бирикмалар билан бойитиш қобилиятига эга. Жавдарнинг толали

илдиз тизими унинг униб чиқишининг шундай тез ўсишини таъминлайди, улар бегона ўтлар уларга етиб келганидан анча олдин барча "фойдали" нарсаларни ўзлаштира олади. Шунингдек, жавдар етарлича юқори биологик фаоллик билан фахрланиши мумкин, бу унга қимматбаҳо элементларни катта қийинчилик билан парчаланадиган моддалардан ажратиб олишга имкон беради.

Хантал, горчица — карамдошлар оиласининг *Sinapis* ва *Brassica* туркумига мансуб бир ва қўп йиллик ўтсимон ўсимликлар туркуми; мойли экин. Ватани — Ўрта денгиз ўйлари. Европа, Шим. Африка ва Осиёда тарқалган. *Sinapis* туркуми 7—10 турни ўз ичига олади. Оқ хантал тури (*S.Alba*) Ўрта денгиз мамлакатларида ўстирилади, асосан, Ғарбий Европада экилади. Бўйи 25 — 100 см, пояси тик ўсади. Тўпгули қўп гулли, икки жинсли, ўзидан ҳамда четдан чангланади. Меваси қўзоқча. Уруғи оч сариқ ёки оч жигарранг, таъми аччиқ, эфир ҳиди келади. Ёввойи ёки дала Хантали (*S.Arvensis*) бир йиллик (баҳорги экинлар далаларида ўсадиган) бегона ўт. Европа, Шим. Африка ва Осиёда тарқалган. Қора хантал (*S.nigra*) қўзоқлари пояга ёпишган. Кичик Осиё, Европа ва Америкада экилади.

Шунинг учун алмашлаб экиш тизимларига оралиқ экин кузги сидерат жавдар, хантал экини экилиб асосий ғўза экинини экиш тупроқ унумдорлигини сақлаш ва оширишдаги аҳамиятини илмий асослаш ва фермер хўжаликларга татбиқ этиш ҳозирги куннинг долзарб вазифаси ҳисобланади.

Тақдим этилаётган янги агротехнология ресурстежамкор, тупроқ унумдорлигини қайта тикловчи, оширувчи, тупроқ экологиясини яхшиловчи ва экологик тоза, сифатли қишлоқ хўжалик маҳсулотларини етиштиришга мўлжалланган, шунингдек унумдорлиги паст тупроқлар унумдорлигини ошириш учун сидерат экинларни экиш орқали тупроқ унумдорлигини оширишнинг илмий асосларини ишлаб чиқишга қаратилган.

Ғўза экинидан олинган ҳосилдорлик(Қарши-2023 й)

Экин тури	№1	Қайтариқлар						Жаъми ҳосил ц/га	
		100 та кўсак оғирлиги пр.	1 дона кўсак оғирлиги пр.	I	II	III			
				ҳосил кг ц/га	ҳосил кг ц/га	ҳосил кг ц/га			
Назорат	1- терим	567,8	5,7	28,9	28,3	27,8	27,2	28,4	27,7
	2- терим	232	4,6	11,8		11,4		11,4	
	Жами ҳосил	799,8		40,7		39,1		39,7	
Сидерат жавдар	1- терим	628,4	6,3	34,1	33,3	33,9	32,9	32,7	32,6
	2- терим	251,1	5	13,8		13,5		13	
	Жами ҳосил	879,5		47,9		47,4		45,6	
Сидерат хантал	1- терим	602,4	6	31,8	30,6	32,6	31,3	31,1	30,6
	2- терим	233	4,7	12,2		12,5		12,2	
	Жами ҳосил	835,5		44,1		45,1		43,3	

Жанубий дехқончилик илмий тадқиқот институтининг Қарши тумани С. Рахимов худудида жойлашган тажриба даласида 2022-йилда экилган кузги сидератдан кейин 2023-йил эрта баҳорда сидерат экинини шудгорлаб асосий экин сифатида экилган ғўза экини экиб илмий тадқиқот ишлари олиб борганимизда ғўза экининг ҳосилдорлиги қайтариқлар бўйича назорат гектар ҳисобида 27,7 ц/га ҳосил олинди. Кузги сидерат жавдар экилган қайтариқда ҳосилдорлиги гектар ҳисобига 32,6 ц/га ҳосил олинди, назоратга нисбатан ҳосилдорлик 4,9 ц/га юқори бўлганлиги илмий таҳлил қилинди. Кузги сидерат хантал экилган қайтариқда ҳосилдорлик гектар ҳисобига 30,6 ц/га ҳосил олиниб назоратга нисбатан 2,9 ц/га ҳосилдорлик юқори бўлганлиги илмий таҳлил қилинди. Кузги сидерат жавдар экилган тажриба майдонимиздаги ғўза ҳосилдорлиги сидерат хантал экилган тажриба майдонига нисбатан 2 ц/га юқори бўлди. Шунда кузги сидерат жавдар экининг илдизи попук илдиз бўлиб кўк масса ва илдиз анғиз қолдиқлари тупроқ таркибида ц/га ҳисобига юқори бўлиб сидерат

хантал экининг илдизи ўқ илдиз бўлиб попук илдизлари камлиги учун кўк масса ва илдиз анфиз қолдиқлари тупроқ таркибида ц/га ҳисобига кам бўлганлиги учун ҳосилдорлик сидерат жавдар экинига нисбатан 2 ц/га кам бўлганлиги илмий таҳлил қилинди. Тадқиқот олиб борилган жой номи ЖДИТИ дала тажриба майдонида кузги сидерат учун экилган жавдар ва хантал экинидан кейин асосий экин сифатида экилган экин Соянинг “Ойжамол” нави экиб ўрганилди.

Кузги <u>сидерат+соя</u> Қарши-2023 й.												
№	Ўсим бўйи, см	Ҳосил шоҳ сони дона	Дуккаклар сони дона	Ўсим бўйи, см	Ҳосил шоҳ сони дона	Дуккаклар сони дона	Ўсим бўйи, см	Ҳосил шоҳ сони дона	Дуккаклар сони дона	Ўсим бўйи, см	Ҳосил шоҳ сони дона	Дуккаклар сони дона
1-Назорат+Соя			2-Сидерат+Соя			3-Сидерат+Соя			Уртacha			
1	59	3	99	62	5	114	62	5	106	62	5	110
2	58	3	101	62	5	121	65	5	113	63	5	117
3	61	5	98	69	5	119	63	5	114	66	5	117
4	57	4	84	74	6	129	68	5	125	71	5	127
5	58	3	91	62	5	127	63	5	114	62	5	120
6	61	4	99	63	6	121	62	5	106	62	5	113
7	60	4	95	69	6	137	69	5	122	69	6	129
8	60	5	89	61	5	135	60	5	114	60	5	125
9	59	4	98	65	5	137	65	5	123	65	5	130
10	57	3	93	64	4	134	62	4	120	63	4	127
11	55	3	86	74	5	140	69	5	115	72	5	128
12	61	5	97	72	6	147	69	6	126	71	6	137
13	56	3	95	67	4	140	69	5	126	68	5	133
14	61	4	89	78	6	152	74	6	135	76	6	143
15	60	4	99	79	6	139	72	5	119	75	6	129
16	63	5	102	76	5	144	71	5	124	73	5	134
17	59	4	97	76	7	142	69	5	113	72	6	128
18	61	5	104	79	7	140	72	5	117	75	6	128
19	56	3	92	83	7	159	76	6	129	79	6	144
20	54	4	98	76	7	147	72	6	129	74	6	138
21	60	5	103	72	7	143	70	5	124	71	6	133
22	59	4	95	70	6	145	67	5	124	69	5	134
23	61	5	102	72	5	133	66	5	113	69	5	123
24	57	3	98	73	5	136	66	5	108	69	5	122
25	59	4	104	68	5	138	66	5	119	67	5	128
Уртacha	59	4	96,3	70	5,6	136,7	67	5	119	69	5	128

Соя экинида фенологик кузатувлар ҳар бир варианtlар бўйича 25 та ўсимликдан олиб борилди 2-вариант Сидерат+Соя ўсимликнинг бўйи ўртacha 70 см ни ҳосил шоҳлар сони ўртacha 5,6 та ни дуккаклар сони ўртacha 136,7 та ни, ташкил қилди 3-вариант Сидерат+Соя ўсимлигининг бўйи ўртacha 67 см ни, ҳосил шоҳлар сони ўртacha 5 та ни, дуккаклар сони ўртacha 119 та ни, ташкил қилди Назорат 1-вариантимизда эса ўсимлик бўйи 59 см ни, ҳосил шоҳлар сони 4 та ни, дуккаклар сони 96,3 та ни, ташкил қилди. Назорат экинига нисбатан Сидерат экилган дала тажриба майдонидаги 2-вариант Соя экинининг бўйи 11,5 см юқори бўлганлиги ҳосил шоҳлар сони 1 та кўп бўлганлиги дуккаклар сони эса 40,4 та юқори бўлганлиги аниқланди. Назорат экинига нисбатан Сидерат экилган дала тажриба майдонидаги 3-вариант Соя экинининг бўйи 7 см юқори бўлганлиги аниқланди. Назорат экинига нисбатан Сидерат экилган дала тажриба майдонидаги 3-вариант Соя экинининг ҳосил шоҳлар сони 1 та кўп бўлганлиги дуккаклар сони эса 22,7 та юқори бўлганлиги аниқланди. Кузги Сидератга экилган дала тажриба майдонидаги Соя экиннинг варианtlар ўртачаси Назорат экинига нисбатан бўйи 10 см узун бўлганлиги ҳосил шоҳлар сони 1 та кўп эканлиги дуккаклар сони эса 31,7 та кўп бўлганлиги аниқланди.

Хулоса. Тадқиқот натижаларидан шуни хулоса қилиш жоизки. Кузги сидерат экилган майдонларни эрта баҳорда шудгор қилиш тупроқ унумдорлигини яхшиланишни йилдан йилга ошириш ва сақлаш алмашлаб экишни жорий қилиш кузги сидератдан кейин асосий экин сифатида Гўза экиннинг ўсиб ривожланиши ҳосилдорлик ва тола сифат кўрсатгичларига таъсирни бўйича илмий тадқиқотлар олиб борилди. Тадқиқот натижаларидан шуни хулоса қилиш жоизки. Кузги сидерат экилган майдонларни эрта баҳорда шудгор қилиш тупроқ унумдорлигини яхшиланишни йилдан йилга ошириш ва сақлаш алмашлаб экишни жорий қилиш кузги сидератдан кейин асосий экин сифатида Соя экиннинг ўсиб ривожланиши ҳосилдорлик кўрсатгичларига ва дон таркибидаги сифат кўрсатгичларига таъсирни ҳам ўрганишдир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. С.А. Азимбоев Дехқончилик, тупроқшунослик ва агрокимё асослари // Т-2006 й.-Б-43-45.
2. А.Л.Санакулов, Э.Ю.Бердибаев, Ю.Ч.Кенжаев Дехқончилик илмий изланиш асослари фанидан лаборатория машғулотлари // Т-2014 й.-Б 69-72.
3. И.М Раҳматов Ш.Б. Джумаев Қашқадарё вилояти шароитида ғўздан юқори ҳосил олишини таъминлайдиган агротехник тадбирлар бўйича тавсиялар Қарши – 2018 й - Б -29 -30.

УЎҚ 633.2/4:581.526.534.

ЯНТОҚ (ALHAGI PSEUDALHAGI) ЎСИМЛИГИ ЧОРВА ҲАЙВОНЛАРИ УЧУН МУҲИМ ОЗУҚА

Б.Бекчанов, қ.х.ф.н., кат. и. х, Қоракўлчилик ва ҷўл экологияси ИТИ, Самарқанд

Аннотация. Мақолада янтоқ ўсимлигининг ботаник, эколого-физиологик хусусиятлари ва ҳўжалик аҳамияти ҳақида баён қилинган.

Калим сўзлар: бута, ярим бута, гул қўргони, бошоқсимон, қумли ҷўл, шўр, тошлоқ ер, қўнгир – бўз тупроқ, новда, уруғ, ҳосилдорлик, ҳўжалик аҳамияти

Аннотация. В статье описаны ботанические, эколого-физиологические свойства и хозяйственное значение растения верблюжья колючка.

Ключевые слова: кустарник, полукустарник, цветочный холмик, осока, песчаная пустыня, солончак, каменистая почва, буро-серая почва, ветка, семя, урожайность, экономическая ценность

Abstract. The article describes the botanical, ecological-physiological properties and economic importance of the alhagi pseudalhagi.

Key words: shrub, semi-shrub, flower mound, sedge, sandy desert, saline, rocky ground, brown-gray soil, branch, seed, yield, economic value

Республикамида ҷўл-яйлов чорвачилигига фойдаланилаётган яйловлар асосан қурғоқчил минтақалар (ҷўл ва тоғ олди адирлар) ҳисобланиб, ушбу майдонларда чорва ҳайвонлари йил давомида боқилади. Бироқ табиий яйловларнинг ҳосилдорлиги ўта паст (1,5-3,5 ц/га) ва иқлим шароитларига боғлиқ бўлиб, нафақат йиллар, бальки йил мавсумлари давомида ҳам кескин ўзгариб туради. Айниқса қиши ойларида озуқа танқислиги вужудга келади. Бундай ҳолатларнинг олдини олиш учун янтоқ ўсимлигидан фойдаланиб суний янтоқзорларни барпо қилиш орқали қиши фасли учун чорва ҳайвонларига озуқа базасини яратиш имконияти мавжуд.

Alhagi pseudalhagi - янтоқ (Alhagi) – дуккакдошлар оиласига мансуб кўп йиллик бегона ўтлар туркуми. Ўрта Осиёнинг дашт, ҷўл, чала ҷўлларда ҳамда Россиянинг Европа қисмидаги чала ҷўл раёнларда 5 тури (A. pseudalhagi (M.B) Dosv, A. persarum Boiss, A. kirghisorum Schronk, A. sparsifolia, A. conescens) маълум. Ўзбекистонда янтоқнинг соҳта янтоқ ва қирғиз янтоқ тури ўсади. Бўйи 40-110 см, тик, сершоҳ, илдизи кучли ривожланган, ер ости сувларигача етиб боради (10 м ва ундан ортиқ). Барг қўлтиғида қаттиқ тиканларн бор. Барглари чўзиқ, наштарсимон, барг банди калта, кетма-кет жойлашган. Гуллари майда, қизил ёки пушти. Май-сентябрда гуллайди, август-октябр ойларида уруғлайди. Меваси 10 тагача

уруғ бўлган дуккак. Янтоқнинг ер устки қисми қишида қуриб қолади, баҳорда илдиз бўғзидаги куртаклардан янги поялар ўсиб чиқади. Уруғи ва илдиз бачкиларидан кўпаяди. Уруғ пўстлоғи қаттиқ бўлганилиги туфайли жуда секин унади. Янтоқнинг ҳамма тури туючилик ва қўйчиликда яхши озуқа хисобланади. Гули ва илдизидан халқ табобатида турли дамламалар тайёрланади. Янтоқдан юқори сифатли ем-хаشاқ, силос ва озиқ уни олинади. Янтоқнинг химиявий таркиби И.В. Ларин ва бошқалар томонидан яхши ўрганилган (1951й). Янтоқ ғунчалаш фазаси давригача 14,8 % протеин ва ғунчалаш даврида эса 12,3 %, гуллаш фазаси даврида 11,6 %, уруғ ҳосил қилиш даврида 10 %, куз фаслида қуруқ хашаги таркибида 9,1 % протеин бўлади. Хом ёғ миқдори 1,9 дан 3,2 % гача бўлади. Янтоқ таркибида А ва С витаминалари бор. Унинг ўсиш даврида 100 г қуруқ маддасида 16,13 мг каротин ғунчалаш ва гуллаш даврида 5,15, ва уруғи пишиб етилганда 1,06 мг каротин мавжуд. Янтоқнинг 100 килограмм қуруқ хашаги таркибида 38, озуқа бирлиги, 3,2 кг ҳазм бўлувчи оқсил, мева ҳосил қилган даврида 38,5 озуқа бирлиги, 3,1 кг ҳазим бўлувчи оқсил мавжуд (Чаплин, 1959). Янтоқнинг яна бир хусусиятлардан бири, тупроқда 1-гектар майдонда 200 кг гача азот тўплаб, ернинг ҳосилдорлигини оширади (Келлер, Шапоренко, 1933). Янтоқ ўсаётган майдонлар тупроғи унумдор ҳисобланиб келинган.

Янтоқнинг-Alhagi pseudalhagi тури Озарбайжон, Астрахан, Доғистон, Қозоғистон, Туркманистон ва Ўзбекистонда шувоқ, эфемерлар, чалабута, астрагал ва бошқа тур ўсимликлар билан бирга ўсади. Республикаизда 1 гектар майдонда 150-200 минг тупгача янтоқ ўсади. Қуруқ хашаги ҳосилдорлиги 6 дан 40 ц/га ча, кўк массаси 12-120 ц/га ча бўлади. Янтоқ таркибидаги сув миқдори апрель ойида 75 %, шоҳалаш фазасида 53 %, сентябр ойида 39 % ни ташки этади. 100 кг хашаги таркибидаги сув миқдори 8,8 % ва қуруқ озуқасида 70,5 % бўлади. Янтоқнинг 20 % ни барги, 15,6-21,4 % ни меваси ва 43,5-79,7 % ини пояси ташкил қиласи (Амелин, 1941). Янтоқ вегетацияси апрель ойидан, шоналаш фазаси май ойининг иккинчи ўн кунлигидан, гуллаш даври май ойининг учинчи ўн кунлигидан то август ойигача, уруғлари август-сентябрь ойларида пишиб етилади. Янтоқнинг илдизлари ўқ илдиз бўлиб 10 м чуқурликгача боради. Карнабчўл шароитида янтоқнинг сув режими З. Ш. Шамсутдинов, Р.Чалбаш ва В.Н. Ширинская томонидан батафсил ўрганилган. Бунда янтоқ таркибидаги сув миқдори шохларида май ойининг ўрталарида 78,7 % бўлиши кузатилган, июль ойида 60,5-66,5 %, ва сентябр ойига келиб 55,9 – 59,6 5 ни ташкил қиласи. Карнабчўл шароитида янтоқнинг сувни буғлатиш қобилияти ўртача кунлик 414-480 мг/г. соат, баҳор ва ёз ойларида 799-1267 мг/г. соат, янтоқнинг издизлари ер ости сувларига яқин бўлган ерларда ўсимликнинг сув буғлатиши анча кам 293 – 686 мг/г. соат бўлгани кузатилган.



Alhagi pseudalhagi - янтоқ

A.persarum Boj.et Buhse – персид янтоғи чала бута, бўйи 30-60 см, шохланиши икки томонлама, тиконлари мустаҳкам, пастки қисмидаги барглари ланцетсимон шаклда 2-6 см, юқори қисмидаги барглари 1-1,5 см бўлади. Персид янтоғининг тарқалиши Кавказбўйи, Туркманистоннинг қорақум чўли ва тоғли ерларида ўсади. Қорақалпоғистон шароитида

Амударё кирғоқ бўйлари ва қайир ерларида кўплаб учрайди (Ережепов, 1978). Персид янтоғи қурғоқчиликка ва шўрга чидамли ҳисобланиб, унинг илдизлари 30 метр чуқурликкача етиб боради. Ушбу персид янтоғининг муҳим хусусиятлардан бири гуллаш даврида ўзидан қандшира моддасини чиқаради. Бу эса асалариларни ўзига жалб қилиш хусусиятига эга. Персид янтоғининг бир тупи суткада 32-2003 мг гача қанд-шираси ажратиши аниқланган. Бир гектар янтоқзордан 28 кг қанд-ширасини олиш мумкин (Гранитов, 1951).

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023-йил 23-ноябридаги ПФ-199 сон “Республикада яшиллик даражасини янада ошириш, “Яшил макон” умуммиллий лойиҳасини изчил амалга ошириш орқали экологик барқарорликни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Фармонининг 8-иловаси 27-бандида Оролбўйи ҳудудида асалари оиласини боқишининг янги инновацион технологиясини яратиш, саксовуллар орасида маҳаллий янтоқ турларини кўпайтириш асосида асаларичилик учун озуқа базасини яхшилаш бўйича маҳсус тадқиқотлар олиб бориш вазифаси белгилаб берилган. Бу эса янтоқ ўсимлиги билан тадқиқот ишларини кенгроқ олиб боришни тақазо қиласи. Дуккакли ўсимликлар уруғлари унувчанлигининг ўта паст ва узоқ йиллар давомида тупроқда сақланишининг сабаби ўзгарувчан ва ноқулай ташқи шароитга мослашувининг бир кўринишидир (Гушин, 1950; Филимонов, 1952; Попцов, 1965; Хасанов ва бошқалар, 1970). Жумладан янтоқ уруғлари тупроқда 15-100 йил сақланиши мумкин (Бартон, 1964). Янтоқни кўпайтиришнинг иккита усули мавжуд: биринчи усули уруғидан кўпайтириш, иккинчиси илдиз бачкиларидан кўпайтириш. Янтоқнинг уруғлари каттиқ дуккак ичидаги жойлашган. Ҳар бир дуккак ичидаги 3-6 тагача уруғ бўлади. Дуккакдан тозалаб экилганда ҳам уруғ униб чиқиши 6-7 фоиздан ошмайди. Сульфат кислота билан уруғга 60 минут давомида ишлов бериб, кейин экилганда 80 фоиз уруғ униб чиққани кузатилган (Раббимов, 2005). Янтоқни барча турлари уруғларининг униш даражаси паст бўлиб, уларни бу усуслда кўпайтириш анча мушкул. Янтоқни илдиз бачкисидан кўпайтириш, плуг билан хайдаш усулида ёшартириш ва янтоқларни суғориш усувларини қўллаб ҳосилдорлигини ошириш бўйича Нурота шароитида тадқиқотлар олиб берилган (Мавлонов 1988).

Хулосалар. Янтоқ ўсимлигини кўпайтиришнинг халқ хўжалигидаги аҳамияти қўйидагилардан иборат: биринчидан деградацияга учраган майдонларни фитомелиорациялаш орқали чўл яйловларининг ҳосилдорлигини ошириш; иккинчидан қиши фаслида чўл-яйлов чорвачилиги учун озуқа манбаи; учинчидан янтоқзорлар асалари оиласини боқишига озуқа манбаи; тўртинчидан янтоқ экиб ўситирлган майдонларда тупроқ унумдорлиги яхшиланади. Юқоридаги хулосалардан келиб чиқкан ҳолда Орол бўйи ва Орол денгизи қуриган тубидаги саксовулларнинг қатор ораларида янтоқзорларни кўпайтириш мақсадга мувофиқ бўлади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

- 1.Амелин И.С.Об улучшении естественных пастбищ пустынь Средней Азии.-Бюллетень ВНИИК, 1941, № 4, с. 49-64.
- 2.Бартон Л. Хранение семян и их долговечность. М. Колос, 1964, 65 б.
- 3.Гранитов А.И. Биология янтака- В сб: Янтак и его использование в корм скоту. Ташкент: изд АН УЗССР, 1951, с. 5-13.
- 4.Гушин П.О. Опыт обработки и пророщивания семян янтака. ДАН УзССР, 1950, №7, 65 б.
- 5.Ережепов С.Е. Флора Каракалпакии, её хозяйственная характеристика, использование и охрана. Изд. “Фан” УзССР. Ташкент-1978, с. 130-132.
- 6.Келлер Б.А., Шапаренко К.К. Материалы к систематико-экологической монографии рода *Alhagi Torn ex Adans*-Сов. Ботаника, 1933, №3-4, с.150-185.
- 7.Ларин И.В., Агабабиян Ш.М., Габотнов Т.А., Любская А.Ф., Ларина В.К., Касименко М.А. Кормовые растения сенокосов и пастбищ СССР. Москва 1951. Ленинград. с.942 б.
- 8.Мавлонов Х. Биологические особенности янтоқа и пути повышения продуктивности его зарослей. Изд.”Фан”,УзССР, 1988. с. 65.
- 9.Попцов А.В. Биология затрудненного прорастания семян. Доклад по опублик. Работам представлен в место док. Дисс. М., 1965.
- 10.Раббимов А., Синдаров Ш. *Alhagi pseudalhagi* (M.B.) Desv уруғларга экиш олдидан турли усувларда ишлов беришнинг улар унувчанлигига таъсири. Чўл-яйлов чорвачилигини ривожлантириш муаммолари. Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари (2005 йил 10-11 август), Самарқанд , 2005, 200-203, б.
- 11.Филимонов М.А. Особенности набухания живых и мервых семян бобовых трав-ДАН СССР, Т. XXXIV, 1952, №2.

12.Хасанов О., Таджиев С.С. Материалы к биологии прорастания семян дикорастущих растений Узбекистана. Ташкент: Фан, УзССР, 1968, 976

13.Чаплина З.П. Химический состав кормовых растений пастбищ пустыни и предгорий полупустыни Средней Азии.-Труды ВНИИК, вып, 8, 1959, с. 148.

УЎК: 631.674.6

ҒЎЗАНИ ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШДА ОЗИҚЛАНТИРИШ ТАРТИБИНИНГ ЎСИМЛИКНИ ЎСИБ-РИВОЖЛАНИШИ ВА ҲОСИЛДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ

*А.Қ.Жўраев, доц., "ТИҚХММИ" МТУ Бухоро табиий ресурсларни бошқариши
институти, Бухоро*

Аннотация. Мақолада Бухоро вилоятининг қадимдан сугориладиган ўтлоқи аллювиал тупроқлар шароитида гўзанинг Бухоро-8 навини томчилатиб сугоришда озиқлантириши тартибларини гўзанинг ўсиб-ривожланиши ва ҳосилдорлигига таъсири ўрганилган бўлиб, энг мақбул кўрсатгич гўзани сугоришлардан олдинги тупроқ намлиги ЧДНСга нисбатан 75-80-65 % да сугорилиб, N-200; P₂O₅-150; K₂O-100 меъёрда озиқлантирилган вариантда кузатилганлиги тўғрисида батафсил ёритиб берилган.

Калим сўзлар: гўза, тажриба тизими, томчилатиб сугории, озиқлантириши тартиби, гўзанинг ўсиб ривожланиши, пахта ҳосили.

Аннотация. Статья исследует влияние различных методов питания на рост и продуктивность сорта хлопка Бухара-8 при капельном орошении, проведенном в условиях аллювиальных почв на длиннополивных лугах Бухарского региона. Питательный состав обычного варианта питания подробно описывается следующим образом: N-200; P₂O₅-150; K₂O-100.

Ключевые слова: хлопок, экспериментальная система, капельное орошение, процедура питания, рост хлопка, урожай хлопка.

Abstract. The article investigates the influence of different feeding methods on the growth and productivity of the Bukhara-8 variety of cotton under drip irrigation, conducted in the conditions of alluvial soils within the long-irrigated meadows of the Bukhara region. The nutrient composition of the normally fed variant is detailed as follows: N-200; P₂O₅-150; K₂O-100.

Key words: cotton, experimental system, drip irrigation, feeding procedure, cotton growth, cotton yield.

Кириш. Дунё бўйича мавжуд сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш, сувни тежаш, сугоришнинг тежамкор инновацион технологияларини кенг жорий этиш муҳим аҳамият касб этмоқда. Ер шарида мавжуд сув ресурсларининг 2,0% чучук сув захиралари бўлиб, унинг 79 % қисми абадий музликлар, 20 % ер ости сувлари ва 1,0 % кўл ва дарё сувларидан иборат бўлиб, инсоният эҳтиёжи учун жуда тақчилдир». Гўза экиш ва этиштиришда биостимуляторларни қўллаш, томчилатиб сугоришда суюқ ўғитлардан фойдаланиш ҳамда минерал ўғитларни сувда эритиб қўллаш орқали уларнинг сарфини тежаш билан бирга экинлар ҳосилдорлигини ошириш ва сифатини яхшилаш долзарб вазифалардан ҳисобланади.

Дунёда пахта этиштирувчи мамлакатларда сув ва ресурстежамкор илғор технологиялар асосида фўза ва фўза мажмуидаги экинларни томчилатиб, ёмғирлатиб ва ер остидан намлаш усууларини қўллаш орқали тупроқнинг экинлар илдиз тизими тарқалган фаол қатламларини бир хилда намлашга эришиш, юқори фильтрациянинг олдини олиш, оқовага исроф бўлиши, физик буғланишни камайтириш билан экинларни мавсумий сугоришдаги сув ва бошқа ресурсларни иқтисод қилиш бўйича илмий изланишлар олиб борилмоқда. Жаҳонда янги замонавий инновацион сувтежамкор технологияларни такомиллаштириш ҳисобига экинлардан юқори ва сифатли ҳосил олиш муҳим вазифалардан ҳисобланиб, иқлимининг глобал ўзгариши шароитида сугоришнинг илғор усууларини ишлаб чиқиши ва улардан кенг миқёсда фойдаланиш муҳимdir.

Республикада кейинги йилларда тобора ошиб бораётган сув танқислиги шароитида “органик қишлоқ хўжалиги” тизимини яратишда сув тежовчи сугориш технологияларни

жорий қилиш, шўрланган тупроқларда қишлоқ хўжалиги экинларидан барқарор ва юқори ҳосил олишни таъминлаш бугунги кунда долзарб ҳисобланади. Республикаизда жами 4,3 млн. гектар суғориладиган майдонларнинг 2 млн. гектарга яқини ёки 40 фоиздан ошиқроқ қисми турли даражада шўрланган бўлиб, бу кўрсаткич Бухоро вилоятида 275,509 минг гектар суғориладиган майдонларнинг 86 фоизга яқин майдонлар турли даражада шўрланган ерларни ташкил этади. Шу сабабли шўрланган майдонларда сув танқислигини салбий таъсирини камайтириш, қишлоқ хўжалиги экин майдонларидан юқори ҳамда барқарор ҳосил олишни таъминлаш эришишда сув тежовчи суғориш технологияларини жорий этиш ҳамда экинларнинг илмий асосланган суғориш ва озиқлантириш тартибларини илмий асослашга қаратилган тадқиқотлар муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

Тадқиқот материаллари ва услуби. Юқорида келтирилган долзарб муаммолардан келиб чиқкан ҳолда Бухоро вилоятининг қадимдан суғориладиган ўтлоқи аллювиал тупроқлар шароитида ғўзанинг Бухоро-8 навини томчилатиб суғорища озиқлантириш тартибларини ўрганиш бўйича дала тажрибалари 2020-2022 йилларда олиб борилди. Тажриба майдонининг тупроғи ўтлоқи аллювиал, механик таркибига кўра ўрта қумоқ ҳисобланади. Тажриба жами 6 та вариант, 3 та қайтариқда олиб борилди. 1-вариант назорат варианти сифатида қабул қилиниб, тупроқ устидан эгатлаб суғорилди ва ғўзани суғоришлардан олдинги тупроқ намлиги ЧДНСга нисбатан 70-75-65 % да суғорилиб, ғўзани озиқлантириш эса N-250; P₂₀₅-180; K₂₀-100 меъёрда озиқлантирилиб, 2-вариантда N-125; P₂₀₅-100; K₂₀-60 меъёрда, 3-вариантда N-150; P₂₀₅-125; K₂₀-60 меъёрда, 4- вариантда N-175; P₂₀₅-150; K₂₀-90 меъёрда, 5-вариантда эса N-200; P₂₀₅-150; K₂₀-100 меъёрда ва 6- вариантда N-250; P₂₀₅-175; K₂₀-125 меъёрда озиқлантирилиб, томчилатиб суғорилган барча вариантларда ғўзани суғоришлардан олдинги тупроқ намлиги ЧДНСга нисбатан 75-80-65 % да суғориш ишлари амалга оширилди.

Таҳлил ва натижалар. Ғўзани томчилатиб суғориш технологияси асосида озиқлантириш тартибининг унинг ўсиши, ривожланиши ва ҳосилдорлигига таъсири, шунингдек тола сифатининг техник кўрсаткичлари бўйича олиб борилган тажрибаларда пахта терими олдидан ҳақиқий кўчат қалинлиги аниқланди. Тажрибалар давомида ғўза майдонларида ҳақиқий кўчат қалинлиги терим олдидан аниқланиб, кузатувлар натижаси бўйича олинган маълумотлар 1-жадвалда келтирилган. Жадвал маълумотларига кўра тажриба майдонида барча вариант ва қайтариқларда ғўзанинг кўчат қалинлиги йиллар бўйича гектарига 94,1-99,1 минг донани ташкил қилган бўлса, ғўзани етиширишда эгатлаб суғорилиб, озуқа моддалар миқдори N-250; P-180; K-100 кг/га қўлланилигидан вариантда ҳақиқий кўчат қалинлиги гектарига 94,1 минг. тупни ташкил қилган бўлса, ғўзани томчилатиб суғорища озиқлантириш тартиби N-200; P-150; K-100 кг/га қўлланилиб, суғориш олди тупроқ намлиги ЧДНС га нисбатан 75-80-65 % да суғорилган 5-вариантда ҳақиқий кўчат қалинлиги гектарига 99,6 минг. тупни ташкил қилган бўлса, назорат вариантига нисбатан кўчат қалинлиги гектарига 5,5-5,6 минг. тупга юқори бўлганлиги аниқланди.

1-жадвал


Томчилатиб суғориш технологияси асосида ғўзани озиқлантириш тартибининг тажриба майдонида ҳақиқий кўчат қалинлиги

Вариантлар тартиби	Тақрорланишлар			Ўртacha
	I	II	III	
1	94,0	94,0	94,1	94,1
2	98,0	98,2	98,2	98,1
3	98,3	98,1	98,2	98,2
4	98,5	98,6	98,8	98,6
5	99,5	99,7	99,7	99,6
6	99,5	99,4	99,3	99,4

Илмий тадқиқот даласида олинган пахта ҳосили таҳлил қилинганда тажрибаларнинг назорат яъни суғориш олди тупроқ намлиги ЧДНС га нисбатан 70-75-65 % да суғорилиб, озиқлантириш тартиби N-250; P-180; K-100 кг/га қўлланилиб эгатлаб суғорилган 1-вариантда пахта ҳосили ўртacha 37,6 ц/га ни ташкил қилган бўлса, тажрибаларнинг суғориш олди тупроқ намлиги ЧДНС га нисбатан 75-80-65 % да томчилатиб суғорилиб, озиқлантириш тартиби N-

125; Р-100; К-60 кг/га ҳамда N-150; Р-125; К-60 кг/га қўлланилган 2 ва 3-вариантларда 42,9-43,5 ц/га га тенг бўлиб, назорат вариантига нисбатан 5,3-5,8 ц/га юқори бўлганлиги аниқланди.

Ғўза ҳосилдорлиги, ц/га.



1-расм. Ғўзани томчилатиб сугориш технологиясида озиқлантириш тартибининг ғўза ҳосилдорлигига таъсири

Тадқиқотларнинг сугориш олди тупроқ намлиги ЧДНС га нисбатан 75-80-65 % да томчилатиб сугорилиб, озиқлантириш тартиби N-200; Р-150; К-100 кг/га меъёрда қўлланилган 5-вариантда пахта ҳосили 47,1 ц/га га тенг бўлиб, назорат вариантига нисбатан 9,4 ц/га юқори бўлганлиги аниқланди. Тажрибаларнинг 4-варианти, яъни ғўза томчилатиб сугорилиб, озиқлантириш тартиби N-175; Р-150; К-90 кг/га қўлланилган 4-вариантда пахта ҳосили 45,6 ц/га га тенг бўлиб, назорат вариантига нисбатан 8,1 ц/га га юқори ҳосил олинганлигини кўриш мумкин.

Хулоса: Юқорида келтирилган маълумотлардан хулоса қилиб айтиш мумкинки, Бухоро вилоятининг қадимдан сугориладиган ўтлоқи аллювиал тупроқлар шароитида ғўзанинг Бухоро-8 навини томчилатиб сугоришда озиқлантириш тартибларини ўрганиш бўйича олиб борилган дала тажрибалари шуни кўрсатдики, ғўзани томчилатиб сугоришда энг яхши озиқлантириш тартиби 5-вариантда яъни N-200; Р₂O₅-150; K₂O-100 меъёрда озиқлантирилган вариантда кузатилиб, бунда ғўзани ҳақиқий кўчат қалинлиги гектарига 99,6 минг.тунни ташкил қилган бўлса, назорат вариантига нисбатан кўчат қалинлиги гектарига 5,5-5,6 минг.тунга юқори бўлганлиги аниқланди ва пахта ҳосили 47,1 ц/га га тенг бўлиб, назорат вариантига нисбатан 9,4 ц/га юқори бўлганлиги кузатилди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. «Ўзбекистон Республикасида сув хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган концепциясини тасдиқлаш тўғрисида» ги 2020 йил 10 июлдаги ПФ-6024 сонли фармони

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 1 мартағи «Қишлоқ хўжалигида сувни тежайдиган технологияларни жорий этишни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари» тўғрисидаги ПҚ- 144-сонли қарори

3. Мирзажонов К.М., Нурматов Ш.Н., Зокирова С.Х. Юқори ҳосил олиш омиллари//«Пахтачилик ва дончилик» журнали. Тошкент, 2001 й. 1-сон, 8-12-б.

4. Хамидов М.Х., Шукурлаев Х.И., Бегматов И.А., Маматалиев А.Б. «Қишлоқ хўжалигида сувдан фойдаланиш// Тошкент. 2014 й. 68-б.

5. Хамидов М. и др. Особенности орошения сельскохозяйственных культур в низовьях Амударьи--// Ташкент. «Фан», 1992 г. стр-164.

6. Нерозин С.А., Стулина Г.В. Опыт применения капельного орошения хлопчатника в центральной Азии. Сб. тезисов докладов респ. конференции посвященной 70-летию САНИИРИ. Ташкент, 1995, 47-б.

7. Авлиякулов М.А., Дурдиев Н.Х., Аваузова М., Асракулов А. Ғўзанинг мақбул сугориш муддати ва давомийлиги // “Қишлоқ хўжалиги экинлари генетикаси, селекцияси, уруғчилиги ва этиштириш агротехнологияларининг долзарб муаммолари ҳамда ривожлантириш истиқболлари” мавзуидаги халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. ПСУЕАИТИ-Тошкент, 2018. 395-399-б.

ҒЎЗА ПАРВАРИШЛАШДА ТУРЛИ ҚАТОР ОРАЛИҒИ ВА ҚЎЧАТ

ҚАЛИНЛИГИНИНГ ПАХТА ҲОСИЛДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ

Й.А.Мұхаммадов, тадқиқотчи, ПСУА ИТИ, Тошкент.

Ш.Т.Саломов, проф., Тошкент ирригация ва қишлоқ ҳўжалигини механизациялаши мұхандислари институти, Тошкент

Аннотация. Мазкур мақолада ҳар хил қатор оралиқларига КХУ-4Б ва фрезерли культиваторларда ишлов бериши ҳамда “Равнақ-1” гўза навини турли қўчат қалинлигидаги парваришланинг пахта ҳосилдорлигига таъсири аниқланган.

Калит сўзлар: гўза, қатор оралиқлари, КХУ-4Б ҳамда фрезерли культиватор, қўчат қалинлиги, пахта ҳосилдорлиги.

Аннотация. В данной статье рассмотрено влияние обработки различной междуурядья на КХУ-4Б и фрезерных культиваторах, а также поддержание сорта хлопчатника Равнак-1 при разной толщине всходов на урожайность хлопка.

Ключевые слова: хлопчатник, междуурядье, КХУ-4Б и фрезерный культиватор, толщина всходов, урожайность хлопчатника.

Abstract. In this article, the effect of processing different row spacings on KXU-4B and milling cultivators, as well as maintaining the "Ravnaq-1" cotton variety at different seedling thicknesses on cotton yield.

Key words: cotton, row spacing, KXU-4B and milling cultivator, seedling thickness, cotton yield.

Пахтачилик қишлоқ ҳўжалигидаги асосий тармоқлардан бири ҳисобланади. Сўнги йиллардаги иқлим ўзгаришлари эса соҳа олдига янгидан янги вазифалар қўшиб, илм ва инновацияларни жорий қилишни тақозо этмоқда. Шу сабабдан пахта ҳосилдорлигини ошириш бўйича янги тизимни жорий қилиш, пахта етиширишда илм ва инновацияларга асосланган уруғчилик, нав танлаш, ерга ишлов бериш, ўғитлаш, сугориш ҳамда мақбул қатор оралигини тўғри танлаш муҳим аҳамият касб этади.

И.А.Абдурахмонов тадқиқотларида Андижон вилоятининг оч тусли бўз тупроқлар унумдорлигини сақлаш ва ошириш учун тупроққа такомиллашган комбинацияли “Илғор-1” агрегати ёрдамида минимал ишлов бериб, гўзани қўш-қатор 90x(30x12)-1 усулида гектарига 155-158 минг туп/га қўчат қолдирилганда юқори ҳосилдорликка эришилганлиги айтиб ўтилган [1; 44-б].

И.Бўриев олиб борган илмий изланишларида гўза навларининг қўчат қалинликларига боғлиқ ҳолда ҳосилдорлик маълумотлари таҳлил килинганда қўчат қалинлиги 90 минг туп/га бўлганда “Наманган-77” навининг 3 йилда ўртача пахта ҳосили 35,6 ц/га. ни ташкил этди. “Бухоро-6” навида 35 ц/га, С-6530 навида 34 ц/га ва “Мехр” навида эса 36 ц/га. га тенг бўлди. Тарькидлаш жоизки, гўза навларининг ўсиш ва ривожланишдаги кўрсаткичлари қўчат қалинликлари 90 минг туп/га.дан 120 минг туп/га. га ортиши билан ҳосилдорлик оргтанлиги аниқланган [2; 25-б].

Тошкент вилоятининг типик бўз тупроқлари шароитида ўтказилган тадқиқотлар натижасида, гўза қатор ораликларини 70 см дан 90 см гача кенгайтириш ва эгатларни 15 см дан 25 см гача чуқур ишлов берилганда ҳосилдорлик гектарига қўшимча 3,5 ц гача ошганлиги тўғрисида (Еременко) маълумотларда келтирилган [4; 1-60-б].

М.Л.Икрамова, Б.Н.Рахматов, Р.Юнусов ва бошқалар маълумотларига кўра механик таркиби ўртача оғир ўтлоқи-аллювиал, шўрланиш даражаси ва унумдорлиги ўртача миқдорни ташкил этган экин майдонларида, гўзанинг ўсиш ва ривожланиш даврининг бошида биринчи культиватция чуқурлигини 12-14 см да, кейингисини 16-18 см чуқурликда ўтказиб ва охирги культивацияни гўза илдиз тизими ва унинг вегетатив, генератив органлари энг авж олган даврида 18-20 см чуқурликка ўтказилганда, энг юқори ва сифатли ҳосил 48,2 ц/га

етиштирилиб, культивация чүкүрлиги доимий 5-6 см қилиб ишлов берилган вариантаға нисбатан 10,4 ц/га құшымча пахта ҳосиلى олинганилиги айтилған [5; 31-35-б].

Қ.Мирзажанов, Ф.Сатиповлар «Пахтаорол» тажриба станциясида, Сирдарё ва Жиззах вилоятларида ғұзани 60 ва 90 см ли қатор оралиғида парваришлиш натижасида пахта ҳосиلى 90 см қатор оралиғида 38,7 ц/га, 60 см қатор оралиғида 41,8 ц/га, 90 см га нисбатан 60 см да 3,1 ц/га құшымча ҳосил олинған [6; 38-39-б].


С.Сайдумаров, В.А.Сергиенко, Ф.М.Саттаров УзПИТИ ва УзМЭИ билан биргаликда олиб борган дала тажрибасида 60, 80x60 ва 90 см қатор оралиқларида бўлиб, бунда 80x60 см қатор оралиғида ҳосилдорлик 60 см қатор оралиғига нисбатан 0,5 ц/га, 90 см қатор оралиғига нисбатан эса 2,5 ц/га юқори бўлганлиги аниқланған [7. 1-80-б].

Тадқиқот объекти ва услублари. Дала тажрибалари Тошкент вилояти Юқори Чирчиқ тумани Аҳмад Яссавий худуди “Мерос” фермер хўжалиги даласида олиб борилди. Мазкур тажриба даласи тупроғи типик бўз, ўрта қумоқ тупроқлар типига кириб, сизот сувининг сатҳи 5-6 м чүкүрлиқда жойлашган.

Дала тажрибалари “Дала тажрибаларини ўтказиш услублари” Тошкент-2007 қўлланмаси асосида олиб борилди.

Тадқиқот натижалари. Маълумки, ғўза парваришида қўлланилган ҳар қандай тадбирнинг пировард самараси пахта ҳосилдорлиги билан белгиланади. Тажрибада ўрта толали «Равнақ-1» ғўза нави 60 см, 70 см ва 76 см қатор оралиқларига ишлаб чиқариш шароитида қабул қилинган (КХУ-4Б) культиваторида, 76 см. қатор орасига КХУ-4Б ва фрезерли культиваторда комплекс ишлов бериб ҳамда 76 см. қатор орасига мавсум давомида фрезерли культиваторда ишлов бериб шу билан бирга ҳар бир қатор оралиғига назарий қўчат қалинлиги 90-100 минг туп/га ва 120-130 минг туп/га қўчат қалинликларида парваришиланганда пахта ҳосилдорлигига таъсири аниқланди 1-расм. Тадқиқотлар 2020-2022 йилларда Тошкент вилояти типик бўз тупроқлар шароитида ўтказилди.

■ Пахта ҳосилдорлиги (ўртача уч йилда) ц/га



1-расм. Ҳар хил қатор оралиғига турли культиваторларда ишлов бериш ҳамда қўчат қалинлигининг пахта ҳосилдорлигига таъсири, ц/га

Ўтказилган дала тажрибаларида 60 см. қатор орасига ишлаб чиқариш шароитида қабул қилинган (КХУ-4Б) культиваторида ишлов берилған ҳамда назарий қўчат қалинлиги 90-100 минг туп/га ва 120-130 минг туп/га қолдирилган I-II назорат вариантыларида пахта ҳосилдорлиги мутаносиб равишда ўртача уч йилда 37,2-36,3 ц/га ни ташкил этди.

Олиб борилған уч йиллик дала тажрибаларига асосан, бошқа қатор оралиқлариға нисбатан юқори ҳосилдорлик 76 см қатор орасига КХУ-4Б ҳамда фрезерли культиваторда ишлов берилған шу билан бирга назарий қўчат қалинлиги 120-130 минг туп/га бўлған VIII вариантда кузатилиб 41,8 ц/га ни ташкил қилди. Бу кўрсаткич 60 см қатор орасига ишлаб чиқаришда қабул қилинган КХУ-4Б культиваторида ишлов берилған ҳамда назарий қўчат қалинлиги 90-100 минг туп/га ва 120-130 минг туп/га қолдирилған назорат вариантыларидан

мутаносиб равишида 4,6-5,5 ц/га, 70 см қатор орасига ишлаб чиқаришда қабул қилинган КХУ-4Б культиваторида ишлов берилган ҳамда назарий кўчат қалинлиги 90-100 минг туп/га ва 120-130 минг туп/га қолдирилган III-IV вариантлардан 3,6-2,5 ц/га кўп бўлганлиги кузатилди. Шунингдек 76 см қатор орасига ишлаб чиқаришда қабул қилинган КХУ-4Б культиваторида ишлов берилган ҳамда назарий кўчат қалинлиги 90-100 минг туп/га ва 120-130 минг туп/га қолдирилган V-VI вариантлардан 3,1-1,3 ц/га, 76 см қатор орасига КХУ-4Б ва фрезерли культиваторларда комплекс ишлов берилган ҳамда назарий кўчат қалинлиги 90-100 минг туп/га бўлган VII вариантдан 1,9 ц/га, мавсум давомида 76 см қатор орасига фрезерли культиваторда ишлов берилган ҳамда назарий кўчат қалинлиги 90-100 минг туп/га ва 120-130 минг туп/га қолдирилган IX-X вариантлардан мутаносиб равишида 4,5-2,7 ц/га юқори ҳосил олинганилиги таҳлил маълумотларида аниқланди.

Хулоса қилиб айтганда ўрганилган ғўза қатор оралиқлари ҳамда қатор оралиқларига ишлов бериш усуслари орасида 76 см қатор оралиқларига ишлов беришда КХУ-4Б ва фрезерли культиваторларини комплекс қўллаш шу билан бирга ғўзанинг “Равнақ-1” навида назарий кўчат қалинлигини 120-130 минг туп/га қолдирилганда самарали эканлиги маълум бўлиб пахта ҳосилида ҳам ўз исботини топди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Абдурахмонов И. Гўзани парваришлашда тупрокка ресурстежамкор, комбинацияли минимал ишлов бериш агротехнологиясини такомиллаштириш. Автореферат - қ.х.ф.н., Тошкент, 2019. –Б.44.
2. Бўриев И. “Ғўза навларининг ҳосилдорлигига кўчат қалинлигининг таъсири” Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали. Тошкент, 2012. №4. –Б.25
3. Даля тажрибаларини ўтказиш услублари. ЎЗПТИ, Тошкент, 2007 й.
4. Еременко В.Е. - Научный отчет за 1944 г. «Полив хлопчатника по глубоким бороздам при увеличенной ширине междурядий.» Ак-кавак, СоюзНИХИ.-С.1-60
5. Икрамова М.Л., Раҳматов Б.Н., Юнусов Р., Хошимов И.Н., Гаффаров И.Ч., Аллақулов Д.Б. Культивация чуқурлиги ва сонининг пахта ҳосилига таъсири / “Ўзбекистон пахтачилигини ривожлантириш истиқболлари” номли Республика илмий-амалий анжумани материаллари тўплами (2014 йил, 11-12 декабрь) –Б.31-35
6. Мирзажанов К.М., Сатипов Ф. – «Чигит қайси эгат оралигига экилгани маъқул» Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги, 2001, 38-39 б.
7. Сайдумаров С.С., Сергиенко В.А. «Турли қатор оралигига экиш тизимлари» хисобот. 1989.-Б. 1-80

УДК: 633.31:631.52

УРОЖАЙ СЕНА И СЕМЯН У СЕЛЕКЦИОННЫХ ОБРАЗЦОВ ЛЮЦЕРНЫ В ПИТОМНИКЕ СОРТОИСПЫТАНИЯ

Р.Т.Сидик-Ходжаев, с.н.с., НИИ ССАВХ, Ташкент

Ш.Б.Амантурдиев, с.н.с., НИИ ССАВХ, Ташкент

А.Г.Сабиров, м.н.с., НИИ ССАВХ, Ташкент

Аннотация. Ушбу мақолада ПСУЕАИТИ “Беда коллекцияси, селекцияси ва уругчилиги” лабораторияси томонидан 2022 йилда экилган навсинаш кўчатзоридаги олиб борилаётган илмий тадқиқот ишиларининг қисқача маълумотлари келтирилган. Хусусан 2023 йилдаги беда селекция намуналарининг пичан ва уруг ҳосилдорлиги бўйича олинган таҳлил натижалари келтирилган.

Калит сўзлар: беда, нав, намуна, андоза, ўсимлик, кўчатзор, навсинаш, селекция, пичан, уруғлар, ҳосилдорлик.

Аннотация. В данной статье приводятся краткие сведения о проводимых научных исследованиях в питомнике сортовыспытания селекционных материалов посева 2022 года лаборатории «Коллекции, селекции и семеноводства люцерны» НИИССАВХ. В частности приводятся результаты работ 2023 года по урожайности сена и семян селекционных образцов.

Ключевые слова: люцерна, сорт, образец, стандарт, растение, питомник, сортовыспытание, селекция, сено, семена, урожайность.

Abstract. This article provides brief data on the conduct of scientific research in the nursery of variety testing of breeding materials for sowing in 2022 of the laboratory “Collections, selection and

seed production of alfalfa" of the CBSPARI. In particular, the results of work for 2023 were obtained on hay and seeds yield of selection samples.

Key words: alfalfa, variety, sample, standard, plant, nursery, variety testing, selection, hay, seeds, yield.

Введение. Люцерна обладает очень высокой питательной ценностью благодаря тому, что её глубокая корневая система может способствовать предотвращению потери влаги на засушливых почвах [8].

Комплексное изучение оценки образцов люцерны, относящихся к различным эколого-географическим группам, дает возможность определить их морфо-биологические признаки и свойства с последующим выделением перспективных форм для создания сортов со стабильной семенной и кормовой продуктивности в процессе селекционной работы.

По данным французских исследователей, дикие виды люцерны часто можно встретить в различных открытых местах обитания (обочины дорог, границы полей)- дикие формы *Medicago sativa* subsp., встречающиеся редко, за исключением Пиренейского полуострова и их центры разнообразия. В других странах западного Средиземноморья (южная Франция, Италия, Греция и Северная Африка), растения *Medicago varia*, очень распространены. Подвид *Medicago sativa* L. Чаще встречается в диком виде на юге Европы (Болгария, Греция), до северных пределов России. Они особенно хорошо приспособлены к суровым зимам, а также к жаркому и сухому лету, типичному для континентального климата. В мире существует множество банков генов, которые сосредоточены на *Medicago* (Система зародышевой плазмы США, Центр генетических ресурсов *Medicago* Австралия, ИКАРДА Сирия, ВИГРР Россия и т.д.). Дикорастущие многолетние виды, как правило, поддерживаются только институтом, который собрал их. Они слабо представлены, или не представлены в коллекциях зародышевой плазмы, и особенно в коллекциях из центра происхождения рода из Азии [11].

Генетический состав сортового и видового потенциала люцерны напрямую связан с экологией местообитаний, методами возделывания и использования. В природе локализация признаков и свойств происходит в зависимости от эколого-географических регионов происхождения образцов.

В настоящее время на основе обобщения результатов изучения обширной мировой коллекции люцерны из Всероссийского института генетических ресурсов растений имени Н.И. Вавилова (ВИР) составлены карты локализации генетической плазмы наиболее важных признаков и свойств многолетних видов люцерны подрода *Falcago*, которые связаны с центрами происхождения растений [9].

Следовательно, при изучении и отборе исходного материала для люцерны должны учитывать экологический эффект для более полного использования каждой географической группы (Горюнов и др., 2019). Такой подход значительно облегчает поиск необходимых признаков и свойств среди огромного разнообразия люцерны [10].

При применении и эколого-географического метода подбирается исходный материал с учетом генетического разнообразия, обусловленного различным эколого-географическим происхождением. Искусственная гибридизация эффективна для получения растений, имеющих отдельные ценные признаки от сортов-доноров. В будущей работе контролируются компоненты, включаемые в сложно-гибридную популяцию, если они имеют высокую комбинационную способность и необходимые сочетания признаков которые не достигаются при свободном опылении. Ряд ученых считают, что это хороший метод улучшения урожайности сена и семян люцерны, основанный на гетерозисном эффекте [5].

При межвидовых скрещиваниях гетерозис контролируется комбинационной способностью в зависимости от условий выращивания и эколого-географической отдалённости родительских сортов [7]. При использовании данных методов более чем в 45 научных и аграрных учреждениях были созданы и районированы высокопродуктивные сорта люцерны для возделывания во всех регионах [6].

В наших научно-исследовательских работах мы обратили внимание на подбор родительских форм по урожайности сена и семян, облиственности и другим хозяйствственно-ценным признакам отдаленного эколого-географического происхождения образцов, у которых были проведены реципрокные скрещивания родительских пар. Целью гибридизации было, чтобы все хозяйствственно-ценные признаки родительских форм сочетались в одном генотипе. Для того, чтобы предотвратить эту задачу организация селекционного процесса имеет огромное значение в селекции люцерны. Такие исследования были проведены рядами учеными [3].

Материалы и методы. Исследования проводились в лаборатории коллекции, селекции и семеноводства люцерны НИИССАВХ в 2023 году. Питомник сортоиспытаний селекционных материалов закладывали лабораторной малогабаритной ручной сейлкой по методике сортоиспытания «Методические указания по проведению полевых опытов с кормовыми культурами» [4] сплошным рядовым севом нормой высева семян 16 кг/га на делянках 8 м² (0,8 x 10 м) в четырехкратной повторности. Были изучены основные хозяйствственно-ценные признаки эколого-географических селекционных образцов люцерны С-3633 (F₄ Ташкентская-1728 – с/о x группой сортов), С-3636 (F₄ 6910, Villigar, Аргентина x Ташкентская-1728 с/о), С-3637 (F₄ Ташкентская-2009 с/о x группа сортов), С-3639 (F₄ 3026, Индия, Симла x Ташкентская-2009), С-3641 (F₄ к-700 с/о Ок-Беги, Каакха селекционных образцов, Средняя Азия) и С-3644 (F₄ 2545 Atva, США x к-700, Ок-Беги, Каакха, Средняя Азия) в сравнении со стандартным сортом Ташкентская-1. Полученные данные обрабатывали методом дисперсионного анализа [2].

Результаты и обсуждения. Наиболее значимыми признаками люцерны являются высота растений, облиственность, урожайность сена и семян, а также содержания протеина в сене, который определяет кормовую единицу люцерны. Поэтому мы в наших исследованиях уделяли внимания на эти хозяйствственно-ценные признаки люцерны, именно на урожайность сена и семян селекционных образцов люцерны (табл. 1). В текущем году основной целью исследования было изучение урожайности семян селекционных образцов после скашивания травостоя на сено. Анализируя полученные результаты по урожайности сена за 2023 год можно сказать, что данные сильно различаются между селекционными материалами. Погодно-климатические условия (сильная жара) сильно повлияли на урожайность сена, а также семян. На следующий 2024 году в третьем году жизни люцерны будем изучать урожайность зеленой массы и сена, и окончательно будут оценены селекционные образцы по данному признаку, который имеет важное значение в дальнейшем этапе селекции люцерны.

Таблица 1.

Урожайность сена и семян в питомнике сортоиспытания (2023г.)

Происхождение селекционных образцов	Урожайность			
	сено, ц/га	%, к стандарту	семян, г/м ²	%, к стандарту
Ташкентская-1 – стандарт, Узбекистан	21,0	100,0	42,1	100,0
C-3633 F ₄ Таш.-1728 – с/о x группа сортов	26,0	123,8	42,8	101,7
C-3636 F ₄ 6910, Villigar, Арг. x Т.-1728 с/о	18,0	85,7	44,4	105,5
C-3637 F ₄ Таш.-2009 с/о x группа сортов	23,0	109,5	42,4	100,7
C-3639 F ₄ 3026, Индия, Симла x Таш.-2009	17,5	83,3	32,6	77,4
C-3641 F ₄ к-700 с/о Ок-Беги, Каакха, Ср.А.	22,5	107,1	38,1	90,5
C-3644 F ₄ 2545 Atva, США x к-700 Ок-Беги, Каакха, Ср.А.	24,0	114,3	43,0	102,1

2023 г. m=±11,0 ц/га md=±14,0 Р= ц/га2,78

Показатели урожайности сена у селекционных материалов четвертого поколения С-3633, С-3637, С-3641 и С-3644 превосходят стандартный сорт Ташкентская-1 от 1,5 ц/га до 5,0 ц/га или 107,1-123,8 % к стандарту. Самыми высокоурожайными по сену оказались образцы селекции питомника сортоиспытания С-3633 (F₄ Ташкентская -1728 – с/о x группа сортов), С-3644 (F₄ 2545 Atva, США x к-700 Ок-Беги, Каакха, Средняя Азия) и С-3637 (F₄ Ташкентская-

2009 с/о х группа сортов), а показатели признака селекционных образцов С-3636 и С-3639 уступили стандартному сорту на 3,0-3,5 ц/га.

Урожайность семян люцерны играет огромную роль в семеноводстве, так как получение с каждой единицы площади высокого урожая семян дает высокую рентабельность производителям семян. В наших исследованиях несмотря на сильную жару, урожайность семян у селекционных образцов С-3633, С-3636, С-3637 и С-3644 превосходили стандартный сорт Ташкентская-1 на 0,3-2,3 г/м². Самыми высокоурожайными семян оказались образцы селекции С-3636 (F₄ 6910, Villigar, Аргентина х Ташкентская-1728 с/о) и С-3644 (F₄ 2545 Atva, США х к-700 Ок-Беги, Каакха, Средняя Азия), у которых показатели признака были соответственно 44,4 г/м² и 43,0 г/м², что на 0,3-2,3 ц/га выше показателя стандартного сорта и тем самым урожайность семян у этих селекционных образцов составила 4,4-4,3 ц/га. А показатели у селекционных образцов С-3639 и С-3641 уступили стандарту на 4,0-9,1 г/м².

Выводы: - определено, что по урожайности сена селекционные образцы С-3633, С-3637, С-3641 и С-3644 превышали показатель стандартного сорта Ташкентская-1 на 107,1-123,8 %. Самыми высокоурожайными оказались образцы С-3633 (F₄ Ташкентская -1728 – с/о х группа сортов), 3644 (F₄ 2545 Atva, США х к-700 Ок-Беги, Каакха, Ср. Азия), и С-3637 (F₄ Ташкентская-2009 с/о х группа сортов), у которых показатели признака были соответственно 26,0 ц/га, 24,0 ц/га и 23,0 ц/га;

- выявлено, что селекционные образцы F₄ люцерны С-3636 (F₄ 6910, Villigar, Аргентина х Ташкентская-1728 с/о) и С-3644 (F₄ 2545 Atva, США х к-700 Ок-Беги, Каакха, Средняя Азия), которые превзошли показатель признака стандарта на 2,1 г/м² и 0,9 г/м² соответственно.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Горюнов К.Н., Игнатьев С.А., Регидин А.А. Создание исходного материала для селекции люцерны на продуктивность зеленой массы и семян VII Съезд Вавиловского общества генетиков и селекционеров, посвященный 100-летию кафедры генетики СПбГУ, и ассоциированные симпозиумы г. Санкт– Петербург. 2019. С.1143.
2. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта (с основами статистической обработки результатов исследований) Изд. 6-е, перераб. и дополн. М.: Агропромиздат. 2011. 351 с.
3. Малютов М.П. 2005. Селекция люцерны на семенную продуктивность в засушливом Заволжье. Автореф. дис. на соиск. уч. степ. канд. с.-х. наук. – ГНУ НИИ с.х. Юга-Востока. Саратов. С.19
4. Новоселова Ю.К., Киреева В.Н., Кутузова Г.П. и др. Методические указания по проведению полевых опытов с кормовыми культурами. М.: Всесоюзный научно-исследовательский институт кормов им.В.Р. Вильямса.1997.156 с.
5. Писковацкий Ю.М. Селекция люцерны на устойчивость к засоленным почвам Сборник «Проблемы мелиорации и орошаемого земледелия юга России» Ростов на Дону. 2001. С.176-181.
6. Сапрыкин, С.В., Золотарева В.Н., Иванов И.С., Степанова Г.В., Сапрыкина Н.В., Лабинская Р.М. Научные основы селекции и семеноводства многолетних трав в центрально-чernоземном регионе России. Воронеж: АО «Воронежская областная типография». 2020. 496с.
7. Chloupek, O., PlhakF. Combin in gabiliti of quality parameters in Lucerne in successive cuts. Z. P. flan zen zucht. 1986. Vol. 96. N2. P. 130–134.
8. Hrbáčková M., Dvořák P., Takáč T., Tichá M., Luptovčiak I., Šamajová O., Ovečka M., Šamaj J. Biotechnological Perspectives of Omics and Genetic Engineering Methods in Alfalfa Front Plant Sci. 2020. P.592. doi: 10.3389/fpls. 2020.00592.
9. Meirman G., Yesimbekova M.A., Yerzhanova S.T., Baytarakova K.Z., Mukin K.B. Catalog of the Electronic Data base of the Collection of Fodder Crops (Genus Medicago, Subgenus Falcago Reich Grossh.) 2011.
10. Meirman G., Kenenbayev S., YerzhanovaS., Abayev S., ToktarbekovaS. Results of Selection Studies of Alfalfa Based on Inbred Lines Journal of Agricultural Science and Technology A. 2017. №7. P.309–316.doi: 10.17265/2161-6256/2017.05.003
11. Prosperi J-M., Jenczewski E., Muller M-H., Fourtier S., Sampoux J-P., Ronfort J. Alfalfa domestication history, genetic diversity and genetic resources. Legume Perspectives. France. 2014.№4. P.13-14.

**ДОН ВА ПОЯ БЎЛАКЛАРИНИНГ ЖАЛЮЗАЛИ ҒАЛВИР СИРТИДАГИ
ҲАРАКАТИНИ НАЗАРИЙ ТАДҚИҚ ЭТИШ**

A.T. Умиров, PhD, Термиз давлат университети, Термиз

Аннотация. Мақолада жалюзали бир элакли тозалаши тизимида донни тозалаши жараёнида панжали элак юзасида дон ва сомон зарраларининг ҳаракатланишини назарий тадқиқ қилиши натижалари келтирилган. Назарий тадқиқотлар шуни кўрсатдики, доннинг ичкарига ва сомон заррачаларининг жалюзали элак юзаси бўйлаб ташқарига ҳаракатланиши учун панжаларнинг очилиши бурчаги 30° ҳаво оқими тезлиги эса $3,0\text{-}4,0 \text{ м/с}$ оралигидан бўлиши керак.

Калит сўзлар. Дон ва самон, жалюза, вентилятор, нобудгарчилик, ғалвир сирти, ҳаво оқими, тозалаши.

Аннотация. В статье приведены результаты теоретического исследования движения зерна и частиц соломы по поверхности жалюзийного решета в процессе очистки зерна в жалюзийном однорешетном системе очистки. Теоретические исследования показали, что для движения зерна во внутрь и частиц соломы в наружу по поверхности жалюзийного решета угол открытия жалюз должен быть 30° , а скорость воздушного потока в пределах $3,0\text{-}4,0 \text{ м/с}$.

Ключевые слова. Зерно и солома, жалюзи, вентилятор, вентиляция, оконная поверхность, воздушный поток, очистка.

Abstract. The results of the theoretical research of the motion of grains and straw particles on the surface of louvers sieves during the process of clarifying the grain louvers by a single sieve treatment system are provided in the article. Theoretical researches have indicated that the movement of grains into inside the particle and the straw along with the outward surface of the sieve opening angle of the louvers sieves should be 30° , and air stream velocity - within $3,0\text{-}4,0 \text{ m / sec}$

Key words. Grain and chaff, shutter, fan, ventilation, window surface, air flow, cleaning.

Кириш. Дон комбайнлари ёки ғаллянчичлар конструкциясида янчилган донни тозалаш учун кўпроқ жалюзали ғалвирлар кўлланилади. Иш унуми ва дон тозалигини ошириш учун улар икки ёки уч қават қилиб ўрнатилади.


Аммо ғалвирларни бундай ўрнатиш кичик ҳажмли ғаллянчичларнинг ихчамлигига путур етказади. Шу сабабли кичик ҳажмли ғаллянчичлар учун ихчам, яъни ҳаво вентилятори ғалвирга яқинроқ жойлаштирилган ва жалюзаларида сомонни тутувчи элементларга эга бўлган бир ғалвирли дон тозалаш қисми ишлаб чиқилди [1].

Бир ғалвирли дон тозалаш тизимида хам донни энг кам нобудгарчилик билан белгиланган даражада тозалаб олиш талаб этилади. Бу эса кўпроқ йўналтираётган ҳаво оқими ва ғалвир жалюзаларининг донли аралашма, яъни дон ва сомон бўлаклари билан ўзаро таъсирига боғлиқдир.

Бунда характерли жараёнлардан бири - бу ғалвир жалюзаларида келиб тушган донли аралашма таркибидаги дон ва сомон бўлакларига маълум бир кучлар таъсир этганда уларнинг жалюза устида ҳаракатланиши ҳисобланади. Чунки жалюзалар устига бир пайтнинг ўзида хам дон, хам сомон бўлаклари келиб тушади ва бунда донларнинг ғалвир жалюзалари бўйлаб пастга, сомон бўлакларининг эса юқорига ҳаракатланиши таъминланиши керак. Шундан келиб чиқиб, муайян кучлар таъсирида ғалвир жалюзалари бўйлаб дон ва поя бўлакларининг ҳаракатланишини кўриб чиқамиз (шаклга қаранг).

Ғалвир жалюзалари сиртида турган дон ва поя бўлагига қуйидаги кучлар таъсир этади: $I = m\omega^2 r \cos \alpha \tau$; $I_x = m\omega^2 r \cos \alpha \tau \cos \alpha_{xc}$ ва $I_y = m\omega^2 r \cos \alpha \tau \sin \alpha_{xc}$ - инерция кучи ва унинг x ва y ўқлари бўйича ташкил этувчилари; $F_A = mk_n v^2$ - аэродинамик куч; $G = mg$; $G \sin \alpha_{xc}$ ва

$G \cos \alpha_{\text{ж}} -$ оғирлик кучи ва унинг ташкил этувчилари; $N = G \cos \alpha_{\text{ж}} - I \sin \alpha_{\text{ж}}$ - нормал реакция кучи; $F_{\text{ишк}} = fN = f(G \cos \alpha_{\text{ж}} - I \sin \alpha_{\text{ж}})$ - ишқаланиш кучи.



а) донга таъсир этувчи кучлар; б) поя бўлагига таъсир этувчи кучлар

1-расм. Жалюзалар сиртида дон ва поя бўлагига таъсир этувчи кучлар схемаси

Мазкур кучлар таъсирида дон ва поя бўлаги ғалвир жалюзалари сирти бўйлаб пастга ва юқорига ҳаракатланади.

Доннинг ғалвир жалюзаларидаги ҳаракати. Донни т массали моддий нуқта деб олган ҳолда [2], унинг жалюзада турган ўрнини координата боши сифатида олиб, x ўқи бўйича ҳаракати дифференциал тенгламасини тузамиз:

$$m\ddot{x}_\delta = G \sin \alpha_{\text{ж}} + I \cos \alpha_{\text{ж}} - F_{\text{ишк}} - F_A \quad (1)$$

ёки

$$m\ddot{x}_\delta = mg \sin \alpha_{\text{ж}} + m\omega^2 r \cos \omega t \cos \alpha_{\text{ж}} - f_\delta m(g \cos \alpha_{\text{ж}} + \omega^2 r \cos \omega t \sin \alpha_{\text{ж}}) - mk_n v^2, \quad (2)$$

бунда $\alpha_{\text{ж}}$ - жалюзанинг очиқлик бурчаги, град.;

ω - кривошиппнинг бурчак тезлиги, s^{-1} ;

r - кривошиппнинг радиуси, м;

t - вақт, с;

f_δ - доннинг ишқаланиш коэффициенти;

k_n - паруслик коэффициенти, m^{-1} ;

v - ҳавонинг тезлиги, м/с.

Соддалаштиришларни бажариб, (2) ни қуйидаги кўринишга келтирамиз

$$\ddot{x}_\delta = \omega^2 r \cos \omega t (\cos \alpha_{\text{ж}} - f_\delta \sin \alpha_{\text{ж}}) + g(\sin \alpha_{\text{ж}} - f_\delta \cos \alpha_{\text{ж}}) - k_n v^2. \quad (3)$$

Математик таҳлил қоидаларига кўра [3] ушбу ифоданинг интеграли қуйидагича бўлади

$$\dot{x}_\delta = \omega r \sin \omega t (\cos \alpha_{\text{ж}} - f_\delta \sin \alpha_{\text{ж}}) + gt(\sin \alpha_{\text{ж}} - f_\delta \cos \alpha_{\text{ж}}) - k_n v^2 t + C_1. \quad (4)$$

$\dot{x} = \frac{dx}{dt}$ эканлигини эътиборга олиб ва (4) нинг ташкил этувчиларини алоҳида-алоҳида интеграллаб, унинг умумий ечимини топамиз:

$$x_\delta = -r \cos \omega t (\cos \alpha_{\text{ж}} - f_\delta \sin \alpha_{\text{ж}}) + \frac{gt^2}{2} (\sin \alpha_{\text{ж}} - f_\delta \cos \alpha_{\text{ж}}) - k_n v^2 \frac{t^2}{2} + C_1 t + C_2. \quad (5)$$

$t = 0$ да $\dot{x} = 0$, $x_\delta = 0$ шартларга кўра $C_1 = 0$, $C_2 = r(\cos \alpha_{\text{ж}} - f_\delta \sin \alpha_{\text{ж}})$ бўлиб, уларнинг қийматини (5) га қўйсак қуйидаги ифодани оламиз

$$x_\delta = r(\cos \alpha_{\text{ж}} - f_\delta \sin \alpha_{\text{ж}})(1 - \cos \omega t) + (g(\sin \alpha_{\text{ж}} - f_\delta \cos \alpha_{\text{ж}}) - k_n v^2)t^2 / 2. \quad (6)$$

(6) ифода доннинг ғалвир жалюзалари бўйлаб силжиши тенгламасидир.

Поя бўлагининг ғалвир жалюзаларидаги ҳаракати

Юқоридаги кучлар таъсир этганда (шакл, б) поя бўлагининг ҳаракат тенгламаси куйидагича кўринишда бўлади:

$$m \ddot{x}_c = m k_n v^2 + I \cos \alpha_{\omega} - F_{uik} - G \sin \alpha_{\omega} \quad (7)$$

$N = G \cos \alpha_{\omega} + I \sin \alpha_{\omega}$ ва $F_{uik} = fN$ бўлгани учун (7) ифодани тўлиқ кўринишда куйидагича ёзиб оламиз

$$m \ddot{x}_c = m k_n v^2 + m \omega^2 r \cos \omega t \cos \alpha_{\omega} - f_n (mg \cos \alpha_{\omega} + m \omega^2 r \cos \omega t \sin \alpha_{\omega}) - mg \sin \alpha_{\omega}. \quad (8)$$

(8) ифодадан поя бўлагининг ғалвир жалюзалари сиртидаги ҳаракатининг дифференциал тенгламасини келтириб чиқарамиз

$$\ddot{x}_c = \omega^2 r \cos \omega t (\cos \alpha_{\omega} - f_n \sin \alpha_{\omega}) + k_n v^2 - g (\sin \alpha_{\omega} + f_n \cos \alpha_{\omega}). \quad (9)$$

(9) ифодани интеграллаб, унинг ечимига эга бўламиз

$$x_c = \omega r \sin \omega t (\cos \alpha_{\omega} - f_n \sin \alpha_{\omega}) + k_n v^2 t - g (\sin \alpha_{\omega} + f_n \cos \alpha_{\omega}) t + C_1. \quad (10)$$

(10) да $\dot{x} = \frac{dx}{dt}$ деб олиб ва интеграллаб, ечимини келтириб чиқарамиз:

$$x_c = -r \cos \omega t (\cos \alpha_{\omega} - f_n \sin \alpha_{\omega}) + \frac{k_n v^2 t^2}{2} - g (\sin \alpha_{\omega} + f_n \cos \alpha_{\omega}) \frac{t^2}{2} + C_1 t + C_2. \quad (11)$$

$t = 0$ да $\dot{x}_c = 0$, $x_c = 0$ бўлса, $C_1 = 0$ ва $C_2 = r(\cos \alpha_{\omega} - f_n \sin \alpha_{\omega})$ бўлади, у холда

$$x_c = r(\cos \alpha_{\omega} - f_n \sin \alpha_{\omega})(1 - \cos \omega t) + (k_n v^2 - g(\sin \alpha_{\omega} + f_n \cos \alpha_{\omega})) \frac{t^2}{2}. \quad (12)$$

(6) ва (12) ифодалардан кўриниб турибдики, дон ва поя бўлагининг жалюзалар сирти бўйлаб силжишининг ўзгариши асосан кривошип радиуси ва бурчак тезлиги, жалюзаларнинг очиқлик бурчаги, ҳавонинг тезлиги ҳамда поянинг ишқаланиш ва паруслик коэффицентларига боғлиқ бўлар экан.

Дон учун $k_n = 0,1 \text{ м}^{-1}$, $f_n = 0,32$, сомон учун $k_n = 0,6 \text{ м}^{-1}$, $f_n = 0,37$, $\omega = 15 \text{ c}^{-1}$, $r = 0,03 \text{ м}$ эканлигини ҳисобга олиб ва $t = 60/2T_r = 0,2 \text{ с}$ деб қабул қилиб, (6) ва (12) ифодаларни Excel дастури ёрдамида ечамиз ва аниқланган қийматлар асосида дон ҳамда поя бўлагининг жалюзалар очиқлик бурчаги ва ҳавонинг турли тезликларида ғалвир жалюзалари бўйлаб силжишининг ўзгаришини жадвал кўринишида ифодалаймиз. Жадвалдан кўриниб турибдики, жалюзалар очиқлик бурчаги 20° бўлганда, ҳавонинг барча тезликларида ($3,0; 4,0; 5,0$ ва $6,0 \text{ м/с}$) дон ташқарига ҳаракатланади. Жалюзаларнинг очиқлик бурчаги 30° бўлганда эса ҳавонинг $3,0$ ва $4,0 \text{ м/с}$ тезликларида ичкарига, $5,0$ ва $6,0 \text{ м/с}$ тезликларида эса ташқарига ҳаракатланади. Жалюзаларнинг очиқлик бурчаги 40° бўлганда эса ҳавонинг барча тезликларида дон ичкарига ҳаракатланади.

Поя бўлакларининг силжишига оид натижалардан ғалвирнинг бир марта тўлиқ тебранишида жалюзалар очиқлик бурчаги 20° бўлганда ҳавонинг $3,0 \text{ м/с}$ тезлигига поя бўлаги дон билан қўшилиб ичкарига, $4,0; 5,0$ ва $6,0 \text{ м/с}$ тезликларида эса ташқарига ҳаракатланиши кўриниб турибди.

1-Жадвал.

Дон ва поя бўлакларининг ҳаво оқими ва жалюзалар очиқлик бурчагига боғлиқ ҳолда ғалвир жалюзаларидаги силжиши

Ҳавонинг тезлиги, м/с	Доннинг силжиши, м			Поянинг силжиши, м		
	$\alpha_{\omega} = 20^\circ$	$\alpha_{\omega} = 30^\circ$	$\alpha_{\omega} = 40^\circ$	$\alpha_{\omega} = 20^\circ$	$\alpha_{\omega} = 30^\circ$	$\alpha_{\omega} = 40^\circ$
3,0	-0,06	0,11	0,29	-0,06	-0,08	-0,09
4,0	-0,13	0,05	0,22	0,02	0,003	-0,01
5,0	-0,22	-0,04	0,03	0,12	0,11	0,09

6,0	-0,33	-0,15	0,02	0,25	0,24	0,22
-----	-------	-------	------	------	------	------

Жалюзаларнинг очиқлик бурчаги 40^0 бўлганда эса ҳавонинг 3,0 ва 4,0 м/с тезлигига ичкарига, 5,0 ва 6,0 м/с тезликларида эса ташқарига ҳаракатланади.

Хулоса. Хулоса қилиб айтганда, ғалвир жалюзалари бўйлаб доннинг ичкарига, поя бўлакларининг эса ташқарига ҳаракатланиши учун жалюзаларнинг очиқлик бурчаги 30^0 , ҳаво оқимининг тезлиги эса 3,0-4,0 м/с оралиғида ўзгариши керак.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Targ S.M. Nazariy mexanikaning qisqa kursi. O'n ikkinchi ruscha nashridan tarjima qilingan. – Farg'ona, 2007. -191-263 b.

2. Шипачев В.С. Высшая математика. – М.: Высшая школа, 1985. – 472 с.

3. Fozilov, G. G., Koptileuov, B., Umirov, A. T., Kurbanov, A. J., Kurbonov, F. K., Mannanova, S., & Gapparov, S. (2023, December). Development of the constructive scheme and 3D model of the smart corn-seed grader machine. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1284, No. 1, p. 012034). IOP Publishing.

4. Shomirzaev, M. K., & Umirov, A. T. (2022, December). Research on cutting height in soybean harvesting with a combine harvester. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1112, No. 1, p. 012010). IOP Publishing.

УЎК:631.5.445.152.559

БЕГОНА ЎТЛАРГА ҚАРШИ КУРАШИШДА ЕРГА ИШЛОВ БЕРИШ ВА ГЕРБИЦИДЛАРНИ ҚЎЛЛАШНИ ТУПРОҚНИНГ ҲАЖМ МАССАСИГА ТАЪСИРИ

*Ф.М.Хасанова, проф., Пахта селекцияси, ургучилиги ва етиштириши
агротехнологиялари ИТИ, Тошкент*

*И.Т.Карабаев, проф., Пахта селекцияси, ургучилиги ва етиштириши агротехнологиялари
ИТИ, Тошкент*

*М.С.Атабаева, проф., Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти,
Андижон*

*А.М.Сайдов, мустақил тадқиқотчи, Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар
институти, Андижон*

Аннотация. Мақолада, кузги бугдойдан сўнг, тақорорий экинларни экишидан олдин ерга комбинацион агрегат ёрдамида ишлов берилб, бир йўла ўзгарувчан пушта ҳосил қилиб, майдондаги мавжуд бегона ўтларни бир қисмини кўмииш йўли билан, қолган қисмини экиши билан бирга эса Стомп 33% гербицидини 1,0 л/га меъёрда ҳамда экинларнинг шоналаши-гуллаши даврида Клеотодум 24% эм.к гербицидини 0,6 л/га меъёрда қўлланилганда ўсимликнинг амал даври охирига келиб тупроқнинг ҳажм массасини анъанавий усулда ишлов берини технологиясига (назорат) нисбатан қатламлар ва экин турларига мос равишда 0,048-0,045; 0,040-0,031 г/см³ гача, анъанавий усулда ишлов берилб, бегона ўтларга қарши экиши билан Стомп 33% гербициди ҳамда амал даври давомида Клеотодум 24% эм.к гербицидини 0,6 л/га меъёрда қўлланилганга нисбатан эса қатламларга мос равишда 0,008-0,015; 0,010-0,008 г/см³ гача камайиб боришига эришилди.

Калим сўзлар: Бегона ўтларга қарши кураш, ерга ишлов берини, гербицидлар, тақорорий экинлар ясмиқ ва ловия, комбинацион агрегатлар, тупроқнинг ҳажм массаси.

Аннотация. В статье после озимой пшеницы перед посадкой повторных посевов почву обрабатывали комбайном для создания однорядной чередующейся пропасти, закапывая часть имеющихся в поле сорняков, а остальные засевали препаратом Стомп 33% гербицид в дозе 1,0 л/га в норме и в период цветения посевов, при Клеотоде 24% гербицид эм.к вносят из расчета 0,6 л/га, к концу жизни растений объемная масса почвы составляет 0,048-0,045 в зависимости от слоев и видов культур по сравнению с технологией традиционной обработки (контроль); до 0,040-0,031 г/см³, а по сравнению с применением гербицида Стомп 33% и гербицида Клеотодум 24% эм.к из расчета 0,6 л/га в период эксплуатации, по отводкам, по отводкам ; Достигнуто снижение до 0,010-0,008 г/см³.

Ключевые слова: Борьба с сорняками, обработка почвы, гербициды, повторные посевы чечевицы и фасоли, комбинированные агрегаты, насыпной грунт.

Abstract. In the article, after winter wheat, before planting the repeat crops, the soil was tilled with a combine harvester to create a single-row alternating paddy, by burying some of the existing weeds in the field, while planting the rest with Stomp 33% herbicide at 1.0 L/ha in the norm and during the flowering period of crops, when Cleotodum 24% em.k herbicide is applied at the rate of 0.6 l/ha, by the end of the plant life, the volume mass of the soil is 0.048-0.045, according to the layers and types of crops, compared to the technology of traditional processing (control); up to 0.040-0.031 g/cm³, and compared to the application of Stomp 33% herbicide and Cleotodum 24% em.k herbicide at the rate of 0.6 l/ha during the period of operation, according to the layers, according to the layers; A decrease to 0.010-0.008 g/cm³ was achieved.

Key words: Weed control, tillage, herbicides, repeated crops of lentils and beans, combination aggregates, bulk soil.

Тадқиқотнинг долзарбилиги. Бугунги кунда дунё дехқончилигига 3000 дан ортиқ турдаги бегона ўтлар тарқалған ва улардан 1800 тури жуда катта иқтисодий зарап келтириб, шулардан 200 дан ортиқ тури асосий қишлоқ хўжалик экинлари билан кучли рақобатда бўлади. Ҳар йили бегона ўтлар туфайли 20 миллиард доллар атрофида зарап кўрилмоқда.

Ўзбекистонда 209 турдаги бегона ўтларнинг 57 фоизини бир йиллик, 43 фоизини эса кўп йиллик бегона ўтлар ташкил этиб, ҳар йили 20-40 % ғалла, 15-20 % пахта, 10-20% сабзавот экинлари ҳосили камайишига олиб келмоқда. Ҳозирги кунда кўп йиллик бегона ўтлардан ажриқ, ғумай, салом алайкум, камиш билан юқори даражада заарланиш кузатилиб, уларга қарши қурашишда ишлаб чиқариш харажатларини ортиб бориши, яъни қўл меҳнатини 2-2,5 баробаргача, ёқилғи мойлаш материалларини харажатини 10-15 фоизга, меҳнат унумдорлигини камайишига, қўшимча ҳақ тўлашни 8-10 фоизга ошишига, бу эса етиштирилган маҳсулот таннархини ошишига сабаб бўлмоқда, шунинг учун янги мажмуйи қарши қураш чорасини ишлаб чиқиш ва жорий этиш долзарб ҳисобланади.

Қишлоқ хўжалиги амалиётида тупроқни муҳофаза қилувчи ресурстежамкор илғор технологиялар асосида ўегона ўтларга қарши қурашиш натижасида тупроқ унумдорлигини сақлаш ва ошириш, экинлардан юқори ва сифатли ҳосил етиштириш ва ёқилғи-мойлаш материалларининг тежалиши ҳамда ишлаб чиқариш таннархининг камайишига эришилмоқда.

С.Н.Рыжов, В.П.Кондратюк ва Ю.А.Погосов [1; С. 18-20], И.Ревут [2; Б. 365] ларнинг таъкидлашича ўсимликларни яхши ўсиб, ривожланиши учун тупроқнинг ҳажм масса 1,1-1,3 г/см³ оралиғида бўлиши, K.S.Gangwar et. all [3; pp. 242-252], P.L.G.Vlek, L.Tamene [4; pp. 10-20], R.Derpsh [5; pp. 7-39] каби олимлар эса экиш олдидан тупроққа комбинацион агрегатлар ёрдамида минимал ишлов бериш усуулларини қўллаш натижасида, тупроқнинг агрофизик хоссаларини мақбул ҳолда сақланиши таъминланишини таъкидлашган.

Кузги буғдойнинг дон ҳосилини йиғишириб олингандан сўнг ерга турли усуlda ишлов берib, тақорий экинлар етиштириш ҳамда асосий мақсад тақорий экинларни етиштиришда бегона ўтларга қарши қурашишда агротехник ва кимёвий қураш чораларини уйғунлашган ҳолда қўллашни тупроқнинг агрофизик хоссаларига таъсирини ўрганиш мақсадида экинларнинг амал даври бошида ҳамда охирида тадқиқотимизда келтирилган ҳар бир варианта тупроқнинг ҳар 0-10 қатламлар бўйлаб 0-50 см қатламгача илмий таҳлил учун Н.А.Качинский усулида қайд этилганидек тупроқ намуналари маҳсус цилиндрда (ҳажми 500 см³) олиниб, тарозида тортиш ва термостат ёрдамида қуритиш йўллари билан аниқланади. Шуни таъкидлаш жоизки олиб борилган тадқиқотлар бир майдонда олиб борилмаганлиги ва ҳар йили бошқа майдонларда ўтказилганлиги сабабли, тупроқнинг агрофизик хоссаларини аниқлашда амал даври боши ҳамда охирида таҳлиллар учун тупроқ намуналари олинган ва тадқиқотнинг ҳар йилги натижалар бир-биридан фарқланиб борганлигини кузатиш мумкин.

Олиб борилган тадқиқотларимизда кузги буғдойнинг дон ҳосилини йиғишириб олингандан сўнг, 2020-2022 йиллар мобайнида тажриба майдонларига тақорий экин сифатида ясмиқнинг “Дармон” ҳамда Ловиянинг “Ровот” навлари 1-жадвалда келтирилган тажриба тизими орқали экилиб, парваришланди.

1-жадвал

Тажриба тизими (2020-2022 йй)

№	Ишлов бериш усули	Экиш билан бегона ўтларга қарши гербицид қўллаш	Шохланиш-гуллаш даврида гербицид қўллаш меъёрлари	Такрорий эккин турлари
1	Анъанавий ишлов бериш усулида, 20-22 см чуқурликда хайдаш (назорат)	-	-	Ясмиқ
2		-	-	Ловия
3	Анъанавий ишлов бериш усулида 20-22 см чуқурликда хайдаш	Стомп 33% -1,0	Зелекс супер 104% эм.к -1,5 л/га	Ясмиқ
4			Клеотодум 24% эм.к -0,6 л/га	Ловия
5			Клеотодум 24% эм.к -0,8 л/га	Ясмиқ
6			Клеотодум 24% эм.к -0,6 л/га	Ловия
7			Клеотодум 24% эм.к -0,8 л/га	Ясмиқ
8			Клеотодум 24% эм.к -0,6 л/га	Ловия
9			Клеотодум 24% эм.к -0,6 л/га	Ясмиқ
10			Клеотодум 24% эм.к -0,8 л/га	Ловия
11			Клеотодум 24% эм.к -0,6 л/га	Ясмиқ
12			Клеотодум 24% эм.к -0,8 л/га	Ловия
13	Комбинацион агрегат ёрдамида 30-35 см баландликка ўзгарувчан пушта олиш усули	Стомп 33% -1,0	Зелекс супер 104% эм.к -1,5 л/га	Ясмиқ
14			Клеотодум 24% эм.к -0,6 л/га	Ловия
15			Клеотодум 24% эм.к -0,8 л/га	Ясмиқ
16			Клеотодум 24% эм.к -0,6 л/га	Ловия
17			Клеотодум 24% эм.к -0,8 л/га	Ясмиқ
18			Клеотодум 24% эм.к -0,6 л/га	Ловия
19			Клеотодум 24% эм.к -0,8 л/га	Ясмиқ
20			Клеотодум 24% эм.к -0,6 л/га	Ловия
21			Клеотодум 24% эм.к -0,8 л/га	Ясмиқ
22			Клеотодум 24% эм.к -0,6 л/га	Ловия

Тадқиқот натижалари. Олиб борилган 2020-2022 йиллардаги тадқиқотларимизда кузги буғдойнинг ҳосилини йиғишириб олингандан сўнг, майдон енгил сугорилиб, ер етилгандан кейин анъанавий усулда ишлов бериш технологияси, яъни 20-22 см чуқурликда хайдаш, бороналаш, молалаш, пушта олиш тадбирлари ўтказилиб, сўнг такрорий экин сифатида ясмиқ ва ловия экилган 1-2 варианtlарда (назорат) амал даври бошида тупроқнинг ҳажм массаси ҳайдов (0-30 см) қатламда 1,342-1,349 г/см³ ни, ҳайдов ости (30-50 см) қатламда 1,405-1,414 г/см³ ни ташкил этиб, шу усулда ишлов бериб, уруғларни экиш билан бирга бегона ўтларга қарши гербицид қўллаш натижасида тупроқнинг ҳажм массасини ҳайдов (0-30 см) қатламда 0,020-0,026 г/см³ гача, ҳайдов ости (30-50 см) қатламда 0,021-0,028 г/см³ гача камайиб бориши кузатилди. Бу эса ўз навбатида тупроққа ишлов бериш билан бирга бегона ўтларга қарши кимёвий усулларда уйғунлашган ҳолда курашишнинг самарасидир.


Тадқиқотларимизда кузги буғдойнинг ҳосилини йиғишириб олингандан сўнг, ерга ишлов беришни ресурстежамкор усули, яъни комбинацион агрегат ёрдамида 30-35 см баландликда ўзгарувчан пушта олиш билан бирга майдонда мавжуд бегона ўтларни устини кўмиш технологияси қўлланилиб, сўнг такрорий экин сифатида ясмиқ ва ловия экилган 19-20 варианtlарда экиннинг амал даври бошида тупроқнинг ҳажм массаси ҳайдов (0-30 см) қатламда 1,313-1,326 г/см³ ни, ҳайдов ости (30-50 см) қатламда 1,374-1,390 г/см³ ни ташкил этиб, назорат 1-2 варианtlарга нисбатан қатламларга ҳамда экин турларига мос равишда тупроқнинг ҳажм массасини 0,029-0,023; 0,030-0,024; г/см³ гача камайиб боришига эришилган бўлса, шу усулда ишлов берилиб, уруғлар экиш билан бирга бегона ўтларга қарши Стомп 33% гербицидини 1,0 л/га меъёрда қўлланилган 13-14 -вариантларда анъанавий усулда ишлов бериш технологияси қўлланилган 1-2 варианtgа (назорат) нисбатан ҳайдов (0-30 см) қатламда 0,033-0,027 г/см³ гача, ҳайдов ости (30-50 см) қатламда 0,034-0,028 г/см³ гача гача, анъанавий усулда ишлов бериб, бегона ўтларга қарши Стомп 33% гербицидини 1,0 л/га меъёрда қўлланилган 3-4-вариантларга нисбатан эса 0,007 г/см³ гача, комбинацион агрегат ёрдамида

ишлов бериб, бегона ўтларга қарши гербицид қўлланилмаган 19-20 варианtlарга нисбатан эса $0,004 \text{ г}/\text{см}^3$ гача камайиб бориши кузатилди.

Тадқиқот майдонида парваришланган тақрорий экинлар ясмиқ ҳамда ловиянинг амал даври охирига келиб, экишдан олдин ерга комбинацион агрегат ёрдамида ишлов бериб, бир йўла ўзгарувчан пушта ҳосил қилиб, майдондаги мавжуд бегона ўтларни бир қисмини кўмиш йўли билан, уруғлар экиш билан бирга эса Стомп 33% гербицидини 1,0 л/га меъёрда ҳамда экинларнинг шоналаш-гуллаш даврида Клеотодум 24% эм.к гербицидини 0,6 л/га меъёрда қўлланилган 15-16 варианtlарда ўсимликнинг амал даври охирига келиб тупроқнинг ҳажм массаси ҳайдов (0-30 см) қатламда экинлар турларига мос равищда 1,322-1,338 $\text{г}/\text{см}^3$ ни, ҳайдов ости (30-50 см) қатламда 1,382-1,401 $\text{г}/\text{см}^3$ ни ташкил этиб, бу эса анъанавий усулда ишлов бериш технологияси қўлланилган 1-2 варианtlарга (назорат) нисбатан қатламларга мос ҳолда 0,048-0,045; 0,040-0,031 $\text{г}/\text{см}^3$ гача, анъанавий усулда ишлов бериб, бегона ўтларга қарши экиш билан Стомп 33% гербициди ҳамда амал даври давомида Клеотодум 24% эм.к гербицидини 0,6 л/га меъёрда қўлланилган 5-6 варианtlарга нисбатан эса қатламларга мос равищда 0,008-0,015; 0,010-0,008 $\text{г}/\text{см}^3$ гача камайиб бориши аниқланди.

Кузги буғдойнинг ҳосилини йигиштириб олингандан сўнг, ерга ресурстежамкор технологиялар асосида ишлов беришни комбинацион агрегат ёрдамида 30-35 см баландликда ўзгарувчан пушта олиш билан бирга майдонда мавжуд бегона ўтларни устини кўмиш технологияси қўлланилиб, экиш билан гербицид қўлланилмасдан, фақат экинларнинг шоналаш-гуллаш даврида Клеотодум 24% эм.к гербицидини 0,8 л/га меъёрда қўлланилган 21-22 варианtlарда экиннинг амал даври охирига келиб тупроқнинг ҳажм массаси тупроқнинг ҳайдалма қатламида (0-30 см) 1,328-1,346 $\text{г}/\text{см}^3$ ни, ҳайдов ости қатламида (30-50 см) 1,385-1,403 $\text{г}/\text{см}^3$ ни ташкил қилиб, анъанавий усулда ишлов бериш технологияси қўлланилган 1-2 варианtgа (назорат) нисбатан қатламларга ҳамда экин турларига мос ҳолда 0,042-0,036; 0,037-0,030; $\text{г}/\text{см}^3$ гача, анъанавий усулда ишлов бериб, бегона ўтларга қарши экиш билан Стомп 33% гербициди ҳамда амал даври давомида Клеотодум 24% эм.к гербицидини 0,8 л/га меъёрда қўлланилган 9-10 варианtlарга нисбатан эса 0,029-0,022; 0,033-0,025 $\text{г}/\text{см}^3$ гача камайиб бориши аниқланди

Тадқиқотнинг қолган 2021-2022 йилларида хам шундай маълумотлар олинган.



1-расм. Турли усул ва чукурликда ишлов бериб, бегона ўтларга қарши гербицилар қўллаб, курашишнинг тупроқнинг ҳажм массасини ўзариши (2020-2022 йй. Амал даври охири)

Хулоса сифатида шуни таъкидлаш жоизки, кузги буғдойдан сўнг, тақрорий экинларни экишдан олдин ерга комбинацион агрегат ёрдамида ишлов бериб, бир йўла ўзгарувчан пушта ҳосил қилиб, майдондаги мавжуд бегона ўтларни бир қисмини кўмиш йўли билан, қолган қисмини экиш билан бирга эса Стомп 33% гербицидини 1,0 л/га меъёрда ҳамда экинларнинг шоналаш-гуллаш даврида Клеотодум 24% эм.к гербицидини 0,6 л/га меъёрда қўлланилганда

ўсимликнинг амал даври охирига келиб тупроқнинг ҳажм массасини анъанавий усулда ишлов бериш технологиясига (назорат) нисбатан қатламлар ва экин турларига мос равишда 0,048-0,045; 0,040-0,031 г/см³ гача, анъанавий усулда ишлов бериб, бегона ўтларга қарши экиш билан Стомп 33% гербициди ҳамда амал даври давомида Клеотодум 24% эм.к гербицидини 0,6 л/га меъёрда қўлланилган 5-6 вариантларга нисбатан эса қатламларга мос равишда 0,008-0,015; 0,010-0,008 г/см³ гача камайиб боришига эришилди.

Лекин, кузги буғдойнинг ҳосилини йиғишириб олингандан сўнг, ерга ресурстежамкор технологиялар асосида ишлов беришни комбинацион агрегат ёрдамида 30-35 см баландликда ўзгарувчан пушта олиш билан бирга майдонда мавжуд бегона ўтларни бир қисмини устини кўмиш технологияси қўлланилиб, экиш билан гербицид қўлланилмасдан, фақат экинларнинг шоналаш-гуллаш даврида Клеотодум 24% эм.к гербицидини 0,8 л/га меъёрда қўлланилганда экиннинг амал даври охирига келиб тупроқнинг ҳажм массаси анъанавий усулда ишлов бериш технологиясига (назорат) нисбатан қатламларга ҳамда экин турларига мос ҳолда 0,042-0,036; 0,037-0,030; 0,040-0,034 г/см³ гача, анъанавий усулда ишлов бериб, бегона ўтларга қарши экиш билан Стомп 33% гербициди ҳамда амал даври давомида Клеотодум 24% эм.к гербицидини 0,8 л/га меъёрда қўлланилганга нисбатан эса 0,029-0,022; 0,033-0,025; 0,031-0,023 г/см³ гача камайиб бориши аниқланди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Рыжов С.Н., Кондратюк В.П., Погосов Ю.А. Новое в обработке орошаемых почв под хлопчатник. Хлопководство, 1971, №9. С. 18-20
2. Ревут И.Б. – Физика почв. К. Москва. 1972. С. 365.
3. Gangwar K.S., K.K.Singh, S.K.Sharma, O.K.Tomar. - Alternative tillage and crop residue management in wheat after rice in sandy loam soils of Indo-Gangetic plains. Soil and Tillage Research, June 2005. pp 242-252.
4. Vlek, P.L.G., and L. Tamene. Conservation agriculture: In Lead papers, World Congr. on Conserv. Agric., 4th, New Delhi. 4–7 Feb. 2009. World Congr. on Conserv. Agric. 2009. New Delhi. pp. 10–20.
5. Derpsch R., No-tillage and Conservation Agriculture:// A Progress Report. In: No-Till Farming Systems, Goddard T., Zoebisch M., Gan Y., Ellis W., Watson A. and Sombatpanit S. (eds). World Association of Soil and Water Conservation, Special Publication, WASWAC, Bangkok, - 2008, No. 3, pp. 7-39.

УЎТ: 633.14; 631.5

КУЗГИ ЖАВДАР НАВЛАРИ ДОНИНИНГ ОҚСИЛ МИҚДОРИГА АГРОТЕХНИКА ЭЛЕМЕНТЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ

**Н.Ф.Ёдгоров, қ.х.ф.д., катта илмий ходим, "ТИҚҲММИ" Миллий тадқиқот университетининг Қарши ирригация ва агротехнологиялар институти, Қарши
Б.Р.Хасанов, PhD, лаборатория мудири, Жанубий дехқончилик илмий-тадқиқот институти, Қарши**

Аннотация. Мақолада Қашқадарё вилоятининг оч тусли бўз тупроқлари шароитида кузги жавдар «Ns Savo» ва «Вахшская 116» навларини турли муддат ва меъёрларида экиш ҳамда турли меъёрдаги маъданли ўғитлар билан озиқлантиришининг дон таркибидаги оқсил миқдорига таъсири ўрганилган ва таҳтил қилинган.

Калим сўзлар: жавдар, нав, экиш муддати, экиш меъёри, маъдан ўғитлар меъёри, оқсил миқдори, «Ns Savo» ва «Вахшская 116».

Аннотация. В данной статье изучено и проанализировано влияние посадки озимой ржи сортов "NS Savo" и "Vakhshskaya 116" а также подкормка разной нормой удобрений на количество белка, в условиях светло-сероземных почв Кашкадарьяинской области.

Ключевые слова: рожь, сорт, сроки посева, норма посева, норма минеральных удобрений, содержание белка, «Ns Savo» и «Vakhshskaya 116».

Abstract. This article studied and analyzed the effect of planting winter rye varieties "NS Savo" and "Vakhshskaya 116" as well as fertilizing with different rates of fertilizers on the amount of protein in the conditions of light gray soils of the Kashkadarya region.

Keywords: rye, variety, sowing time, sowing rate, mineral fertilizer rate, protein content, "Ns Savo" and "Vakhshskaya 116".

Маълумки, қишлоқ хўжалиги экинларининг меъёрида ўсиши, ривожланиши ва юқори ҳосил шакллантириши учун – илмий асосланган алмашлаб экишни жорий этиш, экинни энг яхши ўтмишдошидан кейин жойлаштириш, тупроқни ишлашда илдиз тизимининг яхши ривожланиши учун оптимал сув-ҳаво, озиқланиш режимини яратиш, органик-маъданли ўғитлардан самарали фойдаланиш, бегона ўтлар, касаллик ва зааркунандаларга қарши курашда уйғунлашган услублардан фойдаланиш, экиш муддатлари, меъёрлари ва чуқурлигини оптималлаштириш, ўсимликнинг ўсув даврида энг мақбул сугориш режимини яратиш, ҳосилни қисқа муддатда, нобудгарчиликсиз йиғиштириб олиш тадбирларини ўз вақтида сифатли бажариш лозим [1; 2; 3;].

Қишлоқ хўжалиги экинларидан бўлган, жавдардан ҳам сифатли дон ҳосилини етиштириш учун юқорида таъкидланган барча агротехник ва бошқа тадбирларни меъёрида ва ўз вақтида ўтказиш ўта муҳим ҳисобланади. Бунга сабаб, жавдар донининг таркиби тупроқ-иқлим шароити, қўлланилган агротехника тадбирлари ва навга боғлиқ ҳолда ўзгариб туради. Йил совук ва ёғингарчилик кўп бўлган йиллари дон таркибидаги оқсил 7-8 фоизга пасайиб кетса, аксинча, ёғингарчилик ва намгарчилик кам бўлган йиллари 15-16 фоизгача юқори бўлади. Дон таркибидаги оқсил микдори жануб, жанубий шарқ ва шарқий минтақаларда шимол ва гарбга нисбатан юқори бўлади [4; 5;].

Жавдар учун технологик аҳамияти юқори бўлган доннинг сифат кўрсаткичларига, доннинг ранги, хиди, намлиги, дон таркибида бегона ўтлар, зааркунандаларнинг мавжудлиги ва доннинг натураси кабилар киради. Шунингдек, доннинг муҳим нонбоплик кўрсаткичларидан бўлган, клейковина микдори ва сифати, жавдар учун бүғдой каби муҳим ҳисобланмайди. Чунки, жавдар донидан ҳосил бўлган хамирда, клейковина жуда кам ёки умуман мавжуд бўлмаслиги мумкин. Щу сабабдан жавдар доннинг муҳим сифат кўрсаткичларига, оқсил, крахмал ва кам бўлса-да доннинг шишасимонлигини киритиш мумкин [6].

Илмий тадқиқотларимиз, 2020-2022 йилларида Қашқадарё вилояти, Қарши тумани, Жанубий деҳқончилик илмий тадқиқот институтининг марказий тажриба майдони бўлган Я.Омонов ҳудудидаги оч тусли бўз тупроқлари шароитида олиб борилди. Тадқиқотларда, Қашқадарё вилоятининг оч тусли бўз тупроқлари шароитида жавдар етиштириш агротехника элементларини ишлаб чиқиши эвазига, улардан сифатли дон ҳосилини етиштириш мақсад қилиб олинган.

Дала тажрибалари, кузги жавдарнинг «Ns Savo» ва «Вахшская 116» навларида экишнинг 01-05.10 ва 20-25.10 муддатлари, 4,0; 5,0; 6,0 млн.дона/га меъёрлари ва маъдан ўғитларнинг бир дона назорат (Ўғитсиз); ҳамда икки дона N₂₀₀P₁₀₀K₇₅; N₂₄₀P₁₂₀K₉₀ кг/га меъёрлари тартиботида олиб борилди. Дала тажрибаларида жами вариантлар сони 36 та бўлиб, 1 ярусада ва 3 такрорланишда, систематик усуlda жойлаштирилди. Тажрибада пайкаллар сони 108 та бўлиб, ҳар бир пайкалнинг умумий майдони 360 м², яъни узунлиги 50 м, эни 7,2 м бўлди.

Тадқиқотларимизда, жавдар навларининг дон таркибидаги оқсил микдори барча варианtlар бўйича 6,9 % дан 12,9 % гачани ташкил қилгани маълум бўлди. Бунда, дон таркибидаги оқсил микдорига экиш муддатлари, меъёрлари ва маъдан ўғитлар меъёрларининг таъсири сезиларли бўлганлиги аниқланди (1-жадвал).

Жумладан, кузги жавдар навлари уруғлари 01-05.10 муддатида экилганда дон таркибидаги оқсил микдори 7,7 % дан 12,9 % гачани ташкил қилган бўлса, экишнинг 20-25.10 муддатида экилган жавдар навларида варианtlар бўйича дон таркибидаги оқсил микдори 6,9 % дан 12,2 % гачани ташкил қилди. Бунда, жавдар навлари уруғларини экишни 01-05.10 муддатига нисбатан 20-25.10 муддатида олиб борилиши ҳисобига, дон таркибидаги оқсил микдори 1,2 % гача камайганлиги аниқланди.

Шунингдек, жавдар навлари дони таркибидаги оқсил микдорига экиш меъёрларининг таъсири сезиларли бўлганлиги маълум бўлиб, бунда экиш 4,0; 5,0 ва 6,0 млн.дона/га меъёрлари тартибида ўзгариши, бир ўсимлик ҳисобига озуқа майдонининг камайишига олиб келиб, дон таркибидаги оқсил микдори ҳам шунга мутаносиб ҳолда камайиб боргани аниқланди. Экишни

6,0 млн.дона/га меъёригача оширилиши ҳисобига эса, жавдар ўсимликларининг ётиб қолишлиги сабабли, дон таркибидаги оқсил микдори янада камайганлиги аниқланди.

Жумладан тадқиқотларда, жавдар навларини экиш 01-05.10 муддатида олиб борилиб, 4,0 млн.дона/га меъёрида экилганда дон таркибидаги оқсил микдори 8,3-12,9 % ни ташкил этган бўлса, экишнинг 5,0 млн.дона/га меъёрида дон таркибидаги оқсил микдори 4,0 млн.дона/га меъёрига нисбатан 0,2-1,8 % гача, 6,0 млн.дона/га меъёрида экилганда, 5,0 млн.дона/га меъёрига нисбатан 0,1-1,8 % гача камайганлиги аниқланди. Жавдар навларида худди шу каби қиёсий таҳлиллар экишнинг 20-25.10 муддатида олиб борилганда ҳам юқоридаги каби тенденциялар кузатилган бўлиб, бунда экишнинг 4,0 млн.дона/га меъёрига нисбатан 5,0 млн.дона/га меъёрида дон таркибидаги оқсил микдори 0,3-0,8 % га, 5,0 млн.дона/га меъёрига нисбатан 6,0 млн.дона/га меъёрида эса, 0,2-1,4 % га камайганлиги қайд қилинди.

1-жадвал

Турли омилларнинг қузги жавдар навлари оқсил микдорига таъсири (2021-2022 йй.).

№	Жавдар навлари	Экиш меъёри, млн.дона/га	Маъдан ўғит меъёрлари, кг/га	Экиш муддатлари	
				01-05.10	20-25.10
1	«Ns Savo»	4	Назорат (Ўғитсиз)	8,3	7,7
2			N ₂₀₀ P ₁₀₀ K ₇₅	12,2	11,5
3			N ₂₄₀ P ₁₂₀ K ₉₀	12,9	12,2
4		5	Назорат (Ўғитсиз)	8,0	7,4
5			N ₂₀₀ P ₁₀₀ K ₇₅	11,9	10,9
6			N ₂₄₀ P ₁₂₀ K ₉₀	11,1	11,5
7		6	Назорат (Ўғитсиз)	7,9	7,1
8			N ₂₀₀ P ₁₀₀ K ₇₅	10,1	9,5
9			N ₂₄₀ P ₁₂₀ K ₉₀	10,7	10,2
10	«Вахшская 116»	4	Назорат (Ўғитсиз)	8,1	7,4
11			N ₂₀₀ P ₁₀₀ K ₇₅	11,8	10,9
12			N ₂₄₀ P ₁₂₀ K ₉₀	12,3	11,7
13		5	Назорат (Ўғитсиз)	7,9	7,1
14			N ₂₀₀ P ₁₀₀ K ₇₅	11,5	10,3
15			N ₂₄₀ P ₁₂₀ K ₉₀	10,6	10,9
16		6	Назорат (Ўғитсиз)	7,7	6,9
17			N ₂₀₀ P ₁₀₀ K ₇₅	9,8	9,1
18			N ₂₄₀ P ₁₂₀ K ₉₀	10,3	9,9

Шунингдек, тадқиқотларимиздаги вариантларда жавдар навларининг дон таркибидаги оқсил микдорига маъдан ўғитларнинг таъсири бошқа омилларга нисбатан сезиларли бўлганлиги маълум бўлди. Бунда, маъдан ўғитлар қўлланилмаган (Назорат) вариантларга нисбатан, маъдан ўғитларнинг N₂₀₀P₁₀₀K₇₅ ва N₂₄₀P₁₂₀K₉₀ кг/га меъёрлари қўлланилганда дон таркибидаги оқсил микдори сезиларли ортгани аниқланди. Аммо, экиш меъерининг 5,0 млн.дона/га меъёрида маъдан ўғитлар меъерини кўп қўллаш (N₂₄₀P₁₂₀K₉₀ кг/га) натижасида жавдар ўсимликларининг ётиб қолишлиги аниқланиб, дон таркибидаги оқсил микдори янада кўпроқ микдорда камайганлиги маълум бўлди.

Жумладан тадқиқотларимиздаги натижаларга кўра, жавдарнинг «Ns Savo» нави 01-05.10 муддатида ва 4,0 млн.дона/га меъёрида экилиб, уларга маъдан ўғитлар (Назорат) билан озиқлантириш ўтказилмаганда, дон таркибидаги оқсил микдори 8,3 % ни ташкил қилган бўлса, маъдан ўғитларнинг N₂₀₀P₁₀₀K₇₅ кг/га меъёри қўлланганда оқсил микдори 3,9 % га, маъдан ўғитлар N₂₄₀P₁₂₀K₉₀ кг/га меъёри қўлланганда эса 4,6 % га ортганлиги қайд қилинди. Экиш меъёри 5,0 млн.дона/га бўлганда дон таркибидаги оқсил микдори маъдан ўғитлар билан (Назорат) озиқлантирилмаган вариантга нисбатан маъдан ўғитларнинг N₂₀₀P₁₀₀K₇₅ ва N₂₄₀P₁₂₀K₉₀ кг/га меъёрлари қўлланганда мутаносиб ҳолда оқсил микдори 3,9 ва 3,1 % га, экишнинг 6,0 млн.дона/га меъёрида эса юқоридаги таққослашларга мос ҳолда 2,2 ва 2,8 % гача ортганлиги аниқланди.

Шунингдек, жавдарнинг «Вахшская 116» нави 01-05.10 муддати, 4,0 млн.дона/га меъёрида экилиб, маъдан ўғитлар билан (Назорат) озиқлантирилмаганда, дон таркибидаги

оқсил миқдори 8,1 % ни ташкил этган бўлса, маъдан ўғитларнинг N₂₀₀P₁₀₀K₇₅ ва N₂₄₀P₁₂₀K₉₀ кг/га меъёрлари қўлланганда, дон таркибидаги оқсил миқдори юқоридаги каби таққослашларга мутаносиб ҳолда 3,7 ва 4,2 % га, экишнинг 5,0 млн.дона/га меъёрида 3,6 ва 2,7 % га, 6,0 млн.дона/га меъёрида эса 2,1 ва 2,6 % га кўп бўлганлиги маълум бўлди.

Худди шу каби таққослашлар, жавдар навларини экиш 20-25.10 муддатида олиб борилганда ҳам юқоридаги каби қонуниятлар кузатилганлиги қайд қилинди.

Тадқиқотларимиз маълумотларининг таҳлилига кўра, барча вариантларда кузги жавдар навлари бўйича дон таркибидаги оқсил миқдорида турли фарклар кузатилгани аниқланди. Бунда, «Ns Savo» нави дони таркибидаги оқсил миқдори вариантлар бўйича 7,1 дан 12,9 % гачани ташкил этган бўлса, «Вахшская 116» навида оқсил миқдори 6,9 дан 12,3 % гача ёки 0,1 дан 0,6 % га кам бўлганлиги қайд этилди.

Шундай қилиб, Қашқадарё вилоятининг оч тусли бўз тупроқлари шароитида кузги жавдарнинг «Ns Savo» ва «Вахшская 116» навларини 01-05.10 муддати, 4,0 млн. дона/га меъёрида экиб, маъдан ўғитларнинг N₂₄₀P₁₂₀K₉₀ кг/га меъёри билан озиқлантириш натижасида, дон таркибидаги оқсил миқдори 12,9-12,2 % ни ташкил қиласди. Жавдар навлари уруғларини 6,0 млн.дона/га меъёрида экиш ҳамда уруғлар 5,0 млн.дона/га меъёрида экилган вариантларда маъдан ўғитларни N₂₄₀P₁₂₀K₉₀ кг/га меъёрида қўллаш, ўсимликларнинг ётиб қолишига сабаб бўлади ва доннинг сифат қўрсаткичларига салбий таъсир қиласди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Орипов Р.О., Халилов Н.Х. “Ўсимликшунослик” – Тошкент. «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти» 2007. – Б. 384.
2. Сиддиков Р. Ўзбекистон “Ўзбекистон Қишлоқ Хўжалиги журнали”. 2015. №9. – Б. 9-10.
3. Атабаева Ҳ.Н., Худайқулов Ж.В, “Ўсимликшунослик” // –Тошкент 2018. – Б. 407
4. Михалёв Е.В., Варламова Л.Д., Олонина С.И. “Возделывание озимой ржи” Учебное пособие. Нижний Новгород. 2015. – Б. 9-34.
5. Баражников П.Н. “Технология возделывания озимой ржи в северной таёжной зоне: методические рекомендации” Томск. 2007. – С. 14.
6. <https://www.activestudy.info/ispolzovanie-zerna-rzhi-i-ocenka-ego-kachestva/> © Зооинженерный факультет МСХА

ТЕХНИКА ФАНЛАРИ

UDC 625.122

ANALYSIS OF TRACK DEVIATION IN TERMS OF TEMPERATURE CHANGE IN THE AREA OF RAILROADS OF UZBEKISTAN*K.S.Lesov, CSc., prof., Tashkent State Transport University, Tashkent**M.T.Yakhyaeva, master's degree, Tashkent State Transport University, Tashkent*

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada Buxoro va Namangan viloyatlari temir yo'llariga haroratning keskin o'zgarishi ta'siri tufayli mavsumiy oylarda temir yo'l rejasida rixtovkalar sonining ko'payishini Pirsonning matematik korrelyatsion usulini qo'llab uning tahlili ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: rixtovka, temir yo'l, harorat, Pirson koeffitsienti, matematik korrelyatsiya tahlili, variatsiya ko'rsatkichi.

Аннотация. В статье рассмотрено увеличение количества рихтовок в железнодорожном плане в сезонные месяцы из-за воздействия резких перепадов температур на железные дороги Бухарской и Наманганской областей с помощью математического корреляционного метода Пирсона.

Ключевые слова: рихтовка, железная дорога, температура, коэффициент Пирсона, математический корреляционный анализ, показатель вариации.

Abstract. The article considers the increase in the number of straightening in the railway plan in the seasonal months due to the impact of sudden temperature changes on the railways of the Bukhara and Namangan regions using the Pearson mathematical correlation method.

Key words: straightening, railway, temperature, Pearson coefficient, mathematical correlation analysis, indicator of variation.

Railway tracks are an integral part of the transport infrastructure, ensuring efficient and safe movement of trains. At the same time, temperature changes inherent in different seasons, as well as temperature fluctuations during the day, affect the geometry of the tracks, requiring periodic correction in order to maintain stability and traffic safety. Thermal deformations of rails, ballast and other components of railway tracks occur due to temperature changes, at which materials can expand with increasing temperature and contract with decreasing temperature. An increase in temperature leads to an expansion of the rails, which causes them to bend and tilt, requiring appropriate correction and straightening to restore the correct geometry. Thus, the straightening processes carried out on railway tracks in response to temperature changes represent an essential aspect of ensuring the stability and safety of railway transport. The climate of Uzbekistan is sharply continental. It is expressed in sharp amplitudes of daytime and nighttime, summer and winter temperatures. The nature is arid, there is little precipitation, and the relative humidity is low. The coldest month is January, the hottest month is July, and in mountainous areas July is August.

The different air temperatures in the Bukhara and Namangan regions, which we are considering, lead to a change in the geometry of the railway, that is, to a significant increase in the number of straightening on hot and cold days. In this scientific article, based on data for 1 year provided by a diagnostic wagon checking the condition of the track, an increase in the number of straightening due to sudden temperature changes in the areas of the railway track, Bukhara and Namangan regions was compared using the Pearson mathematical correlation method. As we know, abnormal warming is observed in the Bukhara region in the summer months, and a significant dry cooling of temperatures in the winter months.




Figure 1 . Schematic representation of the air temperature and the number of peening in each month of the Bukhara region

Table 1

Calculation of variation indicators

Indicators of variation (Bukhara)	Value
Maximum	4236
Minimum	1025
The scope of variation	3211
The average linear deviation	775
Variance by population	873519.2
Variance by sample	952930.1
The standard deviation is general	934.6
The standard deviation of the sample	976.2
Coefficient of variation	40%
Oscillation coefficient	1.32




Figure 2 . Schematic representation of the air temperature and the number of straightening in each month of Namangan region

The variation is due to the fact that the average value, acting as a resultant, performs its main function with a variable degree of accuracy. The accuracy of the average is directly proportional to

the level of similarity of the individual values of the trait to be averaged: the smaller the differences, the more homogeneous the group is, therefore, the average is more accurate and reliable, and vice versa. Thus, the degree of variation provides information about the limits of variability of a trait, the homogeneity of a group for a given trait, the typicality of the average value and the relationship of factors influencing variability. The coefficient of variation is a widely used indicator of variability used to assess the typicality of averages. It is assumed that if the coefficient of variation exceeds 33%, this indicates a high variability of the trait in the studied group. If the coefficient of variation does not exceed 33%, it can be assumed that the group is homogeneous according to the considered feature. Judging by the results we have obtained, we can observe that the number of straightening in the Bukhara and Namangan districts exceeded 33 percent, and this indicates a large fluctuation of the trait in the studied population.

At the same time, since Namangan region is a mountainous region, we can observe abnormally low temperatures on winter days. As a result of this increase in temperature, the amount of straightening on the railway track increases significantly.

Table 2

Calculation of variation indicators

Indicators of variation (Namangan)	Value
Maximum	4852
Minimum	1433
The scope of variation	3419
The average linear deviation	1077.8
Variance by population	1294760.5
Variance by sample	1412466
The standard deviation is general	1137.9
The standard deviation of the sample	1188.5
Coefficient of variation	38%
Oscillation coefficient	1.09

The above table shows the calculation of the coefficient using the Pearson correlation method of the number of peening in Bukhara and Namangan regions for 1 year. In mathematical statistics, the Pearson correlation coefficient is a statistic that measures the magnitude of a linear relationship (correlation) between two variables.

Table 3

Index	Value
Pearson's correlation coefficient	0.59
n (sample size)	12.0
z (Fischer)	0.68
se	0.33
c_95%	1.96
Lower 95% limit zL	0.03
Upper 95% limit zU	1.34
Lower 95% limit rL	0.03
Upper 95% limit Ru	0.87

To determine the level of connection between the variables (i.e., the amount of straightening between the two regions of Bukhara-Namangan), the values of the Pearson correlation coefficient were calculated (Table.3). A certain value of the Pearson correlation coefficient is $r = 0.59$ and ranges from 0.30 to 0.69, which indicates that the level of communication between the two subjects under consideration is characterized as "weak positive". As a result, we can conclude that the correlation is weak, which means that the variables do not predict each other with high accuracy. This means that changes in one variable are poorly predictable from changes in another variable.

REFERENCES:

1. Statistics. Workshop: textbook / V.N. Salin, A.A. Popova, E.P. Shpakovskaya, E.Y. Churilova; edited by V.N. Salin and E.P. Shpakovskaya. — Moscow: KNORUS, 2018. — 308 p. — (Secondary vocational education).
2. Albrecht V.G., Turovsky I.Ya. et al. Travel facilities. - M. Transzheldorizdat, 1959.-57 p.3.
3. Processing of experimental data: a course of lectures / 0-23 comp. A.V. Ilyushonok. – Minsk: KII of the Ministry of Emergency Situations of the Republic of Belarus, 2010. – 38 p.
4. Starichenko B.E. Processing and presentation of pedagogical research data using a computer/ Ural State Pedagogical University. Yekaterinburg, 2004. – 218 p.

UO'K: 616.314

**SANOAT KORXONASI XODIMLARIDA STOMATOLOGIK KASALLIKLARINI
SABABLARI VA OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI**

N.A.Masharipova, o'qituvchi, Toshkent Davlat Tibbiyot Akademiyasi Urganch filiali, Urganch

Annotation. Ushbu maqolada, sanoat korxonalari va tashkilotlarda faoliyat yurituvchi xodimlarning stomologik kasalliklarga chalinish xolatlarini oldini olish va profilaktik chora-tadbirlari to'g'risida so'z yurutilgan. Shuningdek, odatda uchrovchi barcha stomologik kasalliklarni oldini olish, ularni davolash tizimi va tashxis qo'yish jarayonlari to'g'risida so'z yurutilgan.

Kalit so'zlar: Zavod ishchilari, sanoat korxonalari, Kkasbiy salomatlik, kasbiy kasallik, tish kasalliklari.

Аннотация. В данной статье изложено мнение о профилактике и профилактических мерах стоматологических заболеваний у работников промышленных предприятий и организаций. Также обсуждалась профилактика всех распространенных стоматологических заболеваний, система их лечения и процессы диагностики.

Ключевые слова: рабочие, промышленные предприятия, охрана труда, профессиональные заболевания, стоматологические заболевания.

Abstract. In this article, there is an opinion on prevention and preventive measures of stomatological diseases of employees working in industrial enterprises and organizations. Also, the prevention of all common stomatological diseases, their treatment system and diagnosis processes were discussed.

Key words: factory workers, industrial enterprises, occupational health, occupational disease, dental diseases.

Hozirda sanoat miqyosi tobora kengayib bormoqda, shu jumladan unga qabul qilinuvchi ishchilar soni ham[1]. Barchamizga ma'lumki, sanoat korxonalarining yo'naliш va tarmoqlari turlicha bo'lganidek, ularga mos keluvchi ishchilarni tayyorlash va qabul qilish jarayonlari ancha murakkab jarayon hisoblanadi, sababi, tarmoqga ishchilar sanoat talabiga binoan qabul qilinadi. Ishchilar sodiq bo'luvchi har qanday xavf-xatarga jismoniy jihatdan tayyor bo'lishlari lozim[2]. Hukumat tomonidan sanoatda amalga oshiriladigan turli xil mehnat kodekslari, qonunlari, sxemalari va siyosatlari qabul qilinadi, ammo, juda kam xollarda og'iz bo'shlig'i kasalliklari va uning talablariga e'tibor qaratiladi. Ishchilardan yashirin salbiy og'iz bo'shlig'i kasalliklariga chalinish holatlari ko'p uchrasada, tashkilot rahbariyati buni inobatga olmaydi, shuni unutmaslik lozimki stomologik kasalliklar miyyaning neyronlariga to'g'ridan to'g'ri axborot manbaiga yetib boradi, og'riq juda kuchli bo'lishi va xatto insonning qon bosimiga ta'sir qilishi mumkin. [3-5]

Turli xil soxa vakillarida uchrovchi og'iz bo'shlig'i kasalliklari oshkora bo'lgani bilan, ko'plab sanoat korxonalari ishchilarining stomologik tomonidan sog'liklari yashiriladi yoki oshkor etilmaydi, ushbu maqolada axborot resurslari kam bo'lsada, sanoat korxonalaridagi xodimlarning og'iz bo'shlig'i salomatligi to'g'risida ochiqroq ma'lumot berishga harakat qildik.

Tish kasalliklari bevosita qon tomirlarga bog'liq bo'lib, u orqali tushgan har qanday infeksiya to'g'ridan-to'g'ri qonga o'tadi, ularning barchasini oldini olish chora-tadbirlari har bir tashkilot, zavod va sanoat korxonalarida amalga oshirilishi lozim. Xodimlar, turli xil irlari va tabiat tomonidan yetkaziladigan kasalliklardan aziyat chekadi, og'iz bo'shlig'i salomatligi sog'ligimizning ajralmas qismidir. Og'iz bo'shlig'i insonda ko'plab kelib chiquvchi kasalliklarning o'tish joyi bo'lib, unda mavjud bo'lgan alohida o'ziga xos xususiyatlar bilan bir qatorda kasbiy kasalliklarga moyil bo'ladi. Sanoat inqilobi global miqyosda juda katta qadam qo'ydi, shu jumladan ko'plab insonlarni ish bilan taminladi shu bilan insonlarning turmush darajasini oshirdi. Tez rivojlanish bilan birgalikda korxona o'z xodimlarining sog'lig'iga e'tibor berishi lozimligi muhim ahamiyat kasb etadi. Sanoatning turli tarmoqlarida ish yurituvchi xodimlarning ko'pchiligi zararli tashqi muhitga duchor bo'lgan, mana shunday tashqi ta'sirlar insonning og'iz bo'shlig'ida turli kasalliklarni keltirib chiqarishga sabab

bo'ladi. Har bir kasbning sog'liq uchun u yoki bu tomonida zarali jihatlari mavjud. Tadqiqotlar ko'p insonning kasalliklari qay tarzda tarqalishi to'g'risidagi ilmiy faktlarida aksariyat: umurtqa pog'onasi, qo'l, bosh, o'pka, ko'zlar, skelet va boshqa tana a'zolari to'g'risida fikr yuritadi[6]. "Sanoat korxonalari gigiyenasi otasi" nomi bilan mashhur olim – Ramazzini, bemorning kelib chiquvchi kasbiy kasalliklari to'g'risidagi ilmiy ishlaridan birida, uning og'iz bo'shlig'i orqali shakllangan kasalliklariga ham qisqa to'xtalib o'tgan va bir qator belgilarini ta'kidlagan, "Kasbiy kasalliklarning zararli ta'siri tishlarda ham namoyon bo'ladi, jag' suyaklari, periodontal to'qimalar, til, lablar va og'iz shilliq qavati." . "Ish joyidagi kimyoviy, fizik va biologik vositalarning ta'siri ishchilarga oddiy noqulayliklar va asabiylashishdan tortib, zaiflashtiruvchi salbiy kasalliklarga gacha olib kelishi mumkin."[7] "bundan tashqari sanoat ishchilarining so'g'ligi ko'pincha og'ir ish sharoitlari, o'ta bandlik jadvallar, yomon iqtisodiy sharoitlar tufayli e'tiborsiz qoldiriladi." Salbiy odatlardan bo'lgan o'g'iz bo'shlig'i gigiyenasiga bee'tibor bo'lish juda og'ir kasalliklarning salbiy oqibatlariga olib keladi. Shuningdek, tuz korxona ishchilarida olib borilgan tadqiqotlarga tayanadigan bo'lsak, zerikarli ish tartibi ishchilarda turli alkogol ichimlarni ichish va tamaki mahsulotlarini chekishga olib keladi, bu esa xodimlarida floroz va tish kariyeslarini keltirib chiqarishi mumkin. Olimlarning fikricha og'iz bo'shlig'ida kasalliklarni paydo qiluvchi omillardan 27.7% nikotinga ruju qo'yish, 12.3% spirtli ichimlik mahsulotlarini xaddan ziyoda ko'p iste'mol qilishdir[5]. Sanoat ishchilari aniq belgilangan aholi guruhini tashkil qiladi va ular umummilliylar namunalarni ifodalamaşa ham, bunday guruh ko'pincha mavjud va shuning uchun epidemiologik tadqiqotlarda bir qator amaliy afzalliklarga ega. Sanoat ishchilari sog'lig'i va stomatologiyasi bilan bog'liq muammolarga duch kelishadi, chunki ular tez-tez o'zgarib turadi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli past va og'iz bo'shlig'i gigiyenasiga e'tibor berilmaydi. Tish eroziyasi kislotalar ta'sirida oddiy kimyoviy jarayon orqali tish moddalarining yo'qolishiga olib keladi. Sanoat atrof-muhit omillari akkumulyator bilan ishlovchi xodimlari orasida tish eroziyasini shakllantirish omili bo'lishi mumkin, chunki ular sulfat kislotaдан zararlanishlari mumkin bo'ladilar, zararli jarayonlar shakllanishi kasallikni yanada zo'rayishiga olib keladi. Shuningdek, akkumulyator ishchilari orasida chaynash jarayonlarida tish yuzalarining kuchli yemirilishi, ya'ni mexanik yemirilish ham kuzatilgan [8-9]. Zavod xodimlari zararli kislordan nafas olish jarayonlari natijasi og'iz bo'shlig'i kasalliklari, kariyeslarga juda ko'p duchor bo'lishadi. Buning oqibatida bir ishchi kuchidan voz kechishga to'g'ri keladi. Shuningdek, periodontal kasalliklarning yuzaga kelishi, xodimda jiddiy oqibatlarni kuzatilishiga olib kelishi mumkin. Havoga zararli ta'sir qilish va periodontal kasallik o'rtasidagi bog'liqlik hujayra o'sishi va differentsiatsiyasini nazorat qilishda muhim rol o'ynaydigan hujayra ichidagi va hujayradan tashqari pH o'zgarishlarining natijasi bo'lishi mumkin. Fiziologik pH o'zgarishlari noorganik kislotalarning kanserogenligining natijasi bo'lishi mumkin bo'lgan sitotoksik ta'sirlarni (10-11) aniqlaydi. To'qimalarning kislotalar bilan surunkali zararlash xususiyati infektsiyalarning ko'payishiga ham sabab bo'ladi va sulfat kislota ta'siri, shuningdek, makrofaglarning fagotsitar faoliyatining pasayishi va o'simta nekrozi omilining sitotoksik faolligi va xromosoma anomaliyalari sonining ko'payishi kabi immunitet reaksiyalariga olib keladi. "Shuningdek, tupuk tomonidan ishlab chiqarilgan immunitet reaksiyasi, immunoglobulin o'zgarishi orqali tizimli og'iz bo'shlig'i salomatligini buzishi mumkin" (12). Tish erroziyasi, kariyesi va ularning kelib chiqishi. Sanoat korxonalari atrof muhitga chiqarayotgan zaxarli moddalar tish emallariga ham ta'sir o'tkazishi to'g'risida xabarlar mavjud. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar insonga foydali, ammo uning natijasida kelib chiqayotgan zararli moddalar juda ziyonlidir, ularning tarkibida kuchli xrom moddalarini ham mavjud bo'lib, tishlarda kuchli sarg'ayishlar va erroziyalar kuzatiladi. Shuningdek, kislotalar bilan faoliyat yurutuvchi sanoatlarda kislotaning bug'lari ta'siri xodimlarning tish eroziyasini va og'iz bo'shlig'i holatini yomonlashuviga olib keladi, kislotaning yuqori konsentratsiyasi og'iz bo'shlig'iga juda qattiq zarar yetkazadi. Olimlarning olib borgan tadqiqotlar natijasida, sanoat korxonalaridan olingan analiz natijalari u darajada xavfli bo'lmasa ham, doimiy ravishda kislotali havodan olingan nafas tufayli og'iz bo'shliqlarida turli yiringlar va kariyeslar aniqlangan.

Yuqoridagi ko'ngilsiz jarayonlarni amalgalashishda, sanoat korxonalari xodimlarining kasbiy salomatliklariga alohida e'tibor berilishi, tish va og'iz bo'shlig'i salomatliklariga alohida choratadbirlar ko'rishi lozim. Shuningdek, zaxarli gazlar bilan ishlovchi xodimlar uchun nafas yo'llarini

to'suvchi, zaxarli gazlarni filtrlovchi shaxsiy maxsus kiyimlarni yanada takomillashtirish zarur, barcha olib boriluvchi tadbirdilar xodimlarning sog'ligi uchun amal qiladi. Shuningdek, ularning ishlovchi muhitlariga turli havo tozalagich moslamalarini o'rnatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Korxonalardagi yollangan hamshiralari qatorida stomatologlarni qabul qilish eng samarali usul hisoblanib, vaqtigaqqa bilan bemorlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazib turish, ularga tish va og'iz bo'shlig'i salomatligi qoidalariga to'g'ri amal qilish to'g'risida maslahatlar berilishi ham amalgalashirilishi lozim.

Xulosa. Xulosa o'rniда shuni ta'kidlash mumkinki, barcha sanoat korxonalari xodimlarining salomatlik muammolarini hal etish korxona rahbariyatining zimmasiga yuklangan vazifalardandir. Yuqorida muhokamadan ko'rinish turibdiki, ko'plab yutuqlarga qaramay, kasbiy salomatlikda xavf tug'diruvchi omillar va ishchilarning og'iz sog'lig'i holati, ayniqsa kislotali zavodlarda kuzatilmaydi. Shuning uchun ularga og'iz bo'shlig'i gigiyenasini o'rgatish, ishning zararli oqibatlari haqida ma'lumot berish va ularni tuzatish choralarini o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Mahalliy sanoatlardagi salomatlik dasturlari va muhokamalar ushbu ishchilar sinfidagi jamoalarda og'iz bo'shlig'ini yaxshilash uchun juda muhimdir. Sanoat xodimlari o'rtasida salomatlikni mustahkamlash barcha manfaatdor tomonlar, jumladan stomatologlar, mahalliy zavod hokimiylar, ijtimoiy va iqtisodiy sektorlar va ixtiyoriy tashkilotlarning muvofiqlashtirilgan harakatlarini talab qiladi. Ommaviy axborot vositalari, shuningdek, mahalliy va uning atrofidagi hududlardagi mehnat sharoitlari va ularni qanday yaxshilash mumkinligi haqida tizimli yangiliklarni taqdim etish orqali muhim rol o'ynashi mumkin. Yangi qabul qilingan xodimlar uchun yaxshi rejalashtirilgan o'quv dasturini o'tkazish kerak. Ish joylarida samarali ventilyatsiya va egzoz tizimlarini o'rnatish, ishchilar uchun yuz qalqonlari, ko'zoynaklar kabi shaxsiy himoya vositalarini joriy etish va ulardan foydalanishni talab qilish, tibbiy va stomatologiya xizmatlarini ko'rsatish kabi kislota bug'lari bilan ishlaydigan korxonalar uchun tavsiyalar beriladi. Hukumat tegishli choralar ko'rishi va muntazam tekshiruvlar va keyingi chora-tadbirlar bilan bir qatorda ishchilarning sog'lig'iga oid huquqlari bo'yicha qat'iy qonun ishlab chiqishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Park K (2009). Textbook of Preventive and Social Medicine 20th ed. Banarsidas Bhanot Publishers, Jabalpur, India, pp.: 12–48, 708–723. [[Google Scholar](#)]
- Schour I, Sarnat BG (1942). Oral manifestations of occupational origin. *J Am Med Assoc*, 120: 1197–1207. [[Google Scholar](#)]
- Shizukuishi S, Hayashi N, Tamagawa H, Hanioka T, Maruyama S, Takeshita T et al. (1998). Life style and periodontal health status of Japanese Factory workers. *Ann Periodontol*, 3: 303–311. [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
- Sanadhya S, Ramesh N, Sharda A, Asawa K, Tak M, Batra M et al. (2013). The Oral Health Status and the Treatment Needs of Salt Workers at Sambhar Lake, Jaipur, India. *J Clin Diagn Res*, 7: 1782–1786. [[PMC free article](#)] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
- Ramesh N, Sudhanshu S, Sharda A, Asawa K, Tak M, Batra M et al. (2013). Assessment of the Periodontal Status among Kota Stone Workers in Jhalawar, India. *J Clin Diagn Res*, 7: 1498–1503. [[PMC free article](#)] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
- Peterson PE, Henner P (1988). Oral conditions among workers in the Danish granite factory workers. *Scand J Work Environ Health*, 14: 328–331. [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
- Dagli RJ, Santhosh K, Dhanni C, Prabu Duraiswamy P, Kulkarni S (2008). Dental health among green marble mine labourers. *India. J Oral Health Comm Dent*, 2:1–7. [[Google Scholar](#)]
- Malcolm D, Paul E (1961). Erosion of the teeth due to sulphuric acid in the battery industry. *Br J Industr Med*, 18: 63–69. [[PMC free article](#)] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
- Brugge CH (1968). Dental erosion in industry. *Br J Industr Med*, 25: 249–266. [[PMC free article](#)] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
- Koplan JP (1998). Toxicological profile for sulphur trioxide and sulfuric acid. Agency for Toxic Substances and Disease Registry, Atlanta: Available from: www.google.com. [[Google Scholar](#)]
- Lyon (1992). Occupational exposure to mists and vapours from strong inorganic acids and other industrial chemicals. International Agency for Research on Cancer/World Health Organization. Available from: <http://www.google.com>.
- Hays GL, Bullock Q, Lazzari EP, Puente ES (1992). Salivary pH while dissolving vitamin C-containing tablets. *Am J Dent*, 5: 269–271. [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]

**QO'SHIMCHA NAFAS OLISH QARSHILIGINI MODELLASHTIRISH BILAN YURAK
RITMI O'ZGARUVCHANLIGINI BAHOLASH METODIKASI**

*K.U. Rozumbetov, PhD, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chovchachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, Nukus*

Annotatsiya. Ushbu maqolada qo'shimcha nafas olish qarshiligi bilan yurak ritmi o'zgaruvchanligini yozib olishning uslubiy jihatlari va aniqlangan yurak ritmi o'zgaruvchanligi ma'lumotlariga ko'ra vegetativ nerv sistemasi tonusini baholash usuli haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: yurak ritmi o'zgaruvchanligi, qo'shimcha nafas olish qarshilagini simulyatsiya qilish, fotopletizmografiya usuli, Elevation Training Mask 2.0 trenajyor niqobi, stress indeksi.

Аннотация. В этой статье подробно рассматриваются методические аспекты записи вариабельности сердечного ритма с дополнительным дыхательным сопротивлением и метод оценки тонуса вегетативной нервной системы на основе данных об обнаруженной вариабельности сердечного ритма.

Ключевые слова: вариабельность сердечного ритма, моделирование дополнительного дыхательного сопротивления, метод фотоплетизмографии, тренажерная маска Elevation Training Mask 2.0, индекс стресса.


Abstract. This article details the methodological aspects of recording heart rate variability with additional respiratory resistance and the method of autonomic nervous system tone estimation based on the detected heart rate variability data.

Keywords: heart rate variability, modeling of additional respiratory resistance, photoplethysmography method, Elevation Training Mask 2.0, stress index.

Qo'shimcha nafas olish qarshiligi (QNOQ) bilan yurak ritmi o'zgaruvchanligi (YRO') ni yozib olishning uslubiy jihatlari. YRO' parametrlarini yozib olish bo'yicha tadqiqotlar ertalab soat 9⁰⁰ dan 11⁰⁰ gacha o'tkaziladi. Adabiyotlarga ko'ra, iliq mavsumda yetarlicha havo aylanib turadigan xonada, qulay haroratda, ovqatlanishdan 1,5-2 soat o'tgach YRO' ni yozib olish uchun standart vaqt hisoblanadi [15]. YRO' parametrlarini yozib olish tibbiy amaliyotda foydalanish uchun ruxsat (tibbiy texnika mahsulotlarini ro'yxatga olish guvohnomasi №29/03041202/4999-03. 17.03.2003 yildan) etilgan, patentlangan qurilma BioMouse ("Biomish professional KPF-01", Yopiq aksionerlik jamiyati "Neurolab", Rossiya) dasturiy ta'minot kompleksi yordamida amalga oshirilishi mumkin [6, 7, 17, 18, 19] (1-rasm). Ushbu qurilma an'anaviy kompyuter sichqonchasi bo'lib, uning yon qismida fotopletizmografiya usuli bilan YRO' parametrlarini yozib olish uchun mo'ljallangan, o'ng qo'lning I barmog'idagi qon oqimining yurak urish tebranishlarini qayd qilish uchun infraqizil optik datchik RB-16CPS o'rnatilgan [10]. Ma'lumotlarni olishning bunday usuli tibbiy protsedura paytida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan psixologik noqulaylikni minimallashtirish uchun tanlangan – YRO' parametrlarini muqobil fotopletizmografiya elektrokardiografik usuli bilan yozib olishdan iborat (2-rasm). Shu usul bilan tadqiqotlarda YRO' tahlilining natijalari kundalik muhitga iloji boricha yaqin sharoitlarda olinishi mumkin.



1-rasm. BioMouse patentlangan qurilmasi




2-rasm. Ko'ngillarda fotopletizmografiya usuli bilan YRO' parametrlarini yozib olish

Adabiyotlarda elektrokardiografik va fotopletizmografik usullar bilan olingan YRO' ma'lumotlarining taqqoslanishi haqida xabar berilgan [8, 12]. Shu bilan birga, ushbu metodik tavsyanomada pulsogramma yordamida YRO' ni yozib olish xatoligini minimallashtirish bo'yicha quyidagi tavsiyalar ko'rsatilgan: subyektda jismoniy va psixoemotsional stressning yo'qligi, uning statsionar holati, shuningdek nafas olishni nazorat qilish, tadqiqot davomida gapirmaslik, aritmiyalarning yo'qligi [12]. Bundan tashqari, yozib olish qurilmasining barqaror fotopletizmografik signalni va 250 dan 500 Hz gacha bo'lgan namuna olish chastotasi bo'lishi lozim [8, 9]. Qurilmaning pasport xususiyatlari ko'ra RB-16CPS infraqizil optik datchikining namuna olish tezligi 366 Hz [10].

Mumkin bo'lgan texnik xatoni kamaytirish uchun zarur bo'lgan bir qator sinov yozuvlaridan so'ng YRO' parametrlarini tinch holatda va niqobda yozib olish 5 daqiqa ichida amalga oshiriladi [9]. Ushbu muddat YRO' parametrlaridan foydalanib vegetativ nerv sistemasi (VNS) tonusini aniqlash uchun maqbul hisoblanadi (3-rasm) [8, 9].

QNOQ ni modellashtirish uchun 3000 futdan 18000 futgacha (ortish 3000 fut (914,4 m) bilan) balandlikka ko'tarilgandagi (914,4 metrdan 5486,4 metrgacha) nafas olish qiyinchiliklarini simulyatsiya qilish uchun Elevation Training Mask 2.0, Training Mask LLC, Cadillac, Michigan, AQSH, patentlangan qurilma ishlatalgan [5] (4-rasm).



3-rasm. Tadqiqot o'tkazilishining umumiy sxemasi

Ushbu QNOQ simulyatsiyaning turli darajalarini yaratish klapanlar konfiguratsiyasini o'zgartirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu qurilma chidamlilikni oshirish, insonning aerobik qobiliyatini oshirish va tashqi nafas olish funksiyasini yaxshilash uchun qo'llaniladi [1, 11, 13].



4-rasm. Elevation Training Mask 2.0 patentlangan qurilmasi

Tadqiqotlarda turli xil darajalarda nafas olish qiyinlashuvini simulyatsiya qiladigan turli o'lchamdagи ETM larni qo'llash mumkin. Bunda tadqiqotlarda qatnashuvchi ishtirokchilarga ETM ning qaysi darajasi qo'llanilayotganligi haqida xabar berilmaydi.

Tadqiqotlar davomida barcha ko'ngillarda avtomatik tonometr OMRON M6, Yaponiya (Automatic Blood Pressure Monitor OMRON model M6) yordamida qon bosimi va qo'l pulsoksimetr PRCMISEMED PRO-PM350, Xitoy (Handheld pulse oximeter PRCMISEMED PRO-PM350, China) yordamida SpO₂ monitoringi o'tkaziladi (5-6-rasmlar). QNOQ simulyatsiyasida SpO₂ ning 3-5% (93% dan kam) ga kamayganda yoki yuqori qon bosimi (gipertenziya) bilan SAB – 139 mm s.u. dan oshganda, DAB – 89 mm s.u. dan oshganda ushbu ko'ngilliada YRO' ni yozib olish ishlari o'tkazilmaydi va ushbu ko'ngilli tadqiqotga jalb qilinmaydi [4].



5-rasm. Avtomatik tonometr OMRON M6 yordamida ko'ngillarda arterial qon bosimini o'lchash



6-rasm. Qo'l pulsoksimetri PRCMISEMED PRO-PM350 yordamida ko'ngillarda SpO₂ miqdorini o'lchash

YRO' ma'lumotlariga ko'ra VNS tonusini baholash usuli. "Comlex BioMouse" 3.1 versiyasi, "Neurolab" yopiq aksiyadorlik jamiyati tomonidan ishlab chiqarilgan kompyuter ma'lumotlarini yig'ish va tahlil qilish tizimi yordamida YRO' ning asosiy ko'rsatkichlari aniqlanadi. YRO' tahlilining quyidagi usullari qo'llaniladi [8, 9, 16, 20]:

1. Vaqt bo'yicha (time-domain variables) tahlil qilish parametrlari – o'rtacha yurak qisqarish chastotasi (HR) va kardiointervalning o'rtacha davomiyligi (mean RR-distance) hisoblanadi.

2. YRO' statistik tahlil usullari – bir qator kardiointervallarning ketma-ketlik farqlari yig'indisining kvadrat ildizi (Root mean square of successive differences, RMSSD, ms), NN kardiointervallarning standart og'ishi (Standard deviation of NN intervals, SDNN), kamida 50 ms farq qiladigan qo'shni NN intervallari ulushi (Percentage of adjacent NN intervals which differ by at least 50 ms, pNN50%).

RMSSD – vegetativ boshqarilishning parasimpatik zvenosi faolligini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich kardiointervallarning ketma-ket juftliklari miqdorlarining turli-tumanligini dinamik qatori bo'yicha hisoblanadi va yurak ritmning sekin-to'lqinli taqqoslovchilariga ega emas. U regulyatsiya avtonom konturining faolligini aks ettiradi. RMSSD miqdori qancha katta bo'lsa, parasimpatik regulyatsiyaning darajasi shunchalik katta bo'ladi. Regulyatsiyaning parasimpatik darajasi simpatikdan ustunligi to'g'risida shunga o'xshash ma'lumotni pNN50 ko'rsatkichi bo'yicha olish mumkin, u R-R intervallarining umumiyligi miqdoriga 50 ms dan ko'p bo'lgan turli xil miqdordagi sonni % da tasvirlaydi.

SDNN – vegetativ regulyatsiyaning umumiyligi samarasini aks ettiradi. SDNN ning o'sishi yoki kamayishi yurak ritmiga parasimpatik yoki simpatik ta'sirlarning ko'payganini ko'rsatadi. SDNN ning me'yordagi miqdori 40-80 ms doirasida bo'ladi. Sportchilarda tinch holatda SDNN ning ko'rsatkichlari yuqoriroq va bu mashq qilganlik darajasi hamda sport turiga bog'liq. Ushbu

miqdorlarning diapazoni ko'pincha yurak ritmining regulyatsiyasiga va kam hollarda yosh-jins xususiyatlariga bog'liq, bu har bir tadqiqotning natijalarini baholashda hisobga olinishi kerak.

Qisqa (5 daqiqalik) yozuvlarni tahlil qilishda, SDNN ning o'sishi avtonom regulyatsiyaning kuchayganini va yurak ritmiga nafas ta'sirining ko'payganligini ko'rsatadi. SDNN ning keskin kamayishi boshqaruvchi tizimlarning ahamiyatli kuchayishi bilan bog'liq, bunda regulyatsiya jarayoniga boshqaruvning yuqori darajalari qo'shiladi, bu avtonom kontur faolligini to'xtatishga olib keladi. SDNN ga o'xshash fiziologik ma'no bo'yicha ma'lumotni TP – spektri umumiyligini quvvatining ko'rsatkichi bo'yicha olish mumkin. Ushbu ko'rsatkich shunisi bilan ajralib turadiki, u yurak ritmidagi faqat davriy jarayonlarni ko'rsatadi va chiziqli bo'limgan va davriy bo'limgan komponentlarga ega emas.

pNN50% – jarayonning turg'unlik holatini ham aks ettiradi, turg'un bo'limgan jarayonda pNN50 ko'rsatkichi 0 ga yaqinlashadi, bunday variantda RMSSD miqdori diagnostik miqdorga ega. Markaziy mexanizmlarning qo'shilishi qanchalik faol bo'lsa pNN50% ning miqdori shuncha oz bo'ladi. Sportchilarda haddan tashqari ko'p zo'riqishda va mashq qilishda ushbu ko'rsatkich 0 ga yaqinlashadi. Qoidaga ko'ra, SDNN, RMSSD va pNN50% ko'rsatkichlari bir yo'nalihsiga o'zgaradi.

3. YRO' geometrik ko'rsatkichlarining tahlili (Geometric Analysis): variatsion qator – NN intervallarning eng katta va eng kichik qiymatlari orasidagi o'rtacha farq (MxDMn, ms) va amplituda moda (AMo, %) – moda diapazoniga mos keluvchi kardiointervallar foizi.

MxDMn – kardiointervallarini har tomonga tarqalishi, organizmdagi boshqariluvchi intervallarning holati bilan bog'liq.

SI (stress indeksi) – boshqaruvchi tizimlarning kuchayish darajasini (regulyatsiya markaziy mexanizmlari faolligining avtonomlarga nisbatan ustunlik darajasini) ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich kardiointervallarni – variatsiyali pulsogrammalarni taqsimlash grafigini tahlil qilish asosida o'chanadi. Markaziy konturning ustunligi, ruhiy va jismoniy zo'riqishlar vaqtida simpatik regulyatsiyaning kuchayishi quyidagilar bilan namoyon bo'ladi: doimiy ritm kardiointervallari davomiyligini tarqalishining kamayishi (MxDMn), davomiyligi bo'yicha bir xil bo'lgan intervallarning oshishi (AMo ning o'sishi). Bunda gistogrammaning shakli o'zgaradi, balandligining bir vaqtda o'sishi bilan birga ularning kichrayishi sodir bo'ladi.

Ushbu ko'rsatkich jismoniy yuklama va boshqa ruhiy zo'riqishlarda simpatik asab tizimining tonusi kuchayishi bilan oshadi. Hattoki kichik yuklama (jismoniy yoki emotsiyal) ham SI ni 1,5-2 barobarga ko'paytiradi, katta va ekstremal yuklamalarda u 5-10 va undan ham ko'p ortishi mumkin.

Sportchilarda me'yorda, tinch holatda SI ning ko'rsatkichlari (25-70 shartli birlik) past, haddan tashqari mashq qilgan holatda, haddan tashqari zo'riqishda va ritm boshqaruvining ko'chishida SI miqdori 20 dan 5 shartli birlikkacha keskin kamayadi.

4. YRO' ning chastotali (spektral) tahlili (Frequency Domain Methods) spektrning yuqori chastotali (Hight Frequency, HF, ms²), past chastotali (Low Frequency, LF, ms²), juda past chastotali (Very Low Frequency, VLF, ms²) va ultra past chastotali (Ultra Low Frequency, ULF, ms²) tarkibiy qismlarining quvvatini, shuningdek spektrning barcha tarkibiy qismlarining umumiyligini quvvati (Total Power, TP, ms², HF+LF+VLF+ULF) ni hisoblashni o'z ichiga oladi.

TP – spektrning umumiyligini quvvati, u yurak ritmiga neyrogumoral ta'sirlarning umumiyligini faolligini aks ettiradi. HF, LF, VLF va ULF diapazonlarida quvvatlarning yig'indisi sifatida belgilanadi. YRO'ning ikkita tarkibiy qismlari mavjud: yuqori va past chastotali komponentlar, ularning tahlili mazkur metodikani qo'llagan holda barcha tadqiqotlarning asosi hisoblanadi. TP spektrning o'sha bir xil umumiyligini quvvatida spektr qismlarini taqsimlash tartibi turlicha bo'lishi mumkin. Me'yorda spektrning tuzilishi quyidagi tartibga mos keladi: HF>LF>VLF>ULF.

Yuqori chastotali spektr qismining quvvati (HF – nafas to'lqinlari). VNS, vegetativ balans komponentlaridan biri bo'lib, parasimpatik bo'lim javob beradigan regulyatsiyaning avtonom konturi faolligini to'xtatish darajasi bo'yicha baholanadi. HF – to'lqinlarining chastotali diapazoni 0,4-0,15 Gs, davr 2,5-6,6 sek. ga teng.

Parasimpatik tizim faolligi yuqori chastotali komponentning asosiy qismi hisoblanadi. Bu mutlaqo raqamlarda (HF ms²) va spektrning umumiyligini quvvatiga nisbatan nisbiy kattalik (HF%) ko'rinishida yurak ritmining nafas to'lqinlari quvvati ko'rsatkichi tomonidan yaxshi aks etadi.

Odatda nafas oluvchi qismi (HF) spektr umumiy quvvatining 40-55 % ini tashkil etadi. Bu ulushning kamayishi vegetativ balans simpatik bo'lim ustunligi tomonga aralashganini ko'rsatadi. HF% ning kattaligi 20 % dan kamaysa yoki 70 % dan keskin oshsa, unda mos ravishda, markaziy yoki avtonom regulyatsiyaning keskin ustunligi to'g'risida gapirish mumkin. Bu holatda SDNN, RMSSD va pNN50 vaqtinchalik ko'rsatkichlari sezilarli darajada kamayadi yoki oshadi. Ammo spektral ko'rsatkichlarning nisbiy kattaliklarini mutlaq kattaliklar bilan solishtirish shart, aks holda olingen ma'lumotlarni noto'g'ri izohlash mumkin.

Spektrning past chastotali qismining quvvati (LF). Ushbu ko'rsatkich qon tomir tonusi regulyatsiya tizimining holatini ifodalaydi. Sinokarotid zonasining normadagi sezgi retseptorlari AB kattaligining o'zgarishlarini qabul qiladi va afferent asab impulsatsiyasi uzunchoq miyaning qon tomir harakati (vazomotor) markaziga boradi. Bu yerda afferent sintez (markazga kelgan axborotni ishlov berish va tahlil qilish) amalga oshiriladi va qon tomir tizimiga boshqaruv signallari (efferent asab impulsatsiyasi) kelib tushadi.

RMSSD, MxDMn, SDNN, pNN50%, HF va TP chastota diapazonidagi spektr quvvati ko'rsatkichlarining ortishi parasimpatis tizimning yuqori tonusi uchun tasdiqlangan belgilar ekanligi umumiy qabul qilingan [8, 9, 16, 20]. Ushbu YRO' parametrlarining pasayishi, agar iloji bo'lsa, elektrodermal faoliytkni ro'yxatdan o'tkazish va ko'z qorachig'i diametrini baholash bilan to'ldirilsa simpatik tizim faolligining oshganligini ko'rsatadi [3].

VNS tonusini baholashning tavsiflangan usuli ma'lum bir ko'ngillida simpatik yoki parasimpatis tonusi ortishining individual ta'sirini hisobga olmagan holda QNOQ ni modellashtirgandan keyin faqat dinamikada qo'llaniladi. Bundan tashqari, u tinch holatda simpatik tizimning tonusini oshirgan ko'ngillilarni tadqiqotga jalb qilmaslik uchun ishlatalishi mumkin emas. Bu maqsadlar uchun VNS tonusining ustunligiga ko'ra guruylarga ajratish imkonini beruvchi YRO'ning ishonchli belgilari zarur. Yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, LF diapazonidagi spektral quvvatning ilgari tan olingen ko'rsatkichi simpatik tizim faolligining ortishi belgisi sifatida talqin qilinishi mumkin emas va LF ning HF ga nisbati simpato-vagal muvozanatni aks ettirmaydi [8, 9]. LF ning o'zgarishi gemodinamikani baroreflektiv boshqarish paytidagi murakkab simpato-vagal o'zaro ta'sirlar natijasidir [2, 8, 20].

XX asrning o'rtalarida rus tadqiqotchi R.M. Baevskiy R-R intervallarni taqsimlash histogramlarini tahlil qilgandan so'ng, simpatik tizimning faollahishi ritmni barqarorlashtirish va R-R intervallarning davomiyligini kamaytirish bilan namoyon bo'lishini aniqladi. Ammo bir xil davomiylikdagi kardiointervallar sonining ko'payishi variatsion pulsogrammaning torayishiga va ortishiga olib keladi [2, 3]. Natijada, AMo ning ko'payishi va variatsion qatorning kamayishi kuzatiladi [2, 3]. R.M. Baevskiy SI (Baevsky's Stress Index, SI) ni hisoblashning quyidagi formulasini taklif qilgan: $SI = \frac{AMo}{2Mo \cdot MxDMn}$ [3]. R.M. Baevskiy ushbu ko'rsatkichni sinovdan o'tkazdi va amaliyotga taqdim etdi, shuningdek, kosmik parvozlar paytida yurak-qon tomir kasalliklari uchun xavf omillarini aniqlashda VNS ni nazorat qilish uchun YRO' tahlilining alohida rolini ta'kidladi [2]. Hozirgi vaqtda SI vegetativ holatni, psixoemotsional stressni har tomonlama baholashda, shuningdek sportchilarda mashg'ulot jarayonini kuzatishda va iqlimi noqulay mintaqalar aholisida VNS reaktivligi xususiyatlarini o'rganishda qo'llaniladi. Taklif etilayotgan metodga ko'ra, sog'lom ko'ngillilarda tinch holatda $SI \leq 100$ shartli birlik yoki SI ning qiymati 100 shartli birlikdan kam bo'lsa bu holat ularda parasimpatis tizim tonusining oshganligini ko'rsatadi [20]. Aksincha, SI ning qiymati 100 shartli birlikdan oshsa ($SI \geq 100$) tinch holatda yoki ta'sirdan keyin simpatik tizim tonusining oshganligini ko'rsatadi [3, 20].

Bizning tadqiqotimizda, birinchi bosqichda, $SI \geq 100$ shartli birlik holatidagi subyektlar tadqiqotdan chetlashtirildi. QNOQ ni modellashtirishdan so'ng, parasimpatis tizim tonusi oshgan ko'ngillilar SI kamaygan yoki o'zgarmagan hisoblanadi va ular eksperimental ishtirokchilar guruhiga mansub bo'lishadi. Simpatik tonusi ortgan ko'ngillilar guruhiga SI 100 shartli birlikdan oshgan subyektlar kiritilgan. Bundan tashqari, ushbu guruhlar (parasimpatis tizim tonusi oshgan guruh va simpatik tizim tonusi oshgan guruh) ni ajratish uchun zarur bo'lgan mezon YRO' parametrlarining o'zgarishi edi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, zamonaviy tushunchalarga ko'ra, VLF va ULF to'lqinlarining spektral quvvati o'zgarishini fiziologik asoslash VNS tonusining reaktivligi nuqtai nazaridan amalgamoshirilmaydi. VLF ning kelib chiqishi gormonal o'zgarishlar, qon tomir tonusining o'z-o'zidan o'zgarishi, intrakardial (yurak ichidagi) reflekslar bilan bog'liq bo'lishi mumkinligi haqida ma'lumotlar bor. ULF ning tabiatli haligacha kam o'rganilgan va sirkad neyroendokrin ritmlarga bog'langan [8, 14]. VLF va ULF oralig'idagi to'lqinlarning informativligi to'g'risida adabiyotda faqat uzoq muddatli "long-term HRV" (24 soatlik) YRO' yozuvlari bilan yakdil fikr mavjud [8]. Shuning uchun, bizning tadqiqotimizda VLF va ULF ning quvvat qiymatlari faqat TP ni hisoblash uchun ishlataligan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aleksandrova N.P., Breslav I.S. Human respiratory muscles: three levels of control // Human Physiology. – 2009. – T.35. – №2. – P. 222-229.
2. Baevsky RM, Bennett BS, Bungo MW, Charles JB, Goldberger AL, Nikulina GA. Adaptive responses of the cardiovascular system to prolonged spaceflight conditions: assessment with Holter monitoring // J Cardiovasc Diagn Proced. – 1997. – №14(2). – P. 53-57.
3. Baevsky Roman M., Chernikova Anna G.. Heart rate variability analysis: physiological foundations and main methods // Cardiometry. – No.10. – P. 66-76.
4. Chan Edward D, Chan Michael M, Chan Mallory M. Pulse oximetry: understanding its basic principles facilitates appreciation of its limitations // Respir Med. – 2013. – №107(6). – P. 789-799.
5. Danford C.J. High performance ventilatory training mask incorporating multiple and adjustable air admittance valves for replicating various encountered altitude resistances. Patent USA US9067086B2; 2015
6. Erkudov, V., Pugovkin, A., Rozumbetov, K., Matchanov, A., Arachchi, S., & Rathnayake, U. (2024). The impact of unfavorable and toxic environmental conditions on autonomic tone modulations while wearing N95 face masks. Case Studies in Chemical and Environmental Engineering, 9, 100619. <https://doi.org/10.1016/j.cscee.2024.100619>
7. Erkudov, V.O., Rozumbetov, K.U., Pugovkin, A.P., Matchanov, A.T., & Pankova, N.B. (2023). Typological features of autonomic heart rate regulation during imitation of a rise to altitude by using additional respiratory resistance. Human Physiology, 49(4), 393-401. DOI: 10.1134/S0362119723600078
8. Ernst G. Heart Rate Variability. – Springer-Verlag London, 2014. – P. 336.
9. Heart Rate Variability. Standards of Measurement, Physiological Interpretation, and Clinical Use. Task Force of the European Society of Cardiology the North American Society of Pacing Electrophysiology // Circulation. – 1996. – №93. – P. 1043-1065
10. http://www.neurolab.ru/ru/menu/products/biomouse_personal/
11. Romero-Arenas Salvador, López-Pérez Emilia, Colomer-Poveda David, Márquez Gonzalo. Oxygenation Responses While Wearing the Elevation Training Mask During an Incremental Cycling Test // J Strength Cond Res. – 2021. – №35(7). – P. 1897-1904.
12. Schäfer Axel, Vagedes Jan. How accurate is pulse rate variability as an estimate of heart rate variability? A review on studies comparing photoplethysmographic technology with an electrocardiogram // Int J Cardiol. –2013. – №166(1). – P. 15-29.
13. Segizbaeva M.O., Aleksandrova N.P. Effect of the elevation training mask on the functional outcomes of the respiratory muscles // Human Physiology. – 2018. – T.44. – №6. – P. 656-662.
14. Shaffer Fred, McCraty Rollin, Zerr Christopher L. A healthy heart is not a metronome: an integrative review of the heart's anatomy and heart rate variability // Front Psychol. – 2014. – №5. – P.1040.
15. Ueta Jiro, Nakatsu Takaaki, Murakami Takashi, Toyonaga Shinji, Hirohata Satoshi, Mashima Keiichi, Sangawa Mutsuko, Kusachi Shozo, Shiratori Yasushi. Intense response of heart rate with pronounced suppression of high-frequency power of heart rate variability to early morning exercise with high-intensity load // Biomed Pharmacother. – 2002. – №56. – P. 353-358.
16. Баевский Р.М., Иванов Г.Г. Вариабельность сердечного ритма: теоретические аспекты и возможности клинического применения. Ультразвуковая и функциональная диагностика. 2001. №3. С. 108-127.
17. Бережной В.Н., Брыксин В.Н., Талалаев В.А. Устройство для определения психофизиологического состояния человека. Патент на изобретения № 2214166. Зарегистрирован 20.10.2003. Заявка № 2001130178 от 09.11.2001.
18. Еркудов, В.О., Розумбетов, К.У.У., Пуговкин, А.П., Матчанов, А.Т., Есимбетов, А.Т., Кочубеев, А.В., & Рогозин, С.С. (2022). Взаимозависимость строения тела и функциональной реактивности вегетативного тонуса при дыхании с добавочным сопротивлением. Российские биомедицинские исследования, 7(3), 9-20.
19. Розумбетов, К.У., Еркудов, В.О., Пуговкин, А.П., & Матчанов, А.Т. (2021). Корреляции антропометрических признаков и параметров вариабельности кардиоритма в условиях дыхания с повышенным сопротивлением. In Медицинская наука в эру цифровой трансформации (pp. 115-118).
20. Шлык Н.И. Сердечный ритм и тип регуляции у детей, подростков и спортсменов. – Ижевск: Изд-во «Удмуртский университет», 2009. – 259 с.

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ
МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

**№3/1 (112)
2024 й., март**

Ўзбекча матн муҳаррири:

Рўзметов Дилшод

Русча матн муҳаррири:

Ҳасанов Шодлик

Инглизча матн муҳаррири:

Хамраев Нурбек, Ламерс Жон

Мусаҳҳих:

Үрзобоев Абдулла

Техник муҳаррир:

Шомуродов Журъат

“Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси” Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги
Хоразм вилоят бошқармасида рўйхатдан ўтган. Гувоҳнома № 13-023

Теришга берилди: 05.03.2024
Босишга рухсат этилди: 15.03.2024.
Қоғоз бичими: 60x84 1/8. Адади 70.
Ҳажми 11,0 б.т. Буюртма: № 3-Т

Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими
220900, Хива, Марказ-1
Тел/факс: (0 362) 226-20-28
E-mail: mamun-axborotnoma@academy.uz
xma_axborotnomasi@mail.ru



Telegram

(+998) 97-458-28-18